

Mundarija

Kirish	2
Foydalanuvchi uchun qo'llanma	2
Chop etilayotgan vaqtdagi holati	2
Qo'llangan belgilar	2
Avtomobil identifikatsiyasi haqidagi ma'lumoti	3
Avtomobil identifikatsiyasi.....	3
Avtomobil identifikatsiya yorlig'i.....	4
1 Asboblari va boshqaruv panellari	5
Asboblari paneli	6
Asboblari paneli-Rangli displey*	6
Asboblari paneli-Mono displey*	8
Axborot markazi	9
Axborot markazi - Rangli displey*	9
Axborot markazi - Mono displey*	14
Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar	19
Chiroqlar va tugmalar	26
Katta chiroq tugmasi	26
Faralar holatini qo'lda sozlash.....	27
Yo'nalish indikatorini/Katta chiroq tugmasi	28
Tumanga qarshi faralarni ulab-uzgich	29

Mundarija

Xatardan ogohlantiruvchi chiroq	29
Oyna tozalagich va yuvgich	29
Old oyna tozalagich boshqaruvi	29
Orqa oyna tozalagichni ishlatish	31
Rul boshqaruvi tizimi	32
Rul chambaragini sozlash	32
Rul chambaragini elektr kuchaytirgich	32
Signal	33
Orqani ko'rish ko'zgu oynasi	33
Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasi	33
Orqani ko'rish ko'zgu oynasi	35
Quyoshdan himoyalovchi soyaboncha	36
Oynalar	36
Oyna ko'targichining elektr ulab-uzgichi	37
Oyna boshqaruvi	37
Avtomobil tomidagi Lyuk *	39
Yo'riqlar	39
Lyukni boshqarish	39
Kabinaning ichini yoritish	43
Ichki old chiroq	43

Mundarija

Ichki orqa chiroq*	44
Tizma chiroqlar *	44
Elektr rozetka	44
Saqlash vositalari	46
Yo'riqlar.....	46
Qo'lqop quti.....	46
Saqlash qutisi – Haydovchi tomoni	46
Markaziy konsol tirsak qo'ygichidagi quti	47
Yukxona.....	47
Stakandon	48
Markaziy konsoldagi stakandon.....	48
Orqa o'rindiqdagi tirsak qo'ygich va stakandon	48
Tomdagi yuk qo'ygich *	49
Tomga qo'yiladigan yukning maksimal og'irligi.....	49
Davriy tekshirish	49
2 Konditsioner va Audio tizimlari.....	50
Ventilyatsiya.....	51
Konditsioner filtri.....	51
Shamol bergichlar	51
Konditsioner boshqaruv paneli.....	53

Mundarija

Boshqaruv paneli	53
Konditsionerni boshqarishga tez o'tish.....	53
Orqa oynani isitish	53
Oynadagi muzni eritish/G'uborni tozalash	53
Haroratni boshqarish interfeysi*	54
Boshqaruv interfeysi	54
Tizimni Ishlatish/O'chirish.....	54
Sovitishni Ishlatish/O'chirish.....	54
Havo aylanish rejimi.....	54
Haroratni boshqarish	55
Shamol tezligini boshqarish	55
Havo tarqatish rejimi	55
Haroratni avtomatik boshqarish interfeysi *	56
Boshqaruv interfeysi	56
Tizimni Ishlatish/O'chirish.....	56
Sovitishni Ishlatish/O'chirish.....	56
Havo aylanish rejimi.....	56
Harorat zonasini boshqarish	57
Haroratni boshqarish	57
Shamol tezligini boshqarish	57

Mundarija

Avtomatik rejim	57
Havo tarqatish rejimi	57
Multimedia pleyer	58
Xavfsizlikka tegishli muhim ma'lumot.....	58
Ekrandan foydalanganda ehtiyot choralari	59
Boshqa ehtiyot choralari.....	59
Asosiy amaliyotlar.....	60
Blutuzli telefon.....	64
Multimedia	66
Avtomobil bilan Mobil telefonni bir-biriga bog'lash	70
Konditsioner	71
Avtomobil xususiyatlarini sozlash	71
Sozlashlar.....	71
3 O'rindiqlik va cheklagichlar	72
O'rindiqlar.....	73
Umumiy ma'lumot.....	73
Bosh qo'ygich.....	73
Old o'rindiqlar.....	74
Orqa o'rindiqlar	75
Old o'rindiqlik isitish*	76

Mundarija

Xavfsizlik kamarlari	77
Xavfsizlik kamarining himoyalash xususiyati	77
Xavfsizlik kamarini taqish	78
Bolalar va xavfsizlik kamarlari	82
Xavfsizlik kamarini dastlabki tortgich	83
Xavfsizlik kamarini tekshirish, soz saqlash va almashtirish	84
Xavfsizlik yostig'ining qo'shimcha cheklash tizimi	86
Umumiy ma'lumot	86
Xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi	87
Xavfsizlik yostig'i ishlab ketmaydigan holatlar	89
Xavfsizlik yostig'iga texnik xizmat qilish va almashtirish	90
Xavfsizlik yostig'ini tashlab yuborish	91
Bolani ushlab turadigan vositalar	92
Bolani ushlab turadigan vositalardan foydalangandagi muhim xavfsizlik choralari	92
Bolani ushlab turadigan vosita guruhlari	94
Tasdiqlangan bola himoya qilinadigan o'rinlar	96
4 O't oldirish va haydash	101
Kalitlar	102
Umumiy ma'lumot	102
Akkumulyatorni almashtirish	103

Mundarija

Ishlatilgan tugma/tanga ko'rinishidagi batareyalarni tashlab yuborishga tegishli maslahat.....	104
Bolalardan berkitish qulfi	104
O'g'irlashga qarshi tizim.....	105
Elektrdan uzish	105
Kuzovdagi o'g'irlashga qarshi tizim	105
Yukxona eshigini qo'lda ochish *	109
Yukxona eshigini tugma bilan ochish *	109
Yukxona eshigini falokat bo'lganda ochish.....	112
Motorni o't oldirish va o'chirish	113
START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi	113
Motorni o't oldirish.....	114
Motorni o't oldirgandagi ehtiyot choralari	115
Motorni o'chirish	116
Tejamli va atrof muhitni himoya qilib haydash	116
Avtomobilni chiniqtirish.....	116
Atrof muhitni himoya qilish	116
Tejamli haydash va soz saqlash	116
Alohida muhitda avtomobil haydash	117
Katalitik neytralizator va qurum filtri	118
Yoqilg'i tizimi	120

Mundarija

Yoqilg'iga qo'yiladigan talablar.....	120
Yoqilg'i quygich	120
Yoqilg'i quyish	121
Mexanik transmissiya*	122
Qo'shaloq birikkichli sportronik transmissiya*	124
Yo'riqlar.....	124
Tezlikni o'zgartirish dastagi	124
Avtomobilni yurgazish	127
Tepalikda haydash.....	127
Boshqaruv rejimlari	128
Himoya rejimi.....	130
Haydash rejimi*	131
Tormoz tizimi.....	134
Oyoq tormozi	134
Tepadon tushish nazorati (TTN)	139
Blokirovkaga qarshi tormoz tizimi (BQTT).....	141
Ag'darilishdan faol himoya (AFH).....	142
Avariyaiv tormoz berishdan ogohlantirish chiroqlarini boshqarish tizimi (AVF).....	142
Elektron differensial tizimi (EDT).....	143
Elektron qo'l tormoz (EQT).....	143

Mundarija

Shina bosimini kuzatish tizimi (SHBKT).....	145
O'CHIRISH-O'T OLDIRISH intellektual yoqilg'i tejash tizimi	146
Motorni avtomatik o'chirish	146
Motorni avtomatik o't oldirish.....	147
Akkumulyator	148
O'chirish-o't oldirish intellektual yoqilg'i tejash tizimi ishlamay qolishi.....	149
Startyor ishlamay qolishi, Akkumulyator quvvatining jiddiy kamayishi	149
Kruiz Boshqaruv tizimi	150
Kruiz Boshqaruv tizimini ishga tushirish	150
Mo'ljallangan kruiz tezligini sozlash	151
Pauza/Kutish	151
Xulosa	151
Avtomobil qo'yishga yordam berish tizimi	152
Ultratovush sensorli mashina qo'yishga yordam bergich*	152
Mashina qo'yish kamerasi*.....	153
Orqaga haydaganda haydovchiga yordam berish tizimi*	154
Tizim haqida umumiy ma'lumot	154
Tizim funksiyalarini Ishlatish/O'chirish	155
Tizim funksiyalari	155
Og'irlik ko'tarish	158

Mundarija

Yuk qo'yiladigan joy	158
Ichkariga yuk qo'yish.....	159
Umumiy treyler ulash xavfsizligi	159
5 Kutilmagan holatlarga tegishli ma'lumot.....	161
Xatardan ogohlantirish vositalari	162
Ogohlantirish uchburchagi.....	162
Favqulodda holatda o't oldirish	162
Avtomobilni qayta tiklash	164
Qayta tiklash uchun tortib olib ketish	165
Transportga yuklab olib ketish yoki tortib olib ketish	167
G'ildirakni almashtirish	167
Qo'shimcha g'ildirak va asboblarni qutisi	167
G'ildirakni almashtirish	168
Saqlagichlarni almashtirish	170
Saqlagich.....	170
Saqlagich qutisi	170
Lampochkalarni almashtirish	175
Lampalar spetsifikatsiyasi	175
Lampochkalarni almashtirish	175
6 Soz saqlash	179

Mundarija

Soz saqlash	180
Rejali texnik xizmat	180
Kapot	183
Kapotni ochish	183
Kapotni yopish	183
Kapotni ochgandagi ehtiyot choralari	183
Motor bo'lmasi	184
Motor	184
1.5L Turbopuflanadigan motor moyi	184
Motor moyini tekshirish va to'ldirish	185
Motor moyi spetsifikatsiyasi	185
Sovitish tizimi	186
Sovitgichni tekshirish va to'ldirish	186
Sovitgich xususiyati	186
Tormoz	187
Tormoz kolodkalari	187
Tormoz suyuqligini tekshirish va to'ldirish	255
Tormoz suyuqligi xususiyati	188
Akkumulyator	188
Akkumulyatorni soz saqlash	188

Mundarija

Akkumulyator yorlig'i	189
Akkumulyatorni almashtirish	190
Oyna yuvgich	190
Oyna yuviladigan suyuqligini tekshirish va to'ldirish.....	190
Oyna yuvgich purkagichlari.....	191
Oyna yuviladigan suyuqlik spetsifikatsiyasi.....	191
Oyna tozalagich	192
Oyna tozalagich cho'tkalari.....	192
Old oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish	192
Orqa oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish.....	192
Shinalar	194
Umumiy ma'lumot.....	194
Shinani tekshirish.....	195
Shina yemirilganini ko'rsatadigan indikatorlar	196
Shinalarni almashtirish	196
G'ildirak joyini almashtirish.....	197
Shina/Qor zanjiri.....	197
Tozalash va Avtomobilni ehtiyot qilish	198
Tashqarisini tozalash	198
Ichkarini tozalash	201

Mundarija

7 Texnik ma'lumot	203
Texnik ma'lumot ko'rsatkichlari	204
Og'irligi.....	205
Motorning asosiy ko'rsatkichlari	206
Tavsiya qilingan suyuqlik turlari va hajmi	207
To'rtta g'ildirakni tenglashtirish ko'rsatkichlari jadvali (Yuksiz)	208
G'ildirak va shinalar	208
Shina bosimi (Sovuganda).....	208

Muqaddima

Kirish

Foydalanuvchi uchun qo'llanma

Ushbu qo'llanma bitta model qatoridagi barcha standart avtomobil va jihoz xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuning uchun, undagi ba'zi ma'lumot sizning avtomobilingizga qo'llanmasligi mumkin.

Iltimos, esingizda bo'lsin, avtomobilingizdan foydalanish yoki uning xususiyati haqida biror savolingiz bo'lsa MG Vakolatli ta'mirchisi barcha savolingizga batafsil javob beradi.

Foydalanuvchi qo'llanmasidagi suratlar faqat umumiy tushuntirish berish uchun ko'rsatilgan.

Ushbu qo'llanmada berilgan ma'lumot avtomobil konfiguratsiyasi, dasturiy ta'minot versiyasi va avtomobil sotilgan joyga qarab bir oz farq qilishi mumkin.

Chop etilayotgan vaqtdagi holati

MG mahsulot sifatini doim yaxshilab borish siyosatiga amal qiladi, shuning uchun istalgan vaqtda, oldindan xabar bermay mahsulot xususiyatlarini o'zgartirish huquqini saqlab qoladi. Ushbu qo'llanmada chop etilgan ma'lumot aniq bo'lishi uchun imkonni boricha harakat qilingani bilan

Ma'lumot aniq bo'lmagani yoki uning oqibatida yuzaga kelgan yo'qotish uchun, shu jumladan, mulkka zarar yetgani, insonlar jarohat olgani uchun ishlab chiqaruvchi yoki qo'llanmani topshirgan MG Vakolatli ta'mirchisi javob bermaydi, ishlab chiqaruvchi yoki MG Vakolatli ta'mirchisi e'tiborsizligi bois yuzaga kelgan shaxs jarohat olgan hollar bu qoidadan istisno qilinadi.

Qo'llangan belgilar

Qo'llanmada ishlatilgan quyidagi belgilar diqqatingizni ma'lum

axborot turiga qaratish uchun xizmat qiladi.

Ogohlantirish

 Ushbu ogohlantirish belgisi aniq bajarilishi shart bo'lgan yoki inson jarohat olishi, avtomobil jiddiy shikastlanishi xavfini kamaytirish uchun juda ehtiyot bo'lib bajariladigan ishni bildiradi.

Muhim ma'lumot

MUHIM MA'LUMOT

- Ushbu belgi qo'yilgan ma'lumotda aytilganlarga aniq amal qilinmasa avtomobilingiz shikastlanishi mumkin.

Eslatma

Eslatma: Foydali ma'lumot borligini bildiradi.



Ushbu belgi atrof muhitni ehtiyot qilish uchun nomlari keltirilgan qismlarni vakolatli shaxs yoki tashkilot chiqitga tashlashi kerakligini bildiradi.

Yulduzcha

Yozuv ichida keladigan yulduzcha (*) avtomobil egasining o'zi tanlaydigan yoki shu model qatoridagi ba'zi avtomobillarga qo'llanadigan xususiyatlar yoki jihozlarni bildiradi.

Suratdagi ma'lumot



Tushuntirilgan qismlarni ko'rsatadi.




Tushuntirilgan qismlarning harakatini ko'rsatadi.

Muqaddima

Avtomobil identifikatsiyasi haqidagi ma'lumoti

Avtomobil identifikatsiyasi



- 1 Avtomobilning identifikatsiya raqami (AIR)
- 2 Motorning raqami
- 3 Transmissiyaning raqami

MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qilganda, albatta, avtomobilning identifikatsiya raqamini (AIR) ayting.

Agar motor yoki transmissiya bilan bog'liq bo'lsa ushbu jihozlarning identifikatsiya raqamini so'rashlari mumkin.

Avtomobil identifikatsiyalangan o'rinlar

AIR qo'yilgan joy

- Old oyna chap burchagi ostidagi yorliqqa bosib tushirilgan;
- Identifikatsiya yorlig'iga tushirilgan;
- Old yo'lovchi o'rindig'i ostidagi polga yoziladi;
- Yukxona eshigi ochilganda ko'rinib turadigan qilib yukxona eshigining ich qismiga tushirilgan.

Eslatma: Avtomobil DLC raqami akselektor pedalining ustida joylashgan, AIR esa ishlab chiqaruvchining maxsus skaner qiluvchi asbobi bilan o'qiladi.

Motor raqami qo'yilgan joy

Silindr blokining old o'ng tomoniga tushirilgan (motor oldidan qarasa ko'rinadi).

Transmissiya raqami tushirilgan joy

Motor bo'lmasida, transmissiya korpusi yuzasida. Ba'zi modellarning transmissiya raqami faqat avtomobil ko'tarilganda ko'rinadi, iltimos, bu masalada mahalliy Vakolatli ta'mirchiga murojaat qiling.

Muqaddima


Avtomobil identifikatsiya yorlig'i

Avtomobil identifikatsiya yorlig'ida quyidagi ma'lumot yoziladi:

- Model/Turi;
- Motor turi;
- Avtomobilning identifikatsiya raqami (AIR);
- Sana;
- Avtomobilning umumiy og'irligi;
- Treylerli to'liq og'irligi*;
- Old ko'priknig to'liq og'irligi*;
- Orqa ko'priknig to'liq og'irligi*;
- Davlat;
- Ishlab chiqaruvchi;

Avtomobil identifikatsiya yorlig'i qo'yilgan joy

Identifikatsiya yorlig'i o'ng B ustunning pastki qismida joylashgan.




Asboblari va boshqaruv panellari

Asboblari paneli	6
Axborot markazi	9
Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar	20
Chiroqlar va tugmalar	26
Oyna tozalagich va yuvgichlar	29
Rul tizimi	32
Signal	33
Orqani ko'rish ko'zgu oynasi	33
Quyoshdan himoyalovchi soyaboncha	36
Oynalar	36
Lyuk*	39
Kabinaning ichini yoritish	43
Elektr rozetka	44
Saqlash vositalari	46
Stakandon	48
Tomdagi yuk qo'ygich*	49

Asboblar va boshqaruv panellari

Asboblar paneli

Asboblar paneli-Rangli displey*



- 1 Spidometr
- 2 Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar
- 3 Axborot markazi
- 4 Taxometr
- 5 Haydash rejimi
- 6 Motor sovitgich haroratini ko'rsatish asbobi
- 7 Odometr
- 8 Raqamli soat
- 9 Tezlik dastagi displeyi / Elektr tizim rejimi displeyi*
- 10 Harorat
- 11 Bak bo'shaguncha qolgan yo'l
- 12 Yoqilg'ini ko'rsatish asbobi

Spidometr

Avtomobil tezligini km/soatda ko'rsatadi.

Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar

Ushbu bobdagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar" bo'limiga qarang.

Axborot markazi

Ushbu bobdagi "Axborot markazi - Rangli displey*" bo'limiga qarang.

Taxometr

Motor tezligini $\times 1000$ ayl./daq. da ko'rsatadi.

MUHIM MA'LUMOT

- Motor shikastlanmasligi uchun ko'rsatkich taxometrning qizil sohasida ko'p vaqt turmasin.

Haydash rejimi

Ayni damdagi haydash rejimini ko'rsatadi: NORMAL (MEYORIY), SPORT ,

ECO, CUSTOM (IXTIYORIY) va SUPER SPORT.

Batafsil ma'lumot "O't oldirish va haydash" bobidagi "Haydash rejimi" bo'limida berilgan.

Asboblar va boshqaruv panellari

Motor sovitgich haroratini ko'rsatish asbobi

Motor sovitgichining harorati yorishib turadigan raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Odometr

Avtomobil bosib o'tgan umumiy yo'lni ko'rsatadi.

Raqamli soat

Raqamli formatda soat necha bo'lganini ko'rsatadi.

Tezlik dastagi hozir qaysi rejimda ekanini (P,R,N,D,S,1,2,3,4,5,6,7*) yoki quvvat tizimi rejimini ko'rsatadi.
(D,S,E).

Displayda "EP" ko'rinishi avtomatik uzatgichda xato bo'lganini bildiradi. Nosozlikni vaqtida tuzatish uchun, iltimos, mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Quvvat tizimi holati haqida batafsil ma'lumot olish uchun, iltimos, "O't oldirish va haydash" bobidagi "Haydash rejimi*" bo'limiga qarang.

Harorat

Raqamli formatda ayni damdagi atrof haroratini ko'rsatadi.

Bak bo'shaguncha qolgan yo'l

Yoqilg'i baki bo'shaguncha avtomobil qancha yo'l yurishini avtomatik

hisoblab, displayda ko'rsatadi. Bak to'ldirilganidan so'ng bu raqam o'zgaradi.

Yoqilg'ini ko'rsatish asbobi

Bakdagi yoqilg'i miqdori yorishib turadigan raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Bakda yoqilg'i kam qolganida yoqilg'i kam ekanidan ogohlantiradigan chiroq sariq rangda yoki lipillab yonadi va ovoz eshutiladi.

MUHIM MA'LUMOT


- Yoqilg'i kam qolganidan ogohlantiradigan chiroq yonsa, iltimos, imkoni boricha tezroq bakni to'ldiring.



Yoqilg'i kam qolganidan ogohlantiradigan chiroqning chap tomonidagi nayza yoqilg'i quygich avtomobilning chap tomonida ekanini ko'rsatadi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Asboblar paneli - Mono Display*



Spidometr (1-rasm)

Avtomobil tezligini km/soatda ko'rsatadi.

Taxometr (1-rasm)

Motor tezligini $\times 1000$ ayl./daq. da ko'rsatadi.

MUHIM MA'LUMOT

- Motor shikastlanmasligi uchun ko'rsatkich taxometrning qizil sohasida ko'p vaqt turmasin.

Yoqilg'ini ko'rsatish asbobi (1-rasm)

Bakda qolgan yoqilg'i miqdori yorishib turadigan raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Bakda yoqilg'i kam qolganida yoqilg'i kam ekanidan ogohlantiradigan chiroq sariq rangda yoki lipillab yonadi va ovoz eshitaladi.

MUHIM MA'LUMOT

- Yoqilg'i kam qolganidan ogohlantiradigan chiroq yonsa, iltimos, imkoni boricha tezroq bakni to'ldiring.




Yoqilg'ini ko'rsatish asbobining chap tomonidagi nayza yoqilg'i quygich avtomobilning chap tomonida ekanini ko'rsatadi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Axborot markazi

Axborot markazi - Rangli display *

Axborot markazi quyidagilarni ko'rsatadi:



- 1 Sozlash
- 2 Ogohlantiradigan ma'lumot
- 3 Yo'l kompyuteri

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON (YOQILGAN) tomonda turganda displayda ko'rinadigan avtomobil haqidagi ma'lumotni quyidagicha tanlash mumkin:

- Rul chambaragining o'ng tomonidagi LEFT/RIGHT/UP/DOWN (CHAPGA/O'NGGA/YUQORIGA/PASTGA) tugmasini bosib display ko'rsatadigan ma'lumotga o'ting.
- Rul chambaragining o'ng tomonidagi UP/DOWN (YUQORIGA/PASTGA) tugmasini bosib, o'zingiz istagandek qilib sozlab qo'ying.

- Rul chambaragining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosib, shuni tasdiqlang, OK tugmasini ko'proq bosib tursangiz qayta yuklanadi.



Asboblar va boshqaruv panellari

Sozlash

Yorishish darajasi

Ayni damdagi yorishish darajasini o'zingiz istagandek qilib sozlab qo'ying.

Optimal tezlik chegarasi*

Sozlab qo'yilishi mumkin bo'lgan tezlik chegarasini ko'rsatadi.

Navbatdagi texnik xizmat

Avtomobilga ko'rsatiladigan navbatdagi texnik xizmat haqidagi ma'lumotni chiqaradi.

Ogohlantiradigan ma'lumot

Avtomobil haqidagi ogohlantiradigan ma'lumotni yoki muhim eslatmalarni ko'rsatadi.

Yo'l kompyuteri

Quyidagi ma'lumot ko'rsatiladi:

- Oraliq yoqilg'i sarfi: oxirgi 50 km yo'lga sarflangan yoqilg'i egri chizig'ini ko'rsatadi.
- Hozirgi safar: avtomobil o't olgandan buyon o'tgan masofa, vaqt, o'rtacha tezlik va o'rtacha yoqilg'i sarfini ko'rsatadi. Elektr uzilganidan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, bu ko'rsatkichlar o'chib, nolga tushadi. Ko'p funksiyali rul chamberaging o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq vaqt bosib ham bu ko'rsatkichlarni nolga tushirish mumkin.

- Umumiy ja'mi: nolga tushirilganidan so'ng o'tgan yo'l, vaqt, o'rtacha tezlik va o'rtacha yoqilg'i sarfini ko'rsatadi. Ko'p funksiyali rul chamberagi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq vaqt bosib ham bu ko'rsatkichlarni nolga tushirish mumkin.
- TPMS Monitor (Shina ichidagi bosim): +Hozir shina ichidagi bosim qandayligini ko'rsatadi.
- 12 V Akkumulyator kuchlanishi: 12 V Akkumulyator kuchlanishini ko'rsatadi.

Ogohlantirish xabari

Ogohlantiradigan xabar va maslahatlar asboblar paneli o'rtasidagi axborot markazida ko'rsatiladi. Displayda yuzaga chiqib ko'rinadigan va haydovchiga ma'lumot beradigan har bitta xabar quyidagi toifalarga bo'linadi:

- Ishlatishga tegishli yo'riq
- Tizimning holati haqidagi yo'riq
- Tizim nosozligi haqidagi xabar

Iltimos, displayda yuzaga chiqib ko'rinadigan yoki ogohlantiradigan xabarlarda aytilgan yo'riqlarga aniq amal qiling. Iltimos, foydalanuvchi qo'llanmasining tegishli bo'limida aytilgan yo'riqqa amal qilib harakat qiling.

Xabar beradigan Axborot markazida quyidagi ogohlantirish xabarlari ko'rinishi mumkin:

Asboblar va boshqaruv panellari

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Kruiz boshqaruv nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Kruiz boshqaruv tizimi nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Motor sovutgichining harorati baland	Motor sovutgichining harorati oshib ketsa motor jiddiy shikastlanishi mumkin. Xavfsizlik imkon berishiga qarab avtomobilni imkoni boricha tez to'xtating, motorni o'chiring va zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Motorni tekshiring. Qo'llanmaga qarang.	Motorning ishlashiga jiddiy ta'sir qiladigan nosozlik borligini ko'rsatadi, xavfsizlik imkon berishiga qarab avtomobilni imkoni boricha tez to'xtating, motorni o'chiring va zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Motor nosoz Qo'llanmaga qarang	Motor ishlashi va havoga tutun chiqishiga ta'sir qiladigan nosozlik borligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
12V Akkumulyatorni quvvatlash tizimi ishlamayapti	12V past voltli akkumulyatorni quvvatlash tizimi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Moy bosimi past. Qo'llanmaga qarang.	Moy bosimi juda pasayib ketganini ko'rsatadi, moy bosimi past bo'lsa motor jiddiy shikastlanishi mumkin. Avtomobilni imkoni boricha tez xavfsiz joyda to'xtating, motorni o'chiring, moy sathini tekshirib ko'ring va mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
O't oldirish O'chirish tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	O'T OLDIRISH/O'CHIRISH intellektual yoqilg'i tejash tizimi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
4WD Tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Hamma g'ildirak tizimi (AWD) nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
O't oldirish tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Elektr tizimida nosozlik borligini ko'rsatadi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
O't oldirish/ O'chirish tugmasi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi nosozligini bildiradi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Passiv kirish ishlamayapti	Kalitsiz kirish nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG

Asboblar va boshqaruv panellari

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Qo'llanmaga qarang	Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
ABS nosoz. Qo'llanmaga qarang.	ABS tizimi nosoz va tormoz blokirovkasiga qarshi mexanizm nosozligini bildiradi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Tormoz nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Tormoz tizimi nosozligini, masalan, tormoz suyuqligi yo'qligini, tormoz kuchini elektron taqsimlagich nosozligini bildiradi. Avtomobilni imkoni boricha tez xavfsiz joyda to'xtating, motorni o'chiring, tormoz suyuqligi sathini tekshiring va zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Barqarorlik nazorati nosoz. Qo'llanmaga qarang.	SCS (Barqarorlik nazorat tizimi) nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
EQT tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Elektron qo'l tormozi nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Qo'l tormozining kuchi kamlik qilayпти.	Mashina qo'yilayotganda EQT nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Avtomatik ushlab turish nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Avtomatik ushlab turish funksiyasi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Tepalikdan tushishni nazorat qilish nosoz. Qo'llanmani o'qing.	TTN nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
ERK ishlash kuchi kamaygan	Rulni elektrik kuchaytirish tizimida umumiy nosozlik borligini va rulning ishlash kuchi kamayganini bildiradi. Xavfsizlik imkon beradigan darajada tez avtomobilni to'xtating va avtomobil elektrik tizimini OFF (O'CHGAN) tomonga o'tkazib qo'ying. Bir ozdan so'ng avtomobil elektrik tizimini ON (ISHLAYPTI) tomonga o'tkazing, avtomobilni yaqinroq masofaga haydang va rulning ishlashiga qarab turing. Agar xabar shunda ham ko'rinish tursa va rul aylanishini kuchaytirish kamaygan bo'lsa, zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
ERK nosoz Qo'llanmaga qarang	Rul chamberagini elektrik kuchaytirish tizimi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.


Asboblar va boshqaruv panellari

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Burish burchagi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Burish burchagi sensori nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Burish burchagi kalibrlanmagan. Qo'llanmaga qarang.	Burish burchagi sensori kalibrlanmaganini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
ESCL (Rulni elektrik kuchaytirish ustuni qulfi) nosoz. Qo'llanmaga qarang	ESCL (Rulni elektrik kuchaytirish ustuni qulfi) tizimi ishlamayotganini bildiradi. Xavfsizlik imkon berishiga qarab avtomobilni imkoni boricha tez to'xtating, motorni o'chiring va zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Vakuum tizimi nosoz	Vakuum tizimi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Yoqilg'i sensori nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Yoqilg'i sensori nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Xavfsizlik yostig'i nosoz.. Qo'llanmaga qarang	QCHT (Qo'shimcha cheklash tizimi) nosozligini ko'rsatadi, imkoni boricha tez avtomobilni to'xtating, motorni o'chiring va mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Ogohlantirish xabari	Tartib tamoyil
Yukxona eshigini avtomatik ochish tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Yukxona eshigini avtomatik ochish tizimi nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
TPMS (SHBKT) nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Shina bosimini kuzatish tizimi (SHBKT) nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Old chap/Oldingi o'ng/Orqadagi chap/Orqadagi o'ng shina sensori batareyasi kamaygan	SHBKT sensori batareyasi kamayganini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Mashina qo'yishga yordam berish tizimi nosoz. Qo'llanmaga qarang.	Mashina qo'yishga yordam berish tizimi nosozligini ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
Orqaga haydashga yordam berish tizimi nosoz	Orqaga haydaganda yordam berish tizimi (OHYOT) nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Asboblar va boshqaruv panellari

Axborot markazi - Mono display *



Axborot markazi quyidagilarni ko'rsatadi:

- 1 Raqamli soat
- 2 Harorat
- 3 Avtomobil haqidagi axborot displeyi
- 4 Odometr/Navbatdagi texnik xizmat vaqti
- 5 Tezlik dastagi displeyi *

Raqamli soat

Raqamli formatda soat necha bo'lganini ko'rsatadi.

Harorat

Raqamli formatda ayni damdagi atrof haroratini ko'rsatadi.

Odometr

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON (ISHLAYAPTI) tomonda turganida avtomobil bosib o'tgan umumiy masofani ko'rsatadi.

Navbatdagi texnik xizmat

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON (ISHLAYAPTI) tomonda turganida odometr sohasi har 5 sekunda xizmat qilishga qancha qolganini ko'rsatadi, keyingi xizmatgacha qolgan masofa o'tilganidan so'ng texnik xizmat qilinishi kerak.

Tezlik dastagi displeyi *

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON (ISHLAYAPTI) tomonda turganida tezlik dastagi hozir avtomatik transmissiyaning qaysi holatida turganini ko'rsatadi (P, R, N, D, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 *, S). "EP" ko'rinishi avtomatik transmissiya nosozligini bildiradi.

Avtomobil haqidagi axborot displeyi





Xabar displeyida quyidagi ma'lumot ko'rinadi:

- 1 Ogohlantiradigan ma'lumot
- 2 Yo'l kompyuteri
- 3 Sozlash

Asboblar va boshqaruv panellari

Ogohlantiradigan ma'lumot

Quyidagi ogohlantirish belgilari ma'lumot markazi displeyida ogohlantirish chirog'i yonmasdan ko'rinadi.

-  Hamma eshikni, kapotni va yukxona eshigini yopish kerakligini ko'rsatadi.
-  Tezlik kamaytirilishi kerakligini ko'rsatadi.
-  Rul chambaragini chap tomonga sozlash kerakligini ko'rsatadi.
-  Rul chambaragini o'ng tomonga sozlash kerakligini ko'rsatadi.

Yo'l kompyuteri

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON (ISHLAYAPTI) tomonda turganda safar kompyuteridagi ma'lumotni quyidagicha tanlash mumkin:

Rul chambarak o'ng tomonidagi tugmalar

- Safar kompyuteri displeyida ko'ringan birliklarni o'tkazish uchun rul chambaragi o'ng tomonidagi LEFT/RIGHT (CHAP/O'NG) tugmasini bosib.
- Sozlash uchun esa rul chambaragi o'ng tomonidagi UP/DOWN (PASTGA/YUQORIGA) tugmasini bosib.

- Rul chambaragining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosib, shuni tasdiqlang, OK tugmasini ko'proq bosib tursangiz qayta yuklanadi.



Safar kompyuterida quyidagi ma'lumot ko'rinadi:

- 1-safar
- 1-haydash vaqti
- 1-o'rtacha tezlik
- 1-o'rtacha yoqilg'i sarfi
- 2-safar
- 2-haydash vaqti
- 2-o'rtacha tezlik
- 2-o'rtacha yoqilg'i sarfi
- 9 Bak bo'shaguncha qolgan yo'l
- 10 Ayni damdagi yoqilg'i sarfi

Asboblar va boshqaruv panellari

1-safar



Ayni damdagi safar vaqtida bosib o'tilgan yo'l ko'rsatiladi. Elektr o'chganidan so'ng raqamlar avtomatik o'chadi yoki rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib turib ham raqamlarni nolga tushirish mumkin.

Eslatma: 1-safar, 1-haydash vaqti, 1-o'rtacha tezlik, 1-o'rtacha yoqilg'i sarfidan birortasi nolga tushirilsa, qolgan birliklar ham nolga tushadi.

1-haydash vaqti




Ayni damdagi safarga qancha vaqt sarflanganini ko'rsatadi. Elektr o'chganidan so'ng raqamlar avtomatik o'chadi yoki rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib turib ham raqamlarni nolga tushirish mumkin.

1-o'rtacha tezlik



Hozir haydab ketayotganda avtomobilning o'rtacha tezligini ko'rsatadi. Elektr o'chganidan so'ng raqamlar avtomatik o'chadi yoki rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib turib ham raqamlarni nolga tushirish mumkin.

1-o'rtacha yoqilg'i sarfi



Hozir haydab ketayotganda avtomobilning o'rtacha yoqilg'i sarfini ko'rsatadi. Elektr o'chganidan so'ng raqamlar avtomatik o'chadi yoki rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib turib ham raqamlarni nolga tushirish mumkin.

Asboblar va boshqaruv panellari

Eslatma: O'rtacha yoqilg'i sarfi haydash usuli, yo'lning ahvoli, yukning og'irligi, shinalarning bosimi, avtomatik elektr jihozlar quvvati, moyning sifati va bir qancha boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

2-safar

Oxirgi marta raqamlar nolga tushirilganidan so'ng avtomobil qancha yo'l yurganini ko'rsatadi. Uni rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib nolga tushirish mumkin.

2-haydash vaqti

Oxirgi marta raqamlar nolga tushirilganidan so'ng avtomobil yo'l yurgan vaqtini ko'rsatadi. Uni rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib nolga tushirish mumkin.

2-o'rtacha tezlik

Oxirgi marta nolga tushganidan so'ng avtomobil yurgan o'rtacha tezlikni ko'rsatadi. Uni rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib nolga tushirish mumkin.

2-o'rtacha yoqilg'i sarfi

Oxirgi marta nolga tushganidan so'ng avtomobil o'rtacha qancha yoqilg'i sarflaganni ko'rsatadi. Uni rul chambaragi o'ng tomonidagi OK tugmasini ko'proq bosib nolga tushirish mumkin.

Eslatma: O'rtacha yoqilg'i sarfi haydash usuli, yo'lning ahvoli, yukning og'irligi, shinalarning bosimi, avtomatik elektr jihozlar


quvvati, moyning sifati va bir qancha boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Bak bo'shaguncha qolgan yo'l



Bu funksiya yoqilg'i baki bo'shaguncha avtomobil qancha yo'l yurishini avtomatik hisoblab chiqarib, ko'rsatadi, bak to'lganidan so'ng qolgan masofa o'zgaradi.

Ayni damdagi yoqilg'i sarfi



Motor ishlab turganida ayni damdagi yoqilg'i sarfini ko'rsatadi. Avtomobil tezligi soatiga 5 km dan kam bo'lganda yoqilg'i sarfi L/soatda ko'rsatiladi, soatiga 5 km dan ko'p bo'lganda esa L/100 km da ko'rsatiladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Sozlash

Safar kompyuteridagi ma'lumot interfeysidan quyidagi interfeyslarga kirish uchun rul chamberagining o'ng tomonidagi "LEFT/RIGHT" (CHAP/O'NG) tugmasini bosib.




Displaydagi bu interfeysda "Sozlash" holatiga o'tish uchun rul chamberagining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosib.

Quyidagi sozlashlarning birini tanlash mumkin:

- Yorishish darajasi
- Tezlik chegarasi haqidagi signalni sozlash*
- Shina bosimini kuzatish
- ECO rejimi
- Chiqish

Yorishish darajasi



Yorishish darajasini sozlash interfeysida rul chamberagining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosib tushib turadigan yorug'lik darajasini sozlab qo'ying. Yorishishni 3 xil o'zgartirish mumkin.

Eslatma: Yon chiroqlar yonib turganda yorishishni sozlash mumkin.

Tezlik chegarasi haqidagi signalni sozlash*



Tezlik chegarasi haqidagi signalni sozlash uchun rul chamberagining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosib, raqam o'chib-yonib turganda tezlik chegarasini belgilab qo'yish mumkin. Avtomobil tezligi belgilab qo'yilgan tezlikdan oshganda tezlik ko'rsatkichi o'chib, yonadi va ovozli signal eshitaladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Shina bosimini kuzatish



Shina bosimini kuzatish interfeysida shina bosimi ko'rinishi uchun rul chambaragining o'ng tomonidagi OK tugmasini bir marta qisqa bosing. To'rtta shinaning bosimi ket-ket ko'rinishi uchun rul chambaragining o'ng tomonidagi LEFT/RIGHT (O'NG/CHAP) tugmasini bir marta bosing.

Chiqish



Bu interfeysda sozlash interfeysidan chiqish uchun rul chambaragining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosing

ECO rejimi



ECO rejimini sozlash interfeysida EKO rejimini sozlash uchun rul chambaragining o'ng tomonidagi OK tugmasini bosing.

Asboblar va boshqaruv panellari

Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar

Ba'zi ogohlantirish chiroqlari yonganda yoki o'chib, yonganda ogohlantirish ovozi ham eshitaladi. Ba'zi ogohlantirish chiroqlari yonganda asboblar panelidagi ma'lumot markazida qisqa vaqtli ogohlantirish belgisi ko'rinib, ogohlantiradigan xabar chiqadi.

Uzoqni yoritadigan fara indikator - Ko'k



Uzoqni yoritadigan fara yo'qib qo'yilganda bu chiroq yorishib turadi.

Yaqinni yoritadigan fara indikator - Yashil



Yaqinni yoritadigan fara yoqib qo'yilganda bu chiroq yorishib turadi.

Yon chiroq indikator - Yashil



Yon chiroqlar yonganda bu indikator yorishadi are on.

Tumanga qarshi orqa faralar indikator - Sariq



Tumanga qarshi orqa faralar yoqib qo'yilganda shu indikator yorishadi.

Yo'nalish indikator - Yashil



Chap va o'ng yo'nalish ko'rsatgich chiroqlar asboblar paneli yuqorisidagi yo'nalish nayzalari bilan berilgan. Buriilish

chirog'i o'chib yonganda tegishli tomondagi yo'nalishni ko'rsatadigan chiroq ham o'chib, yonadi. Xatardan ogohlantiradigan chiroqlar yonganda ikkala tomonni ko'rsatadigan yo'nalish chiroqlar ham birga o'chib, yonadi. Asboblar panelidagi yo'nalish chiroqlarining birortasi tez-tez o'chib, yonishi shu tomondagi burilish chirog'i nosozligini bildiradi.

Eslatma: Yon tomondagi o'chib yonadigan chiroq nosozligi yo'nalishni ko'rsatadigan chiroq o'chib, yonadigan tezlikka ta'sir qilmaydi.

ECO rejimida haydash indikator – Yashil*



ECO rejimida haydash ON (ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qo'yilsa, avtomobil ECO rejimiga o'tadi va shu chiroq yonadi. Agar ECO rejimida haydash OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilsa, yoki avtomobil ECO rejimida bo'lmasa bu chiroq yonmaydi.

Kruiz boshqaruv indikator - Yashil/Sariq



Agar Kruiz ON (ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qo'yilgan bo'lsa Kruiz boshqaruv tizimi Kutish holatiga o'tadi va indikator chiroq sariq bo'lib yonadi.

Kruiz boshqaruv tizimi ishga tushganda bu indikator chiroq yashil yonib, Kruiz boshqaruv tizimi ishga tushganini bildiradi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Kruiz boshqaruv tizimida biror nosozlik bo'lsa indikator chiroq sariq rangda o'chib-yonadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Motor sovutgichi harorati haqida ogohlantirish - Qizil



Motor sovutgichi harorati haqida ogohlantiradigan chiroq qizil yonishi sovutgich harorati oshib ketganini bildiradi. Motor sovutgichi harorati davomiy baland bo'lsa oshib ketsa motor sovutgichi harorati haqida ogohlantiradigan chiroq o'chib-yonadi.

Motor sovutgichining harorati oshib ketsa, motor jiddiy shikastlanishi mumkin. Avtomobilni imkoni boricha tez xavfsiz joyda to'xtating, motorni o'chiring va zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Motorni tekshiring/Elektronik ogohlantirish - Sariq



Haydab ketayotganda motor ishlashiga ta'sir qiladigan biror motor nosozligi bo'lsa, shu chiroq yonadi. Avtomobilni imkoni boricha tez xavfsiz joyda to'xtating, motorni o'chiring va zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Motor chiqaradigan gaz bilan bog'liq nosozlik haqida ogohlantirish - Sariq



Avtomobil o't olganidan so'ng motor ishlashiga va u chiqadigan gazga ta'sir qiladigan biror motor nosozligi bo'lsa shu chiroq yonadi. Iltimos, imkoni boricha tez

mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Generator nosozligi haqida ogohlantirish - Qizil



Avtomobil o't olganidan so'ng bu chiroq yonishi 12V akkumulyatorni quvvatlash tizimi nosoz ekanini bildiradi. Iltimos, tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Akkumulyator quvvati kam qolganda (asboblar paneli mono displeyidagi) indikator chiroq o'chib-yonadi; (asboblar paneli rangli displeyidagi) Axborot markazida shuni bildiradigan xabar chiqadi. Shunday bo'lganda tizim ba'zi elektr vositalarga boradigan quvvatni kamaytiradi yoki o'chirib qo'yadi, iltimos, akkumulyatorni quvvatlash uchun avtomobilni o't oldiring.

Moy bosimi kamayib ketgani haqida ogohlantirish - Qizil



Avtomobil o't olganidan so'ng bu chiroq o'chib-yonishi moy bosimi kamayib ketgani va shu bois motor jiddiy shikastlanishi mumkinligini bildiradi. Imkoni boricha tez avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating va ZUDLIK BILAN MOTORNI O'CHIRING.

Moy sathini o'lchang ("Texnik xizmat" bobidagi "Motor moyi sathini o'lchash" bo'limiga qarang). Zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Asboblar va boshqaruv panellari

STOP-START (O'T OLDIRISH-O'CHIRISH) intellektual yoqilg'i tejash tizimining holati indikatorini - Yashil



STOP-START (O'T OLDIRISH-O'CHIRISH) intellektual yoqilg'i tejash tizimi ishlatib qo'yilgan bo'lsa, bu chiroq yonib haydovchini motorni tizim boshqarayotgandan xabardor qiladi.

STOP-START (O'T OLDIRISH-O'CHIRISH) intellektual yoqilg'i tejash tizimi nosozligidan ogohlantiradigan chiroq - Sariq



STOP-START (O'T OLDIRISH-O'CHIRISH) intellektual yoqilg'i tejash tizimi nosoz bo'lsa shu chiroq yonadi. Iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Elektr rul kuchaytirgich (ERK)/Rul chamberagi kolonkasi elektr qulfi (RKEQ) haqida ogohlantirish - Qizil/Sariq



Bu ogohlantirish chiroqi rul chamberagi elektr kuchaytirgich yoki rul chamberagi kolonkasi elektr qulfi nosozligini bildiradi.

Bu chiroq sariq yonishi rul chamberagi elektr kuchaytirgichi burilish burchagiga tegishli bo'lmagan umumiy nosozlik borligini va uning ishlashi yomonlashganini bildiradi. Iltimos, avtomobilni imkoni boricha tez xavfsiz joyda to'xtating. Avtomobilni qayta o't oldirib bir oz haydagandan keyin ham bu chiroq yonib turgan bo'lsa, iltimos, zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Chiroq qizil bo'lib yonishi rul chamberagi elektr kuchaytirgichida burilish burchagiga tegishli bo'lmagan umumiy nosozlik borligini

ko'rsatadi. Iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Bu chiroq qizil yorishib, o'chib-yonib turishi rul chamberagi elektr kuchaytirish tizimi jiddiy shikastlanganini bildiradi. Iltimos, zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Chiroq sariq yorishib, o'chib-yonib turishi va ovozli signal eshutilishi rul chamberagining elektr qulfi nosoz ekanini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Bir qancha vaqt o'chib-yonganidan so'ng, bu chiroq o'chib qolishi rul chamberagi qulflanib qolganini bildiradi, iltimos, rul chamberagini burib ko'ring.

Shina bosimini kuzatish tizimining (SHBKT) ogohlantirishi - Sariq



Ogohlantiradigan chiroq yonishi shina bosimi kamayib ketganini bildiradi, iltimos, shina bosimini tekshirib ko'ring.

Bu chiroq oldin bir oz vaqt o'chib-yonib, so'ng o'chmasdan yonib turishi tizim nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Asboblar va boshqaruv panellari

TBQ tizimi yaxshi ishlamayotgani haqida ogohlantiradigan chiroq - Sariq



Bu chiroq Tormoz blokirovkasiga qarshi tizim (TBQ) nosozligini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Avtomobil haydab ketayotganda TBQ tizim ishlamay qolsa ham oddiy tormoz har doimgidek ishlayveradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Tepalikdan tushishni nazorat qilish (TTN) ON (ISHLAYPTI)/Nosozlik haqida ogohlantirish - Yashil / Sariq



TTN tugmasi bosib qo'yilganda bu chiroq TTN tugmasini yana bir marta bosib, chiroq o'chib TTN tizimining ishlashi o'chirilganini bildiradi.

Agar TTNga tegishli birorta tizim nosoz bo'lsa, bu chiroq sariq yonadi. Iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Bu chiroq sariq rangda o'chib-yonib turishi tormoz tizimi qizib ketganini va TTN tizimi nosozligini bildiradi.

Barqarorlik nazorati / Tortishni nazorat qilish tizimi haqida ogohlantirish - Sariq



Bu chiroq yonishi tizim nosozligini bildiradi. Iltimos, zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Haydab ketayotganda bu chiroq o'chib-yonishi tizim ishlayotgani va avtomobil haydashga yordam berayotganini bildiradi.

Yashil yonishi TTN tizimi Kutish holatiga o'tganini bildiradi. Yashil yonib turgan chiroq o'chib-yonishni boshlasa, tizim hozir TTN nazoratiga o'tganini bildiradi.

Barqarorlik nazorati/Tortishni nazorat qilish tizimi OFF (O'CHIRILGAN) tomonga turganda ogohlantirish chirog'i - Sariq



Agar Barqarorlik nazorati/Tortishni nazorat qilish tizimi qo'lda OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilsa shu ogohlantirish chirog'i yonadi.

Tormoz tizimi nosozligidan ogohlantiradigan chiroq - Qizil



Bu chiroq yonishi tormoz tizimi nosozligini, masalan, tormoz suyuqligi yo'qligini yoki tormoz kuchini elektron taqsimlash nosozligini bildiradi.

Iltimos, shunday bo'lganda imkoni boricha tez avtomobilni xavfsiz joyda to'xtatib, motorni o'chirib, tormoz suyuqligi sathini o'lchang ("Texnik xizmat qilish" bobidagi "Tormoz suyuqligini tekshirish va to'ldirish" bo'limiga qarang) va zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Asboblar va boshqaruv panellari

Xavfsizlik kamari taqilmagani haqida ogohlantirish - Qizil



Bu chiroq qizil yonib haydovchining yoki yo'lovchining* xavfsizlik kamari taqilmaganini ko'rsatadi.

Xavfsizlik yostig'i haqida ogohlantirish chirog'i - Qizil



Bu chiroq QCHT nosozligi yoki xavfsizlik kamari nosoz ekanini bildiradi. Shunday bo'lganda, iltimos, imkoni boricha tez avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating, motorni o'chiring va imkoni boricha tezroq tuzattirish uchun zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Shunday qilmasa QCHT yoki xavfsizlik kamari biror tasodif sabab to'qnashuv bo'lganda ishlab ketmasligi mumkin.

O'g'irlashga qarshi tizim haqida ogohlantirish - Qizil



Agar to'g'ri keladigan kalit topilmasa, bu chiroq qizil yonadi, iltimos, to'g'ri keladigan kalitdan foydalaning yoki markaziy konsol stakandoni ostiga smart (aqlli) kalit qo'ying. Boshqa joyga qo'yimoqchi bo'lsangiz, iltimos, "O't oldirish va haydash" bobidagi "Motorni o't oldirish" bo'limidagi "O't oldirishning boshqa usullari" qismiga qarang.

Agar masofadan ochadigan kalit batareyasi kam bo'lsa, bu chiroq o'chib-yonib, ovoqli signal eshutiladi. Iltimos, shunday bo'lganda imkon qadar tezroq batareyani almashtiring.

Tezlik oshib ketgani haqida ogohlantirish chirog'i - Qizil*



Avtomobilning hozirgi tezligi asboblar panelida belgilab qo'yilgan tezlik chegarasidan oshib ketsa, haydovchiga

tezlik oshib ketganini eslatish uchun bu chiroq yonadi va yonib-o'cha boshlaydi. "NNN" hozirgi tezlik chegarasini ko'rsatadi.

Elektron qo'l tormozi (EQT)/Avtomatik ushlab turish holati indikator - Qizil/Yashil



Bu chiroq qizil yonishi EQT tizimi ishlayotganini bildiradi. Bu chiroq qizil yonib-o'chishi EQT tizimi nosoz ekanini bildiradi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Avtomatik ushlab turish tizimi haydovchiga yordam berish uchun ishlab turganda bu chiroq yashil yonadi.

Elektron qo'l tormoz (EQT) tizimi nosozligi haqida ogohlantiradigan chiroq - Sariq



Elektron qo'l tormoz tizimi nosoz ekani ma'lum bo'lsa, yoki tizim diagnostika qilinayotganda shu chiroq yonib turadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Elektron qo'l tormoz tizimini kalibrlash boshlanmagan bo'lsa, shu chiroq yonadi. To'liq ma'lumot olish uchun "O't oldirish va haydash" bobidagi "Elektron qo'l tormozi" (EQT) bobida yozilganlarga qarang.

Asboblar va boshqaruv panellari

Yoqilg'i kamligidan ogohlantiradigan chiroq - Sariq



Yoqilg'i bakida yoqilg'i kam qolganida ogohlantiradigan chiroq sariq yonadi. Agar imkoni bo'lsa, iltimos, yoqilg'i kam qolganini ko'rsatadigan chiroq yonishidan oldin bakni to'ldiring.

Yoqilg'i yana ham kam qolganida bu chiroq o'chib-yona boshlaydi. Bakka yoqilg'i quyilib yoqilg'i sathi ogohlantirish darajasidan baland bo'lsa, bu chiroq o'chadi. Agar bak to'ldirilmasa, o'chmaydi, iltimos, xizmat qilishlari uchun zudlik bilan mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Eslatma: Tepalikka ko'tarilayotganda yoki yo'l notekis bo'lsa, yoqilg'i kam bo'lsa, ogohlantirish chirog'i yonishi mumkin.

Transmissiya qizib ketgani haqida ogohlantirish - Sariq/Qizil



Transmissiya qizib ketganda bu chiroq sariq yonadi, iltimos, imkoni boricha avtomobil tezligini 20 km soatga tushiring yoki avtomobilni xavfsiz joyga qo'ying, so'ng dastakni P tomonga o'tkazib transmissiyani sovutning.

Transmissiya jiddiy qizib ketgan bo'lsa, bu chiroq qizil yonadi, iltimos, avtomobilni xavfsiz joyga qo'ying, so'ng dastakni P tomonga o'tkazib transmissiyani sovutning. Transmissiya harorati tushib chiroq o'chganidan keyingina avtomobilni haydash mumkin bo'ladi.

Agar haydovchi yuqorida aytilgandek qilib, avtomobilni

soatiga 20 km tezlikda haydagani bilan chiroq o'chmasa, iltimos, mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling, aks holda transmissiya jiddiy shikastlanishi mumkin.

Tizim nosozligi xaqidagi xabarlar indikatori - Sariq*



Bu indikator haydovchiga avtomobil ogohlantirayotgani haqida xabar beradi. Bunday nosozliklar haqida ma'lumot olish uchun, iltimos, "Axborot markazi" bo'limiga qarang.

Orqaga haydashga yordam berish tizimi indikatori - Sariq*



Orqaga haydaganda yordam berish tizimi o'chirib qo'yilsa, bu chiroq yonib, ekranda xabar ko'rinadi.

Orqaga haydaganga yordam berish tizimi sensori berkilib qolsa, bu chiroq yonib, ekranda xabar ko'rinadi.


Orqaga haydaganga yordam berish tizimi nosoz bo'lsa, bu chiroq yonib, ekranda xabar ko'rinadi. Iltimos, imkoni boricha tez mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

To'liq ma'lumot olish uchun "O't oldirish va haydash" bobidagi "Orqaga haydashga yordam berish tizimi*" bo'limiga qarang.

Asboblari va boshqaruv panellari

Chiroqlar va tugmalar

Katta chiroq tugmasi



- 1 AVTO yoritish
- 2 Yon chiroq va orqa chiroqni yoqish
- 3 Old faralar
- 4 O'chirish

AVTO yoritish

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ACC tomonda turganda avtomatik yoritish tizimi ON (YOQILGAN) holatda (1) bo'ladi. Atrofdagi yorug'lik

darajasiga qarab AVTO yoritish tizimi yon chiroqlarni avtomatik ravishda ON (YOQILSH) va OFF (O'CHIRISH) tomonga o'tkazib qo'yadi.

O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda bo'lganida atrofdagi yorug'lik darajasiga qarab AVTO yoritish tizimi yon chiroqlarni yoqadi, asboblarni yoritadi va yaqinni yoritadigan old faralarni yoqadi yoki o'chiradi.

Eslatma: Tizimning bu funksiyasida ishlatiladigan yorug'lik sensori atrofdagi yorug'lik darajasini kuzatib boradi. Ba'zi modellarda bu sensor asboblari panelining qarshisiga, old oyna yaqiniga o'rnatilgan bo'ladi. Bu joyni berkitmang yoki yopib qo'ymang. Bu maslahatga amal qilinmasa, old faralar zarur bo'lmasa ham yoqilishi mumkin.

Yon chiroq va orqa chiroqni yoqish

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ACC tomonda turganda katta chiroq tugmasi 2 tomonga o'tkazib qo'yilsa, yon chiroqlar yonadi va panel yorishadi. When the

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda katta chiroq tugmasi 2 tomonga o'tkazib qo'yilsa, kunduzi yonadigan chiroqlar, orqadagi yon chiroq yonadi va panel yorishadi. START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi OFF (O'CHIRILGAN) tomonda, turganda yon chiroqlar yoqib qo'yilgan bo'lsa, haydovchining eshigi ochilganda ovoz eshitiladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Old faralar

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON/RUNNING (YO'QILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda katta chiroq tugmasini 3 tomonga burab, yaqinni yoritadigan faralarni, yon chiroqlarni va orqa chiroqlarni yoqasiz.

Chiroqlarni o'chirish

Katta chiroq tugmasini 4 tomonga o'tkazib qo'ying, shunda barcha chiroqlar o'chadi, tugma qo'yib yuborilsa, u AVTOMATIK yoqish holatiga qaytadi.

Kunduzi yonadigan chiroqlar

Kunduzi yonadigan chiroqlar START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi ON/RUNNING (YO'QILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda avtomatik yonadi. Yaqinni yoritadigan faralar yoqilganda kunduzi yonadigan chiroqlar avtomatik o'chadi.

Salomlashish chirog'i

Avtomobilning qulfi ochilganda bu tizim avtomatik ishga tushib yaqinni yoritadigan faralar, yon chiroqlar va eshik ostini yoritadigan chiroqlar yonadi.

* ayni damda atrofdagi yorug'lik ko'p yoki ozligiga bog'liq bo'ladi.

"Yo'limni yorit" funksiyasi


START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi bosib o'chirilganidan

so'ng yoritish dastagini rul chambaragi tomonga torting. "Yo'limni yorit" funksiyasi ishga tushadi Yaqinni yoritadigan faralar va yon chiroqlar yonadi.

Avtomobilimni top

Avtomobil qulflab ketilganidan so'ng bir necha daqiqa o'tgach, masofadan ishlatish kalitidagi qulf tugmasi bosilsa, "Avtomobilimni top" funksiyasi ishga tushadi. Bu funksiya avtomobilni ovoz chiqarib va chiroqlarini yoqib ko'rsatadi. Masofadan ishlatish kalitidagi "Qulf tugmasi" yana bir marta bosilsa, bu funksiya ishlashi to'xtab turadi. Masofadan ishlatish kalitidagi "Qulfni ochish" tugmasini bossangiz bu funksiyaning ishlashi to'xtaydi.

Faralar holatini qo'lda sozlash



Old fara yorishishi quyidagi jadvalga muvofiq, avtomobildagi yukka muvofiq to'g'rilab qo'yilishi mumkin.


Asboblar va boshqaruv panellari

Joylashish	Yuk
0	Haydovchi va old o'rindiqda yo'lovchi bor
1	Hamma o'rindiqlar band, yuk yo'q
2	Barcha o'rindiqlar band va yukxonadagi yuk bir tekis taqsimlangan
3	Avtomobilida faqat haydovchi bor va yukxonadagi yuk bir tekis taqsimlangan

Yo'nalish indikator/Katta chiroq tugmasi



Uzoqni yoritadigan farani yoqib haydayotganda to'g'ridan kelayotgan avtomobil haydovchilarining ko'zini qamashtirib qo'ymang.



Yo'nalish indikatorlari

Dastakni pastga tushirib, LEFT turn (CHAPGA burilishni (1) ko'rsating. Dastakni yuqoriga tortib, RIGHT turn (O'NGGA YASHIL indikator chiroq asboblar panelida yonib-o'chadi va burilish chiroqlari yonadi.

Rul chambaragi burilishi indikator ishlashini to'xtatadi (rul chambaragi kamroq burilishi indikator ishlashini to'xtatmasligi mumkin). Yo'lning boshqa qatoriga o'tishni ko'rsatish uchun dastakni qisqa tortib qo'yib yuboring, indikator uch marta o'chib-yonadi, so'ng o'chadi.

Uzoqni yoritadigan/Yaqinni yoritadigan fara tugmasi

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganida va katta kalit asboblar paneli tomonga 3ga o'tkazib qo'yilganida yoki avtomatik ishlash chiroqlarni yoqish tomonda turgan bo'lsa, dastakni (3) asboblar paneli tomonga surib, uzoqni yoritadigan old faralarni yo'qing. Asboblar panelidagi uzoqni yoritadigan faralar yoqilganini ko'rsatadigan indikator chiroq yonib turganida dastakni (3) bosib uzoqni yoritadigan faralardan yaqinni yoritadigan faralarga o'tasiz.

Uzoqni yoritadigan faralarni o'chirib-yoqish

Uzoqni yoritadigan faralarni tez o'chirib yo'qish uchun dastakni (4) rul tomonga tortib, qo'yib yuboring.

Asboblar va boshqaruv panellari

Tumanga qarshi faralarni ulab-uzgich

! Tumanga qarshi faralar ko'rish sharoiti 100 m dan kam bo'lgandagina ishlatilishi kerak, havo ochiq sharoitda yoqilsa, yo'ldagi boshqa haydovchilarning ko'zi qamashadi.



Orqadagi tumanga qarshi faralar

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda bo'lib, old faralar yonib turganda orqadagi tumanga 1-holatga qaytarish uchun esa tugmani qo'yib yuboring. Orqadagi tumanga qarshi faralar yonganda asboblar panelidagi shuni ko'rsatadigan indikator yonadi.


Xatardan ogohlantiruvchi chiroq

Xatardan ogohlantiradigan chiroqni ishlatish uchun markaziy konsoldagi xatardan ogohlantiradigan chiroq tugmasini bosing. Shunda barcha burilish chiroqlari va yo'nalish ko'rsatkichlari birga o'chib-yona boshlaydi. Xatardan ogohlantiradigan chiroqni o'chirish

uchun shu tugmani yana bir marta bosing. Shunda barcha burilish chiroqlari va yo'nalish ko'rsatkichlari o'chadi.

Oyna tozalagich va yuvgich

Old oyna tozalagich boshqaruvi



Oyna tozalagichlar bilan oyna yuvgichlar START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turgan bo'lsagina ishlaydi. Oyna tozalash usulini o'zgartirish uchun dastakni surib qo'yasiz:

- Avtomatik tozalash (1)
- Sekin tozalash (2)
- Bir marta tozalash (4)
- Oyna tozalanadigan vaqt oralig'ini sozlash*/Yomg'ir sensori sensor sezuvchanligini sozlash* (5)
- Yuvish va tozalash (6)

Asboblar va boshqaruv panellari

Avtomatik tozalash

Dastak yuqoriga, avtomatik tozalash (1) tomonga surib qo'yilsa, oyna tozalagich o'zi avtomatik ishlaydi. Avtomatik oyna tozalash oralig'ini tugmani (5) bosib ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Avtomobil tezligi o'zgaranda ham oyna tozalash oralig'i o'zgaradi. Avtomobil tezligi oshganda oyna tozalash oralig'i kamayadi. Avtomobil tezligi kamayganda oyna tozalash oralig'i ko'payadi.

Old oyna tashqarisiga tushayotgan yomg'ir miqdorini bilish uchun ba'zi modellardagi yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasiga yomg'ir sensori biriktirib qo'yilgan bo'ladi. Avtomatik ishlayotganda avtomobil oyna tozalanadigan tezlikni yomg'ir sensoridan olinayotgan signalga qarab o'zgartirib turadi. Yomg'ir sensori sezuvchanligini o'zgartirish uchun tugmasini (5) burab qo'yasiz. Sezuvchanligi ko'payganda oyna tozalash oralig'i kamayadi.

Eslatma: Yomg'ir sensorining sezuvchanligi ko'paytirib qo'yilsa, oyna tozalagichlar yomg'ir yog'ishi bilan ishga tushadigan bo'ladi. Yomg'ir sensori yog'in yog'ayotganini sezib turganda oyna tozalagichlar ham to'xtamasdan ishlaydi. Yomg'ir yog'mayotgan bo'lsa, avtomatik oyna tozalagichni o'chirib qo'yish tavsiya qilinadi.

Oynani sekin tozalash

Dastak yuqoriga, sekin tozalash (2) tomonga surib qo'yilsa, oyna tozalagich sekin ishlaydigan bo'ladi.

Oynani tez tozalash

Dastak yuqoriga, tez tozalash (3) tomonga surib qo'yilsa, oyna tozalagich tez ishlaydigan bo'ladi.

Bir marta tozalash

Dastak pastga, bir marta tozalash tomonga (4) bosilib, so'ng qo'yib yuborilsa, oyna bir marta tozalanadi. Dastak pastga bosib ushlab turilsa, (4) to qo'yib yuborilguncha oyna tozalagich to'xtamasdan ishlaydi.

Eslatma: Avtomobil bir joyda to'xtab, kapoti ochilsa, old oyna tozalagich/yuvgich avtomatik ishlashdan to'xtaydi.

MUHIM MA'LUMOT

- Old oyna quruq bo'lsa, oyna tozalagichni ishlating.
- Havo juda sovuq yoki juda issiq bo'lsa, oyna tozalagich cho'tkasi old oynaga muzlab yoki yumshab yopishib qolmaganini tekshirib ko'ring.
- Agar oyna tozalagichga yoki old oynaga qor yoki boshqa har xil narsalar yopishib qolgan bo'lsa, iltimos, foydalanishdan oldin ularni tozalab olib tashlang.

Yuvish va tozalash

Dastakni rul chambaragi tomonga tortish (6) old oyna tozalagichni ishga tushiradi. Bir ozdan so'ng oyna tozalagich ishga tushib yuvilayotgan oynani tozalay boshlaydi.


Asboblar va boshqaruv panellari

Eslatma: Dastak qo'yib yuborilganidan keyin oyna tozalagich yana uch marta tozalaydi. Bir necha sekunddan so'ng oyna tozalagich ishga tushib, old oynada qolgan suvni tozalab, artib tashlaydi.

MUHIM MA'LUMOT

- Agar oyna yuvgichda old oynani yuvishga suyuqlik bo'lmasa tez dastakni qo'yib yuboring. Shunday qilsa, oyna tozalagich ham ishlamaydi va yuvilmagan oynadagi kirni tarqatib, ko'rishni yomonlashtirmaydi.

Orqa oyna tozalagichni ishlatish



Orqa oyna tozalagich bilan orqa oyna yuvgichlar START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYPTI) tomonda turgan bo'lsagina ishlaydi. Oyna tozalash usulini o'zgartirish uchun dastakni surib qo'yasiz:

- Oraliq tozalash (1)
- Yuvish va tozalash (2 va 3)
- Artish oralig'ini sozlash (4)

Oraliq tozalash

Agar orqa oyna tugmasi oraliq tozalash (1) tomonga o'tkazib qo'yilsa, orqa oynani tozalagich ishga tushadi. Oraliq tozalash rejimiga o'tib ishlashdan oldin u 3 marta ketma-ket oyna tozalaydi. Oraliq oyna tozalash vaqtini tugma (4) bosib ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin.

Yuvish va tozalash

Agar orqa oynani yuvish va tozalash (2) tanlansa, orqa oynani tozalagich va yuvgich birga ishga tushadi va orqa oyna tozalagich tezroq harakat qiladi. Agar tugma oraliq tozalash tomonga o'tkazib qo'yilsa, (1) orqa oyna yuvgichi ishlashdan to'xtaydi.

Agar orqa oynani yuvish va tozalash (3) tanlansa, orqa oyna tozalagich va yuvgich birga ishga tushadi. Tugma OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilsa, orqa oyna tozalagich va yuvgich ishlashdan to'xtaydi. Bir necha sekunddan so'ng oyna tozalagich ishga tushib, orqa oynada qolgan suvni tozalab artib tashlaydi.

Eslatma: Yukxona eshigi ochib qo'yilgan bo'lsa, orqa oyna tozalagich ishlamaydi.


Eslatma: Old oyna tozalagich ishlatib qo'yilganidan so'ng tezlik dastagi R tomonga o'tkazilsa, orqa oyna tozalagich ham ishga tushadi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Rul boshqaruvi tizimi

Rul chamberagini sozlash

! Avtomobil yurib ketayotganda rul chamberagining o'rnini o'zgartirishga **HARAKAT QILMANG**. Bunday qilish o'ta xavfli.



Rul chamberagining burchagi yoki balandligini o'zingizga mos qilib sozlash uchun:

- 1 Qulflaydigan dastakni to'liq tushiring (rasmda ko'rsatilgan).
- 2 Rulni ikki qo'lingiz bilan ushlab turing va rul chamberagi kolonkasini pastga yoki yuqoriga og'dirib o'zingizga ko'proq qulay bo'ladigan holatga keltiring.
- 3 Haydashga qulay bo'ladigan holatga kelganidan so'ng qulflaydigan dastakni to'liq yuqoriga tortib rul chamberagi kolonkasini yangi o'rniga mahkamlab qo'ying

Rul chamberagini elektr kuchaytirgich

! Rul burilishini elektr kuchaytirgich ishlamasa, yoki nosoz bo'lsa, rulni burish qiyin bo'ladi, bu esa haydash xavfsizligiga ta'sir qiladi.

Rul burilishini elektr kuchaytirgich avtomobil o't olganidan keyingina ishga tushadi. Bu tizim motor orqali ishlaydi va uning yordam berish darajasi avtomobilning tezligi, rul chamberagi aylanish momenti va rul chamberagining og'ish burchagiga qarab avtomatik sozlanadi.

MUHIM MA'LUMOT

- Rul chamberagi ko'p vaqt qimirlatmay ushlab turilsa, qisqa vaqt davomida elektr kuchaytirgichning yordami kamayadi va rulni burish og'irlashgandek tuyuladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Signal



Signal chalish uchun rul chamberagi o'rtasidagi signal tugmasini bosing (nayza bilan ko'rsatilgan).

Eslatma: Avtomobil signali tugmasi va haydovchi xavfsizlik yostig'i rul chamberagida bir-biriga yaqin joylashgan. Rasmda signal qayerda joylashgani (nayza bilan) ko'rsatilgan, shuning uchun, iltimos, xavfsizlik yostig'iga tegib ketmaslik uchun faqat signal tugmasini bosing.

MUHIM MA'LUMOT

- Qo'shimcha cheklash vositasi ishlab ketmasligi uchun, iltimos, signal chalganda xavfsizlik yostig'i qoplamasiga ortiqcha kuch tushirmang.

Orqani ko'rish ko'zgu oynasi

Avtomobilga orqani ko'rsatadigan ko'zgular qo'yilgan, bu ko'zgular har bitta eshikka birlashtirilgan tashqi yon ko'zgular va avtomobil ichiga o'rnatilgan ichki ko'zgudan iborat. Orqani ko'rish ko'zgu oynalar

avtomobil orqasidagi va ikkala yonidagi vaziyatni ko'rsatib haydovchi ko'radigan sohani kengaytiradi.

Orqani ko'rish ko'zgu oynalari xavfsizlikni ta'minlaydigan juda muhim vositalar sanaladi. Ko'zgular to'g'ri ishlatilsa va og'ishi oqilona to'g'rilab qo'yilsa, avtomobil haydash xavfsiz va qulay bo'ladi.


Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasi

Eslatma: Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasida obyektlar haqiqatdan ko'ra uzoqroq bo'lib ko'rinadi.

Avtomobil tor joyga kirishi va to'qishmasligi uchun bu ko'zgular tugma bosilib orqaga, yon oyna tomonga egilishi, ya'ni, mashinani qo'yish holatiga o'tishi mumkin.

Egilish xususiyatiga qo'shimcha ravishda tashqi eshik ko'zgulari elektron sozlanishi va isitilishi mumkin.

Ko'zgu shishasini isitish

Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasiga o'rnatilgan isitish elementlari undagi muzni eritishi, g'uborni ketkazishi mumkin. Isitish elementlari Orqa oynani isitish ishlatib qo'yilganda  ishlaydi.

Eslatma: Orqa oyna va ko'zguning isitish elementlari motor/elektr tizim ishlab turganda ishlaydi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Ko'zguni buklash



Haydovchi tomon tugmalar panelidagi birlashgan tugma bosilsa (nayza bilan ko'rsatilgan), yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalari buklanadi. Shu tugma yana bosilsa, ko'zgular oldingi holatiga qaytadi.

Avtomobilning qulfi ochilganda yoki berkitilganda yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalari avtomatik o'rniga qaytadi/buklanadi. Ushbu funksiya multimedia displeyidagi tegishli interfeysda belgilab qo'yilishi mumkin.

Eslatma: Elektrda buklab qo'yiladigan yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalari qo'lda yoki tasodif sabab joyidan qo'zg'algan bo'lsa, ko'zguni buklaydigan tugma bosilib ko'zgu buklanadi, so'ng yana tugma bosilib joyiga qaytariladi.

Ko'zgu shishasini elektrik sozlash

- Chap yoki o'ng yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalarini tanlash uchun chap (L) yoki o'ng (R) tugmani bosing. Qaysi tugma (1) bosilsa, o'sha tugma ichidagi chiroq yonadi.
- Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalarini sozlash uchun

aylana tugmadagi (4) to'rtta nayzadan bittasini bosing.

- L yoki R tugmasini (1) yana bir marta bosing, tegishli indikator chiroq o'chadi va ko'zguni sozlash tugaydi. Bir marta sozlab qo'yilganidan so'ng tasodifan ko'zguni joyidan qo'zg'atmaslik uchun shunday qilinadi.



MUHIM MA'LUMOT

- Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalari elektr motor bilan ishlatiladi. Ko'zgu qo'l bilan to'g'rilansa, ichidagi qismlari shikastlanishi mumkin.
- Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalarini bosimi kuchli suv oqimi bilan yuvish yoki chayish yoki mashina yuvish joyida yuvish uning elektr motorini shikastlashi mumkin.

Iltimos, "Asboblar va boshqarish panellari" bobidagi "Chiroqlar va tugmalar" bo'limiga qarang.

Asboblar va boshqaruv panellari

Ko'lmak chiroq*

Ko'lmak chiroqlar yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynalari pastki yarmida joylashgan bo'ladi. Ko'lmak chiroqlari qanday ishlashi haqidagi ma'lumot

Orqani ko'rish ko'zgu oynasi

Ko'rinish yaxshi bo'lishi uchun ichkaridagi orqani ko'rish ko'zgu oynasini sozlab qo'yning. Ko'zni qamashtirmaydigan xususiyatli bo'lgani uchun ichkaridagi orqani ko'rish ko'zgu oynasi kechasi orqadan kelayotgan avtomobillar faralaridan tushgan nurni kamaytiradi.

Orqani ko'rish ko'zgu oynasining ko'zni qamashtirmaslik xususiyatini qo'lda sozlash*

Ko'zgu ostidagi dastakni oldinga surib, ko'zguni pastga qarating va ko'zni qamashtirmaslik funksiyasini ishlating. Pastdagi dastakni tortib qo'ysangiz oddiy ko'rsatadigan bo'ladi.

Eslatma: Ba'zi hollarda qo'l bilan pastga bosib sozlab qo'yilgan ko'zguna ko'ringan aks orqada kelayotgan avtomobilning aniq joyidek ko'rinib, haydovchini chalg'itishi mumkin.

Orqani ko'rish ko'zgu oynasi ko'z qamashtirmasligini avtomatik sozlash*



START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda ko'z qamashmasligini sozlash avtomatik ishga tushadi. Orqada kelayotgan avtomobil faralari haydovchi ko'zini qamashtiradigan bo'lsa, yorug'lik sensori ishlab ketadi va ko'z qamashtirmaslik funksiyasini ishga tushiradi.

Quyidagi hollarda avtomatik ko'z qamashtirmaslik funksiyasi ishlamaydi:


- Ko'zguna yorug'lik sensori orqada kelayotgan avtomobillar farasi nurini ko'rmasa.
- Tezlik dastagi orqaga yurishga o'tkazilsa.

Eslatma: Orqani ko'rish ko'zgu oynasiga plyonka qoplanishi avtomatik ko'z qamashtirmaslik funksiyasi ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

Asboblar va boshqaruv panellari

Quyoshdan himoyalovchi soyaboncha

- ⚠ Haydovchi tomonidagi pardoz ko'zgusidan faqat avtomobil to'xtab turganida foydalanish mumkin.



Quyoshdan himoyalovchi soyaboncha (1), pardoz ko'zgusi (2) va pardoz ko'zgusi chirog'i (3) haydovchi va old o'rindiqdagi yo'lovchi ro'parasida, tepaga biriktirilgan bo'ladi.

Pardoz ko'zgusidan foydalanish uchun quyoshdan pana qilgichni pastga torting.

Qoplamasi ochilganda pardoz ko'zgusining chirog'i yonadi.


Qoplamasi yopib qo'yilganda chirog'i yana o'chadi.

Oynalar

- ⚠ Shikastlanmaslik uchun deraza oynalarini to'g'ri ishlating. Haydovchi yo'lovchilarga oynadan qanday foydalanishni va xavfsizlik qoidalarini o'rgatishi kerak.
- ⚠ Yo'lovchilar va ayniqsa bolalar oyna ko'tarilganda va tushirilganda undan uzoqroq bo'lishlariga qarab turing.
- ⚠ Oyna ko'taradigan tugmani kam vaqtda ketma-ket ko'p ishlatmang, aks holda motorini himoya qilish uchun oyna ko'taradigan tizim vaqtincha ishlamay qolishi mumkin. Shunday bo'lganda, iltimos, motor sovishi uchun bir necha sekund kutib turing. Kutayotgan vaqtda akkumulyatorni uzib qo'ymang.

Asboblar va boshqaruv panellari


Oyna ko'targichining elektr ulab-uzgichi



- 1 Orqa oynani izolyatsiya qiladigan tugma
- 2 Old o'ng oyna tugmasi
- 3 Old chap oyna tugmasi
- 4 Orqa o'ng oyna tugmasi
- 5 Orqa chap oyna tugmasi

Oyna boshqaruvi

Elektr bilan ishlaydigan oynalar START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ACC/ON/RUNNING (ACC/YOQLGAN/ISHLAYPTI) tomonda bo'lganda ishlaydi (xavfsiz bo'lishi uchun eshik yopiq turishi kerak).



Oynani tushirish uchun tugmasini pastga bosib, 1-holatga (C holatga) o'tkazing (2-5-rasmlarda ko'rsatilgan), oynani ko'tarish uchun esa shu tugmani 1-holatga (B holatga) tortib qo'ying. Tugma qo'yib yuborilsa, oynaning harakati to'xtaydi.

Bir marta tugma bosib, tushirish

Oyna tugmasini bosib 2-holatga (D holatga) o'tkazing (2-5-rasmlarda ko'rsatilgan), oyna avtomatik oxirigacha ochiladi. Istalgan vaqtda oyna harakatini to'xtatish uchun tushayotganida tugmani yana bir marta bosing.

Asboblar va boshqaruv panellari

Qisilib qolmaslik funksiyasi bilan bir marta tugma bosib ko'tarish

Avtomobil spetsifikatsiyasiga qarab ba'zi model oynalarining "Bir marta tugma bosish" funksiyasi bo'lishi mumkin. Oyna tugmasini tortib, yuqoriga, 2-holatga (A holatga) o'tkazib qo'ying, oyna avtomatik to'liq ko'tariladi. Tugmani yana bir marta bosib, oyna harakatini istagan vaqtda to'xtatish mumkin.

"Qisilib qolmaslik" funksiyasi xavfsizlik xususiyati bo'lib, o'rtada biror to'siq sezilsa, oyna yopilishini to'xtatadi. Shunday bo'lganda oyna pastga tushadi va o'rtadagi to'siqni chiqarib olish mumkin bo'ladi.

Eslatma: Old va orqa yo'lovchi oynalari har bitta eshikka o'rnatilgan alohida oyna tugmalari bilan ham ishlatilishi mumkin.

Agar orqa oynani izolyatsiyalash tugmasi ishlatib qo'yilgan bo'lsa, orqa eshikdagi oyna tugmalari ishlamay turadi.

Orqa oynani izolyatsiya qiladigan tugma

Orqa oyna nazoratini izolyatsiya qilish uchun tugmani (1) bosib (tugma ichidagi chiroq yonadi), nazoratni tiklash uchun esa shu tugmani yana bir marta bosasiz.

Eslatma: Orqa o'rindiqda bola o'tirgan bo'lsa, orqa oyna tugmasini IZOLYATSIYA qilish tavsiya etiladi.

"Dangasa qulf" funksiyasi*

"Dangasa qulf" funksiyasi avtomobil tashqarisida, kalit ishlaydigan oraliqda, masofadan ishlaydigan kalit bilan avtomobilning hamma oynasini ochish yoki yopish imkonini beradi.

Avtomobil elektrdan uzilganidan va hamma eshiklar yopilganidan so'ng masofadan ishlaydigan kalitdagi qulfni ochish tugmasini bosib ushlab turing, hamma oyna ochilishni boshlaydi, qulfni ochish tugmasini qo'yib yuboring, hamma oyna to'liq ochiladi. Oynalar ochiq turganda masofadan ishlaydigan kalitdagi qulf tugmasini bosib ushlab turing, oynalar berkilishni boshlaydi, qulf tugmasini qo'yib yuborsangiz hamma oyna to'liq berkiladi.

Eslatma: Oyna ko'tarilayotganda yoki tushayotganda akkumulyator uzib qo'yilsa, "Bir marta tugma bosib ko'tarish" va "Qisilib qolmaslik" funksiyalari ishlamasligi mumkin va shunday bo'lganda oynani to'liq yoping, so'ng tugmani ko'tarib, oynani oxirigacha ochib qo'ying. Oyna oxirigacha yopiq turganda tugmani yopish holatida 5 sekunddan ko'proq bosib ushlab turing. "Bir marta tugma bosib ko'tarish" va "Qisilib qolmaslik" funksiyalari yana ishlaydigan bo'ladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Lyuk*

Tomdagi lyuk ikki bo'lak oyna va bir dona soyabondan iborat bo'ladi. Old oynani surib yoki og'dirib ochish mumkin, orqa oyna esa mahkamlab qo'yilgani uchun ochilmaydi, soyabonni esa surib ochish mumkin.

Yo'riqlar

! **Avtomobil yurib ketayotganda yo'lovchilar ochiq lyukdan chiqib turishlariga RUXSAT BERMANG. Daraxt shoxlari urilib, inson jarohat olishi mumkin.**

! **Doim avtomobil ichidagi yo'lovchilar xavfsiz bo'lishiga qarab turing. Kimdir oyog'i yoki qo'lini lyukning qo'zg'aladigan qismiga qo'yishiga RUXSAT BERMANG, inson jarohat olishi mumkin.**

- Jala quyib turganda lyukni to'liq ochib qo'ymang.
 - Avtomobil yuqori tezlikda ketayotganda lyukni ochmaslikni maslahat beramiz.
- Imkoni bo'lsa, ochishdan oldin lyukda qolib ketgan suv yoki yomg'ir tomchilarini tozalab artib tashlang.
- Lyuk oynasini tozalash uchun qirib tozalaydigan materiallardan FOYDALANMANG. Tozalashga spirt asosidagi eritmalarni ishlatting.
 - Lyuk ochilganidan yoki yopilganidan so'ng ishlatish tugmasini ochish/yopish holatida bosib, USHLAB TURMANG, elektr qismlar shikastlanishi mumkin.

- Yaxshi va me'yorida ishlashi uchun lyukni doim tozalab turing. Zarur bo'lganda texnik xizmat qilishlari uchun MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Shunday qilmasa, lyukdagi suv avtomobil ichiga tushishi mumkin.

Lyukni boshqarish


START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ACC yoki ON/READY (YOQILGAN/TAYYOR) tomonga o'tkazib qo'yilganda luyukni ishlatishingiz mumkin.

1-tugma lyuk soyabonini ishlatadi, 2-tugma esa lyuk oynasini ishlatadi. Lyuk qaysi usul bilan ochilishi tugmalardagi belgi bilan ko'rsatiladi.



Asboblar va boshqaruv panellari

Lyuk oynasini ishlatish Lyuk oynasini og'dirib ochish



Lyuk oynasi tugmasini yuqoriga, 1-holat tomonga surib (1) ushlab turing, lyuk og'ib ochiladi. Tugmani qo'yib yuborib, istalgan vaqtda lyuk harakatini to'xtatishingiz mumkin. Sal qattiqroq bosib, oyna tugmasini 2-holat tomonga o'tkazib qo'ying (2), so'ng tugmani qo'yib yuboring, lyuk avtomatik to'liq ochiladi.


Lyuk oynasini og'dirib yopish

Lyuk oynasi tugmasini pastga, 1-holat tomonga torting (3) va ushlab turing, lyuk yopiladi. Tugmani qo'yib yuborib istalgan vaqtda lyuk harakatini to'xtatishingiz mumkin. Sal qattiqroq bosib oyna tugmasini 2-holat tomonga o'tkazib qo'ying (4), so'ng tugmani qo'yib yuboring, lyuk avtomatik to'liq yopiladi.

Lyuk oynasini surib ochish

Lyuk soyaboni tugmasini orqaga, 1-holat tomonga surib (3) ushlab

turing, soyabon surilib ochiladi. Tugmani qo'yib yuborib istalgan vaqtda lyuk harakatini to'xtatishingiz mumkin. Bir oz qattiqroq bosib soyabon tugmasini 2-holat tomonga (4) surib qo'ying, so'ng qo'yib yuboring, soyabon avtomatik to'liq ochiladi. Tugmani yana orqaga surib soyabonning harakatini istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin.



Lyuk oynasini surib ochish

Lyuk oynasi tugmasini oldinga, 1-holat tomonga surib qo'ying (1) va ushlab turing, lyuk yopiladi. Tugmani qo'yib yuborib, istalgan vaqtda lyuk harakatini to'xtatishingiz mumkin.


Lyuk oynasi tugmasini bir oz qattiqroq bosib oldinga 2-holat tomonga o'tkazib qo'ying (2), so'ng 1 tugmani qo'yib yuboring, lyuk avtomatik to'liq yopiladi. Tugmani qo'yib yuborib, lyukning harakatini istalgan vaqtda to'xtatishingiz mumkin.

Asboblar va boshqaruv panellari

Lyuk soyabonini ishlatish

Soyabonni ochish

Lyuk soyaboni tugmasini orqaga, 1-holat tomonga surib (3) ushlab turing, soyabon surilib ochiladi. Tugmani qo'yib yuborib, soyabon harakatini istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin. Bir oz qattiqroq bosib, soyabon tugmasini 2-holat tomonga (4) surib qo'ying, so'ng qo'yib yuboring, soyabon avtomatik to'liq ochiladi. Tugmani yana orqaga surib, soyabon harakatini istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin.



Soyabonni yopish

Lyuk soyaboni tugmasini oldinga, 1-holat tomonga surib (1), ushlab turing, soyabon yopiladi. Tugmani qo'yib yuborib, soyabon harakatini istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin. Bir oz qattiqroq bosib, soyabon tugmasini 2-holat tomonga (2) surib qo'ying, so'ng qo'yib yuboring, soyabon avtomatik to'liq yopiladi. Tugmani yana oldinga surib, soyabon harakatini istagan vaqtda to'xtatishingiz mumkin.

Eslatma: Agar avtomobil ko'p vaqt quyosh nuri tushib turadigan joyga qo'yiladigan bo'lsa, ichidagi pardozi shikastlanmasligi hamda avtomobil ichidagi harorat barqaror bo'lishi uchun soyabonni yopib qo'yish tavsiya qilinadi.

Qisib olishdan himoya qilish funksiyasi

Lyuk bilan soyabonga "Qisib olishdan himoya qilish" funksiyasi qo'yilgan, ya'ni uning bu xavfsizlik xususiyati biror to'siq borligi sezilsa, lyuk yoki soyabon avtomatik to'liq yopilishi oldini oladi – shunday bo'lganda lyuk/soyabon sekin ochiladi va qisilib qolgan to'siq chiqarib olinishiga imkon beradi.

Lyukni majburan yopish (qisib qolishdan himoya qilish funksiyasini yengish)

Qisib qolishdan himoya qilish funksiyasi ishlab ketganda lyukni majburan yopish uchun oyna tugmasini sekin 1-holatga surib qo'ying va lyuk to'liq yopilguncha tugmani 5 sekund bosib ushlab turing.

Eslatma: Ushbu ish bajarilayotganda qisib qolishdan himoya qilish funksiyasi ishlamay turadi.

Soyabonni majburan to'liq yopish (qisib qolishdan himoya qilish funksiyasini yengish)

Qisib qolishdan himoya qilish funksiyasi ishlab ketganda ochilgan lyukni majburan yopish uchun soyabon tugmasini sekin oldinga, 1-holatga surib qo'ying va soyabon to'liq yopilguncha tugmani 5 sekund bosib ushlab turing.

Asboblar va boshqaruv panellari

Eslatma: Ushbu ish bajarilayotganda qisib qolishdan himoya qilish funksiyasi ishlamay turadi.

Soyabon bilan Lyuk oynasi o'rtasidagi bog'liqlik

Soyabon ochilib qolmasligi uchun lyuk ochilganda soyabon lyuk oynasi bilan birga, bitta qismdek harakat qiladi. Soyabonni yopish uchun, iltimos, oldin lyuk oynasini yoping.

Soyabonni ishlashga tayyorlash

Ochilayotganda elektr kelmay qolgani yoki akkumulyatordan uzilgani uchun to'xtab qolgan lyuk oynasi yoki soyabonni elektr kelganidan so'ng qaytadan ishlashga tayyorlash kerak bo'ladi.

Lyuk oynasini ishlatishga tayyorlash uchun:

Oynani to'liq berkitish uchun tugmani sekin 2-holatga surib, 10 sekund shunday ushlab turing. Soyabon belgilangan joyigacha ochilib, so'ng to'xtaydi, shundan so'ng u avtomatik yopiladi – lyuk oynasi shunda yana ishlashga tayyor bo'ladi. Shu jarayon tugaguncha tugma 2-holatda turishi kerak.

Soyabonni ishlashga tayyorlash uchun:

Soyabonni to'liq yopish uchun – berkitish tugmasini sekin oldinga, 2-holatga o'tkazing va 10 sekund shunday ushlab turing.

Soyabon belgilangan joygacha ochiladi va to'xtaydi, So'ng u avtomatik yopiladi – lyuk oynasi shunda yana ishlatishga tayyor

bo'ladi.

Shu jarayon tugaguncha tugma 2-holatda turishi kerak.

Qizib ketishdan himoya qilish

Soyabon motori va lyuk motori ortiqcha qizib ketib buzilmasligi uchun bu motorlar dizayni qizib ketishdan himoya qiladigan funksiyali qilib ishlangan, qizib ketishdan himoya qilish funksiyasi ishlab ketgan bo'lsa lyukni ochib yoki yopib bo'lmaydi. Motori sovuganidan so'ng qizib ketishdan himoya qilish funksiyasining ishlashi to'xtaydi va lyuk yana qizib ketishdan himoya qilish funksiyasi ishlab ketguncha har doimgidek ishlaydigan bo'ladi.

"Dangasa qulf" funksiyasi*

"Dangasa qulf" funksiyasi lyukni avtomobil tashqarisidan ochish va yopishga imkon beradi.


Lyuk oynasi bilan soyabon ochilishni boshlaguncha uzoqdan ishlaydigan kalitdagi qulfni ochish tugmasini bosib ushlab turing, so'ng tugmani qo'yib yuboring, lyuk o'zi to'liq ochiladi; lyuk ochiq turganda masofadan ishlaydigan kalitdagi qulflash tugmasini bir necha sekund bosib ushlab turing, lyuk oynasi va soyabon yopilishni boshlaydi, shunda tugmani qo'yib yuboring, lyuk o'zi to'liq yopiladi.

Asboblar va boshqaruv panellari

Kabinaning ichini yoritish

Ichki old chiroq

Avtomobil konfiguratsiyasiga qarab ichki old chiroq lampochka yoki LED yoritgich ko'rinishida bo'lishi mumkin.



- 1 Ichki old/orqa chiroqlarni qo'lda yoqadigan asosiy tugma
- 2 Tegishli ichki old chiroqni qo'lda yoqadigan turma
- 3 Avtomatik yoqadigan tugma Ichki old va orqa chiroqlarni yoqish uchun 1-tugmani bosib, o'chirish uchun yana shu tugmani bosasiz.

Tegishli ichki old chiroqni yoqish uchun 2-tugmalarning keragini

bosib, o'chirish uchun shu tugmani yana bir marta bosasiz.

Ichki chiroqlarni qo'lda o'chirib-yoqishga qo'shimcha ravishda ba'zi ishlash holatlari avtomatik yoqish xususiyatini ishga tushiradi. Avtomatik yoqishni ishlatish uchun 3-tugmani bosib, avtomatik yoqish ishlashini to'xtatish uchun esa yana shu tugmani bosasiz.


Avtomatik yoqish ishlatib qo'yilgan bo'lsa quyidagilardan birortasi bo'lganda ichki old va orqa chiroqlar avtomatik yonadi:

- Avtomobilning qulfi ochilganda.
- Birorta eshik ochilganda.
- START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi OFF tomonda turganda avtomobilning yorug'lik sezadigan sensorlari atrofdagi yorug'lik kam ekani yoki o'tgan 30 sekund davomida yon chiroqlar yonganini sezsa avtomobilning elektr tizimi o'chadi.

Eslatma: Agar eshik 15 daqiqadan ko'proq ochiq qolsa, akkumulyator quvvati kamaymasligi uchun ichki chiroqlar avtomatik o'chadi.


Asboblar va boshqaruv panellari

Ichki orqa chiroq*



Orqadagi ichki chiroqlar ichki shift panelining chap va o'ng tomonlarida joylashgan. Orqa ichki chiroqlarni yoqish uchun rasmda ko'rsatilgandek qilib chiroq linzasini bosing, chiroqlarni o'chirish uchun esa yana shuni bosasiz.

Tizma chiroqlar*



Avtomobil ichda yoqimli muhit yaratish uchun ba'zi modellarga tizma chiroqlar qo'yilgan bo'ladi. Tizma chiroqlar multimedia


tizimida tog'rilab qo'yiladi. Tizma chiroqlar old eshik ichki qoplamasida (A), orqa eshik ichki qoplamasida (B) va asboblar panelida (C) bo'ladi.

Elektr rozetka


! Iltimos, 12V kuchli elektr rozetka ishlatilmayotganda rozetkaning qopqog'i yopiq tursin. Shunday qilganda biror parcha yoki yot jism rozetkaga kirib qolishi va uni ishlatishga xalaqit berishi yoki qisqa tutashuv bo'lishining oldi olinadi.

! 12V elektr rozetkaning nominal kuchlanishi 12V ga, maksimal elektr quvvati esa 120 Wattga teng, iltimos, shu kuchlanishdan ortiq elektr jihozlaridan foydalanmang.

! Motor o'chib turganda qo'shimcha elektr rozetka va USB ulagichdan ortiqcha foydalanish avtomobil akkumulyatori vaqtidan oldin quvvatsizlanishiga olib keladi.




Asboblar va boshqaruv panellari



12V lik old elektr rozetka o'рта konsol to'g'risida joylashgan. START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ACC yoki ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganida qopqog'ini olib rozetkadan foydalanish mumkin.

Old tomondagi elektr rozetkaning chap yonida ikkita USB port bor (1 va 2), bu ikkita USB port (1 va 2) elektrga ulanish zarur bo'lganida 5V kuchlanishli elektr toki berishi yoki ma'lumot uzatish funksiyasini bajarishi mumkin.

O'рта konsolning orqasidagi ikkita USB port faqat 5V kuchlanishli elektr toki berishi mumkin.



Eslatma: Avtomobildagi USB portlar tez quvvatlantiradigan ba'zi vositalarga tushmasligi mumkin.


Asboblar va boshqaruv panellari

Saqlash vositalari

Yo'riqlar

- Iltimos, avtomobil yurib ketayotganda barcha saqlash vositalarini yopib qo'ying. Saqlash vositalari ochiq qolsa, avtomobil siltanib o'rnidan qo'zg'alganda, favqulodda vaziyatda tormoz bosilganda yoki avtomobil to'qnashganda insonlarga jarohat yetishi mumkin.
- Suyuq yoki zanjigalka kabi tez yonadigan materiallarni birorta saqlash vositasiga solmang. Issiq sharoitda qizib ketsa, bunday materiallar o't olishi va yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Qo'lqop quti




Qo'lqop qutini ochish uchun qo'lqop quti qopqog'idagi dastakni torting (nayza bilan ko'rsatilgan). Qo'lqop qutining chirog'i avtomatik

yonadi.

Qo'lqop qutini berkitish uchun qopqog'ini joyiga surib qo'ying. Avtomobil yurib ketayotganda qo'lqop quti zich yopilgan bo'lishi kerak.

Saqlash qutisi – Haydovchi tomoni



Haydovchi tomondagi asboblar panelining ostiga joylashgan saqlash quti qopqog'ini tortib ochasiz.

Asboblar va boshqaruv panellari

Markaziy konsol tirsak qo'ygichidagi quti




Bo'lma qopqog'ini ochish uchun tirsak qo'ygichni ko'taring (nayza bilan ko'rsatilgan). Yopish uchun qopqog'ini yana joyiga tushirib qo'ying.

Yukxona

! Yukxona yopgichi ustiga biror buyum QO'YMANG, to'qnashish bo'lganda, avtomobil favqulodda tormoz berganda yoki birdan tezlashganda buyumlar otilib ketib, insonga jarohat yetkazishi mumkin.

Yukxonadan foydalanmoqchi bo'lsangiz, oldin yuk ustini yopib turadigan qopqoqni* joyidan siljiting (1), so'ng ariqchasi bo'ylab, to'liq ochilguncha oxirigacha surib qo'ying.

Yukxona poyandozini (2) ko'taring va tomdagi joyiga biriktirib qo'ying (A), biriktirish uchun ilmoqlarini ishlatib. Buyumlarni o'lchamiga qarab yukxonaga joylang. Yuk joylanganidan keyin yukxona poyandozini tushiring va to'g'ri turganiga qarab ko'ring.




Asboblar va boshqaruv panellari

Stakandon


⚠ Avtomobilni haydab ketayotganda stakan qo'ygichga qaynoq ichimlik solingan finjon QO'YMANG. Qaynoq ichimlik to'kilsa, inson jarohat olishi yoki avtomobil shikastlanishi mumkin.

Markaziy konsoldagi stakandon



Markaziy konsoldagi stakandon markaziy konsol old tomon oxirida, tirsak qo'yiladigan majmuada joylashgan, unga stakan yoki ichimlik solingan shishani qo'yish mumkin.

Orqa o'rindiqdagi tirsak qo'ygich va stakandon



Orqa o'rindiqdagi tirsak qo'ygichni ochish uchun uni oldinga og'diring. Stakandonni ochish uchun 1-tugmani bosing. Tirsak qo'ygich orqasidagi saqlash bo'lmasini ochish uchun esa 2-tugmani bosing.

Asboblar va boshqaruv panellari

Tomdagi yuk qo'ygich *



Tomga qo'yiladigan yuk og'irligi ruxsat etiladigan maksimal og'irlikdan OSHIB KETMASLIGI KERAK. Aks holda inson jarohat olishi yoki avtomobil shikastlanishi mumkin.



Bo'sh bog'langan yoki to'g'ri bog'lanmagan yuk tomdagi yuk qo'ygichdan tushib ketib baxtsiz hodisaga yoki inson jarohat olishiga sabab bo'lishi mumkin.



Tomdagi yuk qo'ygichga og'ir yoki katta buyumlar qo'yilishi avtomobilning burilish, boshqarish va tormoz berish xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin. Iltimos, avtomobilni tez chetga olmang, tez tormoz bermang va ortiqcha tezlatib haydamang.

Tomdagi yuk qo'ygichdan foydalanganda quyidagilarga e'tibor bering:

- Yukni imkoni boricha tomning old tomoniga yaqinroq qilib mahkamlang, yuk og'irligini bir tekis taqsimlang.
- Tomdagi yuk qo'ygichda yuk bo'lganda avtomatik mashina yuvish joylaridan FOYDALANMANG.

- Tomdagi yuk qo'ygichga og'irlik tushganda avtomobilning umumiy balandligi o'zgaradi. Iltimos, shuning uchun

1

tunnelga yoki garajga kirganda balandlik muvofiq bo'lishiga e'tibor qiling.

- Yuk qo'ygichdagi yuk lyuk, tomdagi antenna ishlashiga yoki yukxona eshigi ochilishiga xalaqit bermaydigan bo'lsin.
- Yuklash vositalarini o'rnatganda yoki olib tashlaganda yuklash vositasi ishlab chiqaruvchi yo'riqnomasiga amal qiling.

Tomga qo'yiladigan yukning maksimal og'irligi

Tomga qo'yiladigan yukning ruxsat etilgan maksimal og'irligi 75 kg, bunga yukning og'irligi bilan birga o'rnatilgan yuklash vositasining og'irligi ham kiradi.

Tomga qo'yiladigan yukning og'irligi qancha ekanini aniq biling, zarurat bo'lsa yukni torozida torting. Tomga qo'yiladigan yuk og'irligini ruxsat etilganidan oshirib yubormang.

Davriy tekshirish


Foydalanishdan oldin, albatta, boltlar tortilganini va bog'lagichlar mahkam ekanini tekshirib ko'ring. Xavfzis bo'lishi uchun vaqti-vaqti bilan boltlar mahkam tortilgani va bog'lagichlar mahkamligini tekshirib turing.

Konditsioner va Audio tizimlari

Ventilyatsiya	51
Konditsionerni boshqarish paneli	53
Elektr harorat boshqarish interfeysi*	55
Haroratni avtomatik boshqarish interfeysi *	56
Multimedia markazi	66

Konditsioner va Audio tizimlari

Ventilyatsiya



- 1 Yon shamol bergichlar
- 2 Old oyna ventilyatori
- 3 O'rta ventilyator
- 4 Old o'rindiq oyoq ventilyatorlari
- 5 Oldgi yon oyna ventilyatorlari
- 6 Markaziy konsoldagi shamol bergichlar

Bundan tashqari, old o'rindiqlar ostidagi polda orqa o'rindiqdagilar uchun 2 ta oyoq ventilyatori bor (rasmda ko'rsatilmagan).

Konditsioner tizimi avtomobil ichidagi havo harorati, tezligi, namligi va tozaligini to'g'rilash uchun ishlatiladi. Toza havo old oyna ostidagi havo oladigan panjara orqali va konditsioner filtri orqali ichkariga tortib olinadi.


Havo tortadigan panjara ichiga barg, qor yoki muz kirib qolmaganiga doim qarab turing.

Konditsioner filtri

Konditsioner filtri havoni filtrlash uchun ishlatiladi. To'liq samara bilan ishlashi uchun filtr belgilab qo'yilgan ishlash muddati oralig'ida almashtirib turilishi kerak.

Shamol bergichlar


O'rtadagi shamol bergichlar



Shamol bergichlarni ochish yoki yopish uchun jalyuzalar o'rtasidagi tugmani oxirigacha chapga yoki o'ngga surib qo'ying. Chiqayotgan havo yo'nalishini o'zgartirish uchun shamol bergich o'rtasidagi tugmani yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga o'tkazib qo'ying.


Konditsioner va Audio tizimlari

Yon shamol bergichlar



Shamol bergichni ochish yoki yopish uchun o'rtadagi tugmani oxirigacha soat mili tomonga yoki soat miliga teskari burang. Chiqayotgan havo yo'nalishini o'zgartirish uchun shamol bergich o'rtasidagi tugmani yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga o'tkazib qo'ying.

Markaziy konsoldagi shamol bergichlar




Shamol bergichlarni ochish yoki yopish uchun jalyuzalar o'rtasidagi tugmani oxirigacha chapga yoki o'nga surib qo'ying. Chiqayotgan havo yo'nalishini o'zgartirish uchun shamol bergich o'rtasidagi tugmani yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga o'tkazib qo'ying.

Konditsioner va Audio tizimlari

Konditsioner boshqaruv paneli

Boshqaruv paneli



- 1 Muzni eritish/G'uborni tozalash tugmasi
- 2 Orqa oynani isitish tugmasi
- 3 Konditsionerni boshqarishga tez o'tish

Konditsionerni boshqarishga tez o'tish



Konditsionerni boshqarishga tez o'tish tugmasini bir marta bosib, Konditsionerni boshqarish interfeysi chiqadi; Konditsionerni boshqarishga tez o'tish tugmasini ko'proq bosib ushlab, Konditsioner tizimini yoqing/o'chiring.

Orqa oynani isitish



Orqa oyna isitgichi juda sezuvchan element hisoblanadi, noto'g'ri ishlatilsa shikastlanib qolishi mumkin.

Orqa oyna ichkari tomonini **TIRNAMANG** yoki **QIRMANG**. Isitish elementlari ustiga yorliq yopishtirib **QO'YMANG**.



Bu funktsiyani ishlatish yoki o'chirish uchun Orqa oynani isitish tugmasini bosib. Funktsiya ishlayotganda tugmaning chirog'i yonib turadi, ishlamayotganda esa o'chiq bo'ladi. Orqa oynani isitish xususiyati ma'lum vaqt ishlaydi, shu vaqt o'tganidan so'ng o'zi avtomatik o'chadi.

Oynadagi muzni eritish/G'uborni tozalash



Oynadagi muzni eritish/g'uborni tozalash uchun shu tugmani bosib, indikator chirog'i yonadi. Tizim avtomatik ravishda oldin belgilab qo'yilgan haroratga o'tib ishlaydi va havo puflagich motorining tezligi yon oyna va old oynadagi g'uborni tozalash uchun lozim bo'ladigan tezlikda ishlaydi.


O'chirish uchun shu tugmani yana bir marta bosasiz. Ko'rsatish chirog'i o'chadi va tizim oldingi holatiga qaytadi.

Muzni eritish/g'uborni tozalash holati ishlayotganda boshqa havo taqsimlash holatlari to'xtaydi va muzni eritish/g'uborni tozalashga o'tadi.

Konditsioner va Audio tizimlari

Haroratni boshqarish interfeysi*

Boshqaruv interfeysi



- 1 Tizimni Ishlatish/O'chirish
- 2 Sovitishni Ishlatish/O'chirish
- 3 Havо aylanish rejimi
- 4 Haroratni boshqarish
- 5 Shamol tezligini boshqarish
- 6 Havо tarqatish rejimi

Tizimni Ishlatish/O'chirish

Tizimni ishlatish yoki o'chirish uchun Tizimi ishlatish/o'chirish (On/Off) tugmalariga barmoq tekkizing.

Sovitishni Ishlatish/O'chirish

Sovitish funksiyasini ishlatish uchun sovitishni ishlatish/o'chirish (On/Off) tugmasiga barmoq tekkizing.

Eslatma: Ishlagandan so'ng konditsioner ichida bir oz suv qolib shu suvdan bir oz hid chiqishi mumkin. Shunday bo'lganda sovitish funksiyasini o'chirib qo'yib, bir oz havo puflash funksiyasini ishlatib qo'yish tavsiya etiladi.

Havo aylanish rejimi

Havo aylantirish holatlaridan biriga o'tkazish uchun havoni qayta aylantirish tugmasiga barmoq tekkizing.



Avtomobil ichidagi havoni aylantirganda konditsioner tizimi tez sovutish yoki tez isitish talabiga muvofiq ishlaydi va bir vaqtning o'zida tashqaridagi mashinalardan chiqadigan tutun ichkariga kirishi oldini oladi.



Havoni tashqaridan olganda konditsioner tizimi havoni avtomobil tashqarisidan oladi va avtomobil ichiga toza havo olib kiradi.

Eslatma: Tizim ichkaridagi havoni aylantirish holatida ishlayotganda avtomobil qoldirib ketilsa, old oyna terlashi mumkin. Shunday bo'lganda muzni eritish/g'uborni tozalash tizimini ishlating.

Konditsioner va Audio tizimlari

Haroratni boshqarish





Shamol haydagichlardan kelayotgan havo haroratini o'zgartirish uchun Haroratni o'zgartirish tugmasiga barmoq tekkizing.

Shamol tezligini boshqarish

Kelayotgan havo tezligini o'zgartirish uchun Havo tezligini o'zgartirish tugmasiga barmoq tekkizing.

Havo tarqatish rejimi

Havo tarqatish rejimi ishlashini to'g'rilab qo'yish uchun tegishli Havo tarqatish tizimi tugmasiga barmoq tekkizing.

Barmoq tekkiziladigan kalit	Havo tarqatish rejimi
	"Yuzga"
	"Yuzga + Oyoqqa"
	"Oyoqqa"
	"Oyoqqa + Old oynaga"

"Yuzga" Havoni o'rta, markaziy konsolga va yon shamol haydagichlarga jo'natadi.

"Yuzga + Oyoqqa". Havoni o'rta, markaziy konsolga, yon va oyoqqa shamol beradigan shamol haydagichlarga jo'natadi.

"Oyoqqa". Havoni oyoqqa shamol beradigan shamol haydagichlarga jo'natadi.

Eslatma: Bu rejimda ishlaganda oz miqdordagi havo yon oynalar, old tomondagi yon oynalar, old oyna/muzni eritadigan shamol haydagichlarga jo'natib turiladi.

"Oyoqqa + Old oynaga". Havo oyoq, old tomondagi yon oynalar va old oyna/muzni eritadigan shamol haydagichlarga jo'natiladi.

Eslatma: Bu rejimda ishlaganda oz miqdordagi havo yon shamol haydagichlarga ham jo'natiladi.

Konditsioner va Audio tizimlari

Haroratni avtomatik boshqarish interfeysi*

Boshqaruv interfeysi



- 1 Tizimni Ishlatish/O'chirish
- 2 Sovitishni Ishlatish/O'chirish
- 3 Havoy aylanish rejimi
- 4 Harorat zonasini boshqarish
- 5 Chap zona haroratini boshqarish
- 6 Shamol tezligini boshqarish
- 7 O'ng zona haroratini boshqarish
- 8 Avtomatik rejim
- 9 Havoy tarqatish rejimi

Tizimni Ishlatish/O'chirish

Tizimni Ishlatish yoki o'chirish uchun Tizimni ishlatish/o'chirish (On/Off) tugmalariga barmoq tekkizing. **Sovitishni Ishlatish/O'chirish**

Sovitish funksiyasini ishlatish uchun sovitishni ishlatish/o'chirish (On/Off) tugmasiga barmoq tekkizing.

Eslatma: Ishlagandan so'ng konditsioner ichida bir oz suv qolib shu suvdan bir oz hid chiqishi mumkin. Shunday bo'lganda sovitish funksiyasini o'chirib qo'yib, bir oz havoy puflash funksiyasini ishlatib qo'yish tavsiya etiladi.

Havoy aylanish rejimi

Havoy aylantirish holatlaridan biriga o'tkazish uchun havoyi qayta aylantirish tugmasiga barmoq tekkizing.



Avtomobil ichidagi havoyi aylantirganda konditsioner tizimi tez sovitish yoki tez isitish talabiga muvofiq ishlaydi va bir vaqtning o'zida tashqaridagi mashinalardan chiqadigan tutun ichkariga kirishi oldini oladi.



Havoyi tashqaridan olganda konditsioner tizimi havoyi avtomobil tashqarisidan oladi va avtomobil ichiga toza havoy olib kiradi.



Havoyi avtomatik aylanayotganda konditsioner tizimi ichkaridagi havoyi qayta aylanishini avtomatik to'g'rilaydi yoki vaziyatga qarab havoyi tashqaridan olishga o'tadi.

Konditsioner va Audio tizimlari

Eslatma: Tizim ichkaridagi havoni aylantirish holatida ishlayotganda avtomobil qoldirib ketilsa old oyna terlashi mumkin. Shunday bo'lganda muzni eritish/g'uborni tozalash tizimini ishlatning.

Harorat zonasini boshqarish

Tizimni bitta yoki ikkita harorat zonasini nazorat qilishga o'tkazish uchun Harorat zonasini nazorat qilish tugmasiga barmoq tekkingiz. Tugma yorishganda ikkala harorat zonasi ham bir vaqtda ishlaydigan bo'ladi.

Haroratni boshqarish

Shamol haydagichlardan kelayotgan havo haroratini o'zgartirish uchun Haroratni o'zgartirish tugmasiga barmoq tekkingiz.

Shamol tezligini boshqarish

Kelayotgan havo tezligini o'zgartirish uchun Havo tezligini boshqarish tugmasiga barmoq tekkingiz.

Avtomatik rejim

Multimedia va axborot markazi ekranidagi nazorat interfeysida haroratni sozlab qo'ying, buning uchun zarur haroratni belgilang va shundan so'ng AUTO On/Off (Avtomatik ishlash Yoqilgan/O'chirilgan) tugmasi bilan avtomatik boshqarishni ishga tushiring.





Avtomatik ishlash rejimida havo tarqatish rejimi va shamol tezligi rejimi avtomatik sozlanib, zarur haroratni hosil qiladi va ushlab turadi.

Eslatma: Avtomatik boshqarish tizimi samarali ishlashi uchun hamma oynalar, lyuk yopilgan, Konditsionerning havo tortadigan panjarada biror to'siq bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, Konditsioner sensori ham berkilib qolmagan bo'lishi lozim.

Havo tarqatish holati va shamol tezligini o'zingizning ta'bingizga qarab o'zgartirib qo'yishingiz mumkin. Shunday qilinganda AUTO (AVTOMATIK) indikator o'chadi.

Havo tarqatish rejimi

Havo tarqatish rejimi ishlashini to'g'rilab qo'yish uchun tegishli Havo tarqatish tizimi tugmasiga barmoq tekkingiz.

Barmoq tekkiziladigan kalit	Havo tarqatish rejimi
	"Yuzga"
	"Yuzga + Oyoqqa"
	"Oyoqqa"
	"Oyoqqa + Old oynaga"

Konditsioner va Audio tizimlari

"Yuzga" Havoni o'rta, markaziy konsolga va yon shamol haydagichlarga jo'natadi.

"Yuzga + Oyoqqa". Havoni o'rta, markaziy konsolga, yon va oyoqqa shamol beradigan shamol haydagichlarga jo'natadi.

"Oyoqqa". Havoni oyoqqa shamol beradigan shamol haydagichlarga jo'natadi.

Eslatma: Bu rejimda ishlaganda oz miqdordagi havo yon oynalar, old tomondagi yon oynalar, old oyna/muzni eritadigan shamol haydagichlarga jo'natib turiladi.

"Oyoqqa + Old oynaga". Havoni oyoqqa havo beradigan, yon oyna va old oyna/muzni eritish shamol haydagichlariga jo'natadi.

Eslatma: Bu rejimda ishlaganda oz miqdordagi havo yon shamol haydagichlarga ham jo'natiladi.

Multimedia pleyer

Xavfsizlikka tegishli muhim ma'lumot

- Multimedia tizimini o'zingiz sozlamang, ta'mirlamang, o'zgartirmang, chunki vosita ichida yuqori kuchlanishli qismlar bo'lgani uchun elektr toki urishi mumkin. Jihoz ichini ko'rish, sozlash yoki ta'mirlatish uchun, iltimos, mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
- Multimedia tizimlariga suyuqlik tekkizmang, ichiga biror yot jism kirib qolmasin. Agar multimedia tizimiga suv tegsa, yoki ichiga biror yot jism kirgan bo'lsa, iltimos, avtomobilingizni xavfsiz joyda to'xtating, START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosib, tez o'chiring va mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Bunday holatdagi multimedia tizimidan foydalanmang, chunki bunday qilish yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki boshqa bir baxtsiz hodisa bo'lishiga olib kelishi mumkin.
- Agar multimedia tizimidan tutin chiqsa, yot shovqin eshitilsa, yoki noxush hid chiqsa, ekranda biror yot alomat ko'rinsa, START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosib, uni tez o'chiring va xizmat qilishlari uchun mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Bunday holatdagi multimedia tizimidan foydalanish tizimni tuzatib bo'lmaydigan qilib shikastlantirishi mumkin.

Konditsioner va Audio tizimlari

- Diqqatni chalg'itib haydash xavfsizligiga ta'sir qilmasligi uchun avtomobil yurib ketayotganda multimedia tizimni ishlatish ta'qiqlanadi. Iltimos, biror zarur sozlashni bajarishdan yoki video ko'rishdan oldin avtomobilingizni xavfsiz joyda to'xtating va qo'l tormozini tortib qo'ying.
- Ortiqcha yuqori yoki past harorat multimedia tizimi me'yorida ishlashiga xalaqit beradi. Avtomobil ko'p vaqt quyosh nuri tushib turadigan yoki sovuq joyda turgan bo'lsa, tizim yaxshi ishlamasligi mumkin. Avtomobil ichidagi harorat me'yoriga kelganidan keyin tizim yana oldingidek ishlaydigan bo'ladi. Agar oldingidek ishlamasa, yordam so'rab MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
- Multimedia markaz ishlab turganida avtomobil motori ham ishlab turgan bo'lishi kerak. Motor ishlamayotganda multimedia tizimidan ortiqcha foydalanish avtomobil akkumulyatori quvvati kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Mobil telefondan foydalanganda video signalga xalaqit berib ekranda dog'lar, rangli chiziqlar va shunga o'xshash boshqa qusurlar ko'rinmasligi uchun mobil telefon antenasini ekrandan uzoqroq ushlang.

Ekrandan foydalanganda ehtiyot choralari

- Ekran shikastlanmasligi uchun undagi tugmalarga faqat barmoq tekkizing.
- Havo harorati vosita ishlaydigan harorat oralig'idan kamayib yoki oshib ketganda (-30°C dan +85°C gacha), iltimos, ekrandan foydalanmang.
- Ekrandagi alomatlarni barmoq bilan tortganda yoki bosganda ortiqcha kuch ishlatmang, ekran tiralishi yoki shikastlanishi mumkin.
- Ekran tozalashdan oldin tizimni elektrdan ajratib qo'ying, ekranni faqat quruq, yumshoq mato bilan artib tozalang. Tozalash uchun qirib tozalaydigan yoki eritadigan vositalardan foydalanmang.


Boshqa ehtiyot choralari

- Multimedia tizimi ba'zi tashqi ma'lumot saqlanadigan vositalarni ko'rmasligi va shuning uchun ulardagi fayllarini o'qimasligi mumkin.
- Faylning xususiyati, faylning formati, yozilgan vosita, fayl o'qiladigan sharoit, saqlash sharoiti va bir qancha boshqa holatlar sabab fayl me'yorida o'qilmasligi mumkin.

Konditsioner va Audio tizimlari

Asosiy amaliyotlar

Boshqaruv paneli



- 1 Avtomobil xususiyatlarini sozlash tugmasi
Avtomobil xususiyatlarini sozlash interfeysiga kirish uchun shu tugmani bosasiz.
- 2 (HOME) (UY) Tugmasi
Asosiy interfeysga qaytish uchun shu tugma bosiladi.
- 3 Ovozni pasaytirish tugmasi. Ovozni pasaytirish uchun shu tugmani bosasiz.
- 4 Ovozni ko'tarish tugmasi
Ovozni ko'tarish uchun shu tugmani bosasiz.

Asosiy tizim interfeysi

Musiqqa, Radio, Video, Surat, Bluetooth telefon, Avtomobil xususiyatlarini sozlash, Konditsioner va hk. tizim belgilarini chiqarish uchun chapga

yoki o'ngga torting. Ba'zi tez boshqarish tugmalari ko'rinishi uchun menyu satrining chetidan ekran o'rtasiga surib o'tkazing.


Birinci bet



- 1 Menyua satri: 5 ta funktsiya belgisini ko'rsatadi. Kerakli funktsiya menyusiga kirish uchun shuni bosib, so'ng ko'ringan elementlarini tog'rilash uchun ko'proq vaqt bosib turing.
- 2 Musiqqa: Musiqqa interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing. Ko'ringan elementni sozlash uchun ko'proq vaqt bosib turing.
- 3 Radio: Radio interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing. Ko'ringan elementni sozlash uchun ko'proq vaqt bosib turing.
- 4 Apple Carplay / Android Auto: Apple Carplay / Android Auto: interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing.

Konditsioner va Audio tizimlari

Ikkinchi bet



- 1 Video: Video interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing
- 2 Surat: Surat interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing.
- 3 HVAC: Isitish, ventilyatsiya, konditsioner interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing.
- 4 Sozlash: Sozlash interfeysiga kirish uchun shunga barmoq tekkizing.
- 5 Off: Displayni o'chirish uchun shunga barmoq tekkizing' displayni yoqish uchun ham shunga barmoq tekkizasiz.

Yoqish/O'chirish

Yoqish

Multimedia tizim ishlayotganda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirib qo'yilgan bo'lsa, START/STOP tugmasi yoqilganidan keyin tizim yana avtomatik ishga tushadi.

Tizim oxirgi marta kutish holatida turganda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirib qo'yilgan bo'lsa, START/STOP

tugmasi yoqilganidan so'ng tizimni boshqarish panelidagi HOME (UY) tugmasini bosib, uni elektrga ulaysiz.

Tizim tugmasi ON (yoqilgan) tomonga turganida tizim panelidagi HOME (UY) tugmasini ko'proq vaqt bosib tursangiz tizim kutish holatiga o'tadi; Shu tugmani yana bossangiz tizim avtomatik ishga tushadi.

O'chirish

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini o'chiring, tizim avtomatik o'chadi.

Kutish holati

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi On (Yoqilgan) tomonga turganida HOME (UY) tugmasini ko'proq bosib tursangiz Multimedia tizimi Kutish holatiga o'tadi va Multimedia tizimining ishlashi to'xtab turadi.


Kutish holatida barcha ovoz o'chadi. Kutish holatini bekor qilish uchun HOME (UY) tugmasini yana bir marta bosib.

Quyidagilar ham Kutish holatini bekor qiladi:

- Avtomobil qo'yilganda (parkovka) tizim avtomatik ravishda parkovka ekraniga o'tadi.
- START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini o'chirsangiz tizim avtomatik o'chadi.

Konditsioner va Audio tizimlari

Rul chambaragini boshqarish tugmasi



1 ⏪ Tugma

Musiq a eshitayotganda oldingi trekka o'tish uchun shu tugmani bir marta bosasiz, trekning boshiga qaytish uchun (Blutuzda musiq a eshitish holatidan tashqari) shu tugmani bir marta bosing, to'liq orqaga aylantirish uchun tugmani bosib ushlab turing. Video ko'rayotganda oldingi videoga o'tish uchun bir marta bosing, tez orqaga aylantirish uchun esa tugmani bosib ushlab turing. Radio eshitayotganda oldingi stansiyani avtomatik izlash uchun bir marta bosing; oldingi stansiyani qo'lda izlash uchun esa tugmani bosib ushlab turing.

2 🔇 Tugma

Tizim ovozini o'chirish/ovozini chiqarish

3 Ovozni ko'tarish tugmasi

4 ⏩ Tugma

Musiq a eshitayotganda bir marta bossangiz keyingi trekka o'tkazadi; bosib ushlab tursangiz oldinga tez o'tkazadi (Blutuz musiq adan tashqari). Video ko'rayotganda keyingi videoga o'tish uchun bir marta bosing, tez oldinga o'tish uchun esa tugmani bosib ushlab turing. Radio eshitayotganda keyingi stansiyani avtomatik izlash uchun bir marta bosing; keyingi stansiyani qo'lda izlash uchun esa tugmani bosib ushlab turing.

5 📞 Tugma

Telefonda gaplashayotganda yoki qo'ng'iroq qilayotganda bir marta shu tugmani bosib telefonni qo'yasiz; telefonga javob berish uchun bir marta bosasiz, ko'proq vaqt bosib tursangiz kelayotgan qo'ng'iroqqa javob berish rad etiladi.

6 Ovozni pasaytirish tugmasi

7 SRC tugmasi

Eshitish mumkin bo'lgan boshqa audio manbaga o'tish uchun shu tugmani bosasiz.

8 “*” Rul chambaragidagi tugma

Avtomobil xususiyatlarini sozlash interfeysida bu tugma ishlashini o'zingizga moslab o'zgartirishingiz mumkin.

9 Ovoz tanish tugmasi

Ovoz tanish funksiyasini ishlatadi/o'chiradi. Bu funksiya Avtomobil bilan Mobil telefon bir-biriga ulanganidan so'ng ishlaydi.

Konditsioner va Audio tizimlari

Ovoz balandligini sozlash

Audio ovozini boshqarish panelida va rul chambaragidagi tugmalar bilan sozlash mumkin. Ovoz balandligi sozlanayotganda tizim avtomatik ravishda ovoz balandligini ko'rsatadigan oynani chiqaradi va unda ovoz qanday sozlanayotgani ko'rinib turadi.

Eslatma: Rul chambaragidagi va boshqarish panelidagi ovozni sozlaydigan tugmalar media va kommunikatsiya funksiyalarida ovoz balandligini sozlash uchun ishlatilishi mumkin.

Eslatma: Bluetooth musiqada ovozi faqat vositaning o'zida va media playerda sozlash mumkin.

USB saqlagich vositani biriktirish va chiqarib olish

USB saqlagich vositani biriktirish

Ulash uchun USB saqlagich vositani USB portga kiritib qo'ying.

USB saqlagich vositani chiqarib olish

USB saqlagich vositani chiqarib olishdan oldin undagi biror ma'lumot ochiq turmaganini qarab ko'ring.

Eslatma: Biror sabab bois ma'lumot saqlash vositasidagi ma'lumot yo'qolsa, yoki shikastlansa, bu ma'lumotni qayta tiklab bo'lmaydi. Ma'lumot yo'qolgani yoki shikastlangani bois yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki chiqim uchun MG Motor javob bermaydi.

Eslatma: Ba'zi USB saqlash vositalari o'qilmasligi mumkin.

Eslatma: Ba'zi USB saqlash vositalari qo'llanganda multimedia player optimal ishlamasligi mumkin.

Eslatma: USB hab yoki uzaytiradigan kabel ishlatilsa USB vosita o'qilmasligi mumkin.

Konditsioner va Audio tizimlari

Blutuzli telefon




Yo'riqlar

- Blutuz simsiz texnologiyasi qo'llangan mobil telefonlarning hammasi ham ulanmasligi mumkin.
- Multimedia tizimda Blutuz telefon xususiyatlarining hammasi to'liq ishlashi uchun qo'llanadigan mobil telefon Multimedia tizimiga mos keladigan bo'lishi lozim.
- Blutuz simsiz texnologiyasi qo'llanganda Multimedia tizimning hamma funksiyasi mobil telefonda ishlamasligi mumkin.
- Ovoz va ma'lumot Blutuz texnologiyasi bilan uzatilganda Multimedia tizimi bilan mobil telefon o'rtasidagi to'g'ri oraliq 10 metrdan oshmasligi kerak. Biroq, qanday sharoitda foydalanishiga qarab ma'lumot uzatsa bo'ladigan haqiqiy oraliq belgilab qo'yilgan oraliqdan kamroq bo'lishi mumkin.
- Multimedia tizim o'chirib qo'yilganda Blutuz ulanishi ham ajraladi.
- Ba'zi hollarda Blutuz simsiz bog'lanish qo'llangani uchun ma'lum ekstremal hollarda ma'lumot uzatilyotganda shovqin aralashishi yoki xato bo'lishi mumkin, shunday bo'lganda Multimedia tizimi mobil telefonga tutashmasligi va ajralib ketishi mumkin. Shunday bo'lganda mobil telefondagi tutashgan vositalar ro'yxatidagi Multimedia tizimni o'chirib tashlang va yana bir marta u bilan tutashtiring.

Blutuzni tutashtirish va ulash



Blutuzni tutashtirish va ulash bosqichlari quyidagicha bo'ladi:

- Blutuzni ulash interfeysiga kirish uchun To'g'rilash interfeysida [Bluetooth]ga barmoq tekkizib, Blutuzni ishlatib qo'ying.
- Tizim Blutuz vosita nomini ko'rsatadi.
- Mobil telefonda Blutuz funksiyasini ishlatib qo'ying va tutashishi uchun Multimedia tizimni qidiring. Mobil telefon Blutuzni tutashitirishga so'rov oladi. Tutashtirish tugaganidan so'ng ayni damdagi holat satrida
- Blutuz belgisi ko'rinadi. ✂ Agar tutashmasa, iltimos, yuqoridagilarni yana bir marta qaytaring.
- Tizimga tutashgan mobil telefon tutashgan vositalar ro'yxatiga qo'shib qo'yiladi. Mobil telefon Blutuzni ulash uchun  ga barmoq tekkizing, Blutuzni ajratish uchun esa  ga barmoq tekkizing. Tutashgan vositalar ro'yxatidan o'chirish uchun  ga barmoq tekkizing.

Konditsioner va Audio tizimlari

Qo'ng'iroq qilish





Quyidagi usullarning biridan foydalanib, qo'ng'iroq qilishingiz mumkin:

- Klaviaturadan raqam terish:
- Kontaktlar ro'yxatidagi raqamga telefon qilish:
- Qo'ng'iroqlar tarixi ro'yxatidagi raqamga telefon qilish:
- Mobil telefonning o'zida raqam terib qo'ng'iroq qilish.



Qo'ng'iroq qilishni tugatish

Quyidagi usullarning biridan foydalanib, qo'ng'iroq qilishni tugatishingiz mumkin:



- Telefonni qo'yish uchun  quyidagi belgiga barmoq tekkizing.
- Telefonni qo'yish uchun rul chamberagidagi  tugmasini bir marta bosing.
- Mobil telefonda gaplashishni tugatish.

Kelayotgan qo'ng'iroqlar


Qo'ng'iroqqa javob berish


- Kimdir qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa javob berish uchun  ga barmoq tekkizing.
- Kimdir qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa javob berish uchun  rul chamberagidagi tugmani bir marta bosing.
- Kelayotgan qo'ng'iroqqa mobil telefonda javob bering.

Qo'ng'iroqqa javob berishni rad etish


- Kelayotgan qo'ng'iroqni rad etish uchun  ga barmoq tekkizing.
- Kelayotgan qo'ng'iroqni rad etish uchun  rul chamberagidagi tugmani ko'proq bosib turing.
- Kelayotgan qo'ng'iroqqa javob berishni mobil telefonda rad eting.

Shaxsiy rejimga o'tkazish

Telefonda gaplashayotib ovoz tashqariga eshutilishi rejimidan shaxsiy rejimga o'tkazish uchun  ga barmoq tekkizing.

Ovoz tashqariga eshutilishi rejimidan dinamik rejimiga o'tkazish uchun  ga barmoq tekkizing.

Telefonda gaplashayotib Mikrofon o'chiq rejimidan mikrofon ishlatib qo'yilgan rejimiga o'tish uchun  ga barmoq tekkizing.

Telefonda gaplashayotib Qo'shib qo'yish interfeysiga kirish uchun  ga barmoq tekkizing.

Shaxsiy rejimda gapni mobil telefonda davom etishingiz mumkin; Multimedia tizimining dinamiklari va mikrofon o'chiq turadi, lekin, Bluetooth hali ham ulangan bo'ladi.

Konditsioner va Audio tizimlari


Multimedia

Ma'lumot saqlanadigan vosita qo'llangandagi ehtiyot choralar

- Tizimda USB saqlagich va Bluzut vositasidan foydalanish mumkin.
- Agar USB saqlagich ko'p vaqt ishlatilmaydigan bo'lsa, uni vositaga biriktirib TASHLAB KETMANG, USB saqlagich biriktirib tashlab ketilsa, ulanish yaxshi bo'lishiga kafolat berilmaydi.
- USB saqlagichdagi fayl o'qilayotganda uni vositadan chiqarib olmang. Bu yo'riqqa amal qilmaslik USB saqlash vositasi shikastlanishiga yoki multimedia tizim buzilishiga olib kelishi mumkin.
- USB portni quruq tuting. Bolalar USB port ichiga biror narsa solishmasin, aks holda portdan foydalanish mumkin bo'lmaydi yoki port berkilib qoladi.

Radio

Asosiy interfeysdagi Radio sohasiga barmoq tekkizib, radio interfeysiga kiring.



- 1 Hozir eshitayotgan stansiya chastotasi
- 2 FM/AM diapazonlarga o'tish
- 3 Yaxshi ko'rgan stansiyalar ro'yxati

Hozir eshitayotgan stansiyaning yaxshi ko'rganlar ro'yxatiga qo'shish uchun + quyidagi belgini bosib, yaxshi ko'rgan stansiyaning ro'yxatidan chiqarish uchun esa o'sha stansiyaning tanlab, bosib ushlab turing.

- 4 Ovozni sozlash
- 5 Stansiyalar ro'yxati

Stansiyalar ro'yxatiga kirish uchun barmoq tekkizib, kerakli stansiyaning toping va topilgan stansiyaning stansiyalar ro'yxatiga qo'shib qo'ying.

Konditsioner va Audio tizimlari

6 Keyingi stansiya

Keyingi stansiyanı avtomatik qidirish uchun shu tugmani bir marta bosib; keyingi stansiyanı qo'lda qidirish uchun esa tugmani ko'proq bosib ushlab turing.

7 Stansiyanı eshitib ko'rish

Stansiyalarnı avtomatik qidiradi va har bitta stansiyanı bir necha sekund eshittirib turadi. Eshitib ko'rayotganda eshitib ko'rish funksiyasini to'xtatish uchun shu tugmani bosib va hozir eshitib ko'rayotgan stansiyaningizni eshıtishga o'ting.

8 Oldingi stansiya

Oldingi stansiyanı avtomatik qidirish uchun shu tugmani bir marta bosib; oldingi stansiyanı qo'lda qidirish uchun esa tugmani bosib, ushlab turing.

USB musiqa

USB saqlagichni USB portga kiritib qo'ying. Musiqa eshıtish interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysdagi Music sohasiga barmoq tekkingiz.


1 Albom muqovasi

2 Trek/Qo'shiqchi/Albom nomi

3 Musiqa eshitadigan vositani o'zgartirish

USB saqlagich ikkita bo'lsa, musiqani USB1 yoki USB2 dan eshıtishni tanlashingiz mumkin. Blıtuz ulangan bo'lsa, Blıtuz musiqani tanlashingiz mumkin.

4 Ko'rsatish chizig'i



5 Ovozni sozlash

6 Musiqa ro'yxati

7 Keyingi trek

Keyingi trekka o'tish uchun bir marta bosib, oldinga tez o'tkazish uchun bosib ushlab turing.

8 Eshitish/To'xtatib turish

9 Oldingi trek

Olingi trekka o'tish uchun bir marta bosib; trekning boshiga qaytish uchun musiqa eshitayotganda bir marta bosasiz; bosib ushlab tursa oldinga tez o'tkazadi.

10 Musiqa eshıtıladigan jildlar

Musiqa eshıtish uchun hozirgi jildni yoki hamma jildlarnı tanlash mumkin.

11 Musiqa eshıtish holati


Musiqa eshıtish holatida Bittasini takrorlash, Hammasini takrorlash yoki Aralash eshıtish mumkin.

Konditsioner va Audio tizimlari

Blutuz musiqa

Blutuz bilan musiqa eshitishdan oldin Blutuzli vositani ulab qo'ying. Batafsil ma'lumot "Blutuz telefon" bobidagi "Blutuzni tutashtirish va ulash" bo'limida berilgan.


Musiqa eshitish interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysdagi Music sohasiga barmoq tekkingiz.



- 1 Trek/Qo'shiqchi/Album nomi
- 2 Musiqa eshitadigan vositani o'zgartirish
USB saqlagich ikkita bo'lsa musiqani USB1 yoki USB2 dan eshitishni tanlashingiz mumkin. Blutuz ulangan bo'lsa, Blutuz musiqani tanlashingiz mumkin.
- 3 Ovozni sozlash
- 4 Keyingi trek
- 5 Eshitish/To'xtatib turish
- 6 Oldingi trek

USB video

USB saqlagichni USB portga kiritib qo'ying. Video ko'rish interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysda [Video]ga barmoq tekkingiz.



- 1 Hozirgi va qolgan vaqt
- 2 Ko'rsatish chizig'i
Videoning ma'lum joyga o'tkazish uchun Videoni ko'rsatish chizig'ini orqaga yoki oldinga tortib, o'sha joyga o'tkazib qo'ying.
- 3 Oldingi video
Oldingi videoga o'tish uchun bir marta bosing; orqaga tez o'tkazish uchun esa tugmani bosib ushlab turing.
- 4 Eshitish/To'xtatib turish
- 5 Keyingi video
Keyingi videoga o'tish uchun bir marta bosing, oldinga tez o'tkazish uchun bosib ushlab turing.

Konditsioner va Audio tizimlari

6 Video ro'yxati

Video fayllarga qarab, keragini ko'rishingiz mumkin.

7 Umumiy video vaqti

8 USB saqlash vositasi

USB saqlagich ikkita bo'lsa, USB1 yoki USB2 dagi videoni ko'rishni tanlashingiz mumkin.

Eslatma: Internetdan o'tkazib olingan multimedia formatlarining qisilish darajasi va bitreyti hamda boshqa omillarga qarab ba'zi video fayllarning kodi o'qilmasligi va video ko'rsatilmaligi mumkin.

Eslatma: Avtomobilni xavfsiz haydash uchun avtomobil tezligi ma'lum ko'rsatgichga yetganda videoning xavfsizlik holati avtomatik ishga tushadi va video ko'rsatmaydi.

Eslatma: Telefon qilayotganda video ishlamay turadi.

Eslatma: Video ko'rayotganda menyuni chiqarish uchun ekranga barmoq tekkizing, menyudan chiqish uchun yana bir marta ekranga barmoq tekkizasiz.

USB surat

USB saqlagichni USB portga kiritib qo'ying. Suratlarini ko'rish interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysda [Pictures] (Suratlar)ga barmoq tekkizing.



1 Avtomatik/To'xtab turish/Ko'rsatish

2 Soat miliga teskari aylantirish

3 Soat mili tomonga aylantirish

4 Miniatura

5 Suratlar ro'yxati

6 USB saqlash vositasi

USB saqlagich vosita ikkita bo'lsa USB1 yoki USB2 dagi suratlarini ko'rishni tanlashingiz mumkin.

Eslatma: Tizim USB saqlagichdagi suratlarini ko'rish imkonini beradi. Suratdagi nuqtalar tig'izligi, format siqilish darajasi va boshqa omillar bois ba'zi suratlarining kodi ochilmasligi va ekranda ko'rinmasligi mumkin.

Konditsioner va Audio tizimlari

Eslatma: *Suratlarni ko'rayotganda menyuni chiqarish uchun ekranga barmoq tekkizing, menyudan chiqish uchun yana ekranga barmoq tekkizasiz.*

Eslatma: *Keyingi yoki oldingi suratni ko'rish uchun ekranni chapga yoki o'ngga o'tkazing.*

Eslatma: *Suratlarni ikki barmoq bilan kattalashtirish yoki kichiklashtirish mumkin.*

Avtomobil bilan Mobil telefonni bir-biriga bog'lash

Eslatma: *Faqat chap USB port Avtomobil bilan Mobil telefonni bir-biriga bog'lash xususiyatiga ega.*

Eslatma: *Mobil telefon modellari va tizim versiyasida farq bo'ladigan hollarda ba'zi mobil telefonlarda Avtomobil-Mobil telefonni bir-biriga bog'lash xususiyati me'yorida ishlamasligi mumkin.*

Android auto

Android Auto mobil telefon bilan avtomobil multimedia tizimi o'rtasida axborot almashish, shu jumladan, xarita, musiqa, telefon, xabarlar almashish, ovoz bilan buyurish imkonini beradi.

Birinchi marta qo'llaganda mobil telefoningizga marketdan Android Auto APP ilovasini o'tkazib oling.

Ishlatish uchun mobil telefonni mos keladigan USB kabel bilan multimedia tizim mainfreymiga ulang. Android Auto interfeysiga kirish uchun asosiy menyuda [Android Auto]ga barmoq tekkizing. Interfeysda chiqadigan maslahatga muvofiq ishlating, shundan so'ng bu xususiyatdan istagan vaqtningizda foydalanishingiz mumkin.

Apple CarPlay

Apple CarPlay iPhone bilan avtomobil multimedia tizimi o'rtasida axborot almashish imkonini beradi (Xarita, Musiqa, Telefon, Ovoz tanish va hk.).

Ulanish usuli

- 1 Mobil telefonda CarPlay funksiyasi borligini va bu funksiya ishlatib qo'yilganini qarab ko'ring.
- 2 Mos keladigan USB kabeldan foydalanib, mobil telefonni multimedia tizim mainfreymiga ulang.
- 3 Apple CarPlay interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysda [Apple CarPlay] sohasiga barmoq tekkizing.
- 4 Mobil telefon bilan avtomobil bir-biriga bog'langanidan so'ng multimedia tizim meynfreymida iPhone ishlatishingiz mumkin.
- 5 Tizimning asosiy interfeysiga qaytish uchun ishlatish panelidagi HOME (UY) tugmasini bosing.

Konditsioner va Audio tizimlari

Konditsioner

Konditsionerni sozlash interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysda [HVAC](Konditsioner)ga barmoq tekkizing. To'liq ma'lumot Qo'llanmaning "Haroratni boshqarish interfeysi" yoki "Haroratni avtomatik boshqarish interfeysi" boblarida berilgan.

Eslatma: Tizim interfeysida zaruratingizga qarab zavodda belgilab qo'yilgan sozlashlarni qaytarib qo'yishingiz mumkin. Zavoddagi sozlashlar qaytarilganidan so'ng meynfreym asl sozlanishiga qaytadi va multimedia tizimidagi ma'lumot o'chib ketadi. Iltimos, bu xususiyatdan ehtiyot bo'lib foydalaning.

Avtomobil xususiyatlarini sozlash

Avtomobil xususiyatlarini sozlash interfeysiga kirish uchun boshqarish panelidagi Avtomobil xususiyatlarini sozlash tugmasini bosib yoki asosiy interfeysda Avtomobil xususiyatlarini sozlash vidjetiga barmoq tekkizing. Bu interfeysda eshik qulflanishini, haydash nazoratini va boshqa xususiyatlarni sozlab qo'yishingiz mumkin.

Sozlashlar

To'g'rilash interfeysiga kirish uchun asosiy interfeysda [Setup] (Sozlash)ga barmoq tekkizing. Bu interfeysda Blutzuga ulanishni, audio, displey, vaqt, sana va boshqa ko'rsatgichlarni sozlab qo'yishingiz, tizim haqidagi ma'lumotni ko'rishingiz mumkin.

O'rindiqlar va ushlab turgichlar

O'rindiqlar	73
Xavfsizlik kamarlari	77
Havo yostig'ini qo'shimcha cheklash tizimi	77
Bolani ushlab turadigan vositalar	92

O'rindiq va ushlab turgichlar

O'rindiqlar

Umumiy ma'lumot

! Boshqaruvni yo'qotib kimdir jarohat olmasligi uchun avtomobil yurib ketayotganda o'rindiqlarni sozlamang.

O'rindiq avtomobilni haydash qulay bo'ladigan qilib sozlab qo'yilgan, ya'ni, rul chambaragini ushlab oson, oyoq bir oz buklangan va barcha vositalarga yetadigan bo'lishi kerak. O'rindiq joylashishi avtomobilni haydash o'zingizga qulay, avtomobilni to'liq nazorat qilishga imkon beradigan bo'lsin.


Old o'rindiq suyanchig'ini orqaga ortiqcha og'dirmang. Suyanchiq to'g'ri (tik) holatiga nisbatan 25° daraja orqaga og'ib turgandagina xavfsizlik kamari optimal foyda beradi. Haydovchi va old yo'lovchi o'rindiqlari amaliy jihatdan to'g'ri bo'ladigdan darajada orqaga surilgan bo'lishi kerak. Old o'rindiq balandligini ehtiyot bo'lib to'g'rilang – o'rindiq pastga tushirib qo'yilsa, orqadagi yo'lovchilarning oyog'i qisilib qolishi mumkin. Maqbul to'g'rilab qo'yilgan o'rindiq havo yostig'iga juda yaqin o'tirgani uchun jarohat olish xavfini kamaytiradi.

Bosh qo'ygich

! Bosh qo'ygichni yuqori qismi o'tirgan inson boshining yuqorisiga teng bo'ladigan qilib to'g'rilab qo'ying. Shunday qilsa mashina to'qnashganda o'tirgan insonning boshi yoki bo'yni jarohat olish xavfi kamayadi. Avtomobil yurib ketayotganda bosh qo'ygichni **SOZLAMANG** yoki **OLIB QO'YMANG**.

! Bosh qo'ygichga yoki bosh qo'ygich sterjeniga biror narsa **ILIB QO'YMANG**.

Bosh qo'ygich avtomobil urilganda yoki birdan tormoz berganda bosh orqaga ketishi oldini olish va shu bilan bosh va bo'yin jarohat olishi xavfini kamaytirishga mo'ljallangan.




O'rindiq va ushlab turgichlar

Bosh qo'ygichni past holatdan balandroq holatga ko'targanda bosh qo'ygichni to'g'ri yuqoriga torting, kerakli balandlikka ko'tarilganidan so'ng sekin pastga bosib mahkamlab qo'ying. Bosh qo'ygichni olib tashlash uchun oldin bosh qo'ygich chap tomonidagi yo'naltiradigan nov tugmasini bosib ushlab turing (nayza bilan ko'rsatilgan), so'ng bosh qo'ygichni tortib chiqarib oling.

Bosh qo'ygichni balandroq holatdan pastroq holatga tushirish uchun oldin bosh qo'ygich chap tomonidagi yo'naltiradigan nov tugmasini bosib ushlab turing (nayza bilan ko'rsatilgan), so'ng bosh qo'ygichni pastga bosing; kerakli balandlikka tushganidan so'ng tugmani qo'yib yuboring va mahkamlanishi uchun bosh qo'ygichni sekin bosib qo'ying.

Old o'rindiqlar


O'rindiqni to'g'rilash



- Olginga/Orqaga surish
O'rindiq ostidagi dastakni (1) ko'taring, o'rindiqni kerakli tomonga suring, so'ng dastakni qo'yib yuboring. O'rindiq joyida mahkam turganini tekshirib ko'ring.
- O'rindiq yostig'i balandligini to'g'rilash*
O'rindiq yostig'ini ko'tarish uchun dastakni (2) ketma-ket ko'taring, o'rindiq yostig'ini tushirish uchun esa dastakni tushiring.
- Suyanchiqni sozlash
Dastakni (3) ko'tarib o'rindiq suyanchig'ini o'zingizga qulay bo'ladigan holatga keltiring, so'ng dastakni tushiring.

O'rindiq va ushlab turgichlar

O'rindiqni sozlash tugmasi*



- Olginga/Orqaga surish
O'rindiqni oldinga/orqaga siljitish uchun tugmani (1) A yo'nalish bo'ylab suring.
- O'rindiq yostig'i balandligini to'g'rilash*
O'rindiq yostig'i balandligini to'g'rilash uchun tugmani (1) B yo'nalish bo'ylab suring.
- Suyanchiqni sozlash
O'rindiq suyanchig'ini o'zingizga qulay qilib sozlash uchun tugmani (2) oldinga/orqaga suring.
- Bel tutgichni to'g'rilash*
Bel tutgich qattiqligini sozlash uchun dastakni (3) jildiring.

Orqa o'rindiqlar



Orqa o'rindiq orqaga surilishini sozlash

Orqa o'rindiq suyanchig'i tepasidagi nazorat dastagini yuqoriga tortib, orqa o'rindiqni qulfidan bo'shating; so'ng suyanchiqni o'zingiz istagandek qilib sozlab qo'ying, oxirida dastakni qo'yib yuboring. Suyanchiq o'rniga yaxshi mahkamlanganini tekshirib ko'ring.

Orqa o'rindiqni buklash

Yuk solinadigan joyni kengaytirish uchun orqa o'rindiq suyanchiqlarini to'liq oldinga buklash mumkin. Suyanchiqni buklashdan oldin orqa o'rindiqdagi xavfsizlik kamari to'qasini to'liq joyiga birlashtirib qo'ying, so'ng bosh qo'ygichlarni pastga eging (yoki chiqarib oling), o'rindiq suyanchig'i ustidagi tegishli nazorat dastagini yuqoriga torting va o'rindiq suyanchig'ini oldinga buklang.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Suyanchiqni yana ko'tarib qo'yganda oldin qulfidan bo'shatish uchun suyanchiq ustidagi tegishli nazorat dastagini yuqoriga torting, orqa o'rindiqlarni ko'tarib qo'ying, suyanchiq o'rniga tushganda shiqillagan ovoz eshutiladi. Suyanchiq o'rniga yaxshi mahkamlanganini tekshirib, qarab ko'ring.

Eslatma: Orqa o'rindiq suyanchig'ini joyiga ko'tarib qo'yganda orqa o'rindiq xavfsizlik kamari qisilib qolmaganini qarab ko'ring.

Eslatma: Orqa o'rindiq bosh qo'ygichi to'liq pastga tushmagan bo'lsa, yoki old o'rindiq suyanchig'i orqaga ortiqcha egilgan bo'lsa, orqa o'rindiq suyanchig'ini oldinga buklash old o'rindiq suyanchig'ini, orqa o'rindiqlarning kichik saqlash bo'lmasini yoki bosh qo'ygichini shikastlashi mumkin.

Eslatma: Orqa o'rindiqdagi xavfsizlik kamarining to'qasi o'rniga to'liq birikmagan bo'lsa, suyanchiq buklanganda orqa o'rindiq suyanchig'i qoplamasi yoki ichidagi yumshoq material shikastlanishi mumkin.

Orqa o'rindiqlarni isitish *



Isitilgan o'rindiqqa ko'p vaqt tegib turgan terining ochiq joyi kuyishi mumkin.

Old o'rindiq yostig'i va suyanchig'ida isitish elementlari bor. Avtomobilni o't oldirgandan so'ng Konditsioner interfeysiga kiring va tegishli o'rindiq isishi uchun displeydagi o'rindiqlarni isitish tugmasini bosing.



O'rindiqlarni isitish tugmasi bosilgandan so'ng tegishli o'rindiq isitish boshlaydi. Isitish to'xtashi uchun shu tugmani yana bir marta bosing. O'rindiqlarni isitish funksiyasi ishlayotganda tugmadagi indikator shuni bildirib yonib turadi. O'rindiq yostig'i va suyanchig'ida harorat taxminan 38°C darajada bo'lganda isitish funksiyasi o'zi ishlashdan to'xtaydi.

MUHIM MA'LUMOT

- Isitilayotgan o'rindiqlarni adyol, yostiq yoki boshqa issiqni izolyatsiya qiladigan narsalar yoki buyumlar bilan yopib qo'ymang.
- O'rindiqlarni isitish tizimi ishlatib qo'yilganda o'rindiq 38°C darajadan ko'p isib ketsa va qizishda davom etsa, iltimos, o'rindiq isitilishini o'chiring va MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
- Haydovchi o'tiradigan o'rindiq isitilishidan ortiqcha foydalanilsa uyqu bosib xavfsizlikka ta'sir qilishi mumkin.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

Xavfsizlik kamarlari



Xavfsizlik kamarini to'g'ri taqish juda muhim hisoblanadi. Hamma yo'lovchilar xavfsizlik kamari taqqanini doim tekshirib turing. Xavfsizlik kamarini to'g'ri taqishga imkoni bo'lmagan yo'lovchilarni avtomobilga **CHIQARMANG**. Xavfsizlik kamari noto'g'ri taqilsa falokat bo'lganda inson jiddiy jarohat olishi, hatto, o'lishi ham mumkin.



Havo yostig'i xavfsizlik kamari o'rnini bosolmaydi. Havo yostig'i ishlab ketganda qo'shimcha yordam beradi, xolos, hamma yo'l hodisalari ham havo yostig'i ishlab ketishiga sabab bo'lmaydi. Havo yostig'i ishlab ketadimi yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar, xavfsizlik kamari falokat vaqtida inson jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi xavfini kamaytiradi. Shuning uchun xavfsizlik kamari to'g'ri taqilishi kerak.



HECH QACHON xavfsizlik kamarini taqmay avtomobil haydamang. Falokat bo'lganda yoki birdan tormoz bosilganda inson jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi mumkin.



Xavfsizlik kamarini taqib olishingiz uchun avtomobilga xavfsizlik kamari taqilmaganidan ogohlantiradigan chiroq qo'yilgan.

Avtomobil haydaganda xavfsizlik kamari, albatta, taqilgan bo'lishi kerak, chunki:

- avtomobil haydab ketayotganda falokat bo'lmashligini va u qay darajada og'ir bo'lishini oldindan bilib bo'lmaydi.
- Ko'p to'qnashishlarda xavfsizlik kamarini to'g'ri taqqan yo'lovchilar yaxshi himoya qilinadi, xavfsizlik kamarini taqmagani yo'lovchilar esa jarohat oladi yoki o'ladi.

Shuning uchun, yaqinroq joyga borganda ham hamma yo'lovchilar, albatta, xavfsizlik kamarini taqib olishlari kerak.

Xavfsizlik kamarining himoyalash xususiyati



Orqa o'rindiqlikda o'tirgan yo'lovchilar ham xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqib olishlari juda muhim. Aks holda, xavfsizlik kamarlarini noto'g'ri taqqan yo'lovchilar falokat vaqtida oldinga otilib ketib o'zlarini, haydovchini va boshqa yo'lovchilarni jarohatlashadi.

O'rindiqlar va ushlab turgichlar

Avtomobil yurib ketayotganda uning ichida o'tirgan insonlarning tezligi avtomobilning tezligiga teng bo'ladi.

Qarshisidan to'qnashganda yoki birdan tormoz berganda avtomobil to'xtaydi, lekin uning ichidagi odamlar biror qo'zg'almas obyektga urilmaguncha to'xtamaydi. Bu obyekt rul chambaragi, asboblar paneli, old oyna va boshqa narsa bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik kamari to'g'ri taqilgan bo'lsa, inson jarohat olish xavfi kamayadi. Xavfsizlik kamari to'g'ri taqilgan bo'lsa, avtomobil to'qnashganda yoki birdan tormoz berganda kamar avtomobil ichidagi odamning avtomobilga tezligiga teng tezligini kamaytiradi va shu bilan haydovchi yoki yo'lovchilarning jiddiy jarohat olishiga sabab bo'ladigan nazoratsiz harakat bo'lishi oldini oladi.



Xavfsizlik kamarini taqish

- ⚠ Xavfsizlik kamarini noto'g'ri taqish falokat vaqtida jarohat olish yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.
- ⚠ Xavfsizlik kamari faqat bitta odamga mo'ljallangan. Xavfsizlik kamarini boshqalar bilan BIRGA TAQMANG.
- ⚠ Qo'lingizda chaqaloq yoki yosh bola bo'lsa xavfsizlik kamarini uning ustidan O'TKAZIB TAQMANG.
- ⚠ Xavfsizlik kamarini taqqanda og'ir o'rindiqlar qoplamalari yoki jildini olib tashlang, shunday qilmaslik xavfsizlik kamari himoyalashini kamaytiradi.
- ⚠ O'rindiqlar ortiqcha egilgan bo'lsa xavfsizlik kamarlari to'g'ri ishlamaydi. O'rindiqlar ortiqcha egilgan bo'lsa, avtomobilni HAYDAMANG.

Avtomobilingizga o'rnatilgan xavfsizlik kamarlari o'lchami me'yorida bo'lgan katta yoshli insonlar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmaning ushbu qismi kattalar foydalanishi uchun mo'ljallangan. Avtomobilda bolalar bo'lganda xavfsizlik kamaridan qanday foydalanishni bilish uchun, iltimos, "Bolalar va xavfsizlik kamarlari" bo'limiga qarang.

O'rindiq va ushlab turgichlar


Barcha xavfsizlik kamarlari 3 nuqtali tizza-yekla kamarlari. Samarali himoyalanish uchun yo'lovchilar to'g'ri o'tirishlari, oyoqlari oldiga qo'yilgan, gavdalari tik (ortiqcha egilmagan), xavfsizlik kamari esa to'g'ri taqilgan bo'lishi kerak.

Foydalanuvchi qo'shimcha jarohat olmasligi uchun xavfsizlik kamari ruchka, ko'zoynak yoki kalit kabi o'tkir buyumlar ustidan o'tmagan bo'lishi lozim.


Xavfsizlik kamarlarini taqish

Iltimos, xavfsizlik kamarini to'g'ri taqish uchun quyidagi yo'riqqa amal qiling.

- 1 O'rindiqni moslab to'g'rilab qo'ying.
- 2 Metall to'qani ushlab xavfsizlik kamarini yelkangizdan oshirib, ko'ksingizdan o'tkazib torting. Kamarning biror joyi aylanib qolmagan bo'lishi kerak.



- 3 Chiqillagan ovoz eshitilguncha bosib metall to'qani qadagichiga kiritib qo'ying, shunda xavfsizlik kamari mahkamlangan bo'ladi.



- 4 Kamarning diagonal qismini tortib, bo'sh joylarini tortib qo'ying.
- 5 Xavfsizlik kamarini chiqarish uchun qadagichdagi qizil tugmani bosing. Xavfsizlik kamari o'zi tortilib joyiga boradi.

O'rindiq va ushlab turgichlar


MUHIM MA'LUMOT

- Eshikni yopayotganda xavfsizlik kamari eshik kesakasiga qisilib qolmasligiga qarab turing, shikastlanishi mumkin.
- Xavfsizlik kamari tashqariga juda tez tortilsa, qulflanib qolishi mumkin. Shunday bo'lganda xavfsizlik kamari sekin bo'shshiga qo'yib bering, so'ng ustingizdan tortib oling.
- Agar xavfsizlik kamarini tortib olish qiyin bo'lsa, o'ralib qolgan bo'lishi mumkin. Shunday bo'lganda xavfsizlik kamarini to'liq chiqarib oling, o'ralib qolgan joyini to'g'rilang va xavfsizlik kamari sekin tortilishiga qo'yib bering.
- Orqa o'rindiq xavfsizlik kamarlaridan foydalanganda, iltimos, orqa o'rindiq orasiga tiqilib qolmasligi uchun, ular to'g'ri joyiga qaytganini qarab ko'ring. Xavfsizlik kamari to'liq tekis turmasa ham avtomobil yurib ketayotganda uni taqish talab etiladi, lekin kamarning o'ralib qolgan qismi yo'lovchiga tegib turmasligi kerak. Shunday bo'lganda, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamarini to'g'ri o'tkazish



Xavfsizlik kamari tanada to'g'ri turishi kerak, HECH QACHON xavfsizlik kamarini bo'yindan yoki qorindan o'tkazmang, HECH QACHON xavfsizlik kamarini yelkadan yoki qo'l ostidan o'tkazmang.



Xavfsizlik kamarini taqqanda uning oyoq kamar qismi imkoni boricha pastdan, songa yaqin joydan o'tishi kerak. Uni HECH QACHON qorin ustidan o'tkazmang. Avtomobil to'qnashganda oyoq kamari kuchni songa tarqatadi va oyoq kamar ostiga sirg'alib tushish oldini oladi. Agar oyoq kamar ostiga sirg'alib tushsangiz kamar tushgan kuchni qoringa tarqatadi va bu jiddiy yoki o'limga olib keladigan jarohat olishga sabab bo'lishi mumkin. Kamarning diagonal qismi yelkaning va ko'krakning o'rtasidan o'tishi kerak. Avtomobil birdan tormoz berganda yoki to'qnashganda kamarning diagonal qismi qulflanib qoladi. Hech qachon xavfsizlik kamarini bo'yningizdan, tanangiz bo'ylab qo'lingiz ostidan yoki yelkangizdan o'tkazmang.

Xavfsizlikni to'liq ta'minlashi uchun kamar tekis bo'lsin, bo'shshib qolmasin va tanaga tegib tursin.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Yuqoridagi mahkamlagich balandligini sozlash



Avtomobil haydab ketayotganda xavfsizlik kamarining balandligini SOZLASH.



Avtomobilni haydashdan oldin xavfsizlik kamarining mahkamlanadigan o'rinlarining balandligi sozlangani va kamar mahkamlanganini tekshirib ko'ring, aks holda falokat vaqtida inson jarohat olishi yoki o'lishi ham mumkin.

Haydovchi va yo'lovchi xavfsizlik kamarlarining yuqorisida sozlab qo'yiladigan mahkamlanadigan o'rin bor. Xavfsizlik kamari balandligini kamarning diagonal qismi yelkaning o'rtasidan o'tadigan qilib sozlab qo'ying. Xavfsizlik kamari bo'yindan va boshdan naribroq o'tishi, taqqan odam kamar ostiga sirg'alib tushmaydigan bo'lib taqilishi kerak. Noto'g'ri taqilgan bo'lsa, avtomobil to'qnashganda yoki birdan tormoz berganda xavfsizlik kamarining samaradorligi kamayadi.



Xavfsizlik kamari mahkamlanadigan o'rinlarni sozlash

- 1 Xavfsizlik kamarini oling.
- 2 Bo'shatadigan tugmasini bosib va balandlik sozlagichini kerakli joyga surib qo'ying. Balandlik sozlagichidagi surgich turtib jildiriladi.
- 3 Balandlik sozlagich kerakli joyga o'tkazib qo'yilganidan so'ng tugmani qo'yib yuboring va joyida mahkam turganini bilish uchun sozlagichni pastga tortib ko'ring. Foydalanishdan oldin sozlagich joyida mahkam turadigan bo'lishi kerak.

Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamarini taqish

Xavfsizlik kamari to'g'ri rostdab qo'yilgan bo'lsa, avtomobil to'qnashganda yoki birdan tormoz berganda onani ham, bolani ham himoya qiladi.

Xavfsizlik kamarining diagonal qismi ko'krakdan o'tadi, oyoq qismi esa qorinning pastidan, pastroqdan o'tadi va son suyaklariga zich yopishib turadi. HECH QACHON xavfsizlik kamarini qorinning ustidan yoki qorinning yuqorisidan o'tkazmang.

Iltimos, bu masalada to'liq ma'lumot olish uchun shifokoringizdan maslahat so'rang.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Xavfsizlik kamari va nogironlik

Qonun avtomobildagi hamma insonlar xavfsizlik kamari taqishini talab qiladi va bu talab nogiron insonlarga ham tegishli.

Nogironlik turiga qarab bu masalada shifokoringiz bilan maslahatlashing.



Bolalar va xavfsizlik kamarlari

! Avtomobil haydab ketayotganda bolalarni ehtiyot qilish choralariga, ayniqsa, ko'proq e'tibor berish zarur.

Xavfsizlik maqsadida bolalar orqa o'rindiqqa biriktirib qo'yiladigan bolani ushlab turadigan vositaga o'tqazilishi kerak.

Bolalar

! Bolaning yoshi, bo'yi va og'irligiga qarab faqat tavsiya qilingan bolani ushlab turadigan vositalardan foydalaning.

! Mashina ketayotganda HECH QACHON chaqaloqni yoki bolani qo'lingizda ko'tarib olmang. Avtomobil to'qnashsa, bolaning og'irligi shu qadar katta kuchni hosil qiladiki, bolani qo'lda ushlab turolmaysiz. Bola oldinga otilib ketib, jiddiy jarohat oladi yoki o'lishi ham mumkin.


Avtomobilingizga o'rnatilgan xavfsizlik kamari kattalarga mo'ljallangan, ular bolalarga to'g'ri kelmaydi. Avtomobil falokati yoki to'qnashuvi bo'lganda himoya qilinmagani uchun bolalar jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi ham mumkin.

O'rindiqlar va ushlab turgichlar

Bolalar to'g'ri keladigan bolani ushlab turadigan vositadan foydalanishlari KERAK. Iltimos, bolaga to'g'ri keladigan o'rindiqlar qidirganda ishlab chiqaruvchining qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqing. O'rindiqlarni birlashtirish borasidagi ishlab chiqaruvchining yo'riq'iga amal qiling. To'liq ma'lumot olish uchun shu bobdagi "Bolani ushlab turadigan vositalar" bo'limiga qarang.

Kattaroq bolalar

! **HECH QACHON bir nechta bolaga bitta xavfsizlik kamari taqmag.** Avtomobil falokati yoki to'qnashuvi bo'lganda himoya qilinmagani uchun bolalar jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi ham mumkin.



Bola katta bo'lib bo'yi o'sganidan/tanasi kattalashganidan so'ng uni bolani ushlab turadigan o'rindiqlarga o'tqazish kerak bo'lmaydi, bu vaqtda ular avtomobildagi standart xavfsizlik kamaridan foydalanishlari kerak. Iltimos, xavfsizlik kamarini bolaning tanasiga

mos keladigan qilib to'g'rilab qo'ying.

Bolaga xavfsizlik kamarini taqqanda doim kamar to'g'ri turganini tekshirib ko'ring. Xavfsizlik kamari bolaning yuzi va bo'ynidan narida turishi uchun yelkadan o'tadigan xavfsizlik kamari balandligini sozlab qo'ying. Oyoq kamarini imkoni boricha sondan o'tadigan qilib sozlang va mos keladigan qilib tortib qo'ying. To'g'ri taqilgan xavfsizlik kamari falokat vaqtida hosil bo'lgan kuchni bola tanasining kuchli a'zolariga tarqatadi.

Agar yelkadan o'tadigan kamar bolaning yuzi yoki bo'yniga yaqin bo'lsa, bolani balandroq ko'tarib turadigan yostiq ishlatish kerak bo'lishi mumkin (shunday qilish tegishli qoida va qonunlarga to'g'ri kelishini, albatta, bilib oling).

Xavfsizlik kamarini dastlabki tortgich

! Xavfsizlik kamari birlamchi tortgichlari faqat bir marta ishlab ketadi, shuning uchun, bir marta ishlagandan so'ng ularni **ALMASHTIRISH KERAK**. Birlamchi tortgichlar almashtirilmasa avtomobildagi ushlab turish tizimining samarasi kamayadi.

! Birlamchi tortgichlar ishlab ketgan bo'lsa ham xavfsizlik kamarlari ushlab turgich sifatida ishlaydi va avtomobil haydash mumkin holatda bo'lsa kamar taqilishi kerak. Xavfsizlik kamari birlamchi tortgichini imkoni boricha tezroq MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qilib almashtirish zarur.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

Avtomobilga xavfsizlik kamari birlamchi tortgichlari o'rnatilgan, avtomobil falokati bo'lganda bu tortgichlar xavfsizlik kamarini tortadi va havo yostig'i bilan birga ishlaydi. Bu moslama xavfsizlik kamarini tortib avtomobil ichidagi insonni joyidan qo'zg'atmay o'rindiqlikda ushlab turadigan qilib yasalgan.

Asboblar panelidagi havo yostig'i haqida ogohlantiradigan chiroq haydovchini xavfsizlik kamari birlamchi tortgichlari nosozligi haqida ham ogohlantiradi ("Asboblar va nazorat" bobidagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar" bo'limiga qarang).

Xavfsizlik kamari birlamchi tortgichlari faqat bir marta ishlab ketadi, shuning uchun, bir marta ishlaganidan so'ng ularni almashtirish kerak. Shunday bo'lganda boshqa QCHT qismlarini ham almashtirish kerak bo'lishi mumkin. Iltimos, "Xavfsizlik yostig'i tizimini almashtirish" bo'limiga qarang.

MUHIM MA'LUMOT

- Zarba kamroq bo'lganda xavfsizlik kamarining birlamchi tortgichi ishlab ketmasligi mumkin.
- Birlamchi tortgichni faqat ishlab chiqaruvchi o'qitgan sotuvchi tashkilot yoki sotuvchi tashkilot texniklari olib tashlashlari yoki almashtirishlari mumkin.
- Xavfsizlik kamari birlamchi tortgichi ro'yxatga olingan sanadan (yoki almashtirilgan sanadan) boshlab 10 yil o'tganda uning ba'zi qismlarini almashtirish lozim bo'ldi. Ushbu ish tugaganidan so'ng Texnik xizmat daftarining tegishli sahifasiga imzo qo'yib, tamg'a bosiladi.

Xavfsizlik kamarini tekshirish, soz saqlash va almashtirish

Xavfsizlik kamarini tekshirish



Ajralib ketgan, yemirilgan yoki titilgan xavfsizlik kamarlari falokat vaqtida to'g'ri ishlamasligi mumkin. Shunday shikastlanish alomatlari bo'lsa, xavfsizlik kamarini zudlik bilan almashtiring.



Falokat vaqtida tez bo'shatish mumkin bo'lishi uchun xavfsizlik kamari to'qasini bo'shatadigan qizil tugma, albatta, yuqoriga qarab tursin.


Iltimos, quyidagi yo'riqda aytilgandek qilib xavfsizlik kamari ogohlantirish chirog'ini, xavfsizlik kamarini, metall mahkamlagichini, to'qasini, orqaga tortgichini va mahkamlash o'rnini doim tekshirib turing.


- Xavfsizlik kamari to'qasini tegishli mahkamlagichga kiritib, so'ng kamar to'qasi mahkam birikkanini tekshirish uchun xavfsizlik kamarini to'qasiga yaqin joydan tez torting.
- Xavfsizlik kamarining g'altagi avtomatik qulflanishi, uzayib ketmasligini tekshirish uchun metall to'qasidan ushlab xavfsizlik kamarini oldinga tez torting.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

- Xavfsizlik kamarini to'liqlik chiqarib oling va o'ralgan, titilgan, ajralgan yoki yemirilgan joylari yo'qligini qarab chiqing.
- Xavfsizlik kamarini to'liqlik chiqarib oling va to'xtamasdan, ravon ishlayotganini tekshirish uchun joyiga sekin qaytaring.
- Hamma qismi borligi yoki sinmaganini tekshirish uchun xavfsizlik kamarini qarab chiqing.
- Xavfsizlik kamarining ogohlantirish tizimi to'liqlik ishlayotganini tekshirib ko'ring. Yuqoridagi tekshirishlardan birortasida xavfsizlik kamari yaxshi ishlamasa yoki qarab chiqqanda biror kamchiligi borligi topilsa MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamariga texnik xizmat qilish

 **Xavfsizlik kamarini ASLO o'zingiz olib tashlamang, o'rnatmang, o'zgartirmang, ajratib olmang, tashlab yubormang. Biror ta'mirlash kerak bo'lsa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Noto'g'ri ta'mirlansa, noto'g'ri ishlaydigan bo'lib qolishi mumkin.**


 **Xavfsizlik kamari mexanizmiga o'tkir buyumlar, yot jismlar kirib qolmasligiga qarab turing. Xavfsizlik kamarining to'qasiga suyuqlik TO'KILMASIN, to'qa birikishiga ta'sir qiladi.**

Xavfsizlik kamarini faqat iliq sovunli suv bilan tozalang. Xavfsizlik kamarini tozalashga eritgich ISHLATMANG. Xavfsizlik kamarini OQARTIRMANG yoki boshqa rangga BO'YAMANG, xavfsizlik kamari bo'shashib qolishi mumkin. Tozalab bo'lgandan so'ng quruqlik mato bilan arting va quring. To'liqlik qurimasidan oldin xavfsizlik kamarini

joyiga QAYTARIB QO'YMANG. Xavfsizlik kamarini toza va quruqlik tuting.

Agar tortish mexanizmiga biror yot buyum tushsa, xavfsizlik kamari sekin tortiladigan bo'lib qoladi. Iltimos, kirlangan joyini yumshoqlik, quruqlik mato bilan tozalang.

Xavfsizlik kamarlarini almashtirish

 **Avtomobil to'qnashganda xavfsizlik kamari shikastlanishi mumkin. Shikastlangan xavfsizlik kamari esa ikkinchi marta himoya qilolmagani uchun inson jarohat olishi yoki o'lishi ham mumkin. Shuning uchun, falokat bo'lgandan so'ng xavfsizlik kamarini tekshirish va zarurat bo'lsa almashtirish kerak.**

Yengilroqlik to'qnashuvdan so'ng xavfsizlik kamarini almashtirish shart emas, lekin xavfsizlik kamari tizimining ba'zi qismlarini tekshirib ko'rish kerak. Iltimos, bu masalada maslahat olishi uchun MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

Xavfsizlik yostig'ining qo'shimcha cheklash tizimi

Umumiy ma'lumot



Xavfsizlik yostig'i QCHT faqat avtomobil oldindan qattiq urilganda QO'SHIMCHA himoya qiladi. Xavfsizlik yostig'i xavfsizlik kamari o'rnini bosmaydi.




Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlari bilan birga kattalarni optimal himoya qiladi, lekin bolalarni ular bilan himoya qilib bo'lmaydi. Avtomobilning xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik yostiqlari tizimi bolalarni himoya qilishga mo'ljallanmagan. Bolalar faqat bolalarni ushlab turadigan vositalar bilan himoya qilinadi.

Xavfsizlik yostig'ini qo'shimcha saqlagich tizimi asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Old xavfsizlik yostiqlari (rul chamberagining o'rtasiga, asboblar panelining qo'lqop quti ustidagi qismiga joylashtirilgan).
- Boshni yon zarbadan himoya qiladigan xavfsizlik yostig'i (shiftda joylashgan)*
- O'rindiqdagi yon xavfsizlik yostiqlari (o'rindiqlik tashqi tomoniga o'rnatilgan).

Havo yostiqlari o'rnatilgan joylarda tegishli 'AIRBAG' (HAVO YOSTIG'I) ogohlantirish belgilari bo'ladi.






Xavfsizlik yostig'i ogohlantirish chirog'i







Xavfsizlik yostig'i ogohlantirish chirog'i asboblar panelida joylashgan. Haydab ketayotganda bu chiroq o'chmasdan yonib turishi yoki o'chib-yonishi QCHT yoki xavfsizlik kamari tizimida nosozlik borligini bildiradi. Nosozlikni vaqtda tuzatish uchun, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. QCHT yoki xavfsizlik kamari nosozligi falokat bo'lganda ular ishlamasligi mumkinligini bildiradi.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

Xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi

-  Oldinda o'tirgan yo'lovchilar oyoqlari, tizzalari yoki tanalarining boshqa a'zosini old xavfsizlik yostig'iga tekkizmasliklari yoki yaqin olib bormasliklari kerak.
-  Kattalashgan xavfsizlik yostig'iga urilib tasodifan jarohat olmaslik uchun xavfsizlik kamarlari doim to'g'ri taqilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, haydovchi ham, old o'rindiqlikdagi yo'lovchi ham xavfsizlik kamarlarini old xavfsizlik yostig'idan yetarli masofada nariroq ushlab turadigan qilib to'g'rilab qo'yishlari kerak. Agar yon xavfsizlik yostiqlari/boshni zarbadan himoya qiladigan yon xavfsizlik yostiqlari moslab qo'yilgan bo'lsa, haydovchi ham, old o'rindiqlikdagi yo'lovchi ham tanalarining yuqori qismi avtomobilning yonidan yetarli masofa narida turadigan bo'lib o'tirishlari kerak, shunda yon xavfsizlik yostiqlari/boshni zarbadan himoya qiladigan yon xavfsizlik yostiqlari ishlab ketganda insonlar maksimal himoya qilinadi.
-  Xavfsizlik yostiqlari ishlab ketganda yaxshi himoya qilinmagan bolalar jiddiy jarohat olishlari yoki halok bo'lishlari ham mumkin. Avtomobilda ketayotib bolalarni qo'lingizga KO'TARIB OLMANG yoki TIZZANGIZGA O'TQAZMANG. Bolalar ularga mos keladigan xavfsizlik kamari taqib olishlari kerak. Oynadan BOSHINGIZNI CHIQAARMANG.

-  Xavfsizlik yostig'i kattalashganda unga yaqin o'tirgan bo'lsa insonning yuzi tilinishi yoki boshqa jarohat olishi mumkin.
-  Xavfsizlik yostiqlari ustiga yoki ularga yaqin joyga biror BUYUM QO'YMANG. Bunday holat xavfsizlik yostig'i o'tishiga ta'sir qiladi yoki undagi buyum otilib ketib xavfsizlik yostig'i kattalashganda inson yaralandi yoki jiddiy jarohat oladi.
-  Kattalashganidan so'ng xavfsizlik yostig'i juda qizib ketadi. Xavfsizlik yostig'i qismlariga QO'L TEKKIZMANG, teri kuyishi yoki inson jarohat olishi mumkin.
-  Xavfsizlik yostig'i yoki uning qismlari turgan joylarni taqillatmang yoki urmang, xavfsizlik yostig'i tasodifan ochilib ketib, inson jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi ham mumkin.

To'qnashuv bo'lganda xavfsizlik yostig'ini kuzatib boradigan asbob to'qnashganda avtomobilning sekinlashish va tezlashish darajasini o'lchab xavfsizlik yostig'i ochilishi yoki ochilmasligini hal qiladi. Xavfsizlik yostig'i bir zumda, ancha qattiq kuch bilan ochiladi va ochilganda qattiq ovoz ham eshitiladi.

Avtomobilning oldida o'tirgan insonlar to'g'ri o'tirishgan va xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqishgan bo'lsa, avtomobil oldidan to'qnashganda xavfsizlik yostiqlari insonning ko'krak va yuz qismlarini qo'shimcha himoya qiladi.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

Yon xavfsizlik yostiqlari va boshni zarbadan himoya qiladigan xavfsizlik yostiqlari avtomobil yoni bilan urilganda tananing yonini qo'shimcha himoya qilishga mo'ljallangan.

MUHIM MA'LUMOT

- Xavfsizlik yostiqlari yo'lovchilar tanasi pastki qismini himoya qilmaydi.
- Xavfsizlik yostiqlari avtomobilning orqasi urilganda, old tomondan yoki yonidan kuchsiz urilish bo'lganda yoki avtomobil ag'darilib ketganda ochiladigan qilib ishlanmagan; birdan tormoz bosilganda ham ishlaymaydi.
- Old va yon xavfsizlik yostiqlari juda tez ochiladi va tez qaytadi, shuning uchun sodir bo'lishi mumkin ikkinchi zarbadan himoya qilmaydi.
- Xavfsizlik yostig'i ochilganda mayda kukun sochiladi. Bu hol xavfsizlik yostig'i noto'g'ri ishlaganini bildirmaydi, lekin kukun terini achishtirishi mumkin, ko'zga tushsa, yoki terining shilingan, tilingan joylariga tegsa, uni tez yuvib tashlash kerak.
- Ochilganidan so'ng old va yon xavfsizlik yostiqlari tez avtomatik puchayadi. Bu xususiyati insonlar uchun yumshatish ta'sirini sekin kamaytiradi va haydovchi old tomonni ko'rinishini to'sib qo'ymaydi.

Old xavfsizlik yostiqlari



HECH QACHON orqaga qaragan, bolani ushlab turadigan o'rindiqlikni old tomondagi **FAOL XAVFSIZLIK YOSTIG'I** bilan himoya qilinadigan o'rindiqlikqa qo'ymang, falokat bo'lsa, **BOLA JIDDIY JAROHAT OLISHI** yoki **O'LISHI** ham mumkin. "Yo'lovchi xavfsizlik yostig'i ishlashini o'chirib qo'yish" bo'limiga qarang.



Oldinda o'tirgan yo'lovchilar oyoqlari, tizzalari yoki tanalarining boshqa a'zosini old xavfsizlik yostig'iga tekkizmasliklari yoki yaqin olib bormasliklari kerak.



Ekstremal hollarda juda notekis yo'lda haydash xavfsizlik yostig'i ochilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Iltimos, notekis yo'lda haydaganda juda ehtiyot bo'ling.

Xavfsizlik yostiqlari avtomobil qattiq urilganda ochilib ketadigan qilib ishlangan, quyidagi hollar xavfsizlik yostig'i ochilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Avtomobil tez ketayotganda joyidan qo'zg'olmaydigan yoki buklanmaydigan biror jismga oldi bilan urilishi.
- Shassi jiddiy shikastlanadigan vaziyatlar bo'lishi, masalan, bordyurga, yo'l chetidagi qirraga urilish, yo'ldagi chuqurga yoki kavakka tushib ketish.

O'rindiq va ushlab turgichlar

O'rindiq yonidagi xavfsizlik yostiqdagi

O'rindiq ishlab chiqarilishi va unga ishlatilgan material yon xavfsizlik yostiqdagi to'g'ri ishlashi uchun juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun, iltimos, yon xavfsizlik yostiqdagi ishiga ta'sir qilmasligi uchun o'rindiqlarga G'ILOF KIYDIRMANG.

Avtomobilga yonidan jiddiy zarba tekkanda tegishli xavfsizlik yostig'i (faqat zarba tushgan tomonda) ishlab ketadi.

- Xavfsizlik yostig'i avtomobilning yoniga biror qattiq jism yoki boshqa avtomobil urilganda ishlab ketadi.

Boshni yon zarbadan himoya qiladigan xavfsizlik yostiqdagi*

Avtomobilga yonidan jiddiy zarba tekkanda yon tomondagi tegishli pardasimon xavfsizlik yostig'i (faqat zarba tushgan tomonida) ishlab ketadi.

- Yon tomondagi pardasimon xavfsizlik yostig'i avtomobilning yoniga biror qattiq jism yoki boshqa avtomobil urilganda ishlab ketadi.

Xavfsizlik yostig'i ishlab ketmaydigan holatlar

Xavfsizlik yostiqdagi ishlab ketishi avtomobilning tezligiga emas, balki avtomobil urilgan jismga, urilish burchagiga va urilganda avtomobil tezligining o'zgarish darajasiga bog'liq bo'ladi. Urilish kuchi yutilsa, yoki avtomobil korpusiga tarqalib ketsa, xavfsizlik yostiqdagi ochilmasligi mumkin, biroq, ba'zan xavfsizlik yostiqdagi urilish vaqtidagi vaziyatga qarab ham ochilishi mumkin. Shuning uchun, xavfsizlik yostiqdagi ochilishini avtomobil qattiq shikastlangani bilan izohlab bo'lmaydi.

Old xavfsizlik yostiqdagi

Ba'zi hollarda old xavfsizlik yostiqdagi ochilmasligi mumkin. Quyida bunga ba'zi misollar keltirilgan:

- Old tomondan urilish avtomobilning o'rtasiga to'g'ri kelmaganda.
- Zarbaning kuchi yetarli bo'lmaganda (avtomobil qattiq bo'lmagan jismga urilgan, masalan, ko'cha chirog'i ustuniga yoki o'rtadagi to'siqqa urilgan).
- Urilgan joy balandda bo'lganda (yukxona eshigiga urilganda).
- Avtomobil orqasiga yoki yoniga urilganda.
- Avtomobil ag'darilib tushganda.
- Old tomondan bo'lgan to'qnashuv zarbasi himoya qiladigan panjaraga to'g'ri keladigan burchak bilan tushganda.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar


O'rindiqlik yonidagi xavfsizlik yostiqlari va boshni yon tomondan himoya qiladigan xavfsizlik yostiqlari*


Ba'zi hollarda o'rindiqlik yonidagi xavfsizlik yostiqlari va boshni yon tomondan himoya qiladigan xavfsizlik yostiqlari ochilmasligi mumkin. Quyida bunga ba'zi misollar keltirilgan:


- Yondan urilish ma'lum burchakda bo'lganda.
- Yondan urilish zarbasi yengil bo'lganda, masalan, motosikli urilganda.
- Urilish avtomobil yonining o'rtasiga to'g'ri kelmaganda, motorga yaqin yoki yukxonaga yaqin joyga urilganda.
- Avtomobil ag'darilib tushganda.
- Old tomondan bo'lgan to'qnashuv zarbasi himoya qiladigan panjaraga to'g'ri keladigan burchak bilan tushganda.
- Zarba burchagi kuchi yetarli bo'lmaganda (avtomobil qattiq bo'lmagan jismga, masalan, ko'cha chirog'i ustuniga yoki o'rtadagi to'siqqa urilganda).
- Zarba kuchi yetarli bo'lmaganda (yurib ketayotgan yoki turgan boshqa avtomobilga urilganda).
- Zarba avtomobilning orqasiga to'g'ri kelganda.


Xavfsizlik yostig'iga texnik xizmat qilish va almashtirish

Texnik xizmat qilish bilan bog'liqlik ma'lumot

 **Xavfsizlik yostig'ini o'zingiz O'RNATMANG yoki O'ZGARTIRMANG.** Avtomobil tuzilishini yoki xavfsizlik yostig'i tizimi simlari bog'lanishini o'zgartirish qat'iy ta'qiqlanadi.

 **Avtomobil tuzilishini o'zgartirish qat'iy ta'qiqlanadi.** Bunday qilish QCHT me'yorida ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

 **Bu joylarga suyuqlik TEKKIZMANG, tozalashga benzin, kir yuvadigan vositalar, mebel tozalagich yoki yaltiratgich ISHLATMANG.**

 **Suv tegsa, yoki ichiga suv tushsa QCHT shikastlanishi va ishlab ketishiga ta'sir qilishi mumkin. Shunday bo'lganda MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.**

Xavfsizlik yostig'i QSHT shikastlanmasligi uchun quyidagilar FAQAT nam mato va jild tozalagich bilan tozalanishi kerak:

- Rul chamberagi o'rtasidagi qoplama.
- Asboblar panelining yo'lovchi xavfsizlik yostig'i turadigan qismi.
- Boshni yon tomondan himoya qiladigan modullar turadigan shift qoplamasi va old ustun qoplamasi.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Xavfsizlik yostig'ining ogohlantirish chirog'i yonmasa, o'chmay yonib tursa, avtomobilning oldi yoki yoni urilgan bo'lsa, xavfsizlik yostig'ida shikastlanish alomatlarini bo'lsa zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

MUHIM MA'LUMOT

- Xavfsizlik yostig'i modulini faqat MG Vakolatli ta'mirchisi olishi yoki almashtirishi mumkin.
- Birinchi ro'yxatga olingan sanadan (yoki xavfsizlik yostig'i almashtirilgan sanadan) so'ng 10 yil o'tgach MG Vakolatli ta'mirchisi tizim ba'zi qismlarini almashtirishi kerak. Ushbu ish tugaganidan so'ng Texnik xizmat daftarining tegishli sahifasiga imzo qo'yib, tamg'a bosiladi.

Xavfsizlik yostig'i bir marta ishlab ketganidan so'ng QCHT qismlarini almashtirishingiz kerak. Iltimos, almashtirish uchun MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Xavfsizlik yostig'ini tashlab yuborish

Avtomobil sotilsa, uning yangi egasi avtomobilda xavfsizlik yostiqlari borligini va QCHT almashtirilgan sanani bilsin.

Agar avtomobil utilga tashlansa, unda ochilmagan xavfsizlik yostig'i borligi xatarli bo'lishi mumkin, shuning uchun

MG Vakolatli ta'mirchisi malakali ustasi oldin uni xavfsiz sharoitda ishga tushirishi kerak.

Xavfsizlik yostig'i tizimidagi qismlarni almashtirish

Xavfsizlik yostig'i ochilmagan bo'lsa ham to'qnashishning o'zi avtomobil QSHGga zarar qilishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i shikastlangan bo'lsa yaxshi ishlamaydi, ikkinchi to'qnashuv bo'lsa, sizni va boshqa yo'lovchilarni himoya qilolmaydi, bu esa inson jarohat olishiga, hatto, o'lishiga ham sabab bo'lishi mumkin. To'qnashishdan so'ng QCHT yaxshi ishlayotganini bilish uchun, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga borib, xavfsizlik yostig'ini tekshirtiring, zarurat bo'lsa ta'mirlating.

Xavfsizlik yostiqlari faqat bir marta ishlaydigan qilib chiqarilgan.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Bolani ushlab turadigan vositalar

Bolani ushlab turadigan vositalardan foydalangandagi muhim xavfsizlik choralari

12 yoshga to'lmagan bolalar avtomobilning orqa o'rindig'ida, bolaning vazni va bo'yiga moslab sozlab qo'yilgan bolani ushlab turadigan tizimda o'tirishlari maslahat beriladi. 2 yoshga to'lmagan go'daklar esa go'dakni ushlab turadigan tizimga o'tqazilishi lozim.

Bolani ushlab turadigan tizim UN ECE-R44 yoki ECE-R129 standartiga to'g'ri keladigan va avtomobilga mos bo'lishi tavsiya etiladi. Bolani ushlab turadigan tizimdagi belgilarni qarab, tekshirib ko'ring.

Turi va spetsifikatsiyasi har xil bo'lgan bir qancha bolani ushlab turadigan tizimlar bor. Himoya optimal bo'lishi uchun bolani ushlab turadigan tizimni bolaning yoshi va og'irligiga qarab tanlash tavsiya etiladi.

Bolani ushlab turadigan tizimga qo'shib beriladigan ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga qat'iy amal qiling va bolani ushlab turadigan tizimni avtomobilga yaxshilab mahkamlab qo'ying. Bu yo'riqqa amal qilmaslik avtomobil birdan to'xtaganda yoki urilganda bola jiddiy jarohat olishiga yoki o'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Avtomobil ichidagilarning hammasi, shu jumladan, bolalar ham xavfsizlik kamarlarini taqishi yoki to'g'ri keladigan bolani ushlaydigan vositadan foydalanishlari kerak.

- MG yoshi 12 ga to'lmagan yoki bo'yi 1,5 metrdan past bolalar to'g'ri keladigan va avtomobilning orqa o'rindig'iga mahkamlab qo'yilgan bolani ushlab turadigan vositadan foydalanishlarini qat'iy maslahat beradi.
- Bitta bola ushlagich vositaga faqat bitta bola o'tirishi kerak.
- Avtomobil o'rindig'ida bolani qo'lingizga olib yoki tizzangizga o'tqazib o'tirmang.
- O'rindiq suyanchig'ini mos qilib sozlab qo'ying va bola o'rindig'i yoki bolani ushlagich vosita mahkamlab qo'yilgan joyda o'rindiq suyanchig'i qulflab qo'yilgan bo'lsin.
- Agar orqa o'rindiqqa bola orqaga qarab o'tiradigan bolani ushlagich vosita o'rnatilsa, avtomobilning old o'rindig'i oldinga chiqarib sozlab qo'yilishi kerak; agar orqa o'rindiqqa bola oldinga qarab o'tiradigan bolani ushlagich vosita o'rnatilsa, bosh qo'ygich balandligini pastroq qilib sozlab qo'ying; agar old o'rindiqqa bola oldinga qarab o'tiradigan bolani ushlagich vosita o'rnatilsa, bosh qo'ygichni olib tashlashingiz mumkin.
- Avtomobil yurib ketayotganda bolalar o'rnidan turishlariga yoki o'rindiqda cho'kkalab o'tirishlariga aslo ruxsat bermang.
- Doim bola bolani ushlagich vositada to'g'ri o'tirganiga qarab turing.
- Xavfsizlik kamari qanday taqilishi xavfsizlik kamari beradigan himoya maksimal bo'lishiga katta ta'sir qiladi, shuning uchun, bolani ushlagich vosita ishlab chiqaruvchisining xavfsizlik kamaridan to'g'ri foydalanish haqidagi yo'rig'iga qat'iy amal qiling. Agar xavfsizlik kamari yaxshi taqilmagan bo'lsa, kichikroq yo'l harakati hodisasi ham inson jarohat olishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'rindiqlik va ushlab turgichlar

• To'g'ri mahkamlab qo'yilmagan bolani ushlagich vosita falokat bo'lganda yoki avtomobil birdan tormoz berganda joyidan qo'zg'olib, boshqalarni jarohatlashi mumkin. Shuning uchun, bolani ushlaydigan vositada bola bo'lmasa ham uni jilmaydigan qilib mahkamlab qo'yish kerak.

Bolani ushlagich vositadan old o'rindiqlikda foydalanishga tegishli ogohlantirish va yo'riqlar



! HECH QACHON orqaga qaragan, bolani ushlab turadigan o'rindiqlikni old tomondagi FAOL XAVFSIZLIK YOSTIG'I bilan himoya qilinadigan o'rindiqlikka qo'ymang, falokat bo'lsa BOLA JIDDIY JAROHAT OLISHI yoki O'LISHI ham mumkin.

! Old yo'lovchi o'rindiqlikka bolani ushlab turadigan vositani o'rnatganda old o'rindiqlikni imkoni boricha orqaga surib qo'ying.
Bitta bolaga faqat bitta bolani ushlab turadigan vosita ishlating.

Iltimos, old tomon quyoshdan pana qilgichidagi ogohlantirish yorlig'ini o'qing. Imkoni boricha bolani ushlab turadigan vositani orqa o'rindiqlikka o'rnatish. Agar bolani ushlab turadigan vositani old o'rindiqlikka o'rnatadigan bo'lsangiz, iltimos, yuqoridagi ogohlantirishga amal qiling.

Bolalar xavfsizligi va Yon xavfsizlik yostiqchlari

! Bolalarni xavfsizlik yostiqchlari ochilib ketishi mumkin bo'lgan joyga yaqinlashtirmaslik kerak, jiddiy jarohat olishlari mumkin.

! Bolaning yoshi, bo'yi va og'irligiga qarab faqat tavsiya qilingan bolani ushlab turadigan vositalardan foydalaning.

! Xavfsizlik yostiqchlari ochilib ketishi mumkin bo'lgan joyga biror buyum qo'ymang, inson jiddiy jarohat olishi mumkin.

Avtomobil yonidan urilganda yon tomondagi xavfsizlik yostiqchlari yo'lovchilarni yaxshiroq himoya qiladi. Lekin, xavfsizlik yostig'i ochilganda juda katta kattalashish kuchi hosil bo'ladi, shuning uchun, agar yo'lovchilar noto'g'ri o'tirishgan bo'lsa xavfsizlik yostig'ining o'zi yoki xavfsizlik yostig'i ochilgan tomondagi buyumlar insonni jarohatlashi mumkin.

Bolani ushlab turadigan vosita orqa o'rindiqlikka to'g'ri mahkamlangan bo'lsa va bolaning buyumlari to'g'ri joylangan bo'lsa, bola bilan yon xavfsizlik yostig'i ochiladigan zona o'rtasida yetarli oraliq bo'ladi va xavfsizlik yostig'i ochilganda hech kim shikastlanmaydi, himoya yaxshi bo'ladi.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Bolani ushlab turadigan vosita guruhlari

3 nuqtali, oyoqdan o'tadigan, diagonal xavfsizlik kamari bilan mahkamlanadi. Iltimos, orqaga qarab turadigan bola ushlab turgich vositani old yo'lovchi o'rindig'iga qo'ymang, bola jiddiy jarohat olishi, hatto o'lishi mumkin.



Bolalar, albatta, orqa o'rindiqda, bolani ushlab turadigan vositada yoki bolani ushlab turadigan tizimda o'tirishlari, 3 nuqtali, oyoqdan o'tadigan, diagonal taqiladigan xavfsizlik kamari bilan mahkamlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

ISOFIX Bolani ushlab turish tizimi

! Orqa o'rindiqdagi ISOFIX biriktirgichlari faqat ISOFIX tizimi bilan birga qo'llanadi.



Bolani ushlab turadigan vosita biriktirgichlari faqat to'g'ri o'tirgan bolaga tushadigan yukka bardosh beradigan qilib ishlangan. Ular aslo kattalar o'tiradigan o'rindiqdagi xavfsizlik kamari sifatida, tortishga yoki biror buyum, jihozni avtomobilga bog'lash uchun ishlatilmasligi kerak.

Eslatma: Bolani ushlab turadigan tizimni o'rnatganda, undan foydalanganda, albatta, ishlab chiqaruvchining qo'llanmasiga amal qiling.


Eslatma: Ushbu avtomobilning orqa o'rindig'iga ISOFIX biriktirgichi qo'yilgan (rasmda nayza bilan ko'rsatilgan), bu biriktirgich ISOFIX bolalar o'rindig'ini mahkamlashga mo'ljallangan.

- 1 Biriktiradigan qismlarga ushbu avtomobil uchun ma'qullangan ISOFIX bolani ushlab turadigan tizimini mahkamlang.
- 2 O'rindiqni o'rnatish uchun ISOFIX biriktirgichlaridan foydalanganda umumiy ma'qullangan ISOFIX bolani ushlab turadigan tizimidan foydalanish mumkin.

O'rindiq va ushlab turgichlar

Eslatma: O'rindiqqa biriktirganda umumiy ma'qullangan bolani ushlab turish tizimlarida ustki kamardan foydalanish shart.


Eslatma: To'liq ma'lumot olish uchun, iltimos, bolani ushlab turuvchi tizim ishlab chiqaruvchining qo'llanmasiga qarang.



3 Bolani ushlab turadigan tizimning ustki xavfsizlik kamarini taqqanda xavfsizlik kamarini bosh qo'ygichning ostidan o'tkazing va o'ralib qolmasligiga harakat qilib, ilmoqqa mahkamlab qo'ying. Agar ISOFIX pastki mahkamlagichlaridan foydalanmasangiz, xavfsizlik kamaridan foydalansangiz, bolani ushlab turuvchi tizim ishlab chiqaruvchining qo'llanmasiga aytilganlarga amal qilib o'rnatishni tugating.

4 O'rnatib bo'lgandan so'ng bolani ushlagich mahkam birikkanini tekshirish uchun bir oz kuch bilan tortib ko'ring.

Eslatma: Bolani ushlab turadigan tizimni o'rnatganda, undan foydalanganda, albatta, ishlab chiqaruvchining qo'llanmasida aytilganlarga amal qiling.



O'rindiq va ushlab turgichlar

Tasdiqlangan bola himoya qilinadigan o'rinlar

Bolani ushlab turadigan tizim UN ECE-R44 yoki ECE-R129 standartiga to'g'ri keladigan va avtomobilga mos bo'lishi tavsiya etiladi. Bolani ushlab turadigan tizimdagi belgilarni qarab, tekshirib ko'ring.

Tasdiqlangan bola ushlab turiladigan holat (ISOFIX bolani ushlab turish tizimlaridan boshqa tizimlar uchun)

Umumiy guruh	O'tirgandagi holat			
	Old yo'lovchi		Ortki tashqi	Ortki o'rta
	Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ini O'chirish (OFF) tugmasi bilan			
	Xavfsizlik yostig'i ishlatib qo'yilgan (ON)	Xavfsizlik yostig'i o'chirib qo'yilgan (OFF)		
0 guruh (10 kg dan kam)	X	U	U	U
0+ guruh (13 kg dan kam)	X	U	U	U
I guruh (9~18 kg)	X	U	U	U
II guruh (15~25 kg)	X	U	U	U
III guruh (22 ~ 36 kg)	X	U	U	U

O'rindiq va ushlab turgichlar

Tasdiqlangan bola ushlab turiladigan holat (ISOFIX bolani ushlab turish tizimlari uchun)

O'tirgandagi holat		Umumiy guruh toifalari			
		0 guruh	0+ guruh	I guruh	
		Orqaga qaragan		Oldinga qaragan	Orqaga qaragan
		29 funt (13 kg) gacha		20–40 funt (9~18 kg)	
Old yo'lovchi o'rindig'i	O'lcham sinfi	ISOFIX bilan jihozlanmagan			
	O'rindiq turi				
ISOFIX tashqi orqa o'rindig'i	O'lcham sinfi	C, D, E ₁	A, B, B1 ¹	C, D ¹	
	O'rindiq turi	IL ¹	IL, IUF	IL	
Orqaga qo'yiladigan o'rta o'rindiq	O'lcham sinfi	ISOFIX bilan jihozlanmagan			
	O'rindiq turi				

Eslatma: IL Yarim umumiy toifadagi ba'zi ISOFIX bolani ushlab turish tizimlariga to'g'ri keladi. Iltimos, avtomobil uchun tavsiya qilingan ro'yxatdagi bolani ushlab turish tizimi sotuvchilari bilan maslahatlashing;

IUF Ushbu umumiy guruh va ISOFIX o'lcham sinfi uchun ma'qullangan umumiy toifadagi ISOFIX oldinga qaragan bolani ushlab turish tizimlari uchun to'g'ri keladi.

1. Umumiy va yarim umumiy bola o'rindig'i tizimlari uchun ISOFIX o'lcham sinfi A ~ katta harfi bilan belgilanadi
2. Ushbu identifikatsiya harflari ISOFIX bola o'rindig'ida yozilgan bo'ladi;
3. 0+ guruhi tavsiya qilinishi chop etilgan vaqtda ISOFIX xavfsiz bola o'rindig'i Britax Romer xavfsiz bola plyus bo'ldi;
4. I guruh tavsiya qilinishi chop etilgan vaqtda ISOFIX bola o'rindig'i Britax Romer Duo bo'ldi.
4. II-III guruh tavsiya qilinishi chop etilgan vaqtda ISOFIX bola o'rindig'i KidFix II XP SICT va KidFix 2R bo'ldi.

O'rindiq va ushlab turgichlar

I-jadval. Bola o'rindiqlari o'lchami

I-jadvalda I-o'lchamli bola o'rindiqlari qayerga qo'yilishi va qaysi o'lchamdagi bolalarga to'g'ri kelishi yozilgan. Bola o'rindig'i UN Reg R129 ga muvofiq tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bola o'rindig'ining turi	Old yo'lovchi o'rindig'i	Orqaga qo'yiladigan tashqi o'rindiqlar	Orqaga qo'yiladigan o'rta o'rindiq
I-o'lchamli bolani ushlab turadigan tizimlar	X	I-U	X

Eslatma: I-U yuz oldinga qaraydigan va yuz orqaga qaraydigan I-o'lcham bolani ushlab turish tizimlariga to'g'ri keladi. X I-o'lchamli ushlab turadigan tizimlarga to'g'ri kelmaydi.

O'rindiq va ushlab turgichlar

0/0+ guruh bolani ushlab turgichlar

! Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i ishlatib qo'yilganda aslo yuz orqaga qaraydigan bolani ushlab turgichni old yo'lovchi o'rindig'iga qo'ymang, falokat bo'lganda bola jarohatlanishi yoki o'lishi ham mumkin.



Yotqizib qo'ysa bo'ladigan bola ushlab turgich og'irligi 10 kg dan yengil (yoshi 9 oydan oshmagan) bolalarga yoki og'irligi 13 kg dan oshmaydigan (yoshi 24 oydan oshmagan) bolalarga ayni mos.

I-guruh bola ushlab turgich

! Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i ishlatib qo'yilganda aslo yuz orqaga qaraydigan bolani ushlab turgichni old yo'lovchi o'rindig'iga qo'ymang, falokat bo'lganda bola jarohatlanishi yoki o'lishi ham mumkin.



Orqa tomonga va old tomonga qaraydigan bola ushlab turgichlar og'irligi 9~18 kg bo'lgan (9 oylikdan katta va 4 yoshdan kichik) bolalarga ayni mos keladi.

O'rindiq va ushlab turgichlar

II-guruh bola ushlab turgich

Xavfsizlik kamarining diagonal qismi yelka va tananing yuqori qismidan o'tishi, biroq bo'yindan nariroq bo'lishi kerak. Xavfsizlik kamarining oyoq qismi sondan o'tishi, lekin qorindan uzoqroq bo'lishi lozim.



Bola ushlab turgich va 3 nuqtali, sondan diagonal o'tadigan, birlashgan xavfsizlik kamari og'irligi 15~25 kg bo'lgan (3 yoshdan katta va 7 yoshdan kichik) bolalarga ko'proq mos keladi.

III-guruh bola ushlab turgich

Xavfsizlik kamarining diagonal qismi yelka va tananing yuqori qismidan o'tishi, biroq bo'yindan nariroq bo'lishi kerak. Xavfsizlik kamarining oyoq qismi sondan o'tishi, lekin qorindan uzoqroq bo'lishi lozim.



Bola buster o'rindig'i bilan avtomobildagi 3 nuqtali oyoqdan va tanadan diagonal o'tadigan xavfsizlik kamari birlashgani og'irligi 22 ~ 36 kg va bo'yi 1,5 metrdan past (7 yoshga yaqin va 7 yoshdan kattaroq) bolalarga ko'proq to'g'ri keladi.

O't oldirish va haydash

Kalitlar	102
Bolalardan berkitadigan qulf	104
O'g'rilikka qarshi tizim	105
Motorni o't oldirish va o'chirish	113
Tejamli va muhitni ehtiyot qilib haydash	116
Katalitik neytralizator va qurum filtri	118
Yoqilg'i tizimi	120
Mexanik transmissiya *	122
Qo'shaloq birikkichli sportronik transmissiya*	124
Haydash holati *	131
Tormoz tizimi	134
Shina bosimini kuzatish tizimi (SHBKT)	145
O'T OLDIRISH-O'CHIRISH Intellektual yoqilg'i tejash tizimi	146
Kruiz boshqarish tizimi	150
Mashina qo'yishga yordam berish tizimi	152
Orqaga yurganda haydovchiga yordam berish tizimi*	154
Yuk ko'tarish	158

O't oldirish va haydash

Kalitlar


Umumiy ma'lumot

! Iltimos, bitta ortiqcha kalitni xavfsiz joyga olib qo'ying - avtomobil ichiga qo'ymang!

! Qo'shimcha kalitlarni bitta kalitbog'da olib yurish tavsiya qilinmaydi, chunki bir-biriga xalaqit berib avtomobil kalitni tanishini qiyinlashtirishi va shuning uchun avtomobil elektr tizimi to'g'ri ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

! Smart kalit ichida nozik elektron konturlar bo'lgani uchun uni urilishdan, suv tegishidan, yuqori haroratdan, namlikdan, quyosh nuri to'g'ri tushishidan, turli eritgichlar, mum ta'siridan saqlang, qirib tozalaydigan vositalar bilan tozalamang.

Avtomobilingizga ikkita smart kalit beriladi, har birining bittadan mexanik qo'shimcha kaliti bo'ladi va bu mexanik kalitlar bilan faqat haydovchi eshigidagi mexanik qulfni ochish mumkin. Smart kalitlar avtomobilning xavfsizlik tizimiga dasturlab qo'yilgan, avtomobilga dasturlab qo'yilmagan boshqa kalit kalitsiz kirish funksiyasini yoki avtomobil blokiratorini ishlatmaydi.



- 1 Qulflash tugmasi
- 2 Yukxona eshigini ochadigan tugma
- 3 Qulfni ochadigan tugma
- 4 Smart (aqlli) kalit
- 5 Qo'shimcha mexanik kalit

Smart kalit faqat ma'lum masofada ishlaydi. Kalit ishlaydigan masofaga ba'zan kalitdagi batareyaning quvvati, jismoniy va geografik omillar ta'sir qiladi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan, avtomobilingizni smart kalit bilan qulflagandan so'ng, iltimos, avtomobil qulflanganini yana bir marta tekshirib ko'ring.

Kalitingiz yo'qolsa/o'g'irlansa, buzilgan bo'lsa MG Vakolatli ta'mirchisidan boshqa kalit olasiz. Yo'qolgan/o'g'irlangan kalit o'chirib qo'yilishi mumkin. Yo'qolgan kalit topilsa MG Vakolatli ta'mirchisi uni yana ishlatib qo'yishi mumkin.

O't oldirish va haydash

Eslatma: Boshqa tashkilot yasagan kalit avtomobilni o't oldirmasligi va avtomobilingiz xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. Boshqa kalit olish uchun MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.


Eslatma: Murojaat qilishingiz bilan sizga yangi kalit berishmaydi, chunki MG Vakolatli ta'mirchisi oldin kalitni avtomobilga dasturlab qo'yishi kerak bo'ladi.

Eslatma: Smart kalitni radio signalga xalaqit beradigan vositalar (masalan, noutbuk, kompyuter, boshqa elektron asboblar)ga yaqin joyda ishlatmang, kalit me'yorida ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

Akkumulyatorni almashtirish

Quyidagilarning birortasi bo'lganda, iltimos, rasmga qarab smart kalit batareyasini almashtiring:

- Smart kalit quflaydigan/qulfni ochadigan masofa kamaysa;
- Displayda "Smart kalit quvvati kamaygan, iltimos, batareyasini almashtiring" degan yozuv ko'rinsa.



- 1 Dekorativ qoplamani ochish uchun smart kalitdagi (A) tugmani bosing.
- 2 Nayza bilan ko'rsatilgan tomondagi mexanik kalitni (B) oling.
- 3 To'g'ri keladigan birorta tig'i yassi asbobni kalit yoniga kiriting (C), ehtiyot bo'lib batareya qopqog'ini oching va korpusning usti bilan pastini bir-biridan ajrating.
- 4 Batareyani slotdan chiqarib oling.
- 5 Slotga yangi batareya solib qo'ying, yangi batareya slotga to'liq tegib turganini tekshirib ko'ring.

Eslatma: Batareyaning qutblarini to'g'ri qo'ying ("+" tomoni pastda bo'ladi).

Eslatma: CR2032 turidagi batareyadan foydalanish tavsiya etiladi.

O't oldirish va haydash

6 Qopqog'ini joyiga qo'yib, zichlab yopib qo'ying, qopqoq bilan korpus orasi ochilib qolmasligi kerak.

7 Mexanik kalitni joyiga qo'ying va dekorativ qoplamani yoping.

8 Avtomobil bilan kalitni qaytadan sinxronlash uchun avtomobil elektr tizimini READY (TAYYOR) tomonga o'tkazib qo'ying.

Ishlatilgan tugma/tanga ko'rinishidagi batareyalarni tashlab yuborishga tegishli maslahat

Ishlatilgan tugma/tanga batareyalar borasida quyidagi tavsiyalarga amal qilishingizni so'raymiz:

- Ishlatilgan tugma/tanga batareyalarni zudlik bilan tashlab yuboring.
- Ishlatilgan tugma/tanga batareyaning ikki tomonini ham yopishqoq tasma bilan o'rab zudlik bilan tashqaridagi axlat idishga tashlang, bolalarning qo'lga tushmasin, yoki eski batareyalarni xavfsiz qayta ishlashga bering.


MUHIM MA'LUMOT

- To'g'ri kelmaydigan yoki tushmaydigan batareya ishlatilsa smart kalit shikastlanishi mumkin. Yangi qo'yiladigan batareyaning kuchlanishi, o'lchami va spetsifikatsiyasi oldingisidek bo'lishi kerak.
- Batareya noto'g'ri qo'yilsa, kalit shikastlanishi mumkin.
- Ishlatilgan batareya tegishli atrof muhitni himoya qilish qonunchiligiga muvofiq chiqitga tashlanishi kerak.

Bolalardan berkitish qulfi



Bolalarni aslo avtomobilning ichida QAROVSIZ QOLDIRMANG.



Bolalardan berkitadigan qulf quyidagicha ishlatiladi va o'chiriladi:

- Tegishli tomondagi orqa eshikni oching, nayza bilan ko'rsatilgan tomonga qaratib bolalardan berkitadigan qulf dastagini qulflanadigan tomonga o'tkazib qo'ying va bolalardan berkitadigan qulfni qulflang.
- Bolalardan berkitadigan qulfni ochish uchun shuning teskarisini qilib, dastakni qulflanmaydigan tomonga o'tkazib qo'ying.

Bolalardan berkitadigan qulf qulflab qo'yilgan bo'lsa orqa eshikni ichkaridan ochib bo'lmaydi, uni faqat tashqaridan ochish mumkin.

O't oldirish va haydash

O'g'irlashga qarshi tizim

Avtomobilingizga elektron o'g'irlashga qarshi signalizatsiya va elektrdan uzish tizimi o'rnatilgan. Avtomobilingizni maksimal himoya qilish va o'zingizga qulay bo'lishi uchun qo'llanmaning o'g'irlikka qarshi tizim qanday ishlatilishi va o'chirilishi yozilgan bobini diqqat bilan o'qib chiqishni tavsiya qilamiz.

Elektrdan uzish

Elektrdan uzish tizimi avtomobilni o'g'irlanishdan himoya qilish uchun ishlangan. Elektrdan uzish tizimi faqat avtomobilni to'g'ri keladigan kalit bilan o't oldirish uchun o'chirib qo'yilishi mumkin.

Asboblar panelidagi START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosib, kalit to'g'ri kelishi ma'lum bo'lganidan so'ng elektrdan uzish tizimi avtomatik o'chadi.

Agar Axborot markazida "Smart kalit topilmadi" yoki "Kalitni qo'shimcha holatga soling" degan yozuv ko'rinsa, yoki elektrdan uzish tizimi chirog'i yonsa, iltimos, kalitni qo'shimcha holatga soling ("Elektr tizimni ishlatish va o'chirish" bobidagi "O't oldirishning boshqa usuli" bo'limiga qarang) yoki qo'shimcha kalitni ishlatib. Agar avtomobil shunda ham o't olmasa, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Kuzovdagi o'g'irlashga qarshi tizim

Qulfni ochish va yopish

Avtomobil qulflanganda shuni ko'rsatadigan chiroq uch marta o'chib yonadi; avtomobilning qulfi ochilganda esa burilish chiroqlari bir marta o'chib yonadi.

Eshik qulfining ishlashi (Kalit)

Kalit bilan qulflash

- Masofadan ishlaydigan kalitdan foydalanganda: Avtomobil eshiklarini, kapotini va yukxona eshigini berkitgandan so'ng qulflash uchun kalitdagi qulflash tugmasini bosib.
- Mexanik kalitdan foydalanish: Bu kalit faqat eshik tutqichidagi qulfni berkitadi. Kalitni olish uchun to'g'ri keladigan birorta tig'i yassi asbobni qopqoq ostiga kiriting, ehtiyot qilib kalitni berkitib turadigan qopqoqni oching, kalitni haydovchi eshigidagi qulfga soling va avtomobilni qulflash uchun soat mili tomonga aylantiring.

O't oldirish va haydash

Kalit bilan qulfni ochish

- Masofadan ishlaydigan kalitdan foydalanganda: kalitdagi qulfni ochish tugmasini bosib.
- Mexanik kalit bilan qulfni ochish: Bu kalit faqat eshik tutqichidagi qulfni ochadi.

Kalitni olish uchun to'g'ri keladigan birorta uchi yassi asbobni qopqoq ostiga kiritib, ehtiyot qilib kalitni berkitib turadigan qopqoqni ochib, kalitni haydovchi eshigidagi qulfga soling va avtomobil qulfini ochish uchun soat miliga teskari aylantiring.

Eslatma: Agar START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ACC yoki ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qo'yilmasa yoki avtomobil mexanik kalit bilan ochilganidan so'ng 15 sekund ichida masofadan ishlaydigan kalitdagi qulfni ochish tugmasi bosilmasa, avtomobil elektrdan uzib qo'yilganini bildiradigan signalizatsiya ishlab ketadi.

Eslatma: Avtomobil masofadan ishlaydigan kalit bilan ochilganidan so'ng 30 sekund ichida birorta ham panel ochilmasa, barcha eshiklar avtomatik qaytadan qulflanib qoladi.

Eshik qulfi tizimining ishlashi (Kalitsiz)

Yoningizda smart kalit bo'lsa avtomobilga yaqinlashganingizda kalitsiz kirish tizimi eshiklarni qulflashi, qulfini ochishi yoki yukxona eshigini ochishi mumkin.

Kalitsiz qulflash

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini OFF (O'CHGAN) tomonga o'tkazish bilan avtomobil elektr tizimini o'chirib, avtomobildan tushganingizdan so'ng avtomobildan uzoqlashishdan oldin eshik dastagidagi tugmani bir marta bosib, hamma eshiklar bilan yukxona eshigini qulflang (kalitdagi qulflash tugmasini bosish shart bo'lmaydi). Eslatma: Shunday qilganda ham avtomobil signalizatsiyasi va elektrdan uzgichi ishlatib qo'yiladi.

Kalitsiz qulfni ochish

Avtomobil qulfini ochish uchun old eshik dastagidagi tugmani bosib, so'ng dastagini tortib eshikni oching.


Eslatma: Avtomobil qulflanib turganda smart kalit ishlaydigan masofada bo'lsangiz, eshik dastagidagi tugmani bosgandan so'ng 30 sekund ichida biror boshqa harakat qilmasangiz avtomobil avtomatik ravishda eshiklarni qaytadan qulflaydi va o'zini xavfsiz qiladi.

MUHIM MA'LUMOT

- Kalitsiz tizim to'g'ri ishlashi uchun smart kalit avtomobildan 1,5 m joyda bo'lishi kerak.

O't oldirish va haydash

Eshik qulflanmagandagi holat



MUHIM MA'LUMOT

- Eshik kalit bilan qulflanganidan so'ng eshik dastagidagi tugmani bosib avtomobil qulfini oching. Agar eshik qulflanmasa, yoki qulfi ochilmasa MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Smart kalitdagi qulflash tugmasi bosilganda eshik to'liq yopilgan bo'lsa, yoki avtomobilning elektr tizimi OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilmagan bo'lsa, avtomobil eshik qulflanmaganini bildirib, bir marta signal chaladi. Shunday bo'lganda avtomobilning bitta ham eshigi qulflanmaydi, signalizatsiya ishlatib qo'yilmagan bo'ladi va yo'nalish ko'rsatkichlari o'chib-yonmaydi.

Haydovchi tomondagi eshik yopiq, lekin yo'lovchi tomondagi eshik, kapot yoki yukxona eshigi ochiq qolganda avtomobilni qulflamoqchi bo'lsangiz avtomobil bir marta signal chalib eshik qulflanmaganini bildiradi. Shunday bo'lganda korpusdagi o'g'rilikka qarshi vositalar "qisman ishlaydi" (qulflangan eshiklar, kapot yoki yukxona eshigi himoya qilinadi, lekin ochiq qolgan eshik himoya qilinmaydi!). Ochiq qolgan eshik yopilishi bilan tizim avtomatik ravishda qo'riqlanish holatiga o'tadi; agar masofadan ishlaydigan kalit yana avtomobil ichiga qo'yilsa, (yoki qolib ketsa) ochiq qolgan eshik yopilishi bilan avtomobil avtomatik ravishda eshik qulfini ochadi.

Eslatma: Avtomobil qulflanib turganda faqat yukxona qulfini ochib eshigini oching, masofadan ishlaydigan kalitni qaytarib avtomobil ichiga qo'ying (yoki orqasiga tashlab qo'ying) va yukxona eshigini yoping.


Shunda yukxona eshigi avtomatik ochiladi va boshqa yopilmaydi.

O'g'rilikka qarshi signalizatsiya

O'g'rilikka qarshi signalizatsiya ishlab ketganda avtomobil signali to'xtovsiz chalinib turadi. Kalitdagi UNLOCK (QULFNI OCHISH) tugmasini bossangiz o'g'rilikka qarshi signalizatsiya chalinishi to'xtaydi.

O't oldirish va haydash

Ichki qulflash va qulfni ochish tugmasi



- 1 Qulfni ochadigan tugma
- 2 Qulflash tugmasi

Korpusdagi o'g'rilikka qarshi tizim ishlamayotganda hamma eshiklar yopilganidan so'ng ularni qulflash uchun qulflash tugmasini (2) bosib; hamma eshiklar qulfini ochish uchun esa qulfni ochish tugmasini (1) bosib.

Eslatma: Agar korpusdagi o'g'rilikka qarshi tizim ishlatib qo'yilgan bo'lsa, qulflash/qulfni ochish tugmasini bosish eshik qulfini ochmaydi/qulflamaydi, signalizatsiyani ishlatib yuboradi.

Eshiklar, kapot va yukxona eshigi yopiq bo'lsa, ichki qulf tugmasini bosib, ichki qulf tugmasidagi sariq chiroq yonadi.

Agar haydovchi eshigidan boshqa eshik, kapot yoki yukxona eshigi qulflanmay qolsa, ichki qulf tugmasini bosib, ichki qulf tugmasidagi sariq chiroq yonadi.

Ichki eshik tutqichlari

Qulfini va o'zini ochish uchun eshik tutqichini torting.

Tez yurganda qulflash

Yo'ldagi tezlik soatiga 15 kilometr dan oshganda hamma eshiklar avtomatik qulflanadi.

Avtomatik qulfni ochish

Avtomobilning elektr tizimi OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilsa, hamma eshiklar qulfi avtomatik ochiladi.

O't oldirish va haydash


Yukxona eshigini qo'lda ochish *

! Agar yukxona eshigi avtomobil yurib ketayotgan vaqtda tugma bosib ochiq turishi kerak bo'lsa, yoki yukxona eshigi bilan avtomobil kuzovi o'rtasidagi zichlagich tasma buzilgan bo'lsa, tashqaridagi avtomobillardan chiqayotgan tutun ichkariga kirmasligi uchun hamma oynalarni yoping, konditsionerni havo yuzga uradigan qilib ishlatib qo'ying, ventilyatorni shamol maksimal keladigan qilib burang.

Yukxona eshigini quyidagi 2 xil usul bilan qo'lda ochish mumkin:

1 Yukxona eshigi qulfini ochish uchun tugmani (B) 2 sekunddan ko'proq bosib ushlab turing. Shunda yukxona eshigini ko'tarib ochish mumkin bo'ladi.

2 Avtomobilning qulfi ochilgan bo'lsa yoki to'g'ri keladigan kalit yukxona eshigidan 1 m narida bo'lsa yukxona eshigidagi tugmani (A) bosib ochishingiz mumkin.



Yukxona eshigini tugma bilan ochish *

! Agar yukxona eshigi avtomobil yurib ketayotgan vaqtda tugma bosib ochiq turishi kerak bo'lsa, yoki yukxona eshigi bilan avtomobil kuzovi o'rtasidagi zichlagich tasma buzilgan bo'lsa, tashqaridagi avtomobillardan chiqayotgan tutun ichkariga kirmasligi uchun hamma oynalarni yoping, konditsionerni havo yuzga uradigan qilib ishlatib qo'ying, ventilyatorni shamol maksimal keladigan qilib burang.


Yukxona eshigini ishlatishdan oldin, biror a'zosi qisilib qolmasligi yoki lat yemasligi uchun eshik atrofida biror inson bo'lmasin.

Avtomobil tezlik dastagi P tomonda turgandagina avtomobil eshigi tugma bosib ochiladi.

Yukxona eshigi ochilayotganda/yopilayotganda tizim haydovchini ovoz chiqarib ogohlantiradi.

O't oldirish va haydash


Yukxona eshigini tugma bilan ochish/yopish holati



Yukxona eshigi quyidagi usullardan biri bilan ochilishi yoki yopilishi mumkin:

- Yukxona eshigini tashqaridan ochish/yopish: Avtomobil qulfi ochilgandan so'ng yoki to'g'ri keladigan kalit yukxonadan 1 m narida bo'lganda yukxona eshigini ochish uchun A tugmani bosib, yopish uchun esa B tugmani bosasiz.

- Yukxona eshigini tugma bosib ochish/yopish: Yukxona eshigini avtomatik ochish yoki yopish uchun smart kalitdagi D tugmani bosib.
- Yukxona eshigini ichkaridan ochish/yopish: Yukxona eshigini avtomatik ochish yoki yopish uchun o'rta konsoldagi C tugmani bosib ushlab turing. (Avtomobil tashqaridan qulflangan bo'lsa, bu tugma bilan yukxona eshigini ochib/yopib bo'lmaydi).



O't oldirish va haydash

Eslatma: *Avtomobil juda qiya joyda yurib ketayotganda markaziy tortish kuchi o'zgartirish bo'is yukxona eshigi tugma bilan ochilmasligi mumkin.*

Yukxona eshigi yaxshi ochilmayotgan bo'lsa, uni qo'lda sekin oching va so'ng zichlab yoping, shunda yukxona eshigi tugma bilan kerakli balandlikda ochiladigan va to'liq yopiladigan bo'ladi.

Eslatma: *Tugma bosilganidan so'ng, yukxona eshigi qo'lda ochilganda yukxona eshigini avtomatik ishlatish tizimi buzilmasligi uchun eshigini siltab yoki tez ochmang, yopmang.*

Yukxona eshigi pastga tushganidan so'ng, uni elektr qulf bilan qulflab qo'ying.

Qisilib qolmaslik funksiyasi

Ochilayotganda: Yukxona eshigi ochilayotganda biror narsa xalaqit berayotganini sezsa, ochilishdan to'xtaydi va orqaga qaytib ma'lum burchakda to'xtab nimadir xalaqit berayotganini bildiradi.

Yopilayotganda: *Yukxona eshigi yopilayotganda biror narsa xalaqit berayotganini sezsa, yopilishdan to'xtaydi va orqaga qaytib ma'lum burchakda to'xtab nimadir xalaqit berayotganini bildiradi.*

Eslatma: *Agar qisilib qolmaslik funksiyasi bir necha marta ishlab ketsa, himoya qilish maqsadida, tizim tugma bosib ochishni/yopishni to'xtatadi. Shunday bo'lganda yukxona eshigi qo'lda yopilsa, tizim yana oldingidek tugma bosib ishlaydigan bo'ladi.*

Eslatma: *Agar yukxona eshigi kam vaqtda bir necha marta ishlatilsa, tizimning qizib ketishdan himoya qilish funksiyasi ishlab ketib tugma bosib yukxona eshigini ochish/yopish vaqtincha to'xtab turadi. Shunday bo'lganda 1 daqiqa kutib turing, tizim yukxona eshigini tugma bosib ochish/yopish funksiyasi o'zi ishlab ketadi.*

O't oldirish va haydash

Yukxona eshigini tugma bilan ochganda, ochiladigan balandligini to'g'rilab qo'yish

Foydalanuvchi yukxona eshigidagi Close (Yopish) tugmasini bosib yoki multimedia pleyer ekranida tugma bosilganda yukxona eshigi ochiladigan balandlikni belgilab qo'yishi mumkin. Yukxona eshigini avtomatik ochish tizimi yangi ochiladigan balandlikni yozib qo'yadi.

Eslatma: Tugma bosilganda yukxona eshigi ochiladigan balandlik umumiy ko'tarilish oralig'ining 40 foizi bilan 100 foizi o'rtasida sozlab qo'yilishi mumkin.

1-sozlash usuli:

- 1 Yukxona eshigini o'zingiz istagan balandlikka ko'taring va u shu balandlikda tursin.
- 2 Yukxona eshigidagi Close (Yopish) tugmasini 3 sekund bosib ushlab turing, vizillagan ovoz eshitilib yukxona eshigi ochiladigan balandlik belgilab qo'yilganini bildiradi.

2-sozlash usuli:

Multimedia pleyerni yoqing, displeyida chiqqan Sozlash menyusida yukxona eshigi ochiladigan balandlikni sozlash interfeysga kiring va sirg'algichni kerakli tomonga o'tkazib qo'ying.


Eslatma: Yukxona eshigini tugma bosib ochish tizimi ishlamay qolsa, asboblarni panelidagi ma'lumot markazida "Yukxona eshigini elektron ochish tizimi nosoz" degan yozuv va belgi paydo bo'ladi. Shunday bo'lganda, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Yukxona eshigini falokat bo'lganda ochish

Yukxona eshigini falokat bo'lganda ochish tugmasi yukxona eshigi qulfining ichki tomonida bo'ladi.

Orqa o'rindiqni tushirib yukxona qoplamasidagi falokat vaqtida ochish teshigini berkitib turadigan tiqinni oching.

Tiqinni yuqoriga torting va yukxonani ichkaridan ochish uchun biror asbob bilan falokat vaqtida ochadigan tugmani soat miliga teskari burang.



O't oldirish va haydash

Motorni o't oldirish va o'chirish

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi



Kalitsiz START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi asboblar panelida, rul kolonkasining o'ng tomonida, bosiladigan tugma ko'rinishida bo'ladi. Tizim ishlashi uchun smart kalit avtomobilning ichida bo'lishi kerak.

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi hozir qaysi holatda ekani quyidagilar bilan ko'rsatiladi:

Ko'rsatish chirog'i o'chgan (OFF)

Motor o'chirilgan holatga o'tkazib qo'yilgan.

Sariq chiroq (ACC)

OFF (O'CHIRILGAN) holatda turgan avtomobil START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi bosilib ACC holatiga o'tkazib qo'yilgan. Bunday holatda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi yorishadi, ba'zi elektr asboblari, masalan, oynani ochib/yopadigan

tugma ishlaydi.

Yashil chiroq (ON/RUNNING) (YOQILGAN/ISHLAYAPTI)

- ACC holatida turganda birorta ham boshqa ish bajarilmasa va START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi yana bir marta bosilsa, motor o't olmaydi va avtomobil ON (YOQILGAN) holatga o'tadi. Shunday bo'lganda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi yashil yonadi, o'lhagichga o'xshagan ba'zi elektr asboblari ishlashi mumkin.
- Motor o't olganida avtomobil RUNNING (ISHLAYAPTI) holatiga o'tadi va hamma elektr asboblari ishlaydi.

Eslatma: *OFF (O'CHIRILGAN) holatida haydovchi smart kalitni avtomobil ichida qoldirib avtomobildan chiqib haydovchi eshigini yopsa, haydovchi eshigi yana ochilib vizillagan ovoz eshitiladi va asboblari panelidagi Axborot markazidagi ogohlantirish yozuvi kalit avtomobil ichida ekanini bildiradi.*

Eslatma: *Elektron tezlik dastagini P dan olib qo'yish uchun avtomobil ON/RUNNING (YO'QILGAN/ISHLAYAPTI) holatiga o'tkazilgan bo'lishi, tormoz pedali bosilishi kerak.*

Agar avtomobilga kuchli radiosignallar ta'sir qilayotgan bo'lsa, tugma bosib motorni o't oldirish to'g'ri kelmasligi mumkin, chunki kuchli radiosignallar kalitsiz o't oldirish tizimi me'yorida ishlashiga xalaqat beradi.

O't oldirish va haydash

Motorni o't oldirish

! Hech qachon havo aylanmaydigan bino ichida motorni o't oldirmang yoki motori ishlab turgan avtomobilni qoldirib ketmang. Avtomobildan chiqadigan tutun tarkibidagi zaharli uglerod oksidi insonni xushidan ketkazib qo'yadi, hatto, o'limga ham olib kelishi mumkin.

! To'g'ri kelmaydigan yoqilg'i ishlatilsa, katalitik neytralizator shikastlanishi yoki motor o't olishida muammo bo'lishi mumkin. Motorni o't oldirishdan oldin, iltimos, "Katalitik neytralizator" bo'limida yozilgan ehtiyot choralarini diqqat bilan o'qib chiqing.

Motorni o't oldirish

- 1 Zarur bo'lmagan barcha elektr asboblarni (shu jumladan, konditsionerni ham) o'chiring;
- 2 Qo'l tormozini ishlatib qo'ying (Shu bobdagi "Tormoz tizimi" bo'limiga qarang);
- 3 Tezlik dastagi P yoki N tomonda turganini qarab ko'ring va tormoz pedalini bosing;
- 4 START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosing va avtomobil motori o't olishi bilan qo'yib yuboring.

O't oldirishning boshqa tartibi



Agar avtomobil radio signallar kuchli bo'lgani uchun smart kalit ishlashiga xalaqit beradigan joyda turgan yoki smart kalitning batareyasi kam bo'lsa, iltimos, avtomobilni o't oldirish uchun quyidagilarni bajaring:

- 1 Smart kalitni ko'rsatilgandek qilib va ko'rsatilgan burchakda qo'ying.
- 2 Tormoz pedalini qo'yib yuboring va motorni o't oldirish uchun START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosing.

Kalit batareyasi almashtirilgandan so'ng yoki avtomobil radioto'lqin xalaqit beradigan joydan uzoqlashgandan keyin ham motorni kalitsiz o't oldirib bo'lmasa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

O't oldirish va haydash

Motorni o't oldirgandagi ehtiyot choralari

Motor o't olayotganda akselerator pedalini bosmang. Startyorni bir martada 15 sekunddan ko'p ishlatmang. Agar motor o't olmasa, START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini o'chiring, yana o't oldirishdan oldin kamida 10 sekund kutib turing.

Harorat -10°C daraja va undan past bo'lgan sharoitda motor o't olishiga ko'proq vaqt ketadi. Avtomobil o't olayotganda zarur bo'lmagan elektr asboblarni o'chirib qo'yish juda muhim hisoblanadi.

MUHIM MA'LUMOT

- Agar 3 marta ketma-ket uringanda ham motor o't olmasa, yordam so'rab murojaat qiling. Motorni o't oldirish uchun ketma-ket harakat qilganda, iltimos, bitta urinish bilan boshqasi o'rtasida 10 daqiqa tanaffus qilib akkumulyator quvati tiklanishiga va motor sovishiga imkon bering, shunday qilmasangiz akkumulyator yoki motor shikastlanishi mumkin.
- Motor ishlamayotganda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini ACC yoki ON/RUNNING (O'T OLGAN/ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qoldirib ketmang, aks holda elektr jihozlar ishlash turgani uchun akkumulyatorning quvvati qolmasligi mumkin.
- Avtomobilga motor blokiratori o'rnatilgan. Qo'lda yasalgan boshqa kalit avtomobil motorini o't oldirolmaydi.
- Avtomobilingizni elektron nazorat tizimi nazorat qilib turadi. Motorni o't oldirganda, iltimos, avtomobil yaqinida elektromagnit to'lqin chiqarib xalaqit beradigan vositalar yo'qligini qarab ko'ring. Bunday vositalar avtomobil nazorat tizimi noto'g'ri ishlashiga sabab bo'lishi mumkin.

O't oldirish va haydash

Motorni o'chirish

Motorni quyidagicha o'chirasiz:

- 1 Avtomobil to'xtaganidan so'ng DOIM tormoz pedalini bosing;
- 2 Tormoz dastagini tortib qo'ying;
- 3 Tezlik dastagini P tomonga o'tkazib qo'ying;
- 4 Motorni o'chirish uchun START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bosing.

Tejamli va atrof muhitni himoya qilib haydash

Avtomobilni chiniqtirish

Kundalik ishlashga moslashishi uchun motor, transmissiya, tormoz va shinalarga ma'lum bir moslashish vaqti kerak bo'ladi. Birinchi 900 mil (1500 km) yo'l yurganda avtomobilni chiniqtirish qoidalariga muvofiq, quyidagilarni e'tiborga olib haydashingiz lozim bo'ladi:

- Qanday tezlikla bo'lsa ham motor aylanishi 3000 ayl/daqiqadan va avtomobil tezligi soatiga 120 km dan oshmasligi kerak.
- Gazni to'liq bosib haydamang va tezlik uzatgichni istalgan tezlikda ishlatmang.
- O'zgarmas tezlikda (faqat yuqori tezlik yoki faqat sekin tezlikda) haydamang
- Imkoni boricha qattiq tormoz bermaslikka harakat qiling.

900 mil (1500 km)dan so'ng motor tezligini sekin-sekin oshirib borish mumkin.

Atrof muhitni himoya qilish

Motordan chiqqan gaz atrof muhitga minimal ta'sir qilishi uchun avtomobilingizga eng so'ngi texnologiyalar qo'llangan.

Tejamli haydash va soz saqlash

Yoqilg'ini tejash va avtomobil xizmat qiladigan muddatni uzaytirish uchun quyidagi maslahatlarni beramiz.

- Shina ichidagi bosimni to'g'ri ushlab turing: havo bosimi yetarli bo'lmasa, shinaning yemirilishi tezlashadi va yoqilg'i ortiqcha sarflanadi.
- Zarur bo'lmagan og'irlikni olib yurmang. Yuk og'irligi ko'paysa, motorga ko'proq yuk tushadi va yoqilg'i sarfi ko'payadi.
- Motorni ko'p vaqt bo'sh ishlatmaslikka harakat qiling.
- Tezlikni sekin va ravon oshiring, birdan tezlatmaslikka harakat qiling; imkoni boricha tezroq yuqori tezlik uzatishiga o'tkazing.
- Motorni ortiqcha ishlatmang va unga orticha yuk tushirmang. Yo'ldagi sharoitga qarab tezlik uzatishni tanlang.
- To'xtovsiz tezlatmang yoki to'xtovsiz sekinlatmang. To'xtab yurish usuli bilan haydalganda avtomobil ko'proq yoqilg'i sarflaydi.
- Zarurat bo'lmasa to'xtamang va tormoz bermang, tezlikni bir xil ushlab turing, svetofor chirog'i qanday yonishini oldinroq bilishga harakat qiling.

Eslatma: Qo'qqisdan tormoz bermaslik va tormoz kolodkasi yemirilishini kamaytirish uchun boshqa avtomobillar orasidagi masofani saqlang.

O't oldirish va haydash

- Imkoni boricha yo'l tiqin bo'lib transport turib qoladigan yo'llardan yurmang.
- To'siqlarni oldindan ko'rish va vaqtda sekinlashish kerak bo'lmaganda ham tezlashish yoki tormoz berishga ehtiyoj qoldirmaydi. Ravon haydash yoqilg'ini tejashdan tashqari havoga zararli gaz chiqishini ham kamaytiradi.
- Oyog'ingiz doim tormoz pedali ustida bo'lmasin, bunday qilish vaqtdan oldin yemirilishga, qizib ketishga va yoqilg'i sarfi ko'payishiga sabab bo'ladi.
- Katta yo'lida mos keladigan tezlikni ushlab turing. Tez haydaganda yoqilg'i sarfi ko'payadi. Tezlik muvofiq bo'lsa, yoqilg'i tejaladi.
- G'ildiraklar bir-biriga tenglashtirib to'g'rilangan bo'lsin. Bordyurga urilishdan ehtiyot bo'ling, yo'l notekis bo'lgan joylarda tezlikni kamaytiring. G'ildiraklar spetsifikatsiyaga moslab tenglashtirilmagan bo'lsa, shina ortiqcha yemirilishidan tashqari motorga ham ortiqcha yuk tushib yoqilg'i sarfi ko'payadi.
- Loy joyda va sohil bo'yida avtomobil haydamang. Bunday qilish avtomobil osti zanglashiga olib keladi.
- Avtomobilga MG tavsiyalariga muvofiq texnik xizmat qiling. Kirlangan havo filtri, moy va hk. motor quvvatini kamaytiradi va yoqilg'i sarfini ko'paytiradi.

Eslatma: Avtomobil barcha qismlari xizmat qiladigan muddatni uzaytirish va foydalanish xarajatini kamaytirish uchun vaqtda MG ma'qullagan texnik xizmat turlarini o'tkazib turing.

- Yuqori tezlikda yurib kelganidan so'ng, balandga ko'tarilganidan keyin yoki tirkach tortganidan so'ng motorni birdan o'chirmang. Avtomobilga qancha kuch tushgani va qanday sharoitda yurganiga

qarab motor 20 sekunddan 100 sekundgacha bo'sh ishlab turishi kerak. Sovuq motorni tezlatmang.

Alohida muhitda avtomobil haydash

Yomg'irda va qorda haydash



Sirg'anchiq yo'lida favqulodda tormoz berish, tezlashtirish va rulni burish avtomobilni boshqarish xususiyatini va yo'lga birikishini kamaytiradi.

- Yomg'ir yog'ayotganda oynani g'ubor bosib ko'rish yomonlashadi (Konditsioner va g'uborni tozalash vositalaridan foydalaning).
- Yomg'ir yog'ayotganda g'ildirakning yo'lga birikishi kamayadi, shuning uchun, iltimos, haydash tezligini kamaytiring.
- Yomg'ir yo'gayotganda shina bilan yo'l o'rtasidagi suv pardasi rulni burishga va tormoz ishlashiga ta'sir qiladi.

Suvli joyda haydash


Yomg'ir ko'p yoqqanidan so'ng suv yig'ilib, ko'lmak bo'lgan joylarda avtomobilni haydamaslikka harakat qiling, avtomobil jiddiy shikastlanishi mumkin.

O't oldirish va haydash

Katalitik neytralizator va qurum filtri

Zarralarni ushlab qoladigan filtr va katalik neytralizator qo'yilgan ishlangan gazlarni chiqarish tizimining harorati juda baland bo'ladi, shuning uchun, yurib kelgan avtomobilni yonadigan narsalar, masalan, qurigan o't yoki barg tutun chiqish tizimiga tegadigan joyga qo'ymang, quruq havoda yong'in chiqishi mumkin.

Ishlangan gazlarni chiqarish tizimiga o'rnatilgan zarralarni ushlab qoladigan filtr va katalik neytralizator motordan chiqadigan zaharli ishlangan gazlarni muhitga kam zarar qiladigan gazga aylantiradi. Noto'g'ri ishlatilsa, zarralarni ushlab qoladigan filtr va katalik neytralizator tez shikastlanadi, iltimos, tasodifan shikastlanish ehtimolini kamaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling.



Yoqilg'i

- Faqat sizning avtomobilingiz uchun tavsiya qilingan yoqilg'idan foydaning.
- Hech qachon avtomobilni yoqilg'i qolmaguncha haydamang – motor o'chib, yonib ishlab shikastlanadi, zarralarni ushlab qoladigan filtr va katalik neytralizator buziladi.

O't oldirish

Motorni o't oldirganda quyidagilarga e'tibor qiling:

- Bir necha marta harakat qilganda ham startyor ishlamasa motorni o't oldirishga urinmang, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
- Motor o't olmasligiga shubha qilsangiz startyorni ishlatmang va akselerator pedalini bosib, motorni o't oldirishga harakat qilmang.
- Avtomobilni itarib, yoki tortib o't oldirishga urinmang.

O't oldirish va haydash

Haydash

Ilтимos, quyidagilarga e'tibor bering:

- Motor aylanishiga ortiqcha yuk tushirmang va aylanishini oshirib yubormang.
- Avtomobil yurib ketayotganda motorni D bilan yoki tezlik dastagini o'tkazib to'xtatmang.
- Agar avtomobilingiz yoqilg'ini ortiqcha sarflayotgan bo'lsa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.
- Agar motor o't olmasa, yoki motor me'yoridagi ishlash haroratiga yetgani bilan yurib ketayotganda avtomobilning quvvati kamaysa, uni SEKIN haydab (katalitik neytralizator va zarralar filtri shikastlanmasligi uchun) MG Vakolatli ta'mirchisiga olib borish kerak.
- Avtomobilni ost qismi qattiq urilishi mumkin bo'lgan yerda haydamang.

Eslatma: Motor o't olmasa, motor quvvati kamaysa, yoki o'chirilgandan keyin ham motor ishlashda davom etsa, katalitik neytralizator va zarralar filtrini jiddiy shikastlashi mumkin. Avtomobilga "Texnik xizmat portfoliosi" bo'limida berilgan jadvalga muvofiq vaqtida texnik xizmat ko'rsatilishi kerak. Ruxsatsiz motorga o'zgartirish qo'shish t'aqiqlanadi.

Motor moyi

- Ishlab chiqaruvchining spetsifikatsiyasiga to'g'ri keladigan moyning ishlatish tavsiya qilinadi. Ishlab chiqaruvchining tavsiyasiga to'g'ri kelmaydigan moyni ishlatish zarralar filtrini shikastlashi mumkin, masalan, tarkibida SAPS (Sulfat kuli, fosfor va oltingugurt) kam bo'lgan moylar zarralar filtrining kul bilan bog'liq samaradorligini kamaytiradi.

O't oldirish va haydash

Yoqilg'i tizimi


Yoqilg'iga qo'yiladigan talablar

! Faqat milliy standartlarga to'g'ri keladigan va ishlab chiqaruvchi tavsiya etgan yoqilg'idan foydalaning. To'g'ri kelmaydigan yoqilg'i turidan foydalanish avtomobil yoqilg'i tizimini, motorni va ishlangan gazlarni chiqarish tizimini jiddiy shikastlantiradi.

Faqat ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan yoqilg'idan foydalaning. "Texnik ma'lumot" bobidagi "Motorning asosiy ko'rsatkichlari" bo'limiga qarang.

Agar to'g'ri kelmaydigan yoqilg'i turi quyilgan bo'lsa, motordan taqillagan ovoz eshitiladi, shunday bo'lganda, iltimos, imkoni boricha tez tavsiya qilingan yoqilg'idan yoki balandroq yoqilg'i turidan foydalaning. Agar tavsiya qilingan yoqilg'i yoki balandroq yoqilg'i turi quyilganidan so'ng ham motordan taqillagan ovoz eshitilsa, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Benzinning MG oktan raqami motorga talab etilganidan ko'ra ko'proq bo'lishiga ruxsat etiladi, lekin bunday qilish motor quvvatini ham oshirmaydi, yoqilg'i sarfini ham kamaytirmaydi.

Yoqilg'i quygich



Yoqilg'i quygich eshikchasi

Yoqilg'i quygich eshigi avtomobil orqa chap qanotida joylashgan. Eshik qulfi markaziy eshikni berkitish tizim qulfi bilan bog'langan. Qulfi ochilganidan so'ng o'ng chetini bosib eshikchani oching.

Eslatma: Yoqilg'i quygich eshikchasi avtomobil eshiklari qulflanganda qulflanadi.

O't oldirish va haydash

Yoqilg'i quygich qopqog'i

Soat miliga teskari burab yoqilg'i quygich qopqog'ini sekin bo'shating, qopqoqni ochishdan oldin bakda bosim bo'lsa, chiqarib yuboring.

Benzin quygandan so'ng yoqilg'i quygich qopqog'ini soat mili tomonga burab mahkamlab qo'ying, shunda 1 marta "chiqillagan" ovoz eshitiladi.

Agar yoqilg'i quygich qopqog'i bo'sh yopilgan yoki zichlagichi shikastlangan bo'lsa, asboblar panelidagi motor nosozligini bildiradigan ogohlantirish chirog'i yonadi, iltimos, shunday bo'lganda qopqoqni zichlab yoping yoki zichlagichni to'g'rilab qo'ying. Agar shunda ham chiroq o'chmasa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Yoqilg'i quyish

Avtomobil benzini juda tez yonadi va yopiq joyda portlab ketishi ham mumkin.

Benzin quyganda juda ehtiyot bo'ling:

- Motorni o'chiring.
- Chekmang, ochiq olov ishlatmang.
- Mobil telefondan foydalanmang.
- Benzin to'kilmasin.
- Bakka to'kiladigan qilib benzin quymang.


Agar avtomobil quyosh nuri to'g'ri tushib turadigan joyga qo'yilsa, yoki havo harorati baland bo'lsa bakni oxirigacha to'ldirmang - yoqilg'i kengayib to'kilishi mumkin. Yoqilg'i quygich bo'yni ingichka, uzun soplo o'rnatiladigan qilib ishlangan. Quygich bo'ynida qoplama bor, yoqilg'i quyishdan oldin quygich soplosi yaxshilab joylab qo'yilsa, shu qoplama to'liq ochiladi.

Yoqilg'i quygandan so'ng motorni o't oldiring. Yoqilg'i to'ldirilgandan so'ng motor ravon ishlamasa, uni o'chiring va yordam so'rab MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

O't oldirish va haydash


Mexanik uzatgich *

Tezlikni o'zgartirish dastagi



Mexanik uzatgich 6 tezlikli, 7 ta shesternyalı bo'ladi: 1-tezlik, 2-tezlik, 3-tezlik, 4-tezlik, 5-tezlik, 6-tezlik va R (Orqaga haydash). Hamma uzatgichlarning sinxronizatori bor.

Avtomobil haydagandagi ehtiyot choralari:



- 1 D uzatgich bilan R uzatgich o'rtasida almashtirganda Avtomobil, albatta, to'xtab turgan bo'lishi kerak, bir oz kutib turing, so'ng mufta pedalini oxirigacha bosib, tezlik dastagini N tomonga o'tkazing, dastakni pastga bosib chap tomonga o'tkazib qo'ying, so'ng uni bosib oldinga, R ga o'tkazing, sekin mufta pedalini qo'yib yuborib uzatish o'zgartirishni oxiriga yetkazing.
- 2 Avtomobil haydayotganda qo'lingizni uzatish dastagi ustiga qo'ymang - qo'lingizning og'irligi uzatgich selektor mexanizmi vaqtdan oldin yemirilishiga olib kelishi mumkin.
- 3 Avtomobil haydayotganda oyog'ingizni mufta pedali ustiga qo'ymang - mufta ortiqcha yemiriladi.
- 4 Qiya joyda avtomobilni muftani bosib ushlab turmang. Mufta yemirilib ketadi.

O't oldirish va haydash

Uzatishni o'zgartirishga tegishli takliflar

Tezlik uzatish	Tavsiya qilinadigan uzatish oralig'i (km/soat)	Motor tezligi (BDA) (Bir daqiqada aylanishi)
1-2-tezlik	15~25	2200~3000
2-3-tezlik	35~45	2200~3000
3-4-tezlik	50~60	2200~2500
4-5-tezlik	65~75	2200~2500
5-6-tezlik	80~90	2200~2500

Eslatma: Avtomobil ravon yurishi va yoqilg'ini tejamli sarflashi uchun, iltimos, vaqtida tezlik uzatishni o'zgartiring va hech qachon taxometr milini ko'p vaqt qizil sohada qoldirmang, aks holda motor shikastlanishi mumkin.


O't oldirish va haydash

Qo'shaloq birikkichli sportronik transmissiya* Tezlikni o'zgartirish dastagi

Yo'riqlar

Quyidagi ma'lumot juda muhim sanaladi, shuning uchun, iltimos, foydalanishdan oldin diqqat bilan o'qib chiqing;

- Motorni o't oldirishdan oldin tezlik uzatish dastagini P yoki N tomonga o'tkazib qo'ying, oyoq tormozini bosing va EQT ishlatib qo'yilgan bo'lsin.
- Motor o't olganidan so'ng oyoq tormozi va EQT ishlab turgan bo'lsin, dastakni kerakli uzatish mexanizmiga o'tkazing.
- EQT tizimini o'chiring va avtomobilni haydashga tayyor bo'lguncha oyoq tormozini bosib turing. Tekis yo'lda oyoq tormozi qo'yib yuborilganidan so'ng akselerator bosilmasa, ham avtomobil o'zi joyidan sekin qo'zg'aladi.
- Haydab ketayotganda neytralda YURMANG, uzatish qutisi shikastlanadi yoki falokat bo'lishi mumkin.



Qo'shaloq birikkichli sportronik uzatgich 6 yoki 7 tezlikli avtomatik transmissiya bo'ladi.

Eslatma: Asboblari paneli interfeysidagi ajratib ko'rsatilgan harflar yoki raqamlar tanlangan tezlik uzatilishini yoki holatini ko'rsatadi.

Tezlik dastagidagi prujinali tugma uzatish selektori boshqa holatda turganda adashib dastakni P (Parkovka) yoki R (Orqaga yurish) tomonga o'tkazib qo'yimaslik uchun ishlatiladi.

O't oldirish va haydash

Tezlik dastagini ishlatish

⚠ Agar zarurat bo'lmasa, tezlik uzatish o'zgartirilayotganda qulflash tugmasini bosish tavsiya etilmaydi.

Tezlik uzatish o'zgartirilayotganda tezlik dastagini yo'riqda nayza bilan ko'rsatib qo'yilgandek ishlating:


⇨ Bo'sh tezlik uzatish.

➡ Uzatishni o'zgartirish uchun qulf tugmasini bosib ushlab turing.

➡ Uzatishni o'zgartirish uchun qulf tugmasini bosib ushlab turing va tormoz pedalini bosing.

Tezlik dastagining holati

⚠ Avtomobil haydab ketayotganda aslo tezlik dastagini D tomondan R yoki P tomonga O'TKAZIB QO'YMANG, bunday qilish transmissiyani jiddiy shikastlantiradi yoki yo'lda falokat bo'lishiga olib keladi.



- P Parkovka
Tezlik dastagi bu holatda turganida transmissiya mexanik qulflanib qoladi. Bu holatdan faqat avtomobil bir joyda qo'zg'olmay turganda va EQT ishlatib qo'yilganda foydalaning.

Eslatma: Avtomobil tepalikka qo'yilgan bo'lsa, tormoz pedalini bosing, so'ng oldin EQTni ishlatib qo'ying va P ga o'kazing.

- R Orqaga haydash
Bu o'tkazish holatini faqat avtomobil bir joyda turganda qo'llang.

O't oldirish va haydash

- N Neytral

Bu o'tkazish holatini faqat avtomobil bir joyda turganda va motor ko'proq vaqt bo'sh aylanganda qo'llang (masalan, svetoforning oldida to'xtab turganda).

Haydash xavfsiz bo'lishi uchun tezlik dastagini N dan R ga o'tkazayotganda tormoz pedalini bosib turish tavsiya qilinadi.

- D Haydash

Odatdagi usulda avtomobil haydashga qo'llanadi, avtomobil tezligiga hamda akselerator pedali qaysi holatda turganiga qarab 6 yoki 7 tezlikni tanlang.

- S Sport holati

Sportcha tezlashish kerak bo'lganda shu holatni tanlang.

- + Yuqoriga ko'tarish

Mexanik holatda ishlayotganda transmissiyani yuqoridagi keyingi uzatgichga ko'taring.

- - Pastga tushirish

Mexanik holatda ishlayotganda transmissiyani pastdagi keyingi uzatgichga tushiring.

Tezlik uzatish dastagi

D yoki S uzatgich tanlangan bo'lsa, uzatgichdagi tezlik akselerator pedali qaysi holatda turganiga bog'liq bo'ladi: drossel to'sig'i kamroq ochilgan bo'lsa uzatish almashtirgichning tezligi kamroq bo'ladi, drossel to'sig'i ko'proq ochilganda esa transmissiyani uzatgich

almashishini keyinroq bajarishga majbur qiladi va avtomobil balandroq tezlikka chiqqanda uzatish o'zgarishi oxiriga yetkaziladi.

Kick-down (Pastga tepish)

Kick-down (Pastga tepish) funksiyasi ishlatib qo'yilsa, tortadigan g'ildiraklar kamroq birikib yo'l yuzasida sirg'alishi mumkin, bunday qilish avtomobil nazoratdan chiqib sirg'alib ketishiga olib kelishi mumkin.

D yoki S uzatgich tanlanganda akselerator pedali bitta harakatda oxirigacha pastga bosilsa, ("Pastga tepish" ham deyiladi) quvib o'tayotgandagi tezlashish kuchayadi. Ma'lum sharoitda bunday qilish transmissiyaga tez pastki uzatgichga o'tish imkonini beradi va tezlashishni kuchaytiradi. Akselerator pedali qo'yib yuborilganidan so'ng (avtomobil tezligi va akselerator pedali qaysi holatda turganiga qarab) yana oldingi mos keladigan yuqori uzatgichga o'tadi.

O't oldirish va haydash

Avtomobilni yurgazish

Avtomobil tormoz pedali bosilib P yoki N tanlanganidan keyingiga o't oladi; kerakli uzatgich tanlanganidan so'ng va transmissiya to'liq birikkanidan keyin tormoz pedalini qo'yib yuboring, avtomobil o'zi sekin joyidan qo'zg'aladi.

Tepalikda haydash



Yo'l tiqin bo'lgani uchun yoki boshqa sabab bilan tepalikda qisqa vaqt to'xtash lozim bo'lganda "orqaga yurib ketish"ni to'xtatish uchun tez AKSELERATORNI BOSMANG. Bunday qilish transmissiyani qizitib yuboradi va shikastlantiradi.

Tepadan tushib o't oldirish

Tepada ushlab turishni nazorat qilish funksiyasini tepadan tushib o't oldirish uchun ham qo'llash mumkin. Tepada ushlab turishni nazorat qilish funksiyasi qanday ishlashini "Tormoz tizimi" bobidagi "Oyoq tormozi" bo'limini o'qib bilishingiz mumkin.

Eslatma: Ushbu funksiyaning yordami fizika qonunlarini rad etmaydi. Avtomobilni fizik cheklanishidan ortiq tezlikda haydamang, boshqaruvni yo'qotib qo'yish mumkin.

Tepadan pastga haydab tushish



Tormoz pedali ketma-ket bosilsa, oyoq tormozi qizib ketib tormoz tizimi yaxshi ishlamaydigan yoki umuman ishlamaydigan bo'lib qolishi mumkin.

Agar tepadan pastga tushadigan yo'l uzoq bo'lsa, oldin avtomobilni sekinlating, so'ng tezlik dastagini D dan o'ngga olib qo'lda ishlatish holatiga o'tkazing, so'ng qo'lda past tezlikka oling. Avtomobil tepadan tushishini sekinlashtirishga yordam bo'lishi uchun tezlik uzatgichni pastroqqa oling, shunda oyoq tormozi ham qizib ketmaydi. Masalan, burilishi ko'p dovondan pastga tushib kelayotganda tezlik o'tkazgichni 2 ga olib qo'ying; agar tepadan tushadigan yo'l to'g'ri bo'lsa, 3 ga o'tkazing. Agar tormozning kuchi yetarli bo'lmasa tezlik oshadi, motor qizib ketmasligi uchun qo'shaloq birlashtirilgan sportonik transmissiya avtomatik ravishda yuqoriroq tezlik uzatgichga o'tadi, shunday bo'lganda zudlik bilan tormoz pedalini bosib, tezlikni qo'lda mas keladigan past tezlik o'tkazgichlga olib qo'yishingiz kerak.


O't oldirish va haydash

Boshqaruv rejimlari

Standart rejim

Tezlik dastagi D da turganida qo'shaloq birlashtirilgan sportonik transmissiya o'zi standart holatga o'tadi va asboblar paneli interfeysida D tezlik uzatgichi ko'rinadi. Standart rejim kundalik avtomobil haydashga qo'llanadi.

SPORT rejimi



D tanlanganidan so'ng tezlik dastagini o'ngga olib, Sport holatiga o'tkazing (asboblar paneli displeyidagi interfeysda "S" tezlik uzatgichi ko'rinadi). Sport holatida motor quvvatini to'liq ishlatish uchun transmissiya sal keyinroq yuqori uzatishga ko'tariladi.

Avtomobilni tezlatish kerak bo'lganda, iltimos, Sport holatini tanlang, lekin, esingizda bo'lsin, Sport holatida haydaganda benzin sarfi ko'payadi.

Haydash rejimlarini tanlash mumkin bo'lgan avtomobil modellarida elektr tizimidan tashqari, rul va konditsioner tizimi ham Sport holatiga muvofiq o'zgaradi. To'liq ma'lumot olish uchun, iltimos, "O't oldirish va haydash" bobidagi "Haydash holatlari" bo'limiga qarang.

Sport holatidan chiqish uchun tezlik dastagini chapga, D ga o'tkazib qo'ying.

Qo'lda boshqarish holati*


Sport holati tanlanganidan so'ng tezlik dastagini "+" yoki "-" tomonga o'tkazing, shunda qo'lda boshqarish holati ishga tushadi. Asboblar paneli interfeysida bitta son bilan hozirgi tezlik uzatish raqami ko'rinadi (1~6 yoki 1~7).



Ba'zi modellarda qo'lda boshqarishga o'tish rul chambaragi ostidagi tezlik uzatgich bilan bajariladi.

Tezlik dastagi bilan yoki o'tkazish tugmasini "+" tomonga surib mos keladigan balandroqdagi uzatgichga o'ting; tezlik dastagi bilan yoki o'tkazish tugmasini "-" tomonga surib pastdagi uzatgichga o'ting.

O't oldirish va haydash



Boshqa uzatish rejimlariga o'tish uchun dastakni chapga olib D ni tanlang.

Kruiz boshqaruv holati

Kruiz boshqaruv tizimi ishlatib qo'yilgan bo'lsa, avtomatik transmissiya avtomobilni tezlashadigan tegishli uzatgichga o'zi o'tkazadi va shu bilan tezlik bir xil bo'lishi kerak bo'lganda tezlik uzatgichni tez-tez ishlatish zarurati qolmaydi.

Qo'lda ishlaydigan holatda agar haydovchi noto'g'ri uzatgichni tanlasa, masalan, motor tezlik kam bo'lganda yuqoridagi uzatgichni yoki motor tezligi baland bo'lganda pastdagi uzatgichni tanlasa, transmissiya javob bermaydi va hozir qaysi uzatgichda bo'lsa, o'shanda qoladi. Haydovchi ma'lum bir uzatgichda haydab ketayotganda motor tezligi ma'lum ko'rsatgichdan kam bo'lsa motor yonib ketmasligi uchun transmissiya avtomatik ravishda to'g'ri keladigan pastdagi uzatgichga tushiradi; avtomobil tezlashganda va motor tezligi uzatgich uchun ruxsat etilgan maksimal tezlikka qarab davomiy ko'payganda transmissiya motorni himoya qilish uchun avtomatik ravishda tegishli yuqori uzatgichga o'tadi.

O't oldirish va haydash

Himoya rejimi



Avtomobilni qo'yganda, iltimos, avtomobilni to'g'ri qo'ying va barcha yo'l harakati qoidalariga amal qiling.

Qo'shaloq birikkichli sportonik transmissiyani (QBST) qizib ketishdan himoya qilish

Havo issiq bo'lganda tez-tez joyidan qo'zg'olish yoki transmissiyaga ortiqcha og'irlik tushishi transmissiya qizib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Transmissiya shikastlanmasligi uchun tizim qizib ketishdan himoya qilish funksiyasini bajaradi, shu vaqtning o'zida asboblar panelida transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq yonadi yoki asboblar paneli interfeysida tegishli ogohlantirish belgisi ko'rinadi, xabar beriladi va ovoz bilan ogohlantiriladi.

Transmissiya qizib ketganda asboblar paneli interfeysida transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq sariq yonadi yoki asboblar paneli interfeysida "Tezlikni oshiring yoki Xavfsiz to'xtang" degan yozuvlar ko'rinadi, shunday bo'lganda, iltimos, tezlikni soatiga 20 km dan oshiring yoki xavfsiz to'xtab tezlik dastagini P tomonga o'tkazib qo'ying va sharoit imkon berishiga qarab transmissiyani sovuting.

Transmissiya jiddiy qizib ketganda asboblar paneli interfeysida transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq qizil yonadi yoki asboblar paneli interfeysida "Xavfsiz to'xtang" degan yozuv

ko'rinadi, motor nosoz ishlayotganini ko'rsatadigan chiroq yonadi, shunday bo'lganda, iltimos, xavfsiz to'xtab tezlik dastagini P tomonga o'tkazib qo'ying va transmissiyani sovuting.

Avtomobil to'xtaganidan so'ng transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq qizil yonadi yoki asboblar paneli interfeysida "Iltimos, kuting" degan yozuv ko'rinadi. Transmissiya harorati tushib transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq o'chganidan yoki asboblar paneli interfeysida "Haydash mumkin" ("Ready to Drive Away") degan yozuv ko'ringanidan so'ng avtomobilni joyidan qo'zg'otish mumkin.

Agar haydovchi asboblar paneli interfeysida ko'ringan yo'riqqa amal qilib 20 daqiqa kutganidan keyin ham transmissiya qizib ketganidan ogohlantiradigan chiroq o'chmasa, yoki ogohlantiradigan yozuv hali ham o'zgarmagan yoki yo'qolmagan bo'lsa, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling, aks hold transmissiya jiddiy shikastlanadi.

O't oldirish va haydash

Sust holat

Biror nosozlik bo'lganda transmissiya Sust holatda ishlashga o'tadi va faqat ba'zi uzatgichlari ishlaydi, ba'zi hollarda u orqaga yurmasligi mumkin, shunday vaqtda asboblar paneli interfeysida motordan chiqayotgan ishlangan gaz bilan bog'liq nosozlikni ko'rsatadigan chiroq yonadi. Shunday bo'lganda zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Eslatma: Sust holatda qo'lda boshqarish ishlamay turadi.

Jiddiy funksional nosozlik

Transmissiyada bo'ladigan ba'zi nosozliklarda motor chiqaradigan ishlangan gaz bilan bog'liq nosozlik borligini ko'rsatadigan chiroq yonadi.

Transmissiyani himoya qilish uchun tizim motor quvvatini muftadan uzib qo'yishi mumkin va shunday bo'lganda avtomobilni haydash bo'lmaydi. Shunday bo'lganda zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Eslatma: 6 tezlikli QBSTda transmissiya ortiqcha qizib ketsa yoki biror jiddiy nosozlik bo'lsa asboblar paneli interfeysida "EP" yozuvi ko'rinadi.

Haydash rejimi *

Avtomobil yurib ketayotganda haydash rejimini o'zgartirish haydovchi diqqatini yo'ldagi vaziyatdan chalg'itadi, shuning uchun bu ish faqat xavfsizlik imkon berganda bajarilishi kerak.

Haydash rejimi tanlanganidan so'ng avtomobildagi turli sozlash rejimlarini ishlatib qo'yishi mumkin.



O't oldirish va haydash

Avtomobil yurib ketayotganda yoki turganda haydash rejimini tanlash tugmasini (MODE) (HOLAT) bir marta bosib quyidagi haydash rejimlaridan bittasini tanlash mumkin.

1 ECO rejimi

Avtomobil ekologik haydash usuliga o'tish uchun quvvatni kamaytiradi.

2 NORMAL (ODDIY) rejimi

Avtomobil kundalik haydash uchun muvozanatga keltirilgan rejimda bo'ladi.

3 SPORT rejimi


Haydovchiga sport haydash usuliga muvofiq dinamik haydash tuyg'usini beradi.

4 CUSTOM (MOSLASHGAN) rejimi*

MOSLASHGAN rejimi tanlangan bo'lsa, avtomobil to'xtab turganda, haydovchi ba'zi tizimlarni multimedia displeyida o'ziga moslashtirib qo'yishi mumkin.

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirilgandan so'ng MOSLASH rejimidagi to'g'rilashlarning hammasi saqlanib qoladi.

SUPER SPORT rejimi



Rul chamberagidagi SUPER SPORT tugmasini bosib SUPER SPORT rejimiga o'tish yoki undan chiqish mumkin.

SUPER SPORT rejimiga o'tganda ba'zi modellarda atrof yorishishi tez haydash uchun to'g'ri keladigan bo'lib o'zgaradi.

Eslatma: Bu rejimga o'tish/chiqish uchun SUPER SPORT tugmasi bosiladi, bu rejimdan chiqqanidan so'ng avtomobil oldin tanlangan haydash rejimiga qaytadi.

Haydash rejimi o'zgarganda asboblar panelining rangli ekranida tegishli yozuv ko'rinadi (ECO, NORMAL, SPORT, MOSLASHGAN va SUPER SPORT).

O't oldirish va haydash

Asboblar panelining monoxrom ekranida E(ECO), D(NORMAL), S(SPORT yoki SUPER SPORT) yozuvlari ko'rinadi uzatgich displeyida esa tezlik dastagi D da turgani ko'rinadi.

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirib qo'yilganda avtomobil yana oldindan belgilab qo'yilgan NORMAL rejimiga qaytadi.

⚠ Tezlik dastagi S da turganda avtomobil SPORT rejimida bo'ladi; SUPER SPORT tugmasini bosib uni SUPER SPORT rejimiga o'tkazish mumkin, MODE (REJIM) tugmasini bosib uni boshqa rejimlarga o'tkazib bo'lmaydi.

Tezlik dastagi S dan D ga o'tkazib qo'yilganidan so'ng avtomobil oldin tanlangan rejimga qaytadi, shunda MODE (REJIM) tugmasini bosib uni boshqa haydash rejimlariga o'tkazish mumkin.

Turli haydash rejimlarida energiya yetkazish, rul va konditsioner tizimlarining ishlashi farq qiladi, iltimos, zarurat bo'lganda quyidagi jadvalga qarang.

Rejim nomi	Kuch agregati	EPS (ERK)	HVAC (IVK)
ECO	Eco	Comfort	Eco
NORMAL	Normal	Normal	Normal
SPORT	Sport	Sport	Normal
SUPER SPORT	Sport	Sport	Normal
MOSLASHGAN*	Moslashgan	Moslashgan	Moslashgan

Kuch agregat tizimi

Transmissiya belgilab qo'yilgan haydash rejimiga qarab shesternyalar o'rnini o'zgartiradi. Tezlik dastagi D da turib, quvvat javobi ECO, NORMAL va SPORT holatlarida bo'lganida asboblar klasteri interfeysi tegishli "E", "D" va "S" alomatlarini ko'rsatadi.

Rul boshqaruvi tizimi

Rul boshqaruvi tizimi belgilab qo'yilgan haydash rejimiga qarab yordam ko'lamini ko'paytiradi yoki kamaytiradi. Rul chambaragini burish uchun haydovchi qancha kuch ishlatishi kerakligi belgilab qo'yilgan rejimga qarab o'zgaradi.

Konditsioner tizimi

ECO rejimida, konditsioner tizimi ishlatib qo'yilganidan so'ng, avtomobil quvvatini oshirish uchun, energiyani kam sarflash rejimida ishlashga o'tadi.

Ichki yorishish*

Ichki yorishish haydash rejimiga bog'lab qo'yilishi mumkin, shunda turli haydash rejimlarida yorishish rangi ham o'zgaradi. MOSLASHGAN rejimida ichki yorishishga haydash rejimi ta'sir qilmaydi. Ichki yorishish multimedia displeyida sozlab qo'yiladi.

Ovoz balandligini tezlikka bog'lab o'zgartirish*

Avtomobil tezligi o'zgarishi bilan ovoz balandligi ham avtomatik to'ldiriladi, ovoz balandligi qancha to'ldirilishini

MOSLASHGAN rejimida tanlashingiz mumkin. Iltimos, multimedia va ma'lumot displeyiga qarang.

O't oldirish va haydash

Tormoz tizimi

Oyoq tormozi

Xavfsizlikni ko'paytirish uchun gidravlik tormoz tizimi qo'shaloq konturli qilib ishlangan. Agar bitta kontur ishlamay qolsa, ikkinchisi ishlayveradi, lekin pedalni bosishga ko'proq kuch kerak bo'ladi, tormoz pedalining yo'li ko'payadi, to'xtash masofasi ham uzayadi. Agar tormoz buzilib faqat bitta kontur ishlayotgan bo'lsa, yo'ldagi sharoit imkon berishga qarab, avtomobilni imkoni boricha tez to'xtatish kerak. Bunday vaqtda aslo AVTOMOBILNI HAYDAMANG – MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Servoyordam

Tormoz tizimiga servoyordam berib turiladi, shuning uchun, ishlatganda, albatta, quyidagilarga e'tibor qiling:

- Servoyordam faqat motor ishlayotganda ishlaydi. Hech qachon motor o'chiq turganda avtomobil g'ildiragi bo'sh aylanishiga yo'l qo'ymang.
- Agar avtomobil haydab ketayotganda biror sababga ko'ra motorni o'chirish kerak bo'lsa, yo'ldagi vaziyat imkon berishiga qarab, imkoni boricha tez avtomobilni to'xtating, tormoz pedalini bosmang, chunki tormoz tizimi qolgan servoyordamni yo'qotib qo'yadi.

Motor o'chganidan so'ng qolgan servoyordam ham yo'q bo'ladi,

yo'ldagi vaziyat imkon berishiga qarab, tormoz pedalini yetarli kuch bilan bosib avtomobilni to'xtating. MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

- Tormoz servo kuchaytirgichining samarali ishlashi bir qancha omillarga, masalan, barometrik bosim o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Bu omillar avtomobilni to'xtatganda tormoz pedalini ishlatish uchun qo'shimcha kuch talab qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Avtomobil korpusini barqarorlash tizimi

Avtomobil korpusini barqarorlash tizimi Barqarorlik nazorati tizimi (BNT) va Tortish nazorati tizimidan (TNT) iborat bo'ladi.

BNT haydovchi haydash yo'nalishini nazorat qilishiga yordam berishga mo'ljallangan. Motor o't olganidan so'ng BNT avtomatik ravishda Kutish holatiga o'tadi.

BNT avtomobil mo'ljal qilingan yo'nalishda ketmayotganini bilganida tormoz kuchini kerakli g'ildirakka berib yoki motorni boshqarish tizimi orqali aralashib sirg'alib ketish oldini oladi va avtomobilni to'g'ri yo'nalishga qaytarishga yordam beradi.

O't oldirish va haydash

TNT tortish o'tuvchanligi va haydash barqarorligini yaxshilab avtomobilni boshqarish saqlab turilishiga yordam beradi. TNT har bitta g'ildirak aylanishini alohida kuzatib boradi. Agar biror g'ildirak bir joyda aylanib qolganini topsa, tizim avtomatik ravishda o'sha g'ildirakni to'xtatadi, aylanish momentini boshqa tomonga, bir joyda aylanib qolmagan g'ildirakka o'tkazadi. Agar ikkala g'ildirak ham bir joyda aylanib qolsa tizim tortish kuchi qaytib kelguncha, g'ildirak aylanishini tartibga solish uchun, motor tezligini kamaytiradi.

Ishlashi/O'chishi

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qo'yilishi bilan BNT va TNT o'zi avtomatik ishga tushadi. "Stability Control" (Barqarorlik nazorati) tugmasi bilan ularni o'chirib qo'yish mumkin. Ishlatish interfeysi multimedia displeyida joylashgan.

BNT va TNT o'chirib qo'yilganda asboblarning panelidagi axborot markazi Barqarorlik/Tortish nazorat tizimlari O'CHIQ degan ogohlantirish yozuvini chiqaradi. "Asboblarning va Boshqaruv paneli" bobidagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlari" bo'limiga qarang.

Eslatma: BNT va TNT o'chirib qo'yilishi TBQ ishlashiga ta'sir qilmaydi. Qorda o'raladigan zanjir bilan haydaganda doim BNT va TNTni o'chirib qo'ying.

Suvli joyda haydash

Suvda yoki yomg'ir yog'ayotganda haydash tormoz samarali ishlashiga teskari ta'sir qiladi. BNT (Barqarorlik nazorati tizimi)dagi Tormoz diskini tozalash funksiyasi old oyna artgich ishga tushganda ishlab ketadi. Shunga qaramay, boshqa avtomobillar bilan doim xavfsiz masofani saqlang va oyna artgich ishlamayotgan bo'lsa, vaqti-vaqti bilan tormoz pedalini bosib turing.

Tormoz kuchini elektron taqsimlagich (TKET)

Avtomobilingizga o'rnatilgan TKET og'irlik tushgan vaziyatda tormoz samaradorligini saqlab turish uchun tormoz kuchini old va orqa g'ildiraklarga taqsimlaydi.

TKETga monitoring tizimi birlashgan. Monitoring tizimi asboblarning panelidagi tormoz tizimi nosozligini ko'rsatadigan chiroq bilan bog'langan. "Asboblarning va Boshqaruv paneli" bobidagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlari" bo'limiga qarang.

Haydab ketayotganda yoki O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) yoqilgan tomonga o'tkazib qo'yilganda shu chiroq yonsa, tormoz tizimi nosozligini yoki TKET ishlamayotganini bildiradi. Shunday bo'lganda imkoni boricha avtomobilni tez to'xtatish va MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Tormoz tizimi nosozligini ko'rsatadigan chiroq yonib turganda avtomobilni HAYDAMANG.


O't oldirish va haydash


Elektron tormoz berishga yordam tizimi (ETYO)

Avtomobilingizga tormoz pedali bosiladigan tezlikka javob beradigan Elektron tormoz berishga yordam tizimi o'rnatilgan. Favqulodda vaziyatda tormozlar tizimida belgilab qo'yilgan chegaradan ko'ra tezroq bosilsa, ETYO to'liq ishlab ketib imkoni boricha qisqa masofada avtomobilni to'xtatishga yordam beradi.

Tepalikda ushlab turish nazorati (TUTN)

 Yuza xo'l yoki muzlagan bo'lgan sharoitda TUTN imkoniyati cheklanib qoladi.

 Avtomobil tepadan tushib o't olganda TUTN qo'l tormozi o'rnini bosmaydi. Avtomobilni faqat TUTNni qo'llab QOLDIRIB KETMANG, bunday qilish TUTN qo'yib yuborilganidan so'ng jiddiy falokatga sabab bo'lishi mumkin.

 Tormoz pedali qo'yib yuborilganidan so'ng joyida o't olmasa, avtomobil pastga yurib ketishi mumkin. Avtomobilni haydashga o'tguncha doim tormoz pedalini bosib turing yoki qo'l tormozi ishlab tursin.

 Avtomobilni haydashga o'tguncha doim tormoz pedalini bosib turing yoki elektron qo'l tormozini ishlatib qo'ying.

 TUTN avtomobilni to'xtatishga yetadigan tormoz kuchi hosil qilishi uchun to'xtatganda tormoz pedalini qattiq bosing.

Tepalikda ushlab turish nazorati (TUTN) qo'chimcha qulaylik beradigan funksiya hisoblanadi. Bu funksiya faqat qiyalikda, avtomobil "qimirlamay turish holati"ga o'tganini bilganda ishlab ketadi. Mufta pedali bosilganidan (MT) yoki D/R uzatgichida bo'lganida (AT) va tormoz pedali qo'yib yuborilganida avtomobil 1~2 sekund davomida tormoz tizimiga tushayotgan bosimni saqlab turadi. Shundan so'ng Tepalikda ushlab turish qo'yib yuboriladi. TUTN avtomobil tepadan tushib o't olganda avtomobilni "ushlab" haydovchiga yordam beradi.

TUTN ishga tushishi uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo'lishi kerak:

- Haydovchi eshigi yopilgan va xavfsizlik kamari taqilgan.
- Avtomobil qiyaligi 4 foizdan oshadigan joyda 2 sekunddan ko'p to'xtagan.
- BNT nosoz emas.
- EQT bo'shatilgan va nosoz emas.
- Mufta pedali bosilgan (MT) yoki tezlik dastagi D/R da (AT).
- Motor ishlab turibdi.
- Tormoz pedalini bosish uchun yetarli kuch ishlatilgan. Agar haydovchi tepalikda tormoz pedalini qo'yib yuborsa, TUTN tormoz bosimini 1~2 sekund ushlab turadi. Agar avtomobil 1~2 sekundda joyidan jilmasa, tormoz avtomatik qo'yib yuboriladi, avtomobil pastga yurib ketishi mumkin. Shunday bo'lganda tez tormoz pedalini bosing.


O't oldirish va haydash


Eslatma: TUTN avtomobil qiya joydan oldinga qarab yurganda ham, orqaga yurganda ham ishlaydi.

Eslatma: Agar asboblarning panelidagi ma'lumot markazi "Tepada ushlab turish ishlamayapti" degan yozuvni ko'rsatsa tepada ushlab turish nazorati nosoz yoki to'liq ishlamayotganini bildiradi, shunday bo'lganda, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Eslatma: TUTN fizik cheklashlarni yengolmaydi. Faqat TUTNning o'ziga ISHONMANG.

Avtomatik ushlab turish

 Avtomatik ushlab turish funksiyasi avtomobil tepalikda joyidan jilganda yoki tormoz berganda, ayniqsa, sirg'anchiq yoki muz qoplagan yuzalarda barqarorlik kafolatini bermaydi surfaces.

 Motor o'chib qolganda, xavfsizlik kamari yechilganda yoki avtomatik ushlab turish tugmasi bosilganda avtomatik ushlab turish funksiyasi avtomobilni to'xtatganda elektron qo'l tormozi ishga tushadi. Bu funksiya har qanday holda ham avtomobil barqaror bo'lishini kafolatlamaydi. Masalan, orqa g'ildiraklar sirg'anchiq yo'l yuzasida bo'lganda yoki avtomobil ortiqcha (20 foizdan ko'p) og'ib ketganda. Iltimos, avtomobildan tushishdan oldin u xavfsiz va barqaror turganiga e'tibor qiling.



Avtomobilda qo'shimcha qulaylik funksiyalari bo'lgani uchun uni XATARNI KO'PAYTIRIB HAYDAMANG. Avtomobil avtomatik ushlab turish funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa ham haydovchi diqqat bilan, atrofdagi vaziyatga qarab haydashi kerak.



Motor ishlab turganda va avtomatik ushlab turish funksiyasi ishlayotganda avtomobilni QOLDIRIB KETMANG.



Avtomatik ushlab turish funksiyasi motor to'xtab qolgan hamma holda ham elektron qo'l tormozi ishlab ketishiga kafolat bermaydi. Iltimos, avtomobildan tushishdan oldin elektron qo'l tormozi ishlatib qo'yilgani va avtomobil barqaror ekanini qarab ko'ring.




Avtomatik ushlab turish funksiyasi avtomatik mashina yuvish joylarida o'chirib qo'yilishi kerak, chunki elektron qo'l tormozi birdan ishlab ketib avtomobil shikastlanishi mumkin.

Agar avtomobil tez-tez ko'proq vaqtga to'xtasa (masalan, svetofoarning oldida, yo'ldagi navbatda yoki to'xta/yur belgisida) va motor ishlab tursa, avtomatik ushlab turish funksiyasi avtomobilni barqaror ushlab turishga yordam beradi va avtomobil bir joyda turganida oyog'ingizni tormoz pedalidan olishingizga imkon beradi, Avtomatik ushlab turish ishlab turgan bo'ladi.

O't oldirish va haydash

Avtomatik ushlab turish 3 asosiy rejimda turadi:

- 1 Off: Funksiya o'chirib qo'yilgan.
- 2 Kutish: Funksiya kutish rejimida turibdi. Funksiya yoqib qo'yilgan, lekin avtomobil to'xtamagani uchun ishga tushgani yo'q. Avtomobil to'xtaganidan so'ng, boshqa hamma shartlar to'g'ri kelsa, tizim avtomatik ravishda Park ni tanlaydi.
- 3 Parking: Funksiya avtomobil qo'yilgan rejimda ishlayapti. Bu rejimda asboblardan panelidagi yashil indikator chiroq yonadi.



Xavfsizlik kamari taqilib, eshik yopilib, motor o't olganidan so'ng Off (O'chirilgan) rejimidan Standby (Kutish) rejimiga o'tkazish uchun avtomatik ushlab turish tugmasini bosing.

Oyoq tormozi qattiq bosilib, avtomobil to'liq to'xtaganidan so'ng avtomatik ushlab turish funksiyasi Kutish rejimidan Parking (Turish) rejimiga o'tadi.

Avtomatik ushlab turish Turish rejimida bo'lganida tezlik dastagini oldinga yoki orqaga surish va akselerator pedalini bosish avtomatik ushlab turish funksiyasi ishini avtomatik ravishda to'xtatadi.

Ba'zi hollarda xavfsizlik kamarini yechish, motorni o'chirish yoki ma'lum vaqt davomida bir joyda to'xtab turish avtomobil avtomatik ushlab turish holatiga kirishga olib keladi. Bu vaqtda elektron qo'l tormozi ishlatib qo'yilgan bo'ladi va haydovchidan tugmani bosib uni o'chirib qo'yishni so'raydi.

Eslatma: *Tormoz bosib turilganda tugmani bosib avtomatik ushlab turish funksiyasini o'chiring, lekin elektron qo'l tormozi ishlatilmaydi.*

Eslatma: *Avtomobil orqasi bilan garajga kirayotganda avtomatik ushlab turish funksiyasini o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.*

Eslatma: *MT modellarida avtomobilni yurgazish uchun akselerator pedalini bosasiz.*

O't oldirish va haydash

Tepadan tushish nazorati (TTN)



TTN tizimi qo'shimcha funksiya hisoblanadi, xolos. Yuza xo'l, muzlagan yoki qiya bo'lgan sharoitda TTTN imkoniyati cheklanib qoladi. TTN tizimi fizika qonunlarini yengolmaydi, yuqoridan pastga tushganda doim avtomobilni sekin haydang.



TTN tizimi ishlatib qo'yilgan bo'lsa ham haydovchi avtomobil qanday holatda boshqarilayotganiga e'tibor berishi va zarur bo'lganda boshqarishni o'ziga olishi kerak. Ba'zi hollarda TTN vaqtincha ishlamasligi yoki o'chib qolishi mumkin.



Tepadan pastga tushgandagi ba'zi avtomobil haydash sharoitida (masalan, tepadan pastga katta tezlik bilan tushganda, qiyalik og'ishi 10 foizdan kam bo'lganda va hk.) TTN ishlamaydi va bunday vaqtda haydovchi avtomobilni doim o'zi boshqarishi, xafvsizlikni ta'minlash uchun tormozni bosib turishi kerak.

Iltimos, bu funksiyani oddiy yo'lda haydaganda ISHLATMANG. TTN ishlaganda tormoz tizimi qattiq titrashi yoki shovqin chiqarishi mumkin. TTN ishlayotganda bunday bo'lishi tabiiy hisoblanadi.


TTN tizimi avtomobilni qiya joydan haydab tushganda yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan funksiya hisoblanadi. Tizim

tormoz kuchini qo'llab tezlikni kamaytiradi va shu yo'l bilan avtomobil qiya joydan past tezlik bilan tushganda haydovchiga yordam beradi.

Eslatma: Tepadan tushishni nazorat qilish (TTN) tizimi ishlaganda, iltimos, tezlik dastagini "N" tomonga o'tkazib qo'ymang. Bunday qilish TTN ishlashini to'xtatib qo'yishi mumkin.

O't oldirish va haydash

TTN tizimini ishlatish/o'chirish



START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda TTN tizimi o'chirilgan bo'lishi oldindan belgilab qo'yilgan. TTN tizimini ishlatish/o'chirish uchun tugmasini bosing.

TTN tizimi, asosan, to'rtta rejimda turadi:

- 1 Kutish: Tizimni Kutish rejimiga o'tkazish uchun HDC (TTN) tugmasini bosing, asboblar panelidagi TTN tizimining ogohlantirish chirog'i yashil yonadi.
- 2 Ishlash: Tizim kutish rejimida turganda avtomobil qiya yo'lda tepadan pastga tushganda, agar akselerator/tormoz pedali bosilmasa va agar avtomobil tezligi soatiga 5 mil (8 km/soat)dan

ko'p, lekin 22 mildan (35 km/soatdan) kam bo'lsa, TTN tizimi avtomatik ravishda ishlash rejimiga o'tadi. Shunday bo'lganda asboblar panelidagi TTN tizimining ogohlantirish chirog'i yashil yonadi, shu vaqtning o'zida tormoz tizimining shovqini eshutilishi mumkin. TTN tizimi avtomobilni shu tezlikda ushlab turishga harakat qilayotgan bo'ladi. Haydovchi akselerator yoki tormoz pedalini bosganidan so'ng va avtomobil tezligi hali ham 5~22 mil soat (8~35 km/soat) o'rtasida bo'lganida TTN tizimi maqsad qilingan tezlikni oxirgi joriy tezlikdek ushlab turadi.

- 3 Vaqtincha ishlashdan to'xtash: tizim ishlayotganda akselerator pedali yoki tormoz pedali belgilab qo'yilgan cheklashdan ko'ra ko'proq bosing, shunda TTN tizimi vaqtincha ishlamay turadi.
- 4 O'chirish: Tizimni o'chirish uchun TTN tugmasini (OFF) (O'CHIRISH) tomonga o'tkazib qo'ying, shunda asboblar panelidagi TTN yashil ogohlantirish chirog'i o'chadi.

Eslatma: MT modellarida TTN funksiyasi faqat 1-uzatgichda qo'llanishi mumkin.

Eslatma: Tepadan tushayotgan avtomobil katta tezlikda burilsa, TTN tizimi Kutish rejimidan Ishlash rejimiga o'tishi mumkin.

Eslatma: TTN tizimi ishlayotganda tormoz tizimi avtomatik bosiladi va tormozga tushgan bosim ushlab turiladi. Bunday paytda tormoz pedali bosilsa, pedal oyoqni "tepishi" mumkin. TTN ishlayotganda bunday bo'lishi tabiiy hisoblanadi.

O't oldirish va haydash

TTN Ishlayotgani/Nosoz ekanini ko'rsatadigan indikator

"Asboblar va Boshqaruv paneli" bobidagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar" bo'limiga qarang.

Blokirovkaga qarshi tormoz tizimi (BQTT)



BQTT juda qisqa masofada katta tezlikda burilish yoki suv qoplagan yo'lda sirg'alish, masalan, suv qatlami shina yo'l yuzasiga birikishiga xalaqit beradigan joyda haydash kabi avtomobil to'xtashini fizik cheklab qo'yadigan omillarni yengolmaydi.

BQTT tizimining maqsadi tormoz bosilganda g'ildiraklar blokirovka bo'lib qolishi oldini olish va shu bilan haydovchiga rul boshqarilishini nazorat qilish imkonini berishdir.

Avtomobilga BQTT tizimi o'rnatilgani haydovchiga o'zini va yo'ldagi boshqa insonlarni xatarga qo'yadigan xavfli haydashga undamasligi kerak. Har qanday holda ham xavfsizlik qoidalariga amal qilish, ob-havoni e'tiborga olish va yo'ldagi harakatni hisobga olish uchun haydovchi javob beradi.

Tormoz me'yorida ishlaydigan sharoitda BQTT ishga tushmaydi. Lekin agar tormoz kuchi shinalar bilan yo'l yuzasi o'rtasidagi birikishga nisbatan ko'payib ketib g'ildiraklar bloklanib qolsa, BQTT avtomotik ravishda ishga tushadi. Shunday bo'lganda tormoz

pedalida faol pulsatsiya sezilib turadi.

Favqulodda vaziyatda tormoz berish

Tormoz pedalini har qanday vaqtda ham ketma-ket bosavermang; bunday qilish BQTT ishlashiga xalaqit beradi va tormoz yo'lini ko'paytirishi mumkin.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda, yo'l yuzasi sirg'anchiq bo'lsa ham haydovchi tormoz berish uchun bor imkoniyatni ishlatishi kerak. BQTT g'ildiraklarni blokirovkaga tushirib qo'ymaydi va natijada yo'l yuzasidagi ahvol qanday bo'lishidan qat'iy nazar avtomobilni imkoni boricha qisqa masofada to'xtatadi.

Eslatma: Yaxshilangan rul boshqaruvi qo'llangan bo'lsa ham mayda qor yoqqan, qumli yoki shag'alli yumshoq yuzada BQTT tizimi hosil qilgan tormoz yo'li BQTT tizimsiz hosil bo'ladigan tormoz yo'lidan uzunroq bo'lishi mumkin. Buning sababi, yumshoq yuzada blokirovkaga tushgan g'ildiraklarning tabiiy harakati shinning birikadigan qismi qarshisida moddiy klin hosil qiladi. Bu omil esa avtomobil to'xtashiga yordam beradi.

O't oldirish va haydash

Tormozlanish qanchalik qattiq bo'lishidan qat'iy nazar rulni odatdagidek boshqaraverasiz.

MUHIM MA'LUMOT

- BQTT haydovchi noto'g'ri bajargan ishni yoki tajribasi kamligini ishonchli to'g'rilamaydi.

BQTT noto'g'ri ishlayotganini ko'rsatadigan indkator.

"Asboblar va Boshqaruv paneli" bobidagi "Ogohlantirish chiroqlari va indikatorlar" bo'limiga qarang.

BQTT qisman

Eslatma: Oddiy (BQTT bo'lmagan) tormoz tizimi to'liq ishlayveradi hamda BQTT qisman yoki to'liq yo'qolishi unga ta'sir qilmaydi. Lekin, tormoz yo'li uzayishi mumkin.

Ag'darilishdan faol himoya (AFH)



AFH tizimi fizika qonunlarini yengolmaydi. Bu tizim faqat favqulodda vaziyatlarda avtomobil barqarorligini saqlab turish uchun haydovchiga yordam beradi. U avtomobil ag'darilib ketmasligiga kafolat bermaydi.

Avtomobilning markaziy og'irligi ko'p bo'lganda ikki yo'nalishda yo'ldagi qatorni tez yoki keskin o'zgartirish ag'darilib ketishga olib kelishi

mumkin. AFH tormoz tizimidan foydalanib, ma'lum tormozlarni qo'llab, shu vaziyatni to'g'rilashga harakat qilishi va ag'darilib ketish oldini olishga yordam berishi mumkin.

Eslatma: AFH qo'llanganda avtomobil rul boshqaruvining ishlash xususiyati oddiy sharoitda ishlagandan ko'ra farq qilishi mumkin.

Avariyaaviy tormoz berishdan ogohlantirish chiroqlarini boshqarish tizimi (AVF)

Avtomobil katta tezlikda ketayotganda haydovchi avariyaaviy tormoz manyovrini bajarsa, bu tizim avtomatik ravishda tormoz chiroqlarini yoqadi va orqada kelayotgan haydovchilarni ogohlantirib orqadan to'qnashish bo'lish ehtimolini samarali kamaytiradi.

Eslatma: Xatardan ogohlantiradigan chiroqlar qo'lda yoqib qo'yilsa, XAVF funksiyasi ishlamay turadi.

Avariyaaviy tormoz berish manyovri tugaganidan so'ng (jiddiy sekinlashish bo'lmasa) bir necha sekunddan so'ng bu funktsiya o'chadi.

Eslatma: Avtomobil tezligi 6 mil/soat (10 km/soat)dan kamaysa va tizim tormoz chiroqlari o'chib-yonmasa, xavfdan ogohlantiradigan chiroqlar avtomatik yonadi. Xavfdan ogohlantiradigan chiroq tugmasini bossa yoki 5 sekund davomida tezlik 12 mil/soat (20 km/soat)dan ko'p bo'lsa xavfdan ogohlantiradigan chiroqlar o'chadi.

O't oldirish va haydash

Elektron differensial tizimi (EDT)


Avtomobilingizga elektron differensial tizim (EDT) o'rnatilgan. Avtomobil tez yurib ketayotib burilganda burilish yetarli bo'lmagan taqdirda burilish aniqligini yaxshilash uchun tizim g'ildiraklarning ichki tomoniga tormozni qo'llaydi.

Eslatma: BNT va TNT o'chirib qo'yilganda EDT ham ishlamay turadi.

Elektron qo'l tormoz (EQT)



EDT nosozligi uchun EDT chiqmayotgan bo'lsa, iltimos, qo'l tormozini qo'lda chiqarishlari uchun MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.



EDT qo'llanishi

Avtomobil bir joyda turganda EDT qo'llanishi mumkin. Avtomobildan chiqqanda yoki uni qo'yib ketganda EDT albatta qo'llangan bo'lishi kerak.

- EDT tugmasidagi chiroq yonguncha EDT tugmasini yuqoriga o'tkazib qo'ying.
- Shunda asboblar panelida (P) EDT ishlayotganini ko'rsatish indikator yonadi. EDT tugmasi yorishgani va EDT indikator yongani EDT ishlayotganini bildiradi.
- Asboblar panelidagi EDT nosozligini (P) ko'rsatadigan indikator yonib turishi nosozlik borligini bildiradi. Iltimos, zudlik bilan MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Eslatma: EDT ishlatib qo'yilganda yoki o'chirilganda motordan shuni bildiradigan ovoz eshitalishi mumkin.

MUHIM MA'LUMOT

- Akkumulyatorning quvvati qolmasa, yoki elektr kelmay qolsa, EDTni qo'llash yoki bo'shatish mumkin bo'lmay qoladi. Shunday bo'lganda motorni o't oldirish uchun akkumulyatorni boshqa akkumulyatorga ulash kerak, buni bilish uchun, iltimos, "Favqulodda holatlar" bobidagi "Favqulodda o't oldirish" bo'limiga qarang.

O't oldirish va haydash

EDT ni bo'shatish

- Avtomobilni ishlash holatiga o'tkazib qo'ying, tormoz pedalini bosib, so'ng EDT tugmasini bosib.
- EDT tugmasidagi ko'rsatish chirog'i bilan asboblarning panelidagi ko'rsatish chirog'i o'chsa, EDT bo'shaydi.

O't olishga yordam berish

EDT haydovchi nima qilmoqchi bo'layotganini biladi va avtomatik ravishda EDTni bo'shatadi.

Haydovchining xavfsizlik kamari taqilsa, motor o't olsa, tezlik dastagi D yoki R tomonga o'tkazib qo'yilsa, avtomobilni haydash uchun akselerator pedali bosilsa; mufta pedali oxirigacha bosilsa, yoki orqaga yurgazish uchun tezlik dastagi o'tkazib qo'yilsa, va mufta pedali ko'tarilib akselerator pedali bosilsa, EDT avtomatik ravishda bo'shaydi.

Favqulodda tormoz berish tizimi



EDT noto'g'ri qo'llansa, falokat bo'lishi yoki inson jarohat olishi mumkin. Agar favqulodda vaziyat sodir bo'lmasa, EDTni avtomobilni to'xtatish uchun qo'llamang.



EDT qo'llanib tormoz berilganda avtomobilni O'CHIRIB QO'YMANG, inson jarohat olishi mumkin.

Oddiy tormoz ishlamay qolganda EDT tugmasini tortib ushlab EDT favqulodda tormoz berish tizimidan foydalanish mumkin.

- Agar BNT EDTdan kelgan talabga faol javob bersa, BNT ishga tushib, 4ta tormozni qo'llatadi. Agar BNT EDTdan kelgan talabga javob berolmasa, EDT faqat orqa tormozlarni ishga tushiradi.
- EDT qo'llanib, favqulodda tormoz berilganda davomiy ogohlantiradigan ovoz eshitiladi. Favqulodda tormoz berilishini bekor qilish uchun EDT tugmasini bosib.

O't oldirish va haydash

Shina bosimini kuzatish tizimi (SHBKT)



SHBKT texnik xizmat o'rnini bosolmaydi, shinalarning holati va bosimini tekshirib turadi.



SHBKT foydalanadigan chastotada to'liqin uzatadigan vositadan foydalanish Shina bosimini kuzatish tizimi ishlashiga xalaqit berishi mumkin, shunday bo'lganda ogohlantirish chirog'i yonadi yoki vaqtinchalik nosozlik qayd etiladi.

SHBKT shina klapanlari ichiga birikkan bosim sensorlari bilan davomiy ravishda bosimni kuzatib boradi va radiochastotali signal bilan avtomobil ichidagi ECUga ma'lumot jo'natib turadi. Agar shina bosimi tizim oldindan belgilab qo'ygan chegaradan kamayib ketganini sezsa, asboblar panelidagi ogohlantirish chirog'i yonadi (doim sariq yonadi). To'liq ma'lumot olish uchun, iltimos, "Asboblar va nazorat" bobidagi "Asboblar paneli" bo'limiga qarang. Imkoniyat bo'lishi bilan shina ichidagi bosimni tekshiring, zarurat bo'lsa, kerakli bosimga yetkazib havo to'ldiring. Iltimos, "Texnik ma'lumot" bobidagi "Shina bosimi (Sovuq)" bo'limiga qarang.

Eslatma: SHBKT faqat shina bosimi kamayib ketganidan ogohlantiradi, u shina ichidagi havoni to'ldirib qo'ymaydi.



Agar SHBKT nosozligini ko'rsatadigan chiroq yonsa, ba'zi modellar displeyida "XX Shina bosimi kam" degan yozuv ko'rinsa, iltimos, imkoni boricha tez avtomobilni to'xtating, shina bosimini tekshirib ko'ring va shina ichidagi havoni belgilab qo'yilgan darajaga yetkazib to'ldirib qo'ying. Sovuq havoda doim shina bosimini tekshirib/to'g'rilab qo'ying.

Avtomobilning "b" shaklidagi ustuniga birlashtirib qo'yilgan yorliqda avtomobilingiz sovuq shinasining to'g'ri bosimi ko'rsatilgan bo'ladi.


Bosimi ortiqcha yoki kam shina tezroq yemiriladi va avtomobilni boshqarishga yomon ta'sir qiladi. Shina ichidagi havo kam bo'lsa, avtomobil yurganda qarshilik ko'payadi, bu esa yoqilg'i sarfini oshiradi.

SHBKT o'zi o'rganish xususiyati

SHBKT sensori va qabul qilgich almashtirilganda yoki shina almashtirilganda SHBKT o'zi o'rganish xususiyati kerak bo'ladi, iltimos, bu masalada mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashing.

O't oldirish va haydash

O'CHIRISH-O'T OLDIRISH intellektual yoqilg'i tejjash tizimi








- 1 Asosiy tug
- 2 Asosiy tug

Motorni o't oldirish-o'chirish tizimi avtomobilga yoqilg'i sarfini kamaytirish uchun o'rnatilgan. Nomidan bilinib turibdi, bu tizim motor kuchi kerak bo'lmaganda motorni o'chiradi, kerak bo'lganda esa uni yana avtomatik o't oldiradi.

Bu tizim START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON (Ishlayapti) tomonda turganda o'zi ishga tushadi, shunda tugmadagi indikator (rasmda 1 bilan ko'rsatilgan) yonadi, asosiy tugmani (rasmda 2 bilan ko'rsatilgan) bosib uni o'chirib qo'yish mumkin. Shunda tugmadagi chiroq ham o'chadi.

Eslatma: Agar avtomobil chuqur suvda yuradigan bo'lsa, iltimos, O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejjash tizim tugmasidan (rasmda 2 bilan ko'rsatilgan) foydalanib O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejjash tizimini o'chirib qo'ying.

Motorni avtomatik o'chirish

-  Avtomatik o'chirilganidan so'ng motor ishlamayotgan bo'lsa ham tizim ishlab turadi, shuning uchun, quyidagilarni bajarish xavfli bo'lishi mumkin:
-  Xavfsizlik kamari qadab qo'yilganda yoki uning o'rniga ishlatiladigan boshqa xavfsizlik kamari qadab qo'yilgan bo'lsa avtomobildan tushish.
-  Avtomatik transmissiyali avtomobillarda: Tezlik dastagi Haydash (R/D/S) holatida turgan vaqtda haydovchi avtomobildan tushishi.
-  Motor bo'lmasida biror ish bajarish yoki motorni tekshirish.
-  Avtomobilga yoqilg'i quyganda START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi "OFF" (O'CHIRILGAN) tomonda turishi yoki kalit chiqarib olib qo'yilgan bo'lishi kerak.

O't oldirish va haydash

O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejash tizimi ishlatib qo'yilgan sharoitda haydovchi quyidagi harakatlardan birini qilganini sezsa, shuningdek, to'xtagandan so'ng avtomobil holati o'zgarsa, tizim motorni avtomatik ravishda o'chirib qo'yiladi va asboblari panelidagi O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejash tizimining ko'rsatish chirog'i yonadi:

- Uzatmalar qutisi neytral holda bo'lganda va mufta pedali qo'yib yuborilganda (qo'lda). Tormoz pedali bosilib turganda transmissiya aylanayotgan bo'lsa (avtomatik).
- Avtomobil bir joyda turgan, ya'ni, tezligi = 0 km/soat bo'lsa va to'xtashdan oldin avtomobilning oxirgi tezligi 10 km/soatdan ko'p bo'lsa.
- Tezlii 10 km/soatdan kamayganidan so'ng rul ko'p ishlatilmagan bo'lsa.
- Kapot va haydovchi eshigi yopiq, xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa. Quyidagilar bo'lganda O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejash tizimi ishlamaydi va motor avtomatik ravishda o'chmaydi:
- Sovitgich harorati belgilab qo'yilgan chegaradan past bo'lsa.
- Moslashuvchan kruiz boshqaruv tizimi ishlatib qo'yilgan bo'lsa.
- Old oyna muzini eritish ishlatib qo'yilgan bo'lsa.
- Konditsioner avtomobil ichidagi harorat belgilab qo'yilgan haroratga to'g'ri kelmasligini sezdi.
- Akkumulyator quvvati kam yoki akkumulyator harorati belgilab qo'yilgan harorat orasida emas.
- Tormoz tizimi ichidagi vakuum belgilab qo'yilganidan kamayib ketsa.

- Motor startyori harorati belgilangan chegaradan baland.
- Tezlik dastagi orqaga haydashga o'tkazilsa yoki avtomobil qo'yilishidan oldin o'tkazilganda.
- Tog'li joylarda
- Tepalikda

Motorni avtomatik o't oldirish

Avtomobil to'xtaganidan so'ng haydovchi quyidagi harakatlarning birortasini qilganini sezsa motor avtomatik ravishda o't oladi va asboblari panelidagi O't oldirish-O'chirish tizimining ko'rsatgich chirog'i o'chadi:

- Avtomatik transmissiyali avtomobilda: Uzatgich D holatga turganida tormoz pedalini bo'shating; Uzatgich P/N holatda turganida tormoz/akselerator pedalini bosing; Dastakni R/D/S tomonga o'tkazib qo'ying.
- Qo'l transmissiyali avtomobilda: Dastak Neytralda turganida mufta/akselerator pedalini bosing.

Eslatma: EDT tizimi yoki Avtomatik ushlab turish tizimi ishlatib qo'yilganda motor avtomatik qayta o't olmaydi.

O't oldirish va haydash

Eslatma: Ba'zi hollarda motor avtomatik o't olganda asboblar panelidagi nosozlikni ko'rsatadigan indikator yonadi. Motor o't olayotganda kuchlanish kamayib ketgani uchun ham shunday bo'ladi va bu holat biror nosozlik borligini bildirmaydi. Motor o't olgandan keyin ham nosozlik borligini bildiradigan chiroq yonib tursa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Avtomatik o'chirish-o't oldirish funksiyasi bois motor o'chganidan so'ng quyidagilar bo'lganda motor yana avtomatik o't oladi:

- Old tomon muzini eritish tugmasi bosilsa.
- Moslashuvchan kruiz boshqaruv tizimi ishlatib qo'yilgan bo'lsa.
- Avtomobil ichidagi harorat belgilab qo'yilgan haroratga to'g'ri kelmagani uchun konditsioner ishga tushsa.
- Akkumulyator quvvati belgilab qo'yilgan ko'rsatkichdan kamayib ketsa.
- Avtomobil joyidan qo'zg'alsa.
- Tormoz tizimi ichidagi vakuum belgilab qo'yilganidan kamayib ketsa.
- Asosiy O't oldirish-O'chirish tugmasi (2) bosilsa.

Motor avtomatik o'chganidan so'ng quyidagilardan birortasi yuz bersa motorni faqat qo'lda o't oldirish mumkin, bunday vaqtda asboblar panelidagi O't oldirish-O'chirish tizimining ko'rsatish indikator yonib turadi:

- Haydovchi o'rindig'idagi xavfsizlik kamari taqilmagan.
- Haydovchi eshigi ochiq qolgan.

- Kapot ochiq qolgan.

Eslatma: Akkumulyator quvvati juda kam qolgan bo'lsa, motor avtomatik qayta o't olmasligi, hatto kalit bilan ham o't oldirib bo'lmasligi mumkin. Shunday bo'lganda motorni o't oldirish uchun quvvat tashqaridan olinadi yoki akkumulyatorning quvvati to'ldiriladi. "Favqulodda holatlarga tegishli ma'lumot" bobidagi "Favqulodda holatda motorni o't oldirish" bo'limiga qarang.

Akkumulyator



Akkumulyatorning quvvati to'ldirilganda, avtomobil tashqaridan quvvat olib, o't oldirilganda yoki boshqa avtomobildan quvvat olganda minusli kabel avtomobil korpusidagi yerga tutashtirish joyiga ulanishi kerak, akkumulyatorning minusiga emas. Ushbu qoidaga amal qilinmasa, akkumulyator quvvati noto'g'ri hisoblanadigan bo'lib qoladi va bu motor avtomatik o't olishiga ta'sir qiladi.



O'ta zarur bo'lmasa akkumulyator sensorini AJRATIB QO'YMANG. Sensor ajratib qo'yilsa, akkumulyator quvvati noto'g'ri hisoblanadigan bo'lib qoladi va bu motor avtomatik o't olishiga ta'sir qiladi.

O't oldirish va haydash

Quyidagi ko'rsatmalarga amal qilmaslik akkumulyator ishlashiga va avtomatik o't olish va o'chish nazorat qilinishiga ta'sir qiladi:

- 1 Elektr uzilganidan so'ng (akkumulyator ajratib qo'yilganda) avtomobil kamida 4 soat qulflab qo'yilguncha avtomatik O't oldirish-O'chirish funksiyasining ishlashi to'xtab turadi, bu vaqtda tizim akkumulyatorning holatini qayta o'rganadi.
- 2 Agar avtomobil 100 soatdan ko'p vaqt uzilmasdan yursa avtomobil kamida 4 soat qulflab qo'yilguncha O't oldirish-O'chirish funksiyasining ishlashi to'xtab turadi, bu vaqtda tizim akkumulyatorning holatini qayta o'rganadi.
- 3 Agar akkumulyatorni almashtirish zarur bo'lsa, ALBATTA, ishlab chiqaruvchining spetsifikatsiyasida ko'rsatilgan aslidan foydalaning. Ushbu ko'rsatmaga amal qilmaslik avtomatik O't oldirish-O'chirish tizimiga ta'sir qiladi.

O'chirish-o't oldirish intellektual yoqilg'i tejjash tizimi ishlamay qolishi

O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejjash tizimi nosoz bo'lsa, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. O'chirish-O't oldirish aqlli yoqilg'i tejjash tizimiga avtomobil ichidagi boshqa nosozliklar ta'sir qilishi mumkin, biror nosozlik bo'lganda MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.


Startyor ishlamay qolishi, Akkumulyator quvvatining jiddiy kamayishi

Akkumulyator quvvati jiddiy kamaysa, avtomatik O'chirish-O't oldirish va kalit bilan o't oldirishning imkoni bo'lmay qolishi mumkin. Shunday bo'lganda "Favqulodda holatlar haqidagi ma'lumot" bobidagi "Favqulodda holatda o't oldirish" bo'limiga qarang.

Eslatma: Tashqaridan ulangan akkumulyatorning minus kabelini avtomobilingiz akkumulyatorning minusga TUTASHTIRMANG. Aks holda akkumulyator quvvati noto'g'ri hisoblanadigan bo'lib qoladi va bu holat motor avtomatik o't olishiga ta'sir qiladi.

O't oldirish va haydash

Kruiz Boshqaruv tizimi



- 1 Tezlashish
- 2 Sekinlashish
- 3 Bekor qilish
- 4 ON (YOQILGAN)
- 5 Qaytarish
- 6 Belgilash
- 7 OFF (O'CHIRISH)

Ko'p vaqt bir xil tezlikda yurish kerak bo'lganda shu tizim qo'l keladi.

Kruiz Boshqaruv tizimini ishga tushirish

Kruiz boshqaruv tizimi rul chambaragining chap tomonida joylashgan, yoritish murvatining pastidagi dastak bilan ishlatiladi.

- 1 START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNING (YOQILGAN/ISHLAYAPTI) tomonda turganda, agar kruiz dastagi "OFF" (O'CHIRILGAN) (7) tomonda turgan bo'lsa, kruiz boshqaruv o'chirib qo'yilgan bo'ladi. Kruiz boshqaruv dastagi "ON" (YOQILGAN) tomonda turgan bo'lsa tizim Kutish rejimida bo'ladi. Kruiz boshqaruv dastagini "ON" (YOQILGAN) (4) tomonga o'tkazib qo'ying, asboblar panelidagi sariq kruiz indikator yonadi va kruiz boshqaruv tizimi Kutish holatida turadi.
- 2 Kruiz boshqaruv tizimi Kutish rejimida turganida va ayni vaqtdagi tezlik 40 km/soatdan oshganda kruiz dastagining oxiridagi "Set" (Belgilash) (6) tugmasini bosib, asboblar panelidagi indikator rangi sariqdan yashilga o'zgaradi.

Kruiz boshqaruv haydovchiga akselerator pedalini bosmasdan yo'ldagi tezlikni bir xil ushlab turish imkonini beradi. Bu funksiya, ayniqsa, magistral avtomobil yo'lida yoki shunga o'xshash boshqa yo'lida qo'l keladi va bunday hollarda kruiz boshqaruv ishlatib qo'yiladi, kruiz boshqaruv tizimi 40 km/soat - 200 km/soat tezlik orasida ishlaydi. Kruiz tizimining mo'ljaldagi tezligi ushlab turiladi. Shunday vaqtda kruiz boshqaruv tizimi belgilab qo'yilgan tezlikni akselerator pedali bosilmasa ham ushlab turadi. Mexanik transmisyali avtomobillarda kruiz boshqaruv funksiyasini 3inchi uzatish tezligi va undan baland uzatish tezligida qo'llash tavsiya etiladi.

O't oldirish va haydash

Eslatma: *Kruiz boshqaruv xotirasida belgilab qo'yilgan tezlik kruiz boshqaruv dastagi "OFF" (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'yilganda yoki START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirib qo'yilganda bekor bo'ladi.*

Mo'ljallangan kruiz tezligini sozlash

Kruiz boshqaruv ishlatib qo'yilganidan so'ng "mo'ljaldagi tezlik" ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Dastakni (1) yuqoriga surib ushlab turing, istalgan tezlikka yetganidan so'ng dastakdagi tugmani qo'yib yuboring, shunda tezlik ko'payadi.

Dastakni (1) pastga tortib ushlab turing, istalgan tezlikka tushganidan so'ng dastakdagi tugmani qo'yib yuboring, shunda tezlik kamayadi.

Avtomobil tezligini 1 mil/soat (1 km/soat) oraliqda ko'paytirish / kamaytirish uchun dastakdagi tugmani yuqoriga yoki pastga bir marta qisqa bosib, avtomobil belgilab qo'yilgan yangi tezlikka muvofiq tezlashadi/sekinlashadi.

Kruiz boshqaruvidaga avtomobil akseleratorini bosib uni tezlashtirish, masalan, oldinda ketayotgan mashinani quvib o'tish mumkin. Akselerator pedali qo'yib yuborilganidan so'ng avtomobil yana mo'ljal qilingan kruiz tezlikka qaytadi.

Pauza/Kutish

Kruiz boshqaruvi ishlab turganda quyidagilarni bajarish tizimni Kutish rejimiga o'tkazadi:

- Dastakdagi tugma "Bekor qilish" tomonga o'tkazib qo'yilsa.
- Tormoz yoki mufta pedali bosilsa.
- Transmissiya 3inchi uzatishdan past tezlikka o'tkazilsa.
- Yo'lning holati yomon bo'lgani uchun barqarorlik nazorat qilish tizimi BNT ishlab ketsa. Xavfsizlikni ta'minlash uchun kruiz boshqaruv tizimi Kutish holatiga o'tadi.
- Tepaga chiqayotganda tezlik kamayib ketsa, kruiz boshqaruv tizimi avtomatik ravishda Kutish holatiga o'tadi.
- Elektron qo'l tormozi (EQT) ishlatilsa.

Xulosa

Kruiz boshqaruv o'chirilganidan so'ng ham ishlayotgan bo'lsa dastakdagi tugma "Resume" (Qaytarish) (5) tomonga o'tkazilsa, tizim o'chirib qo'yilishdan oldin belgilab qo'yilgan tezlikka qaytadi.

Eslatma:

• **Hech qachon avtomobil orqaga yurganda kruiz boshqaruvni ishlatmang.**

• **Kruiz boshqaruvni to'g'ri kelmaydigan vaziyatda, masalan, yo'l sirg'anchiq bo'lganda, yomg'ir ko'p yoqqanda yoki yo'ldagi harakat kruiz boshqaruvga to'g'ri kelmaydigan hollarda ishlatmang.**

O't oldirish va haydash

- *Ishlatilmaydigan bo'lsa dastakni, albatta, "OFF" (O'CHIRILGAN) (7) tomonga o'tkazib qo'ying.*
- *Avtomatik transmissiya "Sport" rejimida turganda kruiz boshqaruvni ishlatish tavsiya etilmaydi.*
- *Kruiz boshqaruv tizimi ishlab turganda boshqaruv aniq bo'lishi uchun yoki yo'lning holati sababli haqiqiy tezlik mo'ljal qilingan tezlikdan farq qilishi mumkin.*
- *Agar haqiqiy tezlik mo'ljal qilingan tezlikdan ancha past bo'lsa yoki tepalikdan tushganda, yo'l yuzasi bois BNT ishlatib qo'yilgan bo'lsa kruiz boshqaruv avtomatik ravishda Kutish rejimiga o'tadi.*
- *Tugmani ko'p vaqt ortiqcha ishlatmang yoki bir nechta tugmani qo'shib bosmang, aks holda tizim ishlamay qolishi mumkin. Shunday hol yuzaga kelganda, agar xatarsiz bo'lsa, START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini bir marta aylantirib oling.*

Avtomobil qo'yishga yordam berish tizimi

Ultratovush sensorli avtomobil qo'yishga yordam bergich*



Avtomobil qo'yishga yordam bergich orqaga haydaganda haydovchiga yordam beradi. Sensor ingichka ustun yoki kengligi bir necha santimetrdan oshmaydigan to'siqlarni,

yerga yaqin joydagi mayda jismlarni, yukxona eshigidan balanddagi va yuzasi aks qaytarmaydigan ba'zi boshqa jismlarni sezmasligi mumkin.



Sensorga chang tegmasligiga, ustini muz va qor qoplamasligiga qarab turing. Yuzasi berkilgan bo'lsa, sensor aniq ishlamay qolishi mumkin. Avtomobilni yuvganda yuqori bosimli suv sensorga yaqindan to'g'ri tegmasin.

Orqaga haydab avtomobilni qo'yganda yordam berishi

Orqa bamperdagi ultratovushli sensor avtomobil orqasidagi maydonda biror to'siq yo'qligini qarab chiqadi. Agar birorta to'siq topilsa tizim u bilan avtomobil

O'rtasidagi masofani hisoblab chiqaradi va ogohlantiradigan ovoz bilan haydovchiga xabar beradi.

Avtomobil qo'yishga yordam bergichni ishlatish

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi yashil yonib turgan bo'lsa, tezlik dastagi orqaga yurish tomonga o'tkazilishi bilan orqaga yurish sensori ishlab ketadi, tezlik dastagi orqaga yurishdan olinishi bilan sensor o'chadi. Tezlik dastagi orqaga yurish tomonga o'tkazib qo'yilganidan so'ng 1 sekund ichida "biip" ovozi eshitilib, tizim me'yorida ishlayotganini bildiradi.


Eslatma: Tezlik dastagi orqaga yurishga o'tkazilganidan so'ng 3 sekund davomida uzunroq va balandroq ovoz eshinishi tizim nosoz ekanini bildiradi. Shunday bo'lganda MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

O't oldirish va haydash

Avtomobil qo'yishga yordam bergich ishlab turganda biror to'siq borligi bilinsa, tizim boshqa chastotada ovoz beradi (orqa tomonda ko'zga ko'rinmaydigan joylar bo'lishi mumkin).

Avtomobil qo'yish kamerasi *

Avtomobil qo'yish kamerasi avtomobilni orqaga haydaganda haydovchiga yordam beradi! Kamera faqat cheklangan maydondagi to'siqlarni ko'radi va ko'radigan maydonidan tashqaridagi to'siqlarni ko'rolmaydi.



- Agar to'siq orqadagi avtomobil qo'yishga yordam berish sensoridan 1,5 m joyda yoki burchak sensoridan 0,6 m joyda turgan bo'lsa, ogohlantiradigan ovoz eshutiladi. Avtomobil to'siqqa qancha yaqin kelsa, ovoz shunchalik tez-tez eshutiladi.
- Orqa bamber to'siqqa 30 cm yaqin kelganda ovoz uzluksiz eshutiladi.

Ba'zi avtomobil modellarida avtomobil qo'yishga yordam beradigan orqa kamera davlat raqami belgisidagi chiroqlarning o'rtasiga qo'yilgan bo'ladi. Tezlik dastagi orqaga yurish tomonga o'tkazib qo'yilishi bilan kamera avtomobil orqasidagi ko'rinish tasvirini displeyga chiqaradi. Tasvir multimedia va ma'lumot markazi tizim displeyida ko'rinadi.


Eslatma: Tortadigan modul o'rnatilgan ba'zi avtomobillarda avtomobilni qo'yishga yordam berish va orqaga haydaganda haydovchiga yordam berish tizimlari yo'q.


Eslatma: Tizim ishlashi yozilgan yo'riqdagagi vaqt chegarasi va avtomobil tezligi ko'rsatgichlari faqat ma'lumot uchun berilgan.

O't oldirish va haydash


Orqa tomondagi haydovchiga yordam berish tizimi *


Tizim haqida umumiy ma'lumot

 Orqadagi sensorning ishlash samarasi yo'l chetidagi imoratlar, to'siqlar, og'ir yuk ortilgani uchun avtomobil tangaji burchagi o'zgargani, burilishlar va chuqurliklar kabi yo'lning holati yoki qor va muz kabi ob-havo sharoiti ta'sir qilib cheklanishi mumkin. Yuqorida aytilganlarning istalgan bittasi noto'g'ri tashvish signali chalinishiga sabab bo'lishi mumkin.


 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi avtomobil juda tez yaqinlashganda yoki tor burilishlarda ogohlantirish mumkin.

 Orqaga yurganda haydovchiga yordam berish tizimi tirkach yoki furgon ulanganda ishlamaydi.

 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi yordamchi, xolos, u haydovchi diqqati o'rnini bosolmaydi. Haydovchi doim atrofiga e'tibor berishi, kuzatib borishi va avtomobilni ehtiyot bo'lib haydashi lozim.

 Biror to'qnashuv bois joyidan siljigan bo'lsa, orqadagi sensorlar to'g'ri ishlamay qoladi. Bunday hollarda tizim avtomatik ravishda o'chadi.

 Radarli sensorlar to'g'ri ishlashi uchun orqa bamperda qor va muz bo'lmasligi, usti yopilib qolmasligi kerak.


 Orqa bamper ta'mirlanganda tavsiya etilmagan material yoki bo'yoq qo'llanishi orqa sensorlar ishlashini yomonlashtirishi mumkin. Iltimos, faqat tavsiya qilingan materiallardan foydalaning.

Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi ko'rinmaydigan maydonni topgich (KMT), qatorni o'zgartirishga yordam bergich (QO'YO), orqadagi kesishgan harakat haqida ogohlantirgich (OKHO) va eshik ochiqqligi haqida ogohlantirgichni (EEO) ham o'z ichiga oladi.

Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi modullari avtomobilning orqa tarafidagi ikki chetiga o'rnatilgan, ular avtomobilingiz orqasidagi yoki yonidagi avtomobillarni bilishga yordam beradi.

O't oldirish va haydash

Ushbu tizim bilan bog'langan ogohlantirish chiroqlari chap tomon va o'ng tomon eshigidagi qoplamalar ichida joylashgan, avtomobilingizni xavfsiz harakatlantirish uchun ular yonib yoki o'chib-yonib yaqinlashayotgan obyekt yoki avtomobil haqida ogohlantiradi.



Eslatma: Yangi avtomobillarda va radar sensori almashtirilgan avtomobillarda radarni kalibrash talab qilinadi. O'rnatganda bo'ladigan ma'lum xatolar o'rnini to'ldirish uchun orqa radar sensorlari avtomatik kalibrash xususiyatiga ega. START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasidagi chiroq yashil yonganda radar avtomatik ravishda kalibrash holatiga kiradi. Kalibrash jarayonida tizim bajaradigan funksiyalar cheklanadi, tashvish signali noto'g'ri bo'lishi mumkin. Kalibrash tugaganidan so'ng tizim yana oldingidek ishlashga qaytadi.

Tizim funksiyalarini Ishlatish/O'chirish

Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi chiroqlari tugmalariga


multimedia va ma'lumot markazi ekranida kirish mumkin. Tizimni ishlatish yoki o'chirish uchun ON/OFF (O'CHIRISH/YOQISH)ni tanlang.

Eslatma: Tortadigan modul o'rnatilgan ba'zi avtomobillarda Avtomobilni qo'yishga yordam berish va Orqaga haydaganda haydovchiga yordam berish tizimlari yo'q.

Tizim funksiyalari

Ko'rinmaydigan joyni ko'rsatgich (KJK)

Avtomobil oldinga yurganda tizim chap va o'ng tashqi ko'zgularda ko'rinmaydigan joyda avtomobillar borligiga qarab turadi. Ko'rinmaydigan joyni topish funksiyasi ishlab ketishiga sabab bo'ladigan holat yuzaga kelganda tegishli ogohlantirish chiroqlari yonadi. Tegishli indikator ishlab ketib haydovchini biror avtomobil yaqinlashayotganidan ogohlantiradigan chiroq o'chib-yonadi.



O't oldirish va haydash


Ko'rinmaydigan joyni topish funksiyasi quyidagi hollarda ishlab ketadi:

- 1 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi YOQIB qo'yilib, tizim ishida nosozlik bo'lmasa.
- 2 Ko'rinmaydigan joyni topish (KJT) funksiyasi ishlatib qo'yilganda.
- 3 Avtomobil tezligi 20 mil soat/15 km soat bo'lganda.
- 4 Avtomobilning ko'rinmaydigan joyida avtomobillar bo'lganda. Tizim avtomobilning o'ng va chap tomonlarini qarab turadi, qaraladigan maydon oldinda 1 m, avtomobil orqasida 7 m va avtomobilning yonida 3,5 m.

Eslatma: Boshqa avtomobilni quvib o'tayotganda va sizning tezligingiz boshqa avtomobil tezligidan ko'p bo'lganda, u avtomobil ko'rinmaydigan joyda bo'lsa ham, ogohlantirish chirog'i yonmaydi.

Yo'l qatorini o'zgartirishga yordam (YQO'Y) tizimi

Avtomobil oldinga yurib ketayotganda tizim yon qatorda tez yaqinlashib kelayotgan boshqa avtomobillarni kuzatib turadi. Indikator ishlab turganida va yo'l qatorini o'zgartirishga yordam funksiyasi ishlab ketadigan sharoit yuzaga kelganda tizim tegishli ogohlantirish chirog'ini o'chirib, yoqib boshqa avtomobil yaqinlashayotganidan ogohlantiradi. Bu yordam yo'ldagi qatorni o'zgartirganda to'qnashuv bo'lishi oldini oladi.



Yo'l qatorini o'zgartirishga yordam funksiyasi quyidagi hollarda ishlab ketadi:

- 1 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi YOQIB qo'yilib, tizim ishida nosozlik bo'lmasa.
- 2 Yo'l qatorini o'zgartirishga yordam (YQO'Y) funksiyasi ishlatib qo'yilganda.
- 3 Avtomobil tezligi 20 mil soat/15 km soat bo'lganda.
- 4 Yaqinlashib kelayotgan avtomobil tezligi avtomobilingiz tezligidan ko'p bo'lganda.
- 5 Yaqinlashib kelayotgan avtomobil YQO'Y kuzatib boradigan zonaga kiringanda, kuzatib boradigan zona avtomobilingiz orqasida 7 m - 70 m, avtomobilingiz yonida 3,5 m.
- 6 Yaqinlashib kelayotgan avtomobil 3.8 sekund ichida sizning avtomobilingiz bilan to'qnashishi mumkin bo'lsa.

O't oldirish va haydash

Orqa tomondagi kesishgan harakatdan ogohlantirgich (OKHO)

Avtomobil orqaga yurganda tizim o'ng va chap tomondan yaqinlashib kelayotgan avtomobillarni kuzatib turadi. OKHO funksiyasi ishlatib qo'yilganda tegishli tomonning ogohlantiradigan chirog'i yonadi va shu vaqtning o'zida tegishli tomonning ogohlantiradigan uchburchak belgisi multimedia va axborot markazi ekranida ko'rinib haydovchini vaziyatdan ogohlantiradi.



Orqa tomondagi kesishgan harakatdan ogohlantirish funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- 1 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi YOQIB qo'yilib, tizim ishida nosozlik bo'lmasa.
- 2 Orqa tomondagi kesishgan harakatdan ogohlantirish funksiyasi (OKHO) ishlatib qo'yilganda.
- 3 Tezlik dastagi orqaga yurishga o'tkazilganda.
- 4 Avtomobil tezligi 5 mil soat/10 km soat bo'lganda.
- 5 Kuzatilayotgan avtomobilning tezligi soatiga 5 mildan/10 kmdan ko'p bo'lsa.

6 Boshqa avtomobil tizim kuzatib turadigan maydonni kesib yurib kelayotganda. Avtomobilning o'ng, chap va orqa tomonlaridan 7 m, yon tomonidan esa 30 m maydon kuzatib turiladi.

7 Yaqinlashib kelayotgan avtomobil 3.3 sekund ichida sizning avtomobilingiz bilan to'qnashishi mumkin bo'lsa.

Eshik ochilganda ogohlantirish (EEO)

Avtomobil qo'zg'olmay turganida Eshik ochilganda ogohlantirish tizimi atrofini kuzatib, biror avtomobil, mototsikl va velosiped yaqinlashib kelmayotganiga qaraydi.

Agar yaqinlashib kelayotgan obyekt tizim ichida dasturlab qo'yilgan vaziyatga mos kelsa, tegishli chiroq yonib, avtomobil ichidagi insonni obyekt yaqinlashib kelayotganidan ogohlantiradi va eshik ochilganda to'qnashish bo'lishi oldini oladi.



O't oldirish va haydash

Eshik ochilgani haqida ogohlantirish tizimi quyidagi hollarda ishlab ketadi:

- 1 Orqa tomon haydovchiga yordam berish tizimi YOQIB qo'yilib, tizim ishida nosozlik bo'lmasa.
- 2 Eshik ochilgani haqida ogohlantirish tizimi (EOO) ishlatib qo'yilgan bo'lsa.
- 3 Avtomobil ACC da yoki START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi yashil yonib turgan bo'lsa.
- 4 Avtomobil bir joyda turganda yoki tezlik soatiga $\lt 3$ km bo'lsa.
- 5 Kuzatilayotgan avtomobilning tezligi soatiga 5 mildan/10 kmdan ko'p bo'lsa.
- 6 Boshqa avtomobil tizim kuzatib turadigan maydonni kesib o'tsa. Kuzatiladigan maydon sathi: Eshikdagi ko'zgularning orqa tarafidan va avtomobil ikkala yonidan 2,4 metr.
- 7 Yaqinlashib kelayotgan avtomobil 3.3 sekund ichida sizning avtomobilingiz bilan to'qnashishi mumkin bo'lsa.

Eslatma: Tizim ishlash tavsifida yozilgan vaqt chegarasi va avtomobil tezligi ko'rsatkichlari faqat ma'lumot uchun berilgan.

Og'irlik ko'tarish



Avtomobilning umumiy og'irligini yoki old va orqa o'qlarga tushadigan og'irlikni ruxsat etilganidan OSHIRMANG. Ushbu talabga amal qilmaslik avtomobil shikastlanishiga yoki insonlar jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuk qo'yiladigan joy



Orqa o'rindiqlik ortidagi yuk qo'yiladigan joyga yuk joylanganda orqa o'rindiqlik suyanichlari tik holatga keltirilib, mahkamlab qo'yilgan bo'lishi kerak.



Agar yuk katta bo'lgani uchun yukxona eshigi (yoki ortki eshik) yopilmasa, avtomobilni haydaganda hamma oynalar yopiq bo'lsin, konditsionerdan keladigan havo yuzga uriladigan bo'lsin, havo kelish tezligini esa oxirgi tezlikka qo'ying, shunda tashqaridagi tutun va g'ubor avtomobil ichiga kirmaydi.

Yukxonaga yuk solingan bo'lsa og'ir buyumlarni imkoni boricha pastroq qilib, oldinroq tomonga surib, biror falokat bo'lsa, yoki qo'qqisdan tormoz berganda, oldinga otilib ketmaydigan qilib joylang.

Katta yoki og'ir buyumlar solinganda avtomobilni ehtiyot bo'lib haydang, qo'qqisdan tormoz bermang, qo'qqisdan rulni burmang.

O't oldirish va haydash

Yukxona eshigini (yoki ortki eshikni ochib) avtomobil haydash juda xavfli. Agar yukni olib yurish uchun yukxona eshigini (yoki ortki eshikni) ochib qo'yish kerak bo'lsa, iltimos, yuk va yukxona eshigini (yoki ortki eshikni) mahkamlab bog'lab qo'ying. so'ng tashqaridagi tutun avtomobil ichiga kirmaslik choralarini ko'ring.

MUHIM MA'LUMOT

- Yuk olib yurganda yo'lda harakatlanish qoidalariga qat'iy amal qiling, agar yuk yukxonadan chiqib turadigan bo'lsa, yo'ldagi boshqa haydovchilarni ogohlantirish choralari ko'rilishi kerak.

Ichkariga yuk qo'yish

Biror falokat bo'lganda, qo'qqisdan tormoz berganda yoki birdan tezlashganda insonlarni jarohatlashi mumkin bo'lgan jihozlarni, asboblarni yoki yukni bog'lamasdan olib yurmang.

Avtomobil ichidagi yuk haydovchi va yo'lovchilar to'g'ri o'tirishiga va yo'lni ko'rishiga XALAQIT BERMASIN.

Orqa o'rindiqlar buklab qo'yilsa, yuk solinadigan joy kengayadi, "O'rindiq va cheklagichlar" bobidagi "Orqa o'rindiq" bo'limiga qarang.

Avtomobilga yuk ortilganda, iltimos, yukni imkoni boricha pastroq qilib joylang va biror falokat bo'lganda yoki qo'qqisdan tormoz

berganda otilib ketib, insonlarni jarohatlamasligi uchun yukni qattiq bog'lab, mahkamlab qo'ying. Agar yuk o'rindiqqa qo'yiladigan bo'lsa, yuk qo'yilgan o'rindiqqa hech kim o'tirmasin.

Umumiy treyler ulash xavfsizligi

Avtomobilingizga treyler ulash mumkin, faqat, ortiladigan yuk og'irligi chegarasidan chiqmang, to'g'ri keladigan moslamalardan foydalaning va treyler ulash yo'rig'iga qat'iy amal qiling. Treylerni tortib olib ketishdan oldin, albatta, unga ortilgan yuk cheklovdan oshib ketmaganini tekshirib ko'ring.

Ruxsat etiladigan maksimal og'irlikdan ortiqcha yukni tortish avtomobilni boshqarishga va uning ishlashiga jiddiy ta'sir qiladi hamda avtomobil motori va ulangan treylerni shikastlantirishi mumkin.

Eslatma: MG Motor Ltd yuk og'irligini cheklovdan oshirib yuborish xavfli ekani haqida ogohlantiradi. Yo'lga chiqishdan oldin tavsiya qilinadigan yuk og'irligi chegarasi qanchaligi va yuk qanday joylanishini bilib oling.

O't oldirish va haydash

Avtomobilni haydashdan oldin avtomobilingizga va treylerga qancha yuk tushishini tekshirib ko'ring.

Treyler ulagichiga tushadigan og'irlik MG Motor Ltd maslahat beradigan cheklashdan oshib ketmasligi kerak.

Eslatma: Avtomobilga ulangan treylerga ortiqcha yuk ortish old g'ildirak yo'lga birikishini kamaytiradi, rul boshqaruvini qiyinlashtiradi, treyler tumshug'i kichik bo'lsa, treyler barqaror yurmaydi, chayqalib yuradigan bo'lib qoladi.

Tortish ilmog'i: Avtomobilingizga faqat MG tasdiqlagan tortish ilmog'i o'rnatilishi kerak. Tortish moslamasi mustahkam turishi uchun faqat avtomobil ishlab chiqaruvchi ma'qullagan ulash usulidan foydalaning. To'liq ma'lumot olish uchun MG Vakolatli sotuvchisiga murojaat qiling.

Xavfsizlik zanjiri: Xavfsizlik zanjiri treyler tasodifan ajralib ketsa, uni ushlab turish uchun, ehtiyot chorasi sifatida bog'lanadi. Avtomobilni haydashdan oldin xavfsizlik zanjiri treylerga ham, avtomobilga ham mahkam biriktirib qo'yilganini tekshirib ko'ring.

Balandlik: Avtomobilingiz motori balandroq joyda kamroq quvvat berib ishlaydi. Agar treylerni tog'li joyda tortadigan bo'lsangiz har 1000 m ko'tarilishga avtomobil bilan treylerning umumiy og'irligini 10 foiz kamaytirishingiz kerak.

Tepaliklar: Treyler tortib ketayotganda imkoni boricha tik tepaliklardan yurmaslikka harakat qiling. Maslahat berilgan tormoz tortish massasi tepalik maksimal qiyaligi 12% bo'lishini nazarda tutadi, shuning uchun, imkoni boricha qiyaligi 12 foizdan kam tepalikda haydashni tavsiya

qilamiz. Qaysi yo'ldan yurish masalasida Treyler egalari uyushmasi tavsiyalariga amal qiling.

Chiniqtirish davri: Avtomobilingiz 1000 km yoki 625 mil yurmasidan oldin unga treyler ulamang.

O'chirish/O't oldirish funksiyasi: Treyler tortganda tugmani bosib, Avtomatik O'chirish/O't oldirish funksiyasini OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib o'chirib qo'ying. Treyler tortilganda tepalik joyda Avtomatik O'chirish/O't oldirish funksiyasi ishlatib qo'yilsa, treylerning og'irligi avtomobil tormozi samaradorligiga ta'sir qiladi.


Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Xatardan ogohlantiradigan vositalar	162
Favqulodda holatda motorni o't oldirish	162
Avtomobilni tiklash	164
G'ildirakni almashtirish	167
Saqlagichni almashtirish	170
Lampochkani almashtirish	175

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Xatardan ogohlantirish vositalari


Ogohlantirish uchburchagi imkoni bo'lsa, xatardan ogohlantirish tugmasini bosib, qayerda turganingizni bildirish uchun yo'ldagi haydovchilarni ogohlantiring.







Avtomobilingizga qo'shib beriladigan uchburchak ogohlantirish belgisi yukxonaga solib qo'yilgan bo'ladi.

Favqulodda holat bo'is avtomobilingizni yo'lda to'xtatishga majbur bo'lsangiz uchburchak ogohlantirish belgisini avtomobil orqasidan taxminan 50-150 metr joyga qo'ying.

Favqulodda holatda o't oldirish



-  **HECH QACHON** avtomobilni itarib yoki tortib motorni o't oldirmang.
-  Ikkala akkumulyatorning ham kuchlanishi bir xil (12 volt) ekani va buster kabellar 12V avtomobil akkumulyatoriga qo'llash uchun tasdiqlanganini qarab ko'ring.
-  Old bo'lmaga uchqun yoki ochiq olov yaqinlashtirmang.
-  Buster kabellari mahkam tutashgan bo'lsin, bir-biriga yoki boshqa harakatlanadigan qismlarga tegmasin, aks holda uchqun chiqib, yong'in yoki portlash bo'lishi mumkin.

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Batareyaning quvvati qolmaganda buster kabellar akkumulyatorni boshqa avtomobilga yoki tashqi akkumulyatorga tutashtirish uchun ishlatiladi.

Oldin START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazib qo'ying, so'ng avtomobildagi BARCHA elektr asboblarni o'chiring, so'ng quyidagi yo'riqqa amal qiling:

- 1 QIZIL buster kabelni ikkala akkumulyator o'rtasidagi musbat (+) terminalga ulang. Quvvat olinadigan akkumulyatorning (A) manfiy (-) terminalidan kelayotgan QORA buster kabelni yurmay qolgan avtomobilning (B) yerga tutashtiriladigan joyiga (motor asosiga yoki boshqa bo'yalmagan joyga) ulang, quvvat olinadigan akkumulyator imkoni boricha uzoqda tursin, bundan tashqari, yoqilg'i va tormoz yo'llaridan ham narida bo'lsin.
- 2 Quvvat olinadigan avtomobil motorini o't oldiring va bir necha daqiqa bo'sh yurgazib qo'ying.
- 3 Yurmay qolgan avtomobil motorini o't oldiring. Agar yurmay qolgan avtomobil bir necha marta harakat qilganda ham o't olmasa, uni ta'mirlash kerak bo'lishi mumkin. Iltimos, mahalliy Vakolatli ta'mirchiga murojaat qiling.
- 4 Ikkala avtomobil ham me'yorida o't olganidan/quvvat olganidan so'ng quvvat bergan avtomobil motorini o'chiring.
- 5 Buster kabelni ajratib qo'ying. Buster kabelni birinchi qanday ulagan bo'lsangiz ajratganda aynan shuning teskarisini qilib ajratasiz, ya'ni BIRINCHI BO'LIB QORA kabelni yurmay qolgan

avtomobilning yerga tutashgan joyidan ajratib olasiz.

MUHIM MA'LUMOT

- Buster kabel ajratib qo'yilmasidan oldin yurmay qolgan avtomobildagi birorta ham elektr asobni YOQMANG.

Eslatma: Hamma chiroqlarni, konditsionerni va boshqa qulaylik vositalarini o'chirib qo'yish tavsiya etiladi, so'ng akkumulyator quvvati to'lishi uchun quvvat olgan avtomobil o't olganidan so'ng 1-2 soatdan ko'p quvvat olishi yoki motori ishlab turishi kerak. To'liq quvvat olganidan keyin ham avtomobil o't olmasa/quvvati to'lmasa, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.


Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Avtomobilni tiklash

Tiklash uchun tortib olib ketish. Tortadigan ilmoq.



O'ralib qolgan trosni tortishga ishlatmang - aks holda tros ulanadigan ilmoq boltidan chiqib ketishi mumkin.



Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Avtomobilingizda tortish trosi o'tkaziladigan 2 ta teshik bor (avtomobilning old va orqa tomonlarida joylashgan), ular tortish ilmog'ini asboblar to'plamiga kiydirish uchun qo'llanadi. Asboblar to'plami yukxona poli ostida joylashgan. Tortish ilmog'ini ildirish uchun bampet ustidagi kichik teshik ustidagi qoplamaning oling, so'ng tortish ilmog'ini shu kichik teshikdan o'tkazib bampet ichidagi rezbalik teshikka burab, mahkamlab qo'yning (rasmga qarang). Tortish ilmog'i yaxshi mahkamlanganini tekshirib ko'ring.

Eslatma: Teshik ustini yopib turadigan qoplamaning plastik ip bilan bampetga bog'lab qo'yish mumkin.

Avtomobilingiz buzilgan yoki falokat bo'lib to'qishgan bo'lsa, tortish ilmog'idan foydalanib avtomobilingizni tortib olib ketishlari mumkin. Lekin ular boshqa avtomobillarni tortishga mo'ljallanmagan. Avtomobilni yumshoq arqon bilan ham tortish mumkin, lekin tros ishlatgan yaxshi.

Tortib olib ketish






Avtomobil tortib olib ketilayotganda birdan tezlashmang va birdan tormoz bermang, falokat bo'lishi mumkin.

Ko'tarib olib ketish

Ko'tarib olib ketish tortib olib ketishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Tortadigan g'ildiraklar yerdan ko'tarib qo'yiladi, aks holda transmissiya shikastlanadi. Qo'l tormozini bo'shating, xatardan

ogohlantiradigan chiroqni yoqib qo'yning, ichkarida yo'lovchilar bo'lmasin.

Vaqtli to'rt g'ildiragi tortadigan avtomobillar (AWD) faqat rasmda ko'rsatilgan ikkinchi yoki uchinchi tortish usullaridan foydalanishlari mumkin.



Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

To'rt g'ildirak yerda turadigan tortish



Elektr jihozlar ishlamayotgan yoki xavfsizlik xatari bor sharoitda START/STOP (ISHLATISH/O'CHIRISH) tugmasini ON (YOQILGAN) tomonga o'tkazib qo'yish mumkin emas.



To'rt g'ildirak yerda turadigan tortish usulini vaqtli to'rtta g'ildiragi tortadigan (AWD) avtomobillarga qo'llamang. Bu turdagi avtomobillarga faqat ikkinchi yoki uchinchi turdagi ko'tarib tortish usuli yoki yuklab olib ketish usuli to'g'ri keladi, aks holda to'rt g'ildirak tortadigan tizim shikastlanishi yoki ishlashida nosozlik yuzaga kelishi mumkin.




Avtomobil tortiladigan tezlik soatiga 19 mil (30 km/soat)dan oshmasligi kerak, tortish masofasi esa 31 mildan (50 kmdan) ko'p bo'lmasligi lozim.

Agar avtomobilingiz to'rtta g'ildiragi yerga tegib tortiladigan bo'lsa quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling:

- 1 START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini ON (YOQILGAN) tomonga o'tkazib, tormoz chiroqlarini, oyna artgichlarni va yo'nalish ko'rsatkichlarini ishlatib qo'ying.
- 2 Avtomobil tortilishidan oldin tezlik dastagini N tomonga o'tkazib qo'ying (MT) yoki N ga qo'ying (AT).
- 3 Qo'l tormozini bo'shating.
- 4 Xatar chiroqlarini yoqib qo'ying.

5 Agar transmissiya shikastlangan yoki moyi kam bo'lsa, avtomobilni to'rt g'ildiragini yerga tekkizib TORTMANG.


6 To'rtta g'ildiragi yerda bo'lgan avtomobilni orqaga tomonga TORTMANG.



Motor ishlamayotgani uchun tormoz pedalini bosishga va rulni burishga ko'proq kuch kerak bo'ladi. Tormoz yo'li ham uzayadi.

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Transportga yuklab olib ketish yoki tortib olib ketish




Agar avtomobilingiz transportga yoki tirkachga yuklab olib ketilsa, uni suratdagidek qilib mahkamlab qo'yish zarur bo'ladi:

- 1 Qo'l tormozini ishlatib qo'ying, qo'l transmissiyasi dastagi Neytral (N) tomonda bo'ladi, avtomat transmissiya dastagi esa Park (P) tomonga o'tkaziladi.
- 2 G'ildirak ostiga tirgakni (1) rasmda ko'rsatilgandek qilib qo'ying, so'ng shina atrofiga sirg'atmaydigan rezinka to'shamani (2) o'rang.
- 3 G'ildiraklarni atrofidan tasmalar (3) bilan o'rab tirkachga mahkamlab qo'ying. Tasmalarni avtomobilingiz mahkam turadigan qilib tortib qo'ying.

G'ildirakni almashtirish


Qo'shimcha g'ildirak va asboblar qutisi



- 1 Yukxona qoplamasini (1) tortib oling, agar bo'lsa.
- 2 Yukxona to'shamasini dastagidan (2) ushlab ko'taring va o'zining ilmog'i (A) bilan uni yuqoriga ilib qo'ying, so'ng yukxona saqlash bo'lmasini oching.
- 3 Qo'shimcha g'ildirakni ushlab turadigan boltni (B) bo'shating va g'ildirakni turadigan joyidan chiqarib oling.
- 4 Asbob qutini (C) oling.

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

G'ildirakni almashtiradigan asbob



- 1 G'ildirak boltini buragich
- 2 Tortadigan ilmoq
- 3 Domkrat tutgichi
- 4 G'ildirak bolti qopqog'ini oladigan asbob
- 5 Domkrat

G'ildirakni almashtirish

Agar safar vaqtida g'ildirakni almashtirish kerak bo'lsa, imkoni boricha avtomobilni katta yo'ldan chetroqda, xavfsiz joyda to'xtating. Albatta, yo'lovchilarni avtomobildan tushiring va avtomobil yo'lidan uzoqroqda kutib turishlarini so'rang.

Xatardan ogohlantiradigan chiroqlarni yoqib qo'ying. Agar imkoni bo'lsa, avtomobil orqasidan taxminan 50-150 metr joyga kelayotgan haydovchilarni ogohlantiradigan uchburchak belgi qo'ying.

G'ildirakni almashtirishdan oldin old g'ildiraklar to'g'ri turganini qarab ko'ring. Qo'l tormozini ishlatib qo'ying, tezlik dastagini N tomonga (MT) yoki P tomonga (AT) o'tkazing.

Quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling:

- Domkrat qattiq, tekis joyda tursin.
- Agar avtomobil tepada turgan bo'lsa, pastga yuqirib ketmasligi uchun, old va orqa 3 ta g'ildirak oldiga tirgak qo'ying.

Domkratni o'rnatish


⚠ **Avtomobil faqat domkrat bilan ko'tarib qo'yilganda HECH QACHON avtomobil ostiga kirmang. Domkrat faqat g'ildirakni almashtirishga mo'ljallangan.**

⚠ **Avtomobilni HECH QACHON domkrat uchun mo'ljallangan joyidan boshqa joyga domkrat qo'yib ko'tarmang. Avtomobil jiddiy shikastlanishi mumkin.**

⚠ **Mashina ostidagi biror qismni, ayniqsa, ishlangan gazlarni chiqarish tizimi qismlarini tasodifan ushlamang.**

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Domkratni yechiladigan g'ildirakka yaqin qilib qattiq, tekis joyga, domkrat tiraladigan joyga tirab qo'ying. Domkratning to'g'ri burchakli arig'i avtomobil korpusidagi shunga mo'ljallangan joyga tushsin (1 raqamli uchburchak bilan ko'rsatilgan).



Domkratning vintsimon dastagini qo'l bilan burab, domkrat kallagi korpusdagi flanga tushadigan qilib to'g'rilab qo'ying. Domkratning asosi tekis yerga to'liq tegib tursin.

Qo'shimcha g'ildirakni qo'yish

! Vaqti-vaqti bilan qo'shimcha g'ildirak bosimini tekshirib turing, ko'p vaqt foydalanilmagani uchun bosimi kamayib ketishi mumkin. Qo'yilganidan so'ng imkoni boricha tez shina bosimini tekshirib, to'g'rilab qo'ying.



G'ildirak almashtirilganidan so'ng, g'ildirak boltlari belgilab qo'yilgan momentgacha tortib qo'yilishi kerak. (120~130 Nm).

- 1 Avtomobilni ko'tarishdan oldin g'ildirak boltini yechadigan kalit bilan soat miliga teskari aylantirib, har bitta g'ildirak boltini yarmigacha bo'shatib qo'ying.
- 2 Shina yerdan uzilguncha domkrat dastagini soat mili tomonga aylantiring.
- 3 G'ildirak boltlarini yechib oling va yo'qolib qolmasligi uchun asbob qutiga solib qo'ying. G'ildirak boltlarini yechib olishdan oldin avtomobil barqaror turganini, sirg'alib yoki qo'zg'olib ketmasligini qarab ko'ring.
- 4 Avtomobil g'ildiragini chiqarib oling.

Eslatma: G'ildiraklarni yuzini pastga qilib yerga qo'ymang - yuzasi tirnalishi mumkin.

- 5 Qo'shimcha g'ildirakni gupchakka kiriting, gupchakda mahkam turguncha, g'ildirak boltlarini kalit bilan tortib qo'ying.
- 6 Avtomobilni tushiring, domkratni oling, so'ng diagonal ketma-ketlikda g'ildirak bo'ltlarini oxirigacha tortib qo'ying.
- 7 Oxirida asboblarni qutiga soling, asbob qutini yukxonaga qo'ying, boltlarni tortib mahkamlang, yukxona to'shamasini joyiga qo'ying, yechib olingan g'ildirakni to'shama ustiga qo'ying (g'ildirak gardishi yuqoriga qarab tursin).

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Eslatma: G'ildirak boltini yechadigan kalit ustiga **CHIQMANG** yoki kalit dastagiga quvur solib **UZAYTIRMANG**.

Eslatma: G'ildirakni almashtirganda, iltimos, boltlarni ikki marta diagonal ketma-ketlikda tortib chiqing.

Eslatma: MV Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qilib, tez eskisining o'rniga yangi shina oling.

MUHIM MA'LUMOT

- HECH QACHON kuygan saqlagichni ta'mirlashga harakat qilmang. Saqlagichni, ALBATTA, huddi shu nominaldagi saqlagich bilan almashtiring, aks holda elektr tizimiga ortiqcha yuklanish tushib, yoki shikastlanib, yong'in chiqishi mumkin.
- Agar yangi qo'yilgan saqlagich ham tez kuysa, iltimos, imkoni boricha tez MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Saqlagichlarni almashtirish


Saqlagich

Saqlagich elektr zanjirida kuchlanish ko'payib ketganda elektr zanjirini uzib, avtomobil elektr jihozlarini himoya qiladi. Saqlagich himoya qiladigan elektr jihozlar ishlamay qolishi saqlagich kuyganini bildirishi mumkin.

Agar saqlagich nosozligiga shubhangiz bo'lsa uni saqlagich qutidan olib, simi uzilmaganini qarab ko'ring.

Avtomobilingizda doim MG Vakolatli ta'mirchisidan olingan qo'shimcha saqlagichlar bo'lsin.

Saqlagich qutisi




Avtomobilga 2 ta saqlagich qutisi o'rnatilgan:

- 1 Motor bo'lmasidagi saqlagich qutisi (motor bo'lmasining chap tomonida)
- 2 Yo'lovchi bo'lmasidagi saqlagich qutisi (haydovchi o'rindig'i orqasidagi tizza to'sig'ida)

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Motor bo'lmasidagi saqlagich qutisi



Saqlagichni tekshirish va almashtirish

- 1 START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini, hamma elektr asboblarni o'chirib qo'ying, akkumulyatorning manfiy kabelini ajrating.
- 2 Motor bo'lmasidagi saqlagich quti ustidagi qopqoqni ochish uchun qulf zulfini bosing.
- 3 Saqlagich kallagini saqlagichni chiqarib oladigan asbob bilan qising, so'ng saqlagichni tortib chiqarib oling, kuymanini tekshirib ko'ring.
- 4 Agar saqlagich kuygan bo'lsa, shu turdagi va shu amper ko'rsatkichli boshqa saqlagich qo'ying.

Kodi	Xususiyati	Ishlashi
F1	-	-
F2	120Ω	Bordagi tarmoq klemmalarining qarshiligi
F3	-	-
F4	25A	Korpusni boshqarish moduli
F5	25A	Korpusni boshqarish moduli
F6	-	-
F7	10A	Motorni boshqarish moduli
F8	-	-
F9	15A	Signal
F10-F11	-	-
F12	25A	Korpusni boshqarish moduli
F13	25A	Korpusni boshqarish moduli
F14-F19	-	-
F20	20A	DT-DT konverteri
F21-F24	-	-
F25	30A	DT-DT konverteri
F26	25A	Korpusni boshqarish moduli
F27	10A	Old oyna yuvgich tizimi
F28	-	-


Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Kodi	Xususi-yati	Ishlashi
F29	25A	Korpusni boshqarish moduli
F30	25A	Old oyna tozalagich tizimi
F31-F32	-	-
F33	25A	7- tezligiqo'shaloqmufta transmissiyasini boshqarish moduli
F34-F35	-	-
F36	10A	Konditsioner kompressori
F37	-	-
F38	15A	Yoqilg'i nasosi
F39	5A	Startyor motori signali
F40-F42	-	-
F43	5A	Yoqilg'i nasosi relesi, Konditsioner kompressori relesi, mufta o'rni sensori, tormoz pedal tugmasi, neytralda turish sensori, sovutadigan ventilyator, DT-DT konverter relesi
F44	15A	Pastga tushayotgan kislorod sensori, gaz taqsimlash fazasini o'zgartirish klapanlari - ichkariga tortish, gaz taqsimlash fazasini o'zgartirish klapanlari - ishlangan gazlarni chiqarish tizimi, yuqoriga ko'tarilayotgan kislorod sensori, kanistрни berkitgich klapan, elektron termostat

Kodi	Xususi-yati	Ishlashi
F45	10A	O'tkazgich klapanini boshqaruvchi klapan, moy nazorati klapani, to'kadigan klapan, kanistr nazorati klapani
F46	15A	Motorni boshqarish moduli
F47	15A	O't oldirish o'ramasi, havo oqimi sensori
F48	-	-
F49	10A	Kunduz yurgandagi o'ng chiroq
F50	10A	Kunduz yurgandagi chap chiroq
F51-F56	-	-
A SAQLAGICH	80A	Elektrto'g'rilashrul chambaragini kuchaytirish moduli
B SAQLAGICH	40A	7 tezlikli, qo'shaloq birikkichli transmissiyani boshqarish moduli relesi
D SAQLAGICH	40A	Barqarorlik nazoratitizimi (klapan)
E SAQLAGICH	-	-
F SAQLAGICH	30A	Startyormotor, motor bo'lmasi saqlagichi F39
G SAQLAGICH	-	-

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Yo'lovchi bo'lmasidagi saqlagich qutisi



Saqlagichni tekshirish va almashtirish

- 1 START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini, hamma elektr asboblarni o'chirib qo'ying, akkumulyatorning manfiy kabelini ajrating.
- 2 Haydovchi tomondagi pastki qoplamani olib, saqlagich qutisini oching.
- 3 Saqlagich kallagini motor bo'lmasidagi saqlagichni chiqarib oladigan asbob bilan qising, so'ng saqlagichni tortib chiqarib oling, kuymaganini tekshirib ko'ring.
- 4 Agar saqlagich kuygan bo'lsa, shu turdagi va shu amper ko'rsatkichli boshqa saqlagich qo'ying.

Kodi	Xususiyati	Ishlashi
F1	10A	SDM moduli, asboblarni paneli, korpusni boshqarish moduli, orqa PDC sensori, almashtirish mexanizmi
F2	7.5A	Transmissiyani boshqarish moduli, orqaga yurish chirog'i tugmasi, motorni boshqarish moduli
F3	-	-
F6-F7	-	-
F8	15A	Old rozetka
F9	5A	USB quvvatlagich porti
F10	-	-
F11	7.5A	Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasini isitish
F12	25A	Orqa oynani isitish
F13-F14	-	-
F17	-	-
F18	30A	Chap orqa oynani ko'targich
F19	5A	Qo'l tormoz tugmasi, PRND displeyi
F20	30A	Orqa o'ng oyna ko'targichi
F21	10A	Old o'ng o'rindiq isitgichi
F22	5A	Diagnostika rozetkasi

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Kodi	Xususi-yati	Ishlashi
F23	10A	Old chap o'rindiq isitgichi
F24	10A	Shlyuz
F25	40A	Yo'lovchibo'lmasi saqlagichi F8, F9
F26	30A	Old yo'lovchi oynasini ko'targich
F27	-	-
F28	5A	Passiv kirish va passiv o't oldirish tizimini boshqarish moduli, qo'shimcha g'altak
F29	10A	Shlyuz
F30	5A	Haydovchi eshigidagi ishlatish tugmalari to'plami, yomg'ir/yorug'lik sensorlari
F31-F32	-	-
F33	5A	SDM modul
F34-F35	-	-
F37	20A	Haydovchi o'rindig'inito'g'rilashtugmasi
F38	30A	Haydovchi oynasini ko'targich
F39	30A	Havo haydagich
F40	15A	Multimedia tizimi
F41	5A	Markaziy konsol ustki tugmasi
F42	10A	Isitish, Ventilatsiya, Konditsioner modullari

Kodi	Xususi-yati	Ishlashi
F43	5A	Asboblari paneli
F44	5A	Orqadahaydashgayordam berish tizimi
F45	30A	Panoramali lyuk
F46	-	-
F47	30A	Lyuk soyaboni
F48	20A	Yo'lovchi o'rindig'ini elektrda sozlagich
F49	30A	Yukxona eshigini elektrda boshqarish moduli
F50	15A	Orqa oyna tozalagich
F51	30A	Orqa oynani/Yon tomondagi orqani ko'rish ko'zgu oynasini isitgich relesi, yo'lovchi bo'lmasidagi saqlagichlar F11, F12
F52	10A	Old faralar, tusini o'zgartiradigan orqani ko'rsatadigan ko'zgu, old faralarni to'g'rilagich
F53-F54	-	-

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Lampochkalarni almashtirish

Lampalar spetsifikatsiyasi

Lampochka	Turi
Old tomondagi ichki chiroq (lampochka konfiguratsiyasi *)	W5W 5W
Orqaga haydash chiroqlari	W16W 16W
Raqam belgisi chiroqlari	W5W 5W

Eslatma: Bu ro'yxatga qo'shilmagan boshqa yorug'lik manbalari LED chiroqlar va ular alohida almashtiriladi.

Lampochkalarni almashtirish

Birorta lampochkani almashtirishdan oldin, qisqa tutashuv bo'lmasligi uchun, START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini o'chiring, tugmasini bosib chiroqni o'chiring, akkumulyator manfiy terminalini ajratib qo'ying.

Eslatma: Almashtiriladigan lampochkaning turi va xususiyati oldingisi bilan bir xil bo'lishi kerak.


Lampochkani almashtirganda chiroqni shikastlamalik yoki lampochkani sindirib qo'ymaslik uchun juda ehtiyot bo'lib harakat qiling. Shishaga barmoq TEKKIZMANG; lampochkani, albatta, qo'lqop kiyib, yoki biror mato bilan ushlang. Lampochka shishasi qirilgan yoki kir bo'lsa, lampochka yorug'likni yig'olmaydi. Zarurat bo'lsa, barmoq izini ketkazish uchun lampochkani metil spirti bilan arting.

Biror narsada ikkilanayotgan bo'lsangiz MG Vakolatli ta'mirchisidan maslahat so'rang.

Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

Old ichki chiroq lampochkasini yangilash*

- 1 Akkumulyatorning manfiy kabelini ajratib qo'ying.
- 2 Yapaloq uchli buragich bilan ehtiyot qilib lampochka to'plamidagi linzani ko'taring.




- 3 Eski lampochkani o'rnatilgan joyidan chiqarib oling.
- 4 Yangi lampochkani biriktirib qo'ying.
- 5 Linzani biriktiring, linza oldidagi ikkita tishni toping, so'ng linzani ehtiyot qilib buklangda shu ikkita tishni linza orqasidagi chiroq blokiga kiritib qo'ying. Joyiga tushganini bildirib "chiqillagan" ovoz eshitilguncha linzani bosing.
- 6 Akkumulyatorning manfiy kabelini ulab qo'ying.
- 7 Chiroq yonayotganini tekshirib ko'ring.


Orqaga haydash chiroqlari

- 1 yukxonani oching.
- 2 Orqadagi chap (o'ng) g'ildirak qoshini tortib chap (o'ng) orqa g'ildirak qoshini oling.

- 3 Orqa bamporni korpusning chap (o'ng) tomoniga biriktirib turadigan bitta vintni (1) yechib oling va orqa bamporni orqadagi chap (o'ng) g'ildirak qanotiga biriktirib turadigan boshqa vintni (2) ham bo'shating.




- 4 Orqa bamporni avtomobil korpusi ostiga biriktirib turadigan 2 ta bolt (1) bo'shating va orqa bamporni chap (o'ng) qanotga biriktirib turadigan 4 ta vintni (2) bo'shating.




Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

- 5 Simlar tutamini ulagichni chiqarib oling va orqa bampelni joyidan oling.
- 6 Agar zarurat bo'lsa, orqa bampelni korpusga biriktirib turadigan orqa tomondagi chap (o'ng) kronshteynning 3 ta vintini (1) yechib oling, so'ng orqa bampelni korpusga biriktirib turadigan chap (o'ng) kronshteynning 5 ta vintini (2) bo'shating, shunday qilib orqa bampelni biriktirib turadigan hamma kronshteynlarni oling.



- 7 Simlar o'rami ulagichini ajratib va orqa bampel to'plamini joyidan oling.



- 8 Lampochka tutgichini soat miliga teskari burab lampochkani chiqarib oling.
- 9 Lampochka tutgichiga yangi lampochkani biriktirib qo'ying.
- 10 Lampochka tutgichini chiroq to'plamiga kiriting, so'ng soat mili tomonga burab mahkamlab qo'ying.
- 11 Sim tutami biriktirgichini joyiga biriktiring, orqa bampelni avtomobilga mahkamlab qo'ying.
- 12 Chiroq yonayotganini tekshirib ko'ring.

Raqam belgisi chiroqlari

- 1 Yukxona eshigini oching va tirkak bilan mahkamlab qo'ying.
- 2 Yukxona eshigi qulfi korpusi boshmog'ini oling.
- 3 Ustki panelni yukxona eshigiga biriktirib turadigan qisgichni oling va ustki panelni yuxonadan ajratib oling.



Favqulodda holatlarga bog'liq ma'lumot

4 Yukxona eshigi o'rta panelini yukxona eshigiga biriktirib turadigan 2 ta vintni bo'shating, qisgichlarni chiqaring va yukxona eshigi o'rta panelini joyidan oling.




5 Paneldagi vintni yopib turgan qoplamani oling, yukxona eshigi pastki panelini yukxonaga biriktirib turadigan 3 ta vintni bo'shating, berkitgichini ko'taring, sim tutami ulagichini ajrating, so'ng yukxona eshiga pastki panelini joyidan oling.



6 Agar yukxona eshigini ochadigan tugma bo'lsa, yukxona eshigini ochadigan tugmani joyidan oling.

7 Sim tutami ulagichini ajrating, orqadagi raqam belgisidagi chiroqni ichki tomondan yukxona eshigiga biriktirib turgan qisgichni oling.



8 Lampochka tutgichini soat miliga teskari burab lampochkani chiqarib oling.

9 Lampochka tutgichiga yangi lampochkani biriktirib qo'ying.

10 Lampochka tutgichini chiroq to'plamiga kiriting, so'ng soat mili tomonga burab mahkamlab qo'ying.

11 Yukxona eshigi pastki qoplamasi, o'rta qoplamasi va ustki qoplamasi joyiga biriktirib qo'ying

12 Yukxona eshigidagi qulf korpusi boshmog'ini joyiga mahkamlab qo'ying

13 Chiroq yonayotganini tekshirib ko'ring.

Soz saqlash	180
Kapot	183
Motor bo'lmasi	184
Motor	184
Sovitish tizimi	186
Tormoz	187
Akkumulyator	188
Oyna yuvgich	190
Oyna tozalagichlar	192
Shinalar	194
Avtomobilni tozalash va ehtiyot qilish	198

Soz saqlash

Soz saqlash

Rejali texnik xizmat

Avtomobilingizning xavfsizligi, ishonchliligi va ishlashi qisman uni soz saqlashga ham bog'liq bo'ladi. Talab qilinganda va "Texnik xizmat jadvali"dagi ma'lumotga muvofiq avtomobilingizga vaqtda texnik xizmat qilinishi kerak.

Texnik xizmat

Keyingi texnik xizmat qachon bo'lishini bilish uchun, iltimos, "Asboblar va boshqaruv" bobidagi "Axborot markazi" bo'limiga qarang yoki multimedia tizimidagi tegishli ma'lumotdan ham bilsangiz bo'ladi. Har safar texnik xizmat qilinganidan so'ng MG Vakolatli ta'mirchisi keyingi texnik xizmat haqida kiritgan ma'lumot displeyda ko'rinadi.

Eslatma: Agar texnik xizmat bajarilmagan (yoki MV Vakolatli ta'mirchisi texnik xizmatdan so'ng keyingi texnik xizmat haqida ma'lumot kiritmagan) bo'lsa, xizmat haqidagi ma'lumot to'g'ri ko'rsatilmaydi.

Texnik xizmat tarixi

Mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisi har safar texnik xizmat qilganidan so'ng, Texnik xizmat tarixini, albatta, ro'yxatga olib qo'yishiga qarab turing.

Tormoz suyuqligini almashtirish

Tormoz suyuqligini "Texnik xizmat jadvali" talablariga muvofiq almashtiring.

Eslatma: Tormoz suyuqligini almashtirishga haq olinadi.

Sovitgichni o'zgartirish

Motor sovitgichi (antifriz yoki suv aralashmasi) "Texnik xizmat jadvali" talablariga muvofiq almashtiriladi.

Eslatma: Sovitgich almashtirishga haq olinadi.

Ishlangan gaz chiqishini nazorat qilish

Hududdagi maxsus talablar va qonun me'yorlariga mos kelishi uchun avtomobilingizga ishlangan gazni chiqaradigan va bug'lanishni nazorat qiladigan jihozlar o'rnatilgan. Motor noto'g'ri sozlanishi ishlangan gaz chiqishiga, motor ishlashiga,

Yoqilg'i sarfiga ta'sir qilishi mumkin, bundan tashqari, harorat oshib ketishiga sabab bo'lib katalitik neytralizator, zarra filtri va motorni shikastlaydi.

MUHIM MA'LUMOT

- Iltimos, esingizda bo'lsin, avtomobil egasi yoki avtomobil ta'mirlovchi motor yoki ushbu jihoz sozlanishini vakolatsiz o'zgartirsa, yangilasa, yoki almashtirsa, ishlab chiqaruvchining kafolati bekor bo'ladi.

Soz saqlash

Avtomobil egasining o'zi texnik xizmat qilishi



Suyuqlik sathi birdan tushib ketsa, yoki shinalar notekis yemirilsa, kechiktirmasdan tez xabar berish zarur. To'liq ma'lumot olish uchun, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Yuqorida aytilgan davriy texnik xizmatlardan tashqari tez-tez bir qancha boshqa tekshirishlar ham o'tkazib turilishi kerak. Bunday tekshirishlarni o'zingiz ham o'tkazsangiz bo'ladi. Buning uchun sizga quyidagi maslahatlarni beramiz.

Kundalik tekshirish

- Chiroqlar yonishi, signal chalinishi, yo'nalishni ko'rsatadigan chiroqlar yonishi, oyna yuvgichlar ishlashi va ogohlantirish chiroqlari ishlayotgani.
- Xavfsizlik kamarlari va tormozlarning ishlashi.
- Avtomobil ostida suyuqlik dog'i bo'lishi undan suyuqlik oqayotganini bildiradi.
- Shinaning ko'rinishiga qarang. Haftalik tekshirish
- Motor moyi sathi.
- Sovitgich sathi.

- Tormoz suyuqligi sathi.
- Old oyna yuvgich suyuqligining sathi.
- Konditsionerni ishlatib ko'ring.

Eslatma: Avtomobil ko'p vaqt katta tezlikda haydalgan bo'lsa, motor moyini tez-tez tekshirib turish kerak.

Avtomobil haydaladigan sharoit

Agar avtomobil chang sharoitda, harorat doim minusdan past yoki juda baland bo'lgan havoda ko'p haydalsa, texnik xizmat talablariga ko'proq e'tibor berish zarur bo'ladi. Alohida texnik xizmat amaliyotini o'tkazib turishingiz kerak.

(MG Vakolatli ta'mirchisining Xizmat turlari ro'yxatiga qarang).

Soz saqlash

Garajdagi xavfsizlik



Motor o'chganidan keyin sovitadigan ventilyatorlar ishga tushib bir necha daqiqa ishlab turishi mumkin. Motor bo'lmasida ishlayotganda ventilyatorlardan naribroq turing.

Texnik xizmat qilmoqchi bo'lsangiz doim quyidagi xavfsizlik choralariga amal qiling:

- Qo'lingiz va kiyimingiz aylantiradigan tasmalar va shkiylardan naribroq bo'lsin.
- Agar avtomobil yaqinda yo'l yurib kelgan bo'lsa, motor sovimasidan oldin ishlangan gazlarni chiqarish va sovitish tizimi jihozlariga qo'l tekkizmang.
- Motor ishlayotganida yoki START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH tugmasi yoqib qo'yilganida elektr simlariga yoki qismlarga QO'L TEKKIZMANG.
- Havo almashib turmaydigan joyda HECH QACHON motorni ishlatib qo'ymang.
- motordan chiqayotgan ishlangan gazlar juda zaharli va o'ta xavfli hisoblanadi.
- Avtomobil faqat domkrat bilan ko'tarib qo'yilgan bo'lsa avtomobil ostiga kirib ISHLAMANG.
- Motor bo'lmasiga uchqun yoki ochiq olovni yaqinlashtirmang.
- Himoya qiladigan kiyim kiying, ishda kiyadigan beshpanja qo'lqop kiying.
- Motor bo'lmasida ishlashdan oldin taqinchoqlaringizni, soatingizni yechib qo'ying.

- Asboblarni avtomobilning metall qismlariga akkumulyator kabellari yoki terminaliga TEKKIZMANG.

Zaharli suyuqlik

Avtomobilda foydalaniladigan suyuqliklar zaharli, ularni ichga yutish yoki teridagi ochiq yaralarga tekkazish mumkin emas. Bularga akkumulyator kislotasi, sovitgich, tormoz suyuqligi, yoqilg'i, motor moyi va old oyna yuvgich kiradi.

O'zingizning xavfsizligingiz uchun DOIM yorliqlar va konteynerlarda yozilgan yo'riqlarni o'qing va ularga amal qiling.

Foydalanilgan motor moyi


Motor moyi ko'p vaqt teriga tegsa, terini jiddiy kasal qiladi, shu jumladan, dermatit va teri saratoniga sabab bo'ladi. Teriga moy tekkan bo'lsa tozalab yuving. Foydalanilgan motor moyi to'g'ri utilga chiqarilishi kerak. Noto'g'ri utilga chiqarish atrof muhitga zarar yetkazadi.

Soz saqlash

Kapot

Kapotni ochish

⚠ Kapot ochiq turganda yoki faqat tirgak bilan ko'tarib qo'yilganda avtomobilni **HAYDAMANG**.



- 1 Avtomobil ichidagi kapotni ochadigan dastakni (A) torting.
- 2 Kapotni ushlab turadigan tirgakni chiqarish uchun kapotga o'rnatilgan dastakni (B) nayza bilan ko'rsatilgan tomonga bosing.
- 3 Kapotni ko'tarib oching.

Kapotni yopish

Kapotni ikkala qo'lingiz bilan ushlab sekin tushiring, 20~30 cm qolganda qo'lingizni oling, o'zi yopilsin.

Kapot oldini bir oz ko'tarishga harakat qilib yopilganidan so'ng qulfi joyiga to'liq tushganini qarab ko'ring. Agar joyiga to'liq tushmagan bo'lsa, iltimos, kapotni yana ochib, so'ng yana bir marta yoping.

Kapotni ochgandagi ehtiyot choralari

START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi ON/RUNNING (YOQILDI/ISHLAYAPTI) tomonga o'tkazib qo'yilganda kapot zich yopilgan bo'lsa, asboblar panelidagi ma'lumot markazida shuni bildiradigan ogohlantirish belgisi ko'rinadi. Avtomobil haydab ketayotganda kapot zich yopilgan ma'lum bo'lsa ogohlantiradigan ovoz eshitiladi.


MUHIM MA'LUMOT

- Xavfsizlik nuqtai nazaridan, avtomobil haydaganda kapot zich yopilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun, kapot yopilganidan so'ng mahkam turganini, ya'ni, kapot cheti avtomobil korpusiga zich birikib turganini tekshirib ko'ring.
- Haydab ketayotganda kapot zich yopilgan ma'lum bo'lsa xavfsizlik imkon beradigan darajada tez avtomobilni to'xtatib, kapotni zichlab yopib qo'ying.
- Kapotni kuch bilan pastga bosib yopganda qo'lingizni ehtiyot qiling, jarohatlanish mumkin.

Soz saqlash

Motor bo'lmasi

Motor bo'lmasida ishlaganda, albatta, "Garajdagi xavfsizlik qoidalari"ga amal qiling. "Texnik xizmat" bobidagi "Texnik xizmat" bo'limida yozilganlarga qarang.



- 1 Motor moyi quygich qopqog'i (qora qopqoq)
- 2 Motor moyi shupi (moycho'p) (sariq)
- 3 Tormoz suyuqligi baki (sariq/qora qopqoq)
- 4 Sovitgich rezervuari (qora qopqoq)
- 5 Oyna yuvgich syuqlik baki (ko'k qopqoq)

Motor

1.5L Turbopuflanadigan motor moyi

ACEA bo'yicha motor moyi tasnifi

Yevropa Avtomobil ishlab chiqaruvchilar uyushmasi (ACEA) motor moyini xususiyati va sifatiga qarab tasniflaydi. Avtomobil imkoni boricha samarali ishlashi uchun, iltimos, faqat ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan motor moyidan foydalaning ("Texnik ma'lumot" - "Tavsiya qilingan suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang).


Agar ob-havo ekstremal bo'lgan sharoitda avtomobil haydasangiz, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashing.

Soz saqlash

Motor moyini tekshirish va to'ldirish



Moy sathini shup ustidagi belgidan **BALAND** qilib yoki pastidagi belgidan **PAST** qilib avtomobil haydash motorni shikastlantiradi. Motor moyi qizib turgan motorga to'kilishidan ehtiyot bo'ling – to'kilgan moy yonib ketishi mumkin!



1.5 L Turbopuflagichli motor

Moy sathini har hafta tekshirib turing, zarur bo'lsa - moy qo'yib, to'ldirib qo'ying. Motor moyi faqat motor sovuganda va avtomobil tekis joyda turganda tekshiriladi. Lekin agar motor ishlagan va qizishga ulgurgan bo'lsa moy sathini o'lchashdan oldin, START/STOP tugmasi o'chirilganidan so'ng kamida besh daqiqa kutib turing.

- 1 Moycho'pni oling, chetini tozalab arting
- 2 Moycho'pni sekin moyga botiring, so'ng yana sekin tortib olib moy sathi qancha ekaniga qarang; moy sathi moycho'pdagi "MIN" belgisidan past bo'lmasligi kerak.
- 3 Moy quygich qopqog'ini burab oching va moycho'pdagi "MAX" belgisi bilan "MIN" belgisi o'rtasida bo'ladigan qilib moy quyung.
- 4 5 daqiqa kutib turing, so'ng yana bir marta moy sathini o'lchang, zarur bo'lsa yana moy quyung, lekin ORTIQCHA MOY QUYMANG.
- 5 Oxirida moycho'pni joyiga biriktirib qo'ying, moy quygich qopqog'ini burab berkiting.

Motor moyi spetsifikatsiyasi

Faqat ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan va ma'qullagan motor moyidan foydalaning. "Texnik ma'lumot" bobidagi "Tavsiya qilingan suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang.

Eslatma: Moyga solinadigan qo'shimchalardan FOYDALANMANG.

MUHIM MA'LUMOT


- Avtomobil ko'p vaqt katta tezlikda yuradigan bo'lsa, motor moyini tez-tez tekshirib turing.

Soz saqlash

Sovutish tizimi

Sovitgichni tekshirish va to'ldirish

! Sovitish tizimi qizib turganda kengayadigan sovitgich, baki qopqog'ini ochmang - qaynoq bug' yoki sovitgich jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.



Sovitish tizimi haftada bir marta, sovitish tizimi sovuq bo'lganda va avtomobil tekis joyda turganda tekshiriladi. Agar sovitgich sathi "MIN" belgisidan kam bo'lsa, kengayadigan sovitgich baki qopqog'ini oching va sovitgich quying. Sovitgich satshi "MAX" belgisidan baland bo'lmasligi kerak.

Eslatma: *Quyilgan sovitgich tomchilari avtomobil korpusiga tegmasin. Sovitgich bo'yoqni shikastlaydi.*

Agar kam vaqt ichida sovitgich sathi birdan kamayib ketsa, va agar sovitgich oqayapti, deb shubha qilayotgan bo'lsangiz, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Sovutgich xususiyati

! Sovutgich zaharli bo'ladi va ichga yutilsa, insonni o'ldirishi mumkin - sovitgich solingan idishlarni zichlab berkitib, bolalarning qo'li yetmaydigan joyga qo'ying. Agar bola sovitgichga tekkan, deb shubha qilayotgan bo'lsangiz tez tibbiy yordam so'rang.

! Sovutgich teriga tegishidan yoki ko'zga tushishidan ehtiyot bo'ling. Shunday bo'lgan taqdirda, tez ko'p suv bilan yuving. Agar ko'zning qizarishi ketmasa, og'risa, yoki bezovta qilsa, tez tibbiy yordam so'rang.

Iltimos, faqat tavsiya qilingan va sertifikatlangan sovitgichdan foydalaning. Iltimos, "Texnik ma'lumot" bobidagi "Tavsiya qilingan suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang.

Eslatma: *Ushbu avtomobilning sovitish tizimiga korroziya ingibitorlari yoki boshqa qo'shimchalarni solish tizim samarali ishlashini jiddiy buzishi va qismlarni shikastlashi mumkin. Sovitish tizimi masalasida, iltimos, Vakolatli ta'mirchi bilan maslahatlashing.*

Soz saqlash

Tormoz

Tormoz kolodkalari

⚠ Avtomobil haydayotganda oyog'ingizni tormoz pedaliga QO'YMANG; bunday qilish tormozlarni ortiqcha qizitib yuborishi va ular samarali ishlashini kamaytirishi mumkin.

Tormoz pedali 0~30 mm orasida erkin yuradi.

Tormoz juftligining maqbul bo'ladigan ishqalanish oralig'i: tormoz kolodkalari qalinligi minimum bo'lganda 2 mm dan kam emas, old tormoz diskiga 23~25 mm, orqa tormoz diskiga esa 10~12 mm.

1500 km yo'l yurmaguncha keskin tormoz beradigan vaziyatlar bo'lmasligiga harakat qiling.

Esingizda bo'lsin, insonlar xafsiz bo'lishi hamda Texnik xizmat bayonida aytilgan vaqt oralig'ida avtomobil optimal xizmat qilishi uchun vaqtida texnik xizmat qilib turish, tormoz qismlari yemirilmaganini zarur vaqt oralig'ida tekshirib turish va lozim bo'lganda almashtirish uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

Tormoz kolodkasi yoki diski almashtirilganidan so'ng avtomobil 800 km yo'l yurib chiniqishi kerak.


Tormoz suyuqligini tekshirish va to'ldirish

⚠ Tormoz suyuqligi juda zaharli bo'ladi, tormoz suyuqligi solingan idishlarni zich yopib, bolalarning qo'li yetmaydigan joyga qo'ying. Agar tasodifan tormoz suyuqligi tekkan degan shubha bo'lsa, tez tibbiy yordam so'rang.

⚠ Tormoz suyuqligi teriga tegishidan, yoki ko'zga tushishidan ehtiyot bo'ling. Shunday bo'lgan taqdirda, tez ko'p suv bilan yuving. Agar ko'zning qizarishi ketmasa, og'risa, yoki bezovta qilsa, tez tibbiy yordam so'rang.

Tizim sovugandan so'ng va avtomobil tekis joyda turganda tormoz suyuqligi haftada bir marta tekshirib turilishi kerak. Agar tormoz suyuqligi solingan bakni ochish kerak bo'lsa, iltimos, oldin bak qopqog'ini yaxshilab tozalang.

Suyuqlik sathini bak tashqarisidan ko'rish mumkin, sathi "MAX" alomati bilan "MIN" alomati o'rtasida turishi kerak. Eslatma: Tormoz suyuqligi sathi "MIN" belgisidan pasta tushmasin va "MAX" belgisidan oshib ketmasin.



Eslatma: Tormoz suyuqligi bo'yalgan yuzalarga zarar qiladi. Agar tasodifan biror bo'yalgan yuzaga tormoz suyuqligi to'kilgan bo'lsa, to'kilgan suyuqlikni tez quruq matoga shimdirib oling, so'ng o'sha joyni suv bilan yoki avtomobil shampuni bilan tozalab yuving.

Soz saqlash

Tormoz suyuqligi xususiyati

MUHIM MA'LUMOT

- Texnik xizmat bayonida yozilgan ma'lumotga muvofiq tormoz suyuqligini vaqtda almashtirib turing.

Ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan va sertifikatlagan tormoz suyuqligidan foydalaning. "Texnik ma'lumot" bobidagi "Tavsiya qilingan suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang.

Akkumulyator

Akkumulyatorni soz saqlash



Motor yurib turmagan bo'lsa, avtomobil ichidagi elektr asboblardan ko'p vaqt foydalanmang, aks holda akkumulyatorning quvvati kamayib, avtomobil o't olmaydi, akkumulyatorning ishlash muddati kamayadi.

Agar avtomobil ko'p vaqt (1 oydan ko'proq) foydalanilmaydigan bo'lsa, akkumulyatorning manfiy kabeli kontaktini ajratib qo'yish tavsiya etiladi. Akkumulyator manfiy kabelini ajratishdan yoki ulashdan oldin START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi o'chirib qo'yilgan bo'lishi kerak. Manfiy kabelni yana ulagandan so'ng, akkumulyator qayta kalibrlanishi uchun, avtomobil kamida 4 soat qulflangan holatda turishi lozim. Ushbu yo'riqqa amal qilinmasa, o'chirish/o't oldirish funksiyasi ishlamay qolishi mumkin.



Akkumulyatorni ust tomonini yuqoriga qaratib qo'ying va aslo uni qismlarga ajratishga harakat qilmang.

Old bo'lmada joylashgan akkumulyatorga texnik xizmat qilinmaydi, shuning uchun, uning suyuqligi to'ldirilmaydi.







Soz saqlash

Ayni damda tushayotgan og'irlik hamda akkumulyatorning holatiga muvofiq tizim ba'zi elektr asboblarga boradigan elektr quvvatini cheklab qo'yishi mumkin, shunday bo'lganda, iltimos, akkumulyator quvvatini to'ldirish uchun motorni o't oldiring.

Eslatma: *Bir haftada bir yarim soat avtomobilni o't oldirib akkumulyator xizmat qiladigan muddatni uzaytirish tavsiya etiladi.*



Akkumulyator yorlig'i


Belgi	Ma'nosi
	Yonadigan moddalardan uzoqroqda tursin.
	Ko'zoynak taqib texnik xizmat qiling.
	Bolalardan uzoqroqqa qo'ying
	Tarkibida suyuq kislota bor.
	To'liq ma'lumot foydalanuvchi qo'llanmasida yozilgan.
	Portlashi mumkin.

Soz saqlash

Akkumulyatorni almashtirish

! Akkumulyator ichida korroziv bo'lgan oltingugurt kislotasi bor

Iltimos, akkumulyatorni olish yoki qo'yish uchun mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling. Avtomobil yaxshi ishlashi uchun almashtiriladigan akkumulyatorning turi va xususiyati asl akkumulyatorniki bilan bir xil bo'lishi kerak.

 Akkumulyator belgilangan me'yorlarga muvofiq utilga chiqariladi, ishlatilgan akkumulyator atrof muhitga zarar qiladi. Akkumulyatorni ixtisoslashgan tashkilot qayta ishlashi kerak. Iltimos, bu masalada to'liq ma'lumot olish uchun mahalliy MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashing.

Oyna yuvgich

Oyna yuviladigan suyuqligini tekshirish va to'ldirish

! Old oyna yuvadigan suyuqlik yonuvchan Old oyna yuvadigan suyuqlikka ochiq olov yoki uchqun chiqaradigan vositalarni YAQINLASHTIRMANG.

! Idishiga old oyna yuvadigan suyuqlik quyganda suyuqlik motor atrofidagi biror qismga, elektr transmissiyaga yoki

avtomobil korpusining bo'yalgan yuzasiga to'kilmasin. Agar oyna yuvadigan suyuqlik qo'lga yoki badanning boshqa joyiga tegsa, iltimos, tez o'sha joyni toza suv bilan yuving.



Oyna yuvgich sathini vaqtida o'lchab turing. Oyna yuvgich suyuqlik sathi kamayib ketsa, iltimos, yo'riqda aytilgandek qilib to'ldirib qo'ying. Iltimos, faqat ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan va sertifikatlagan oyna yuvish suyuqligidan foydalaning. To'liq ma'lumot olish uchun

"Texnik ma'lumot" bobidagi "Suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang.

Eslatma: Oyna yuvgich idishiga antifriz yoki suv bilan sirka aralashmasini quy mang, antifriz bo'yoqni shikastlaydi, sirka esa oyna yuvgich nasosini buzadi.

Soz saqlash

MUHIM MA'LUMOT

- Ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan va sertifikatlagan oyna yuvish suyuqligidan foydalaning. Oyna yuvadigan suyuqlik qishda noto'g'ri ishlatilsa, muzlab, oyna yuvgich motoriga zarar qilishi mumkin.
- Oyna yuvadigan suyuqlik qolmaganda oyna yuvadigan tugma bosilsa, oyna yuvgich motori shikastlanishi mumkin.
- Old oyna quruq bo'lganda va oyna yuvadigan suyuqlik qolmaganda oyna tozalagich ishlatilsa, old oyna va oyna tozalagich shikastlanishi mumkin. Oyna yuvadigan suyuqlik qolmagan bo'lsa, iltimos, oynaga oyna yuvgich seping va shundan so'ng oyna tozalagichni ishlatting.


Old oyna yuvgich purkagichlari ishlab chiqarish jarayonida to'g'rilab qo'yiladi. Old oyna yuvgich purkagichlarini sozlash uchun yapaloq uchli kichik buragichni korpus (1) bilan purkagich (2) o'rtasidagi ochiqqa kiritasiz (nayza bilan ko'rsatilgan) va purkash burchagini o'zgartirish uchun pastga yoki yuqoriga buraysiz.

Agar purkagich tiqilib qolgan bo'lsa, ichiga igna yoki mayda sim kiritib, tiqilib qolgan narsani olib tashlash mumkin.

Oyna yuviladigan suyuqlik spetsifikatsiyasi

SAIC tavsiya qilgan va sertifikatlagan oyna yuvish suyuqligidan foydalaning. "Texnik ma'lumot" bobidagi "Tavsiya qilingan suyuqlik va sifatlar" bo'limiga qarang.

Oyna yuvgich purkagichlari



Vaqtı-vaqti bilan oyna yuvgichni ishlatib, purkagichlari toza va to'g'ri sepyotganini tekshirib turing.

Soz saqlash


Oyna tozalagich

Oyna tozalagich cho'tkalari

MUHIM MA'LUMOT

- Moy, silikon va benzin oyna tozalagich cho'tkasi ishlashini yomonlashtiradi. Oyna tozalagich cho'tkasini iliq suvda yuvib, tozalang va vaqti-vaqti bilan ishlashini tekshirib turing.
- Old oynani tez tez tozalab turing. Qattiq yoki birikib qolgan kirni oyna tozalagich bilan tozalamang, bunday qilish oyna tozalagich samaradorligini va xizmat muddatini kamaytiradi.
- Rezinasi qotib qolgan yoki darz ketgan bo'lsa, oyna tozalagich iz qoldirsa, yoki oynaning ba'zi joylarini artmay tashlab ketayotgan bo'lsa, tozalagich cho'tkasini almashtirish kerak.
- Old oynani vaqtda ma'qullangan oyna tozalagich bilan tozalab turing, yangi oyna tozalagich cho'tkasini qo'yishdan oldin old oynani yaxshilab tozalab arting.
- Yangi qo'yilgan oyna tozalagich cho'tkasining xususiyati asliniki bilan bir xil bo'lishi kerak.
- Oyna tozalagich ustidagi qor va muzni tozalab olib tashlang, ishlatishtan oldin oyna tozalagich muzlab, yopishib qolmaganini qarab ko'ring.

Old oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish




- 1 Kapot yopiq turganida va START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasi OFF (O'CHIRILGAN) tomonga o'tkazilganidan so'ng 20 sekund o'tganda oyna tozalagichni pasta bosib, so'ng qo'yib yuboring, oyna tozalagich "ishlash rejimiga" o'tadi va old oyna ustida to'xtaydi.
- 2 Oyna tozalagich dastagini old oynadan ko'taring.
- 3 Oyna tozalagich dastagidagi tugmani bosib (rasmda ko'rsatilgan), so'ng oyna tozalagich cho'tkasining yuqori uchini tashqariga tortib, dastakdan ajratib oling.
- 4 Cho'tkani oyna tozalagich dastagidan ajratib oling va tashlab yuboring.

Soz saqlash

- 5 Yangi oyna tozalagich cho'tkasini dastakdagi o'rniga joylab qo'ying.
- 6 Birikib joylashguncha oyna tozalagich cho'tkasini dastakka bosing.
- 7 Old oynaga qo'yishdan oldin oyna tozalagich cho'tkasi to'g'ri mahkamlanganini tekshirib ko'ring.
- 8 Tugmasini bosib va qo'yib yuborib, oyna tozalagichni ishlating yoki START/STOP (O'T OLDIRISH/O'CHIRISH) tugmasini ishlatib qo'ying, oyna tozalagich ishlash holatidan chiqadi va avtomatik ravishda o'zining joyiga boradi

Orqa oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish



- 1 Oyna tozalagich dastagini old oynadan ko'taring.
- 2 Oyna tozalagich cho'tkasini o'rtacha kuch bilan tashqariga tortib, dastakdan ajratib oling va tashlab yuboring.
- 3 Yangi cho'tkani oyna tozalagich dastagidagi o'rniga kiritib qo'ying. Oyna tozalagich cho'tkasi oyna tozalagich dastagida mahkam turganini tekshirib ko'ring.
- 4 Yig'ilgan oyna tozalagichni yana old oynaga qo'ying.

Soz saqlash

Shinalar

Umumiy ma'lumot

- Birinchi 500 km yo'l yurganda yangi qo'yilgan shinalarni juda ehtiyot qiling.
 - Tez yurib kelayotgan avtomobilni burmaslikka harakat qiling.
 - Tez-tez shinalarni tekshirib, shikastlanmaganiga yoki biror yot jism kirib qolmaganiga qarab turing.
- shina orasiga kirib qolgan yot jismlarni olib tashlang.
- Shina moy, moylagich va yoqilg'ini bosmasin.
 - Klapan qopqoqlari doim yopiq bo'lsin.
 - Agar shina olinadigan bo'lsa, albatta, shinaga/g'ildirakka belgi qo'yib qaytadan biriktiradigan joyini belgilab qo'ying.

Yangi shina

Yangi shinalarning birikish xususiyati eski shinalarnikidan farq qilishi mumkin, shuning uchun, iltimos, 500 km yo'l yurganda juda ehtiyot bo'lib haydang. Shunday qilsa, shinalarning xizmat muddati uzayadi.

Shina yoki gardish shikastlangani bilinmasligi mumkin. Avtomobil yurganda titrash sezsangiz, yoki boshqarish qiyinlashsa, shina yoki gardish shikastlangan deb o'ylasangiz MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Yo'nalishli shinalar

Yo'nalishli shinalarda aylanadigan tomoni ko'rsatilgan (AT) bo'ladi. Boshqarish xususiyati saqlanishi, shinning ishlashi, yo'lda shovqini kam bo'lishi va xizmat muddati uzayishi uchun shinalarda, albatta, aylanadigan tomoni (AT) to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Shinning xizmat muddati

Shina bosimi to'g'ri bo'lishi va avtomobil me'yorida haydalishi shinning xizmat muddatini uzaytiradi. Quyidagi texnik xizmat turlariga e'tibor qilish tavsiya etiladi:

- Agar avtomobil ko'p vaqt olib qo'yiladigan bo'lsa, iltimos, uni ikki haftada kamida bir marta haydab, shinalarini aylantirib turing.
- Shina bosimi bir oyda bir marta, shina sovigandan so'ng tekshiriladi.
- Katta tezlikda burilmang.
- Tez-tez shinalarni tekshirib, biror joyi nooddiy yemirilmaganini qarab turing.

Quyidagi omillar shina xizmat qiladigan muddatga ta'sir qiladi:

Shinning bosimi

Shina bosimi noto'g'ri bo'lsa, avtomobilni haydash qiyinlashadi va shina xizmat qiladigan vaqt kamayadi. Shina bosimi bir oyda kamida bir marta tekshiriladi va uzoq yo'lga chiqishdan oldin, albatta, tekshirib ko'riladi.

Soz saqlash

Haydash usuli

Ortiqcha qattiq tezlanish va burilganda qattiq tormoz berish shina xizmat qiladigan muddatni kamaytiradi.

G'ildirak muvozanati

G'ildirak va shinalarning muvozanati yangi avtomobil zavoddan chiqishidan oldin yaxshilab tekshirib ko'rilgan bo'ladi. Lekin, bir qancha omillar sabab g'ildiraklarning muvozanati buzilishi mumkin. Agar g'ildiraklarning muvozanati buzilgan bo'lsa, rul mexanizmi titrab, yoki chayqalib ishlaydigan bo'lib qoladi va shinalar ortiqcha yemiriladi. Buni tez to'g'rilash kerak. Har safar yangi shina qo'yilganda, yoki shina ta'mirlanganda har bitta g'ildirakning muvozanati to'g'rilab qo'yilishi kerak.

G'ildiraklarni tenglashtirish

Noto'g'ri tenglashtirilgan bo'lsa, g'ildirak shinasi tez yemiriladi va avtomobil xavfsizligiga ta'sir qiladi. Agar shinalar nooddiy yemirilganini ko'rsangiz

G'ildirak tenglanishini tekshirib ko'ring va MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashing.

Shinani tekshirish



KAMCHILIGI BOR SHINA XAVFLI BO'LADI!

Birorta shina shikastlangan, ortiqcha yemirilgan yoki noto'g'ri shishirilgan bo'lsa, avtomobilni HAYDAMANG.

Shinalarning holatini e'tiborga olib avtomobil haydang, tez-tez shina protektorini, yonlarini tekshirib biror shikastlanish (bo'rtib qolgan joylar), darz ketish yoki yemirilish yo'qligini qarang.

Eslatma: Imkoni boricha shinalarga moy, moylagich va yoqilg'i tekkizmang.

Shinaning bosimi



Uzoq yo'lga chiqishdan oldin, albatta, shinalar bosimini tekshirib ko'ring.

Shinalar bosimini (shu jumladan, qo'shimcha shina bosimini ham) bir oyda bir marta, shina sovganidan keyin o'lchang.

Issiqligida shinani tekshirish zarur bo'lsa, issiq shinaning bosimi me'yordagidan ko'proq 30~40 kPa/0.3~0.4 bar/4.3~5.8 psi bo'lishini hisobga oling. Shunday bo'lganda bosimni (sovuq vaqtda) tavsiya qilinadigan darajaga tushirish uchun ASLO shina ichidagi havoni chiqarmang.

Soz saqlash

Klapanlar

Klapan qopqoqlari doim mahkam buralib tursin, shunda tashqaridagi chang klapan ichiga kirmaydi. Shina bosimini tekshirganda klapandan havo chiqmayotganini tekshiring (vishillagan ovoz chiqmayotganini eshitib ko'ring).


Shina teshilishi

Avtomobilingiz shinasini biror o'tkir jism teshib, so'ng shinada qolsa ham avtomobilingiz shinasidan havo chiqmaydigan qilib ishlangan. Agar shunday bo'lganini bilsangiz zudlk bilan tezlikni kamaytiring va to yangi g'ildirak qo'yilguncha yoki shina ta'mirlanguncha avtomobilni ehtiyot bo'lib haydang.

Eslatma: Agar shinaning devori shikastlangan yoki qiyshaygan bo'lsa, tez shinani almashtiring, o'zingiz ta'mirlashga harakat qilmang.

Shina yemirilganini ko'rsatadigan indikatorlar

Avtomobilga qo'yilgan asl shinalar atrofidagi bir necha joyga shina yemirilishini ko'rsatadigan indikatorlar o'rnatilgan. Shina protektori 1.6 mm yemirilganda, bu indikatorlar shina protektori yuzasiga chiqib qoladi, indikatorlarning ko'rinishi shinaning eni bo'ylab o'tgan uzluksiz rezina tasмага o'xshaydi.



MUHIM MA'LUMOT

- Yemirilish indikatorlari ko'rinish qolgan shinani almashtirish kerak, aks holda falokat bo'lish xatari ko'payadi.

Shinalarni almashtirish



Yangi qo'yiladigan shinaning xususiyatlari asl shina xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Shinani aslo boshqa turdagi shina bilan **ALMASHTIRMANG**. Xususiyati farq qiladigan boshqa shinalar avtomobilni haydash xususiyatlariga va xavfsizlikka yomon ta'sir qilishi mumkin. Avtomobil haydaganda xavfsiz va xatarsiz bo'lishingiz uchun MG Vakolatli ta'mirchisi bilan maslahatlashib olishni tavsiya qilamiz.


Foydalanishdan oldin yangi qo'yilgan g'ildirak va shinalarni, albatta, muvozanatga keltirib oling.

Soz saqlash

G'ildirak joyini almashtirish

Shina yemirilishini tenglashtirish uchun bir tomondagi g'ildirakni boshqa tomonga va old g'ildirakni orqaga qo'yish tavsiya etilmaydi. Avtomobilingizga Shina bosimini kuzatib borish tizimi o'rnatilgan, bundan tushuniladiki, har bitta g'ildirak o'zining o'rniga dasturlab qo'yilgan.

Agar bir g'ildirakni olib, boshqa joyga qo'ymoqchi bo'lsangiz, iltimos, MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling, chunki yana kodlash zarur bo'ladi.



Eslatma: Yo'nalishli shinalar (shina yonida nayza bilan ko'rsatilganidan bilish mumkin) bitta tomondan boshqa tomonga olinishi MUMKIN EMAS.

Eslatma: Shina o'rnini almashtirgandan so'ng TPMS kodlash zarur bo'ladi, iltimos, bu masalada MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Shina/Qor zanjiri

To'g'ri kelmaydigan shina/qor zanjir shinalarni, g'ildiraklarni, podveskani, tormozlarni yoki avtomobil kuzovini shikastlashi mumkin.

Iltimos, foydalanganda quyidagi talablarga amal qiling:

- Shina/qor zanjir faqat avtomobilning tortadigan g'ildiragiga bog'lanadi;
- Shina/qor zanjirining qalinligi 15 mm dan oshmasin;
- Iltimos, shina/qor zanjir bog'laganda, albatta, uni mahkamlash va tortish yo'riqlariga, turli yo'llarda tezlik cheklanishi talablariga amal qiling;
- Soatiga 50 dan tez haydamang;
- Shina shikastlanmasligi va shina/qor zanjir ortiqcha yemirilmasligi uchun shina/qor zanjir qor yog'magan yo'lda yechib olinishi kerak.

Qor zanjirini qo'llash

Qor zanjirini hamma o'lchamdagi g'ildirak/shinaga o'rab bo'lmaydi.

Iltimos, esingizda bo'lsin: Ushbu avtomobilda qor zanjiri quyidagilarga bog'lanadi:

G'ildirak o'lchami: 6.5J×17

Shina o'lchami: 215/60 R17

Eslatma: Qorli yoki muzlagan yo'lda qishki shinalardan foydalanish tavsiya etiladi. To'liq ma'lumot olish uchun MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Soz saqlash

Tozalash va Avtomobilni ehtiyot qilish



Tozalash vositalariga tegishli barcha ehtiyot choralariga amal qiling, bunday vositalar xavfli bo'lishi mumkin, tozalash suyuqliklarini ichmang, ularni bolalarning qo'li yetmaydigan joyga qo'ying, ko'zga tekkizmang.

Tashqarisini tozalash

Avtomobilni yuvish



Katta bosim bilan ishlaydigan ba'zi tozalash tizimlari eshik, deraza va lyukdan o'tadi, qulf mexanizmini shikastlaydi. Suv oqimini oson shikastlanishi mumkin bo'lgan komponentlarga to'g'ri QARATMANG.



Tormoz tizimiga suv tegishi yoki uning namlanishi tormoz ishlashini yomonlashtiradi va bunday holat falokat bo'lish xavfini oshirishi mumkin. Avtomobilingizni yuvganda uning elektr tizimini o'chirib qo'ying, inson jarohat olishi yoki biror falokat bo'lishi mumkin.



Avtomobil motor bo'lmasini bosimi katta suv oqimi bilan YUVMANG, avtomobilning elektr tizimiga zarar qilishi mumkin.

Avtomobil bo'yog'ini ehtiyot qilish uchun, iltimos, quyidagi qoidalarga amal qiling:

- Avtomobilni qaynoq suv bilan YUVMANG.
- Kir yuvadigan kukun yoki idish yuvadigan suyuqlik ISHLATMANG.
- Havo issiq bo'lganda avtomobilni quyosh nuri tushib turadigan joyda YUVMANG.
- Shlang bilan suv sepganda suvni oyna, eshik yoki lyuk zichlagichiga qaratmang, g'ildirak orasidan o'tkazib tormoz qismlariga tekkizmang.

Agar avtomobil juda kirlangan bo'lsa, yuvishdan oldin shlangda suv sepib kuzov yuzasidagi qum va kirni yuvib tashlang. Shundan so'ng, shampun va sifati yaxshi mum qo'shilgan sovuq yoki iliq suvda avtomobilni yuving. Kir avtomobil yuzasidan yuvilib tushishi, bo'yoqqa singib qolmasligi uchun doim ko'p suv ishlating. Yuvgandan so'ng kuzovni toza suv bilan chaying va zamsh bilan artib quring.

Soz saqlash

Avtomobil ostini tozalash

Eslatma: Avtomobil old bo'lmasini bosimi katta suv oqimi bilan YUVMANG, avtomobilning elektr tizimiga zarar qilishi mumkin.

Vaqtı vaqtı bilan, lekin ayniqsa, yo'lga tuz sepiladigan qish faslida shlangda suv sepib avtomobil ostini yuvib turing. To'planib qolgan loyni yuvib tozalang, ayniqsa, kir yig'ilib qoladigan joylarni (masalan, qanot ostini, panel choklarini) tozalab yuving.

MUHIM MA'LUMOT

- Avtomobilni quyosh nuri tushib turadigan joyda yuvmaslikka harakat qiling.
- Avtomobilni qishda yuvganda eshik qulflari va panel oralig'iga suv kirmasin, muzlab qolishi mumkin.
- Avtomobilni tozalashga qattiq gubka yoki mato ishlatmang, bo'yog'i shikastlanadi.
- Old faralarni tozalaganda quruq mato yoki gubka ishlatmang, faqat sovunli iliq suv ishlatning.

Katta bosimli tozalagich bilan tozalash

Albatta ishlab chiqaruvchining foydalanish qo'llanmasini o'qib chiqing.

Suv kuchli bosim bilan otilib chiqadigan vositadan foydalanganda suv purkagichni yumshoq materiallar, yopishtirilgan buyumlar yoki rezina

zichlagichdan uzoqroq ushlang.

Eslatma: Katta bosim bilan chiqadigan tozalagich sepgichini yuqori kuchlanishli quvvatlash joyiga yoki avtomobil ostidagi yuqori kuchlanishli akkumulyator konnektoriga qaratmang.

MUHIM MA'LUMOT

- Iltimos, katta bosim bilan tozalash yo'riqnomasida aytilganlarga to'liq amal qiling.
- Avtomobilning yumshoq qismlari katta bosim bilan chiqayotgan tozalagichdan uzoqroq bo'lishi kerak.

Kuzovni himoya qilish

Yuviq bo'lgandan so'ng avtomobil bo'yog'i shikastlanmaganini qarab ko'ring. Agar bo'yoq ko'chib, metall ko'rinib qolgan bo'lsa, oldin rangli grunтовka suring, so'ng to'g'ri keladigan ranli asos qoplama suring va oxirida, agar muvofiq bo'lsa, lakli qalam suring. Ushbu ishni avtomobil yuvilganidan so'ng, lekin jilolash va mum surishdan oldin bajaring. Bo'yoq yoki kuzovga ko'proq yetgan zarar ishlab chiqarish tavsiyasiga muvofiq ta'mirlanishi kerak.

Bunga amal qilmaslik Antikorroziya kafolatini bekor qiladi. Agar biror masalada shubhalanayotgan bo'lsangiz MG Vakolatli ta'mirchisiga murojaat qiling.

Soz saqlash

Dog'larni tozalash.

Avtomobil bo'yog'idagi mum dog'i va o'rnashib qolgan moy dog'larini uyayt spirt bilan artib ketkazing. So'ng, spirt izini ketkazish uchun, tozalangan joyni tez sovunli suv bilan yuvib tashlang.

Bo'yoqni yaltiratish



Tarkibida qirib tozalagich bor avtomobil yaltiratish vositalarini ishlatmang - ular bo'yoq ustidagi qatlamni shikastlab bo'yoq jilosini ketkazadi.

Vaqti-vaqti bilan bo'yalgan yuzani tarkibida quyidagilar bor, ma'qullangan yaltiratgich bilan arting:

- Bo'yoqni ketkazmay, yoki uni shikastlamay yuzadagi kirni tozalaydigan yumshoq abraziv moddalar.
- Qirilgan joylarni to'ldirib, ular ko'zga tashlanishini kamaytiradigan to'ldirgich komponentlar.
- Bo'yoq bilan elementlar o'rtasida himoya qiladigan qatlam hosil qiladigan mum.

Eslatma: Imkoni boricha oynalar va rezina zichlagichlarga yaltiratgich yoki mum tekkizmang.

Oyna tozalagich cho'tkalari

Iliq sovunli suvda yuving. Spirt yoki benzin asosli tozalagich ishlatmang.

Oyna va ko'zgular

Tasdiqlangan oyna tozalagichlar bilan hamma oynalarni ichkarisi va tashqarisidan tozalab turing.

Old oyna: Ayniqsa, avtomobil suv va mum bilan tozalanganidan so'ng va yangi oyna artgich cho'tkasi qo'yishdan oldin old oyna tashqarisini oyna tozalagich bilan tozalang.

Orqa oyna: Ichkarisini yumshoq mato bilan, bir chetidan ikkinchi chetiga qaratib, isitish elementlarini shikastlamay tozalang. QIRMANG, qiradigan tozalagich ISHLATMANG – aks holda isitish elementlari shikastlanadi.

Orqani ko'rsatadigan ko'zgu: Sovunli suv bilan yuving. Qirib tozalaydigan vositalar yoki metall qirgich ISHLATMANG.

Plastik qismlar

Hamma plastik qismlar oddiy tozalash usullari bilan tozalanadi va ularga qirib tozalaydigan vositalar qo'llanmaydi. O'rnashib qolgan kir yoki dog'lar o'zimizda ishlab chiqariladigan plastikni tozalaydigan vositalar bilan tozalanadi.

Soz saqlash

Bo'yoq shikastlanishi

Antikorroziya kafolati buzilmasligi uchun bo'yoq shikastlanishi yoki uchgan tosh tegib ko'chgan joylar zudlik bilan mos keladigan bo'yoq/lak material bilan ishlanishi kerak.

Ob-havo tasmasi

Ob-havo tasmalari yoki rezina zichlagichlar to'g'ri keladigan material (silikon gel) bilan tozalanadi, agar ular kuchli vositalar bilan tozalansa, yopishib qolmasligiga e'tibor beriladi va zichlagich xizmat muddatini uzaytiradi.

G'ildiraklar



G'ildiraklar yuvilganda tormoz diskiga biror vosita yoki suv tegishi tormoz samarali ishlashiga bevosita ta'sir qiladi.

G'ildiraklar optimal holatda bo'lishi uchun ularni vaqtida tozalab turish lozim.

Faqat tavsiya qilingan, tarkibida kislotaga yo'q bo'lgan asl g'ildirak tozalash vositalaridan foydalaning. Ishlatishdan oldin, albatta, mahsulotdan foydalanish qo'llanmasini o'qib chiqing.

Ichkarini tozalash

Plastik materiallar

Plastik yuzali materiallarni suyuq qoplama tozalagich bilan tozalang.

Eslatma: asboblar panelidagi vositalarni tozalamang – ularga tegilmaydi.

To'shama va mato

Suyultirilgan qoplama tozalagich bilan tozalang – oldin ko'rinmaydigan joyini tozalab sinab ko'ring.

Charm

Charm qoplamaning iliq suv bilan va kir yuvish vositasi qo'shilmagan sovun bilan tozalang. Charmni quruq, toza va tuksiz mato bilan tozalang.

Eslatma: Tozalashga benzin, kir yuvadigan vosita, mebel kremi yoki yaltiratgich ishlatmang.

Asboblar paneli, Audio va Navigatsiya displeyi

Faqat quruq mato bilan artib tozalang. Tozalaydigan suyuqlik yoki sepgich ISHLATMANG.

Soz saqlash

Xavfsizlik yostig'i modulining qoplamasi



Bu joylarga suyuqlik **TEKKIZMANG**, tozalashga benzin, kir yuvadigan vositalar, mebel tozalagich yoki yaltiratgich **ISHLATMANG**.

Xavfsizlik yostig'i QSHT shikastlanmasligi uchun quyidagilar **FAQAT** nam mato hamda jild tozalagich bilan tozalanishi kerak:

- Rul chambaragi o'rtasidagi qoplama.
- Asboblarning panelining yo'lovchi xavfsizlik yostig'i turadigan qismi.
- Shiftning boshni yon tomondan kelgan zarbadan himoya qiladigan xavfsizlik yostig'i turadigan qismi.

Xavfsizlik kamarlari

Xavfsizlik kamarlarini oqartgich, rang yoki tozalaydigan suyuqlik bilan TOZALAMANG.

Xavfsizlik kamarlarini iliq suv va tarkibida kir yuvish moddasi bo'lmagan sovun bilan tozalang. Yuvilgan xavfsizlik kamarlari tabiiy qurisin; To'liq qurimaguncha ularni joyiga **TORTIB QO'YMANG** yoki ulardan **FOYDALANMANG**.

Texnik ma'lumot

Texnik ma'lumot O'lchami	204
Og'riligi	205
Motorning asosiy ko'rsatkichlari	206
Tavsiya qilinadigan suyuqliklar va Quvvati	207
To'rtta g'ildirakni tenglashtirish ko'rsatkichlari Jadval (Yuksiz)	208
G'ildirak va shinalar	208
Shina bosimi (Sovuq)	208

Texnik ma'lumot

Texnik ma'lumot ko'rsatkichlari



Birlik, nomi	Ko'rsatkichlari
Umumiy uzunligi A, mm	4610
Umumiy kengligi B, mm	1876
Umumiy balandligi (yuksiz), mm	1664 (kuzov bilan) 1685 (akula suzgichi bilan)
G'ildirak bazasi D, mm	2720
Old tomon osilishi E, mm	988
Ortki osilishi F, mm	902
Old g'ildiraklar oralig'i, mm	1574
Orqa g'ildiraklar oralig'i, mm	1593
Minimal yo'l kliransi (yukli), mm	145
Minimal burilish aylanasi diametri, m	11,9
Yoqilg'i bakining sig'imi, L	55

Eslatma: Avtomobil uzunligiga raqam belgisi qo'shilmagan.

Eslatma: Orqani ko'rsatadigan ko'zgu va shina devorining yerga tutashib turadigan joyi ustidagi chetga chiqib turadigan qismi umumiy kenglikka qo'shilmagan.

Avariyaali vaziyat to'g'risidagi ma'lumot

Og'irligi

Birlik, nomi	Ko'rsatkichlari	
	1.5T MT	1.5T DCT
Avtomobil ichidagi odamlar, odam	5	
Avtomobilning yuksiz og'irligi (kerb), kg	1513	1535
Avtomobilning umumiy og'irligi, kg	2001	2023
Old o'qning yuk tushmagan og'irligi, kg	886	903
Orqa o'qning yuk tushmagan og'irligi, kg	627	632
Old o'qning yuk tushgan og'irligi, kg	987	1009
Orqa o'qning yuk tushgan og'irligi, kg	1014	1014

Avariya vaziyat to'g'risidagi ma'lumot

Motorning asosiy ko'rsatkichlari

Birlik	Ko'rsatkichlari
	1.5T
Diametri x yurishi, mm x mm	74x86.6
Umumiy motor hajmi, L	1,490
Qisilish darajasi	11.5:1
Umumiy sof quvvati, kW	119
Sof quvvatdagi motor tezligi, daq/ayl	5500
Maksimal aylanish momenti, Nm	250
Maksimal aylanish momentidagi motor tezligi, ayl/daq	1500-4400
Bo'sh tezligi, ayl/daq	750
Yoqilg'i markasi, RON (O'rganilgan oktan miqdori)	RON 95 va undan yuqori etilganmagan benzin

Avariya vaziyat to'g'risidagi ma'lumot

Tavsiya qilingan suyuqlik turlari va hajmi

Nomi	Darajasi	Sig'imi	
		SCM250	DCT250
Motor moyi (sotilgandan so'ng almashtirganda), L	C5&SP 0W-20	4	
Motor sovitgichi	Glikol (OAT)	5,8	
Qo'shaloq birikkichli avtomatik transmissiya suyuqligi, L	Deksron DCT suyuqligi	-	2,45
Qo'l transmissiya suyuqligi, L	MTF94	2,2	-
Tormoz suyuqligi, L	DOT 4	0,8	
Oyna yuvadigan suyuqlik, L	ZY-VIII	2,5	
Konditsioner sovitgichi, g	R-1234yf	560±20	

Avariya vaziyat to'g'risidagi ma'lumot

To'rtta g'ildirakni tenglashtirish Shina bosimi (Sovuganda) ko'rsatkichlari jadvali (Yuksiz)

Birlik		Ko'rsatkichlari
Old g'ildirak	Og'ish burchagi	-14±45
	Kastor burchagi	4°57±45
	Yuqoridan qaragandagi burchagi (umumiy yuqoridan qaragandagi og'ish)	8±12
	Shkvoren og'ishi	12°45±45
Orqa g'ildirak	Og'ish burchagi	-60±45
	Yuqoridan qaragandagi burchagi (umumiy yuqoridan qaragandagi og'ish)	12±12

G'ildiraklar	Yuksiz
Old	230kPa/2.3bar/34psi
Orqada	230kPa/2.3bar/34psi
Zahira shina	420kPa/4.2bar/60psi

G'ildirak va shinalar

G'ildirak tegaragi o'lchami	7.5J×18	6.5J×17
Shina o'lchami	235/50 R18	215/60 R17

Zahira shina

G'ildirak tegaragi o'lchami	4B×16
Zahira shina o'lchami	T125/90 R16